Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratining muhim subyekti bo‘lib, demokratik jamiyatning ajralmas qismidir. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun ushbu institutning huquqiy asoslarini belgilab, OAVga nazorat funksiyasini yuklaydi, PF-21-son Farmon esa uni yangi bosqichga olib chiqadi. Mamlakatda erkin fuqarolik jamiyati va mustaqil jurnalistikani rivojlantirishga qaratilgan yondashuv yangilanmoqda. Biroq amaliyotda rasmiylikka moyillik, tahliliy materiallar yetishmasligi va tanqidiy chiqishlarning bosim vositasiga aylanish xavfi mavjud. Shu bois jurnalistik tekshiruvni keng joriy etish, jurnalistlar mustaqilligini ta’minlash va OAVning “to‘rtinchi hokimiyat” sifatidagi maqomini mustahkamlash zarur. Fuqarolik jamiyati rivoji sharoitida OAVga ishonchni oshirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga //“Xalq so‘zi” gazetasi, 2024-yil 27-iyun, №127 (8750).
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘RQ-474-sonli Qonuni //https://lex.uz/ru/docs/-3679092.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-21-sonli Farmoni //https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769.
4. Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratida matbuotning o‘rni //“Demokratlashtirish va inson huquqlari” ijtimoiy-ma’rifiy jurnal, № 2, 2006. B.40.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi 402–I-sonli Qonuni //https://lex.uz/docs/-9540
6. Mamatov X. Davlat idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari: amaliyot va uni yanada takomillashtirish masalalari //“Fuqarolik jamiyati” ilmiy amaliy jurnal, № 3, 2018. -B.36.

PEYZAJNING TARIXIY SHAKLLANISHI VA POETIK TALQINI

Karimova Dilnoza
O‘zbekiston Respublikasi, Urganch shahri, Urganch davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Adabiyotda tabiat tasviri – peyzaj badiiy tafakkurning muhim komponentlaridan biri sifatida qadimdan shakllanib kelgan estetik hodisadir. Peyzajning tarixiy evolyutsiyasi insonning borliqni anglash darajasi, uning tabiat bilan munosabati va estetik qarashlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Dastlabki bosqichlarda tabiat tasviri mifologik va kosmogonik qarashlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, keyinchalik u poetik tafakkurning mustaqil va chuqur semantik qatlamiga aylangan.

Sharq mumtoz adabiyotida peyzaj ko‘proq ramziy-estetik xarakter kasb etib, inson ruhiyati, hayot falsafasi va tasavvufiy g‘oyalar ifodasi uchun xizmat qilgan. Xususan, Alisher Navoiy ijodida “gulshan”, “bo‘ston”, “dahr bog‘i” kabi obrazlar orqali tabiat inson hayoti va borliq qonuniyatlarini anglash vositasiga aylanadi. Bu davrda peyzaj tashqi manzara emas, balki ichki ruhiy kechinmalarni ifodalovchi estetik kategoriya sifatida shakllanadi.

Peyzajning keyingi tarixiy rivojida, ayniqsa XX asr boshlarida, uning funksional doirasi kengayib, u inson va jamiyat muammolarini ifodalash vositasiga aylanadi. Cho‘lpon ijodida peyzaj yangi sifat bosqichiga ko‘tarilib, tabiat tasviri inson ruhiyati, millat taqdiri va erkinlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Bu jarayonda tabiat obrazlari jonlantiriladi, insonlashtiriladi va simvolik ma’no kasb etadi.

Masalan, Cho‘lpon poetikasida “barg”, “yaproq”, “kapalak” kabi timsollar nafaqat tabiiy hodisani ifodalaydi, balki hayotning davomiyligi, o‘tkinchiligi va yangilanish qonuniyatlarini anglatadi. Bu esa peyzajning oddiy tasviriy vositadan falsafiy umumlashma darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Demak, peyzaj evolyutsiyasi jarayonida u mimetik tasvirdan konseptual-badiiy tizimga aylangan.

Shuningdek, peyzajning tarixiy shakllanishida G‘arb falsafasi va estetik tafakkuri ham muhim rol o‘ynagan. Tabiat qonuniyatlarini anglash, uni jamiyat va inson hayoti bilan bog‘lash jarayoni falsafiy mushohada bilan uzviy aloqada kechgan. Shu bois poeziya va falsafa bir-birini to‘ldiruvchi ikki tizim sifatida tabiatni turlicha, ammo uyg‘un talqin etadi: biri obrazli, ikkinchisi konseptual yo‘sinda.

XX asr o‘zbek she’riyatida peyzajning yangicha talqini, ayniqsa, simvolizm ta’sirida yanada chuqurlashadi. Cho‘lpon tabiat obrazlari orqali inson erki, ozodlik, milliy uyg‘onish kabi g‘oyalarni ifodalaydi. Tabiat bu yerda shunchaki fon emas, balki faol badiiy subyektga aylanadi. Masalan, shamol, bulut, yaproq, suv kabi obrazlar orqali tarixiy davr ziddiyatlari, inson ruhiy iztiroblari va umid-intilishlari aks ettiriladi.

Bundan tashqari, peyzajning tarixiy rivojida uning funksional vazifalari ham kengayib borgan:

- dastlab dekorativ-estetik vazifa bajargan bo‘lsa;
- keyinchalik psixologik tasvir vositasiga aylangan;

- zamonaviy adabiyotda esa falsafiy, ijtimoiy va simvolik ma’nolarni ifodalovchi murakkab tizimga aylangan.

Shu jihatdan peyzaj – bu faqat tabiat manzarasi emas, balki insonning borliq bilan munosabatini ifodalovchi estetik modeldir. U orqali shoir borliq qonuniyatlarini anglaydi, hayotning o‘tkinchiligi va abadiyligi o‘rtasidagi ziddiyatni badiiy ifodalaydi.

Sirojiddin Sayyid “Söz yo‘li” she’rida tabiat tasviri an’anaviy peyzaj vazifasidan chiqib, chuqur psixologik va falsafiy mazmun kasb etadi. Shoir tabiatni tashqi fon sifatida emas, balki lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalovchi faol poetik tizim sifatida talqin etadi. Bu jihat she’rni zamonaviy o‘zbek lirikasidagi konseptual peyzaj namunalaridan biriga aylantiradi.

She’r boshida keltirilgan “zim-ziyo kechalar”, “siyohonlarim” kabi obrazlar qorong‘ulik motivi orqali ruhiy iztirob, yo‘qotish va izlanish holatini ifodalaydi. Bu yerda tun — nafaqat vaqt birligi, balki ruhiy holatning ramzi sifatida ishlatilgan. Tabiat unsuri (tun) inson qalbidagi iztirob bilan semantik uyg‘unlik hosil qiladi.

Keyingi misralarda:

“Yashil adirlarim tepa bo‘ldilar,

Qirlarim enkayib kapa bo‘ldilar”

- degan satrlar orqali tabiat deformatsiyaga uchragan holatda tasvirlanadi. Bu o‘zgarish real geografik manzara emas, balki subyektiv idrok mahsuli bo‘lib, lirik qahramonning ichki ruhiy iztiroblari natijasida borliqning buzilgan aksidir. Demak, peyzaj bu yerda psixologik transformatsiya vositasiga aylanadi.

She’rda qishloq hayotiga xos detallar - “loyshuvoq uy”, “yog‘och so‘ri”, “tandir” kabi obrazlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular oddiy predmet emas, balki milliy xotira va bolalik, ildiz, ona makon timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, tandir obrazi ona, uy, mehr va issiqlik bilan bog‘liq arxaik ramziy ma’noga ega. Shoirning:

“Borib bag‘rim ochay tandir qo‘riga”

deyishi tabiat va inson o‘rtasidagi qadimiy rishtalarning tiklanish istagini bildiradi.

She’rda daraxt va o‘simlik obrazlari ham muhim poetik yuklama olgan:

“O‘riklar bahorda gulini to‘kkanday”

Bu o‘xshatish orqali hayotning o‘tkinchiligi, gullash va so‘lish qonuniyati ochib beriladi. Tabiatdagi fasliy o‘zgarish inson hayoti bilan parallel qo‘yilib, falsafiy umumlashma hosil qilinadi. Xuddi shu ma’no:

“O‘tinlar o‘choqda kulin to‘kkanday”

misrasida yanada keskinroq, fojiaviyroq ohangda ifodalanadi. Bu yerda tabiat obrazlari inson taqdirining ramziy ifodasiga aylanadi. She’r markazida turgan asosiy konseptual obraz — “so‘z yo‘li”dir. Shoir uni:

“Bu — to‘kilish yo‘li, kuzning yo‘lidir”

- deya tabiatdagi “kuz” fasli bilan bog‘laydi. Ma’lumki, kuz — xazon, so‘lish, yakun bosqichi timsoli. Demak, “so‘z yo‘li” ijod jarayonining og‘irligi, ruhiy qurbonlik va iztiroblar orqali yuzaga kelishini ifodalovchi murakkab

metaforik obrazdir. Bu yerda peyzaj (kuz) bevosita poetik ijod falsafasiga xizmat qiladi.

Shuningdek, she’rda vaqt va makon kategoriyalari ham tabiat orqali beriladi. “Qirlar”, “adirlar”, “yo‘llar” kabi makon obrazlari lirik qahramonning ruhiy safarini ifodalasa, “bahor”, “kuz” singari fasliy belgilar vaqtning o‘tkinchiligi va hayot siklini anglatadi.

She’r yakunidagi sog‘inch, hijron va iztirob ohangi tabiat tasvirlari bilan yanada chuqurlashtiriladi: tabiat — bu yerda xotira, sog‘inch va yo‘qotilgan vaqtning ramziga aylanadi. Lirik qahramon tabiat orqali o‘z o‘tmishi bilan muloqot qiladi, o‘zligini anglashga urinadi.

Umuman olganda, peyzajning tarixiy shakllanishi inson tafakkurining evolyutsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u mifologik tasavvurlardan tortib, falsafiy-estetik umumlashmalar darajasigacha bo‘lgan murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida esa peyzaj inson ruhiyati, milliy ong va estetik idealni ifodalovchi yetakchi poetik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripova G, Ibrohimova G. Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklar // Inertational scientific journal of Biruni. Oct. 2022;
2. Abdulhamidova H., Saminjonova M. Mustaqillik davri she’riyatida milliy detallarning ifodalanishi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. November;
3. Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari // “O‘zbek adabiyotining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. – Navoiy, 2023;
4. Jabborov N. Men she’r aytsam, bu hayot yana sha’n hayot bo‘lgay... // O‘z AS, 2023. № 42

“TIL, TAFAKKUR VA MADANIYAT” UCHLIGI DOIRASIDA “ODAM” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Karimxodjaeva Dilafruz
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri, Qoraqalpoq davlat universiteti

Tilshunoslikning zamonaviy antropotsentrik paradigmasida til nafaqat axborot almashish vositasi, balki milliy madaniyat va tafakkur tarzini saqlovchi “kognitiv xazina” sifatida talqin etiladi. “Odam” konsepti esa ushbu xazinaning markaziy qismi, ya’ni lisoniy olam manzarasining yadrosini tashkil etadi. Inson o‘zini qurshab turgan dunyoni o‘z idroki va tana o‘lchovlari orqali baholaydi [Lakoff, Johnson; 45].

Har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi va olamni anglash tamoyillari uning tilida muhrlanadi. Anna Vejbitskayaning “madaniy ssenariylar” (Cultural Scripts) nazariyasiga ko‘ra, universal tushunchalar milliy tillarda o‘sha xalqning qadriyatlar tizimidan kelib chiqib turlicha interpretatsiya qilinadi [Wierzbicka; 112].

“Odam” konseptining Sharq va G‘arb lingvomadaniyatlaridagi farqi quyidagi jihatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

O‘zbek madaniyatida “Odam” ma’naviy-axloqiy kategoriya sifatida o‘rganadigan bo‘lsak, bu tushuncha shunchaki biologik turni anglatuvchi leksik birlik bo‘lmay, balki jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me’yorlar yig‘indisini ifodalaydi.

- *Komillik ssenariysi:* O‘zbek mentalitetida “odam bo‘lish” tushunchasi bevosita ilm olish, andishali bo‘lish va ma’naviy kamolot bilan bog‘lanadi. Agarda shaxs ijtimoiy-axloqiy me’yorlardan chetga chiqsa, tilimizda “U hali odam bo‘lmabdi” kabi frazeologik birikmalarning qo‘llanilishi konseptning baholovchi xarakterini ko‘rsatadi [Вежбицкая; 205].
- *Jamoaviylik (Kollektivizm):* O‘zbek tilshunosligida inson har doim ijtimoiy munosabatlar zanjirida ko‘riladi. Shaxsning qiymati uning individual yutuqlari bilan emas, balki oila va mahalla oldidagi mas’uliyati bilan o‘lchanadi.
- *Milliy-lisoniy birliklar:* Faqat ushbu madaniyatga xos bo‘lgan *“odamgarchilik”, “odamshavanda”, “odamoxun”* kabi so‘zlar insonning ijtimoiy fazilatlarini ifodalovchi lingvokulturemalardir.

G‘arb madaniyatida “Person/Individual” huquqiy va mustaqil kategoriya sifatida ingliz tili va g‘arb madaniyatida inson konsepti shaxsning avtonomligiga (mustaqilligiga) urg‘u beradi.

- *Privacy (Shaxsiy daxlsizlik):* G‘arb tafakkurida odam o‘z chegaralariga ega bo‘lgan, shaxsiy makoni va huquqlari muqaddas hisoblangan subyektdir. Bu lisoniy manzarada shaxsning jamiyatdan ajralgan holdagi “men”ligi birlamchi hisoblanadi [Wierzbicka; 218].
- *Muvaffaqiyat ssenariysi:* Ingliz tilidagi *“A self-made man”* (o‘z-o‘zini shakllantirgan odam) tushunchasi G‘arb madaniyatida insonning jamoaga tayanmagan holda, o‘z kuchi bilan muvaffaqiyatga erishishini ulug‘laydi.
- *Lisoniy farqlanish:* Ingliz tilida “Being a human” (biologik tur) va “Being a person” (ijtimoiy-huquqiy maqom) o‘rtasidagi chegara o‘zbek tiliga qaraganda aniqroq differensiatsiyalashgan.

Konsept murakkab mental tuzilma bo‘lib, u kognitiv tilshunoslikda uchta asosiy komponentdan tashkil topadi [Степанов; 40]:

1. Yadro (Tushunchaviy qatlam). Bu konseptning lug‘aviy ma’nosi bo‘lib, barcha so‘zlovchilar uchun umumiy bo‘lgan eng asosiy belgilarni (denotativ ma’no) o‘z ichiga oladi. Bunga insonning ongliligi, nutq qobiliyati va ijtimoiy mavjudot ekanligi kabi universal belgilar kiradi. Tadqiqotda ushbu qatlam izohli lug‘atlardagi definitsiyalarni qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlanadi.

2. Kognitiv-metaforik qatlam (Obrazli qatlam). Inson tafakkurida “Odam” konseptining qanday obrazlar orqali idrok etilishini ko‘rsatadi. J.Lakoff va M.Jonson nazariyasiga ko‘ra, inson olamni o‘z tanasi va hayotiy tajribasi orqali metaforizatsiya qiladi [Lakoff, Johnson; 89]:

- Inson- o‘simlik: “Umr daraxti”, “hayot bahori”, “keksalik — umr kuzi”.
- Inson- bino: “Qalb imorati”, “ko‘ngil uyi”, “xarakter poydevori”.
- Inson- idish: “Sabr kosasi”, “bag‘ri keng”, “ichidagini topish”.

3. Interpretativ qatlam (Baholovchi va qadriyatli qatlam). Bu konseptning eng chuqur madaniy qatlami bo‘lib, unda millatning insonga bergan subyektiv bahosi va stereotiplari jamlanadi:

- Paremiologik tahlil: Maqollarda insonning ijtimoiy qadri aks etadi (masalan, “Odam odamdan qadr topadi”).
- Assotsiativ maydon: Psixolingvistik tajribalar davomida respondentlar tomonidan beriladigan “vafodor”, “vijdonli”, “mehnatkash” kabi assotsiatsiyalar konseptning milliy-madaniy qobig‘ini tashkil etadi.

Shunday qilib, “Odam” konsepti til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro kesishuv nuqtasi bo‘lib, uning strukturaviy tahlili milliy lisoniy olam manzarasining o‘ziga xosligini ochib berishga xizmat qiladi.

Konsept murakkab mental tuzilma bo‘lib, uni tadqiq etishda bir necha qatlamlarni farqlash lozim. S.Askoldov va Yu.Stepanov kabi olimlarning nazariyasiga ko‘ra, konsept tuzilishi uch komponentdan iborat [Степанов; 40-42]:

1. Tushunchaviy qatlam (Yadro): Bu qatlamda “odam” so‘zining barcha so‘zlovchilar uchun umumiy bo‘lgan lug‘aviy ma’nolari jamlanadi. Bu yerda insonning ongli mavjudot ekanligi, nutqiy qobiliyati va biologik belgilari aks etadi.

2. Obrazli-metaforik qatlam: Inson tafakkuri asosan metaforik xarakterga ega. Biz dunyoni o‘z tanamiz orqali anglaymiz (Embodiment). Masalan, o‘zbek va boshqa ko‘plab tillarda inson hayoti “yo‘l” metaforasi orqali ifodalanadi (“hayot yo‘li”, “yo‘ldan adashish”). Shuningdek, somatik metaforalar (tana a’zolari bilan bog‘liq ko‘chimlar) konseptning obrazli qatlamini boyitadi: “bag‘ri keng”, “yuzi yorug‘”, “qo‘li ochiq” [Lakoff, Johnson; 89].

3. Qadriyatli (Interpretativ) qatlam: Bu konseptning eng chuqur, “madaniy kod” yashiringan qismidir. Bu yerda xalqning insonga bo‘lgan subyektiv munosabati, maqollar, hikmatli so‘zlar va diniy-falsafiy qarashlar jamlanadi. Masalan, o‘zbek paremiologiyasidagi “Odam odamdan qadr topadi” maqoli konseptning qadriyatli qatlamidagi ijtimoiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi [Степанов; 76].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 242 p.
2. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. — М.: Академический проект, 2004. — 992 с.Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. — Oxford University Press, 1992. — 487 p.
3. Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов / Пер. s angl. А. Д. Шмелева. — М.: Языки славянской культуры, 2001. — 288 с.

EKOLOGIK BORLIQ TIZIMLILIGINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Nogaibaev Iqlas Almagambetovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi o‘qituvchisi

Zamonaviy ekologik vaziyat antropogen faoliyat tufayli misli ko‘rilmagan beqarorlik bilan tavsiflanadi. Aholi sonining o‘sishi, sanoatlashuv, qishloq xo‘jaligining intensivlashuvi va urbanizatsiya, iqlim o‘zgarishi, ekotizimlarning yemirilishi, tabiiy resurslarining kamayishi va atrof-muhit ifloslanishi kabi global ekologik inqirozlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bu jarayonlar ekologik borliqning tizimlilik asoslariga putur yetkazadi, uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni buzadi.

Iqlim o‘zgarishi hozirgi davrning eng dolzarb muammolardan biridir. Issiqxona gazlari chiqindilarining ko‘payishi natijasida yuzaga kelgan global isish ob-havo o‘zgarishiga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga va muzliklarning erishiga olib kelmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat iqlim tizimlariga, balki biologik jamoalarga ham ta’sir ko‘rsatib, turlar migratsiyasidagi o‘zgarishlarni, yashash joylarining qisqarishini va ekotizim aloqalarining buzilishini keltirib chiqaradi[1,76]. Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari va resurslarni qazib olish uchun o‘rmonlarni jadal kesish natijasida yuzaga keladigan deforestatsiya biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga va tabiiy sikllarning buzilishiga olib keladi. O‘rmonlar biosferaning barqarorligini saqlashda asosiy rol o‘ynaydi, ular karbonat angidrid gazini yutish va suv muvozanatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Ularning yo‘q qilinishi ekotizimlarning barqarorligiga tahdid solib, murakkab trofik tarmoqlarni buzadi[2,253].

Yana bir global muammo – tabiiy resurslarning kamayib ketishidir. Qazib olinadigan yoqilg‘i, chuchuk suv, nodir metallar va boshqa tiklanmaydigan resurslar iste’molining o‘sishi ekotizimlar holatining yomonlashishiga olib kelmoqda. Asosiy resurslarning tugashi iqtisodiyot barqarorligi va insoniyat xavfsizligiga tahdid soladi, ijtimoiy va geosiyosiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Ekotizimlardagi tizimli aloqalarning uzilishi. Zamonaviy ekologik inqirozlar nafaqat tabiiy tizimlarning barqarorligiga tahdid soladi, balki ularning ichki tuzilishining jiddiy buzilishiga olib keladi. Ekotizimlardagi tizimli aloqalarning uzilishi antropogen omillarning kuchli ta’siri natijasida murakkab tabiiy mexanizmlarning beqarorlashuviga olib keladi. Ekologik aloqalar uzilishining asosiy omillaridan biri bioxilma-xillikning yo‘qolishidir. So‘nggi o‘n yilliklarda tabiiy yashash joylarining buzilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va invaziv turlarning tarqalishi tufayli turlarning ommaviy yo‘q bo‘lib ketishi kuzatilmoqda. Oziq zanjiridagi bir yoki bir nechta bo‘g‘inlarning yo‘qolishi butun ekotizimga ta’sir qiluvchi kaskadli ta’sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, yirtqichlarning yo‘qolishi o‘txo‘r hayvonlar pupulyatsiyasining nazoratsiz o‘sishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida o‘simlik jamoalarining degradatsiyasiga olib keladi[3,256].

Ekotizimlardagi tizimli aloqalarning uzilishi nafaqat tabiatga, balki insoniyat jamiyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadigan oqibatlarning to‘planishiga olib keladi. Bu jarayonlar insonning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirining yangi konsepsiyalarini ishlab chiqish uchun zudlik bilan falsafiy va ilmiy fikrlashni talab qiladi. Shu munosabat bilan nafaqat mavjud yondashuvlarni o‘rganish, balki jamiyat va tabiiy tizimlar o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishga qodir bo‘lgan istiqbolli yechimlarni taklif etish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гор М. Неудобная правда. Нью-Йорк: Rodale Books, 2006. – 76 p.
2. Мейер У. Б. Влияние человека на Землю / пер. с англ. – Кембридж: Cambridge University Press, 1996. – 253 с.
3. Уилсон Э.О. Будущее жизни / пер. с англ. – М.: АСТ, 2003. – 256 с.

XALQ OG‘ZAKI IJODINING ADABIY JARAYONDAGI O‘RNI VA NAZARIY ASOSLARI

O‘rimbetova Laura
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Xalq og‘zaki ijodi (folklor) – insoniyat badiiy tafakkurining eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri bo‘lib, u milliy madaniyat va adabiyot taraqqiyotining genetik asosi hisoblanadi. Folklor o‘zining sinkretik tabiati, ya’ni unda estetik, axloqiy, falsafiy va ijtimoiy qarashlarning uyg‘unlashganligi bilan ajralib turadi. Shu bois Maksim Gorkiy ta’biri bilan aytganda, xalq “birinchi shoir va birinchi faylasuf” sifatida badiiy tafakkurning ibtidoiy, ammo mukammal namunalarini yaratgan.

Nazariy jihatdan folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi munosabat “genetik aloqa” va “tipologik o‘xshashlik” kategoriyalari orqali izohlanadi. Folklor – yozma adabiyot uchun dastlabki model, motiv va syujetlar manbai bo‘lsa, yozma adabiyot esa ushbu materialni qayta ishlash, individuallashtirish va estetik jihatdan takomillashtirish orqali yangi badiiy sifat bosqichiga ko‘taradi. Shu ma’noda jahon adabiyotidagi ko‘plab universal obrazlar aynan folklor zaminida shakllangan.

O‘zbek adabiyoti tarixida ham bu qonuniyat yaqqol namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy ning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlarida folklor motivlari, xalqona obrazlar va arxaik syujet elementlari badiiy jihatdan qayta ishlanib, yuqori estetik darajaga ko‘tarilgan. Bu esa folklorning yozma adabiyotdagi transformatsion imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ma’rifatparvarlik adabiyotida folklorning ta’siri ayniqsa kuchayadi. Bu davrda ijtimoiy ongning uyg‘onishi, xalq hayotiga yaqinlashish tendensiyasi yozuvchilarni xalq og‘zaki ijodi manbalariga murojaat etishga undadi. Ayniqsa, satira janrining rivojida folklor hal qiluvchi rol o‘ynadi.

O‘zbek folklorida hajviylik alohida qatlamni tashkil etib, u ertak, latifa, maqol, lapar kabi janrlarga chuqur singib ketgan. Xalq tomonidan yaratilgan

Nasriddin Afandi, Aldar Ko‘sa, Kal kabi obrazlar ijtimoiy adolatsizlikni fosh etuvchi satirik tiplar sifatida shakllangan. Bu obrazlar orqali xalq o‘zining ijtimoiy noroziligini, adolat va haqiqat haqidagi idealini ifodalagan.

Ma’rifatparvar shoirlar ana shu boy hajviy an’analarni ijodiy o‘zlashtirib, yangi badiiy shakl va mazmun bilan boyitdilar. Muqimiy, Zavqiy, Furqat ijodida folklor hajviyligi yozma satira bilan sintezlashib, ijtimoiy tanqidning kuchli vositasiga aylandi. Masalan, Muqimiyning “Tanobchilar”, “Asrorqul” kabi asarlarida xalqona iboralar, maqollar va askiyachilik elementlari badiiy tizimning muhim komponentiga aylangan.

Folklorning adabiyotga ta’siri faqat mazmuniy darajada emas, balki til va uslub tizimida ham namoyon bo‘ladi. Xalq maqollari, matallari, iboralari yozma adabiyotda stilistik vosita sifatida qo‘llanilib, nutqning obrazliligi, lo‘ndaligi va ta’sirchanligini oshiradi. Bu hodisa adabiyotshunoslikda “xalqona stilizatsiya” deb ataladi.

Shuningdek, folklor poetikasining muhim unsurlaridan biri bo‘lgan musiqiylik va ritm ham ma’rifatparvarlar lirikasida davom ettirilgan. Xalq qo‘shiqlari strukturasiga yaqinlashish, sodda va ravon til, takror va parallelizm kabi poetik vositalar orqali yozma she’riyat xalqchil tus oladi. Shu sababli Muqimiy va Furqat g‘azallari xalq orasida keng tarqalib, qo‘shiq sifatida kuylangan.

Nazariy jihatdan qaraganda, folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi munosabat uch bosqichda namoyon bo‘ladi:

1. **O‘zlashtirish bosqichi** – folklor materiallari bevosita qabul qilinadi;
2. **Transformatsiya bosqichi** – ular individual ijodkor tafakkuri orqali qayta ishlanadi;
3. **Sintez bosqichi** – folklor va yozma adabiyot elementlari yangi badiiy tizim hosil qiladi.

Ma’rifatparvarlik adabiyoti aynan uchinchi bosqich mahsuli sifatida baholanishi mumkin. Chunki bu davrda xalq og‘zaki ijodining g‘oyaviy boyligi – ijtimoiy adolat, erkinlik, haqiqat uchun kurash motivlari yozma adabiyotning markaziy g‘oyasiga aylanadi.

Xalq og‘zaki ijodi yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida quyidagi asosiy funksiyalarni bajargan:

- **Genetik manba** – syujet, obraz va motivlar bazasini yaratgan;
- **Estetik model** – badiiy tafakkur uchun tayanch vazifasini bajargan;
- **Til va uslub manbai** – xalqona ifoda, maqol va iboralar orqali adabiy tilni boyitgan;
- **G‘oyaviy asos** – ijtimoiy tanqid va xalq manfaatlarini ifodalashga xizmat qilgan.

Demak, folklor – bu nafaqat o‘tmish merosi, balki adabiyotning doimiy rivojlanish manbai bo‘lib, u yozma adabiyotning g‘oyaviy-estetik takomilida hal qiluvchi omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi.T:. 2018
2.Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Monografiya. T.: O‘qituvchi,1996, 192 bet.

3. Yo‘ldoshev Q. Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent.: Kamalak,2016, 462 bet.

JADIDLAR TA’LIMOTIDA BARKAMOL INSON VA MILLIY O‘ZLIK MASALASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

Poziljonov Javohirbek Qosimbek o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har bir millatning o‘z taraqqiyoti cho‘qqisiga ko‘tarilishi aniq intellektual va ma’naviy uyg’onish jarayonlari bilan bog’liq baholash ko‘ramiz. XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati jismoniy hududiy islohotchilik, balki o‘z nuqtai nazariga ko‘ra fundamental ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar o‘rta asrlarga xos bo‘lgan turg’un va sxolastik tafakkur tarzini tanqidiy tahlil qilib, zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan “yangi inson” va “ozod millat” modelini yaratishni maqsad qildilar.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini aniqlash strategik maqsad qilib qo‘yilgan bir davrda, jadidlar merosini ijtimoiy-falsafiy qayta tiklash ob’ektiv zaruriyatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimiz bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida etibor qaratishimiz kerak»[1]. Negaki, buyuk alloma va jadidlarning barkamol inson va milliy o‘zlik haqidagi ta’limoti bugungi milliy g’oyamizning genezisini va intellektual poydevorini tashkil etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi - jadidlar falsafasining markazida turuvchi shaxsiy kamoloti va identifikatsiya masalalarini ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida milliy tahlil qilish, hujjat o‘zaro dialektik aloqadorligini ochib berishdan iborat.

Jadidlar falsafasida “barkamol inson” tushunchasi klassik Sharq falsafasidagi “soni komil” konsultatsiyasining zamonaviy talqini sifatida keldi. Lekin, jadidlar bu tushunchani metafizik va tasavvufiy doiradan chiqarib, uni ijtimoiy-praxeologik mazmun bilan boyitdilar. Ular uchun barkamol inson rivojlanishi ruhiy poklangan zohid emas, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etuvchi, dunyoviy ilmlarni egallagan va millat qayg’usi bilan yashovchi shaxsdir.

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari bugi fundamental falsafiy manba bo‘lib, unda inson kamoloti yaxlit bir tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Avloniy insonni tarbiyalovchi shakllanuvchi dinamik hodisa deb biladi: “Tarbiya bizlar uchun hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”[2]. Ush iqtibos jadidlar falsafasining ontologik asosini ifodalaydi: inson o‘z tarbiyasi va ilmi orqali o‘z borlig’ini (mavjudligini) ta’minlash.

Avloniy barkamollikni to‘rt bosqichli yaxlitlikda - *jismoniy, fikriy, axloqiy* va *ruhiy tarbiya* birligida ko‘radi. Uning “Fikr tarbiyasi” haqidagi qarashlari

gnoseologik kasallikka ega. U aql va tafakkurni insonning eng oliy ne'mati deb bilar ekan, fikrning aniqligi va chuqurligi insonning ijtimoiy manbani belgilovchi menzon ta'kidlaydi. Jadidlar talqinida aql - bu boshqa mantiqiy qurollar chiqarish emas, balki jamiyatning holatidan chiqish yo'lini topuvchi "ijtimoiy qurol"dir.

Abdurauf Fitrat esa barkamol insoniyatini millatning umumiy foydalanish va qudrati bilan bog'laydi. Uning "Rahbari najot" asarida insonning ruhiy va ruhiy holati jamiyatning umumiy holati bilan deterministik (sabab-oqibatli) bog'liqlikda tahlil qilish. Fitrat yozadi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu millatning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Har bir intizom esa shaxsiy tarbiya mevasidir"[3]. Bu yerda biz jadidlar falsafasining mikro va makro tekshirish bog'liqligini ko'ramiz: barkamol shaxs - barkamol jamiyatning garovidir.

Jadidlarning "barkamol inson" antroposentrik xarakterga ega bo'lib, u insonga o'z taqdirini o'zi shaxs sifatida huquqini beradi. Bu esa o'sha davrda hukm surgan "taqdirga tan berish" (fatalizm) falsafasiga qarshi ulkan intellektual isyon edi. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, *dunyo imorati faqat ilm bilan quriladi, ilmsizlik esa millatni xorlik va mustamlakachilik kishanlariga mahkum etadi*[4]. Behbudiyning "Padarkush" dramasida ham bilimsizlik va ma'naviy qashshoqlikning inson fojiasiga sabab bo'lishi falsafiy mushohada qurish.

Milliy o'zlik masalasi jadidlar falsafasining strategik yo'nalishi bo'lib, u Turkiston xalqlarining "biz kimmiz?" degan savolga javob izlash jarayoni bilan bog'liqdir. Jadidlar milliy o'zlikni anglashni uchta fundamental ustun - Til, Din va Tarixiy xotira asosida qurishni taklif qildilar.

Birinchidan, til – milliy mavjudlikning ontologik asosi sifatida. Jadidlar falsafasida til orqali aloqa vositasi emas, balki millatning ruhi va uning borlig' saqlab turuvchi asosiy substansiyadir.Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" g'oyasi milliy o'zlikni saqlab qolgan holda jahon tamadduniga integratsiyalashuvning falsafiy asosi edi. U "Til yashasa - millat Yashar" yashani oldin surdi[5]. Falsafiy yordam til - bu dunyoni talqin qilish usulidir. Agar millat o'z tilini yo'qotsa, u dunyoni o'zgalar ko'zi bilan ko'ra halok va o'zligidan mahrum bo'ladi.

Ikkinchidan, tarixiy xotira va milliy g'urur. Jadidlar milliy o'zlikni tiklash uchun tarixiy xotirani uyg'otish zarurligini anglab yetgan edilar. Fitratning "Munozara" va "Hind sayyohi bayoni" asarlarida Turkistonning buyuk o'tmishi bilan ayanchli hozirgi kuni qarama-qarshi qo'yiladi. Bu tahlildan maqsad millatda o'z ahvolidan uyalish va uni o'zini tanish intilish hissini uyg'otish edi. Naim Karimov ta'kidlaganidek: *"Jadidlar uchun tarixi o'tmish voqealari bayoni emas, balki millatni uyg'otuvchi ma'naviy quvvat manbai edi"*[6].

Uchinchidan, dinning ijtimoiy-falsafiy talqini. Jadidlar islom dinini milliy o'zlikning ajralmas qismi deb bilishgan, biroq ular dindagi xurofot va jaholatga qarshi chiqdilar. Ular "Haqiqiy islom - taraqqiyot dinidir" degan g'oyani oldindan surdilar. Bu zamonaviy milliy o'zlikni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish berdi. Ular dinni shaxsiy e'tiqod va axloqiy poklik manbai sifatida saqlangan holda, ijtimoiy hayotni dunyoviy jarayonlar va ilm-fan qurish qurishni taklif qildilar. Bu esa islom falsafasidagi "ijod" va "ijtihod" an'analarining qayta tiklanishi edi.

Jadidlar falsafasida milliy o‘zlik - bu statik barqaror emas, balki barqaror rivojlanishdagi jarayondir. Ular millatni umumiy til va dinga ega bo‘lgan odamlar to‘dasi emas, balki umumiy maqsad va ijtimoiy-siyosiy ong atrofida birlashgan sub’ekt sifatida ko‘rdilar. Munavvar Qori Abdurashidxonov yozadi: *“Millatning baxt-saodati ittifoqi va birligiga bog’liqdir. Birlik esa bilim va ma’rifat orqali keladi”*[7].

Jadidlar jamiyat taraqqiyotini jarayoniy jarayon emas, balki stressli va deterministik hodisa deb bildilar. Ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida “sabab” va “oqibat” paydo bo‘lishi muhim o‘rin tutadi. Turkistonning mustamlakaga kelishi va xalqning qashshoqlashuvini ular ilmsizlik va ichki nizolarning stress oqibati deb bildilar.

Shu sababli, jadidlar “Haq olinur, berilmas!” degan joyini surdilar. Bu holatda siyosat shior emas, balki inson irodasi va hurligi haqidagi falsafiy tasdiqdir. Barkamol inson - bu o‘z haq-huquqini taniydigan, uni himoya qiladigan qodir bo‘lgan ozod shaxsdir. Cho‘lponning “Kishan kiyma, bo‘yin egma, ki sen ham hur tug’ilg’onsen!”[8] degan satrlari milliy o‘zlikning va insoniy qadr-qimmatning falsafiy manifestiga aylandi. Bu yerda liberty insonning ontologik maqomi sifatida ta’riflanadi.

Jadidlar falsafasida ijtimoiy adolat va tenglik masalasi ham alohida ega. Ular huquqlarini himoya qilish, ularga bilim berish masalasini milliy taraqqiyotning sharti deb bildilar. Fitrat o‘zining “Oila” asarida ayol kishining jamiyatdagi mavqei va uning barkamol avlod tarbiyasidagi rolini falsafiy asoslab beradi. Uning fikricha, onasi bilimsiz bo‘lgan millatning kelajagi yo‘q. Bu tashkilot Sharq ijtimoiy tafakkurida ayolga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishga qaror qildi.

Jadidlar, iqtisodiy mustaqillikni milliy o‘zlikning moddiy asosi sifatida ko‘rdilar. “Turan” jamiyati va boshqa tijorat birlashmalari orqali ular milliy burjuaziyani boshqarishni maqsad qildilar. Ularning falsafiy zarariga ko‘ra, iqtisodiy jihatdan qaram bo‘lgan shaxs yoki millat hech qachon ma’naviy xavfsiz ozod bo‘la olmaydi. Iqtisodiy taraqqiyot - barkamol insonning o‘z potentsialini qurishi uchun zarur bo‘lgan makondir.

Jadidlar tizimida aksiologik transformatsiya yuz berdi. An’anaviy jamiyatda amal qilgan “nasl-nasab”, “boylik” yoki “mansab” kabi qadriyatlar o‘rniga “Ilm”, “Mehnat”, “Millat sevgisi” va “Adolat” kabi qadriyatlar birinchi o‘ringa chiqdi. Jadidlar nazdida, insonning jamiyatdagi o‘rni uning nasli bilan emas, balki uning jamiyatga keltirgan foydasi va ma’rifiy darajasi bilan o‘lchanishi kerak edi. Bu esa ijtimoiy tabaqalanishning demokratik va progressiv modelini tuzatishga urinish edi.

Jadidlar ta’limotini bugungi kun prizmasidan tahlil qilar ekanmiz, hujjat qarashlari globallashuv bilan milliy o‘zlikni saqlab qolish uchun eng to‘g’ri strategik yo‘nalish masalalariga amin bo‘lamiz. Bugun biz intilayotgan barkamol avlod g’oyasi jadidlar poydevori qo‘yilgan “Yangi inson” konsultatsiyasining mantiqiy davom etadi.

Jadidlarlsafasining zamonaviy axamiyati ustunligida namoyon bo‘ladi:

1. **Modernizatsiya va an’ana sintezi:** Jadidlar G’arb texnologiyalari va ilm-fanini qabul qilishda milliy o‘zlikdan voz kechmas modelini yaratdilar. Bu

bugungi kunda “milliy mentalitetni saqlagan holda modernizatsiya qilish” strategiyasining falsafiy asosidir.

2. **Kognitiv inqilob:** Jadidlar ta’limotining asosi - tafakkurni o‘ tugmadir. Bugungi axborotlashgan jamiyatda tanqidiy fikrlash, tahliliy va doimiy o‘rganish ko‘rinishini jadidlar oldingi surgan “fikr tarbiyasi”ning zamonaviy ko‘rinishidir.

3. **Ijtimoiy masala:** Barkamol inson - bu nafaqat o‘z shaxsiy manfaati, balki jamoa, millat va davlat manfaati uchun qayg’uradigan shaxsdir. Jadidlar hayoti va faoliyati bu yoshlar uchun yuksak axloqiy namuna bo‘lib xizmat qiladi.

4. **Milliy g’oya va vatanparvarlik:** Jadidlar uchun Vatan - bu joy geografik hudud emas, balki muqaddas ma’naviy makondir. Ularning “Va sajdagoh kabi muqaddasdir” degan qarashi ma hozirgi milliy istiqlol mafkurasining asosini tashkil etadi.

Dilorom Alimova o‘zining ustida ta’kidlaganidek, *jadidchilik harakati Turkiston xalqlarini o‘rta asrlar jaholatidan olib chiqib, zamonaviy dunyo sahnasiga olib chiqqan eng buyuk intellektual harakatdir*[9]. Ularning g’oyalari mustabid sho‘ro tuzumi hozir jismonan yo‘q qilingan bo‘lsa-da, ma’naviy xalq xotirasida saqlab qolgan va mustaqillik yillarida qayta jonlandi.

Jadidlar ta’limotida barkamol inson va milliy o‘zlik masalasining ijtimoiy-falsafiy talqini shuni ko‘rsatadiki, bu harakat milliy ta’lim tarixida tub burilish yasadi. Jadidlar insonni dunyoning markaziga olib chiqdilar va uning kamolotini jamiyat taraqqiyotining yagona sharti sifatida belgilandilar.

Ularning falsafiy merosi muhim muammolarni beradi:

- Inson kamoloti - diniy va dunyoviy bilimlarning, axloqiy poklik va ijtimoiy faollikning sintezidir.
- Milliy o‘zlikni anglash - til, tarix va dinni asrash bilan birga, zamon bilan hamnafas bo‘lish, ilm-fan cho‘qqilarini egallash demakdir.
- Ozodlik va hurlik - bilim orqali erishiladigan ontologik maqomdir.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ostida qurilgan surilgan g’oyalar bugungi kunda yangi O‘zbekistonni barpo etishda, uchinchi Renessans poydevorini qurishda ma’naviy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlar merosini chuqur o‘rganish va sud “Barkamol inson” konsepsiyasini yoshlar oniga singdirish millatimizning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashining kafolatidir. Biz jadidlar orzu qilgan ozod va farovon vatanda yashar ekanmiz, hujjat ma’rifiy an’analarini yangi bosqichga ko‘tarish - ham qarzimiz, ham farzimizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojotnomasi, Xalq so’zi 2018 yil 29 dekabr, №271-272 (7229-7230) B,3
2. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – B. 12.*(Tarbiya va uning ahamiyati haqidagi asosiy iqtibos uchun).*
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Ma’naviyat, 2000. – B. 115.*(Millat saodati va shaxsiy tarbiya bog’ligi uchun).*
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2006. – B. 74.*(Ilm va dunyo imorati haqidagi fikrlar uchun).*
5. Behbudiy M. "Ikki emas, to‘rt til lozim" maqolasi // "Oyna" jurnali, 1913 yil, 1-son.*(Til siyosati va milliy identifikatsiya qilish uchun).*

6. Karimov N. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Universitet, 1999. – B. 45.*(Tarixiy xotira tahlili uchun).*
7. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2003. – B. 92.*(Milliy birlik va ma'rifat bog'liqligi uchun).*
8. Cho‘lpon. Asarlar. 1-jild (She'rlar). – T.: Sharq, 1994. – B. 156.*(Hurlik va iroda falsafasi uchun).*
9. Alimova D. Jadidchilik harakati: genezisi, rivoji va taqdiri. – T.: Akademiya, 2012. – B. 112.*(Harakatning umumiy falsafiy bahosi uchun).*
10. Xolid A. Musulmon madaniy islohoti siyosati: Markaziy Osiyoda jadidchilik. – Oksford universiteti nashriyoti, 1998. – 134-bet.*(Xalqaro miqyosdagi tahlil uchun).*
11. Zunnunov A. O‘zbek pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 2004 yil.*(Ta'lim xizmatlari uchun).*
12. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: Universitet, 2006 yil.*(Ma'rifiy tizim tahlili uchun).*
13. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). Jadid marifatparvarlarining ta'lim-tarbiyani isloh qilishdagi o'rni. Talqin va tadqiqotlar, 1, 24.
14. Poziljonov, J. (2024). Turkiston jadidlari ijtimoiy-falsafiy ta'limotining kelib chiqish omillari. Interpretation and researches, 2(1), 23.

XORAZM O‘G‘UZ LAHJASIDAGI AYRIM IBORALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Shamuratova Malohat Ilhambekovna
O‘zbekiston davlat, san'at va madaniyat instituti Nukus filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Har bir xalqning asriy tajribasini o‘zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi [4.3-bet]

O‘zbekiston o‘zining milliy mustaqilligiga erishgach, o‘zbek tili Davlat tili maqomini oldi. Shundan keyin o‘zbek tilining mahalliy shevalarini o‘rganish, ayniqsa, turli arealdagi o‘g‘uz va qipchoqlar shevasi, ular tarkibidagi etnografik leksikani jiddiy o‘rganishga ehtiyoj kuchaydi.

O‘zbek shevalari bo‘yicha bugunga qadar ko‘pgina olimlarimiz mashaqqat bilan, ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.K.K.Yudaxin, E.D.Polivanov,A.K.Borovkov, G‘ozi Olim Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, O.Madrahimov, A.Ishayev, F.Abdullayev, X.Doniyorov, S.Otamirzayeva, Q.Muhammadjonovlar shular jumlasidandir. Bugungi kunda ham shevashunoslik ilmining davomchilari bo‘lmish dialektolog Y.Ibragimov, S.Ashirboyev va boshqa ko‘plab ustozlar va yosh tadqiqotchilar ishlari orqali sheva ilmi davom etmoqda.

O‘zbek tili shevalardagi o‘zaro yaqin va farqli xususiyatlarga ko‘ra qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub bo‘ladi.O‘g‘uz lahjasi vakillari asosan O‘zbekistonning Xorazm viloyatining deyarli barcha hududlarida (Gurlan va Yangibozor tumani bundan mustasno), Qoraqalpog‘istonning Ellikqal'a va

To‘rtko‘l tumanlarida, shuningdek, Buxoro Viloyatining Olot va Qorako‘l tumanlarida keng tarqalgan sheva hisoblanadi. O‘g‘uz lahjasi Xorazm viloyatining ko‘pgina hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, xususan, Urganch, Xiva, Xazorasp, Qo‘shko‘pir, Shovot, Bog‘ot, Yangariq tumanlari shular jumlasidan. Ushbu hududlar Professor Polivanov tasnifida Janubiy guruh deb yuritilgan.

Janubiy guruh (ayrim manbalarda Janubiy-G‘arbiy guruh ham deyilgan) [1.32-bet]. Xorazm o‘g‘uz shevalarini chuqur o‘rgangan olim Fattoh Abdullayevdir. U o‘zining “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” lug‘atini tuzgan. Ushbu kitobda Xorazm viloyatidagi barcha tumanlarda ishlatiladigan so‘zlar alifbo tarzida berilib, ma’nolari izohlanga. F.Abdullayevdan keyin uning ilmining davomi sifatida ustozimiz Professor Otanazar Madrahimov“ O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi”, hamda “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi” nomli kitoblari nashrdan chiqqan aynan ushbu kitoblar bugungi kunga qadar Xorazm og‘uz shevalarini o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Mahalliy shevalardagi frazeologizmlar juda qadim davrdan beri qo‘llanilib, tarkibi jihatdan mustahkam, ma’no jihatdan o‘tkir hisoblanadi. Bunday qoliplashgan turg‘un so‘z birikmasini til tarkibidan chiqarmasdan, xalq avloddan-avlodga yetkazib keldi. Shuningdek, frazeologik iboralar so‘zlovchining biror narsa-hodisa yoki predmet, inson haqidagi yo ijobiy, yo salbiy bahosini, ekspressiv xususiyatlarini hamda ularga bo‘lgan emotsional munosabatlarini ifodalaydi.

Ushbu iboralarning yana bir jihati, Xorazm viloyatining har hudududa boshqacha tarzda ishlatiladigan iboralar ham uchrab turadi.

«Eshaki tushoqino loyiq» iborasi esa munosib, loyiq ma'nolarini ifoda etadi. Ushbu lug‘aviy birlik, o‘zbek adabiy tilidagi «Uzukka ko‘z qo‘ygandek» iborasiga teng. Ushbu ibora Xorazmning Xiva va Qo‘shko‘pir tumanlarida shu tarzda qo‘llansa Xonqa tumanida *“Ashaka loyiq chuvoqi”,* Bog‘ot tumanida esa *“Eshagina loyiq tushovi”* tarzida ishlatiladi.

Yana bir iboramiz, **“O‘li tononi go‘zzidin”** iborasi mavjud bo‘lib uni asosan Xazarasp tuman aholisi so‘zlashuv nutqida va Yangariq tumanining Chiqirchi, Qo‘riqtom, Qarmish qishloqlari shevasida ishlatiladi. Ma’nosi ko‘zni olaytirish, ko‘zni suzish. Xonqa tumanida esa *“O‘li qo‘yni go‘zzidin”* tarzida qo‘llanadi.

Shunday misollardan: **“Choqqi dastalamoq”** iborasi asosan Xorazmning Xiva va Qo‘shko‘pir tumanlarida mavjud bo‘lib, sovuqda uxlay olmay, tunni bedor o‘tkazish ma’nosini anglatib, o‘zbek adabiy tilidagi “Yulduz sanamoq”, “Toqi sanab chiqmoq” iboralariga teng keladi. Ushbu ibora Xonqa tumanida *“Zingina qottim”* tarzida ishlatiladi.

“Ho‘kkini usti duyun bo‘ldi” iborasi avalgisidan ham battar bo‘ldi ma’nosini bildirib, u o‘zbek adabiy tilidagi ***“Dard ustiga chipqon”*** iborasiga sinonim bo‘la oladi. Uni asosan Qo‘shko‘pir va Xiva aholisi og‘zaki nutqida ishlatadi. Hazoraspda esa *“Ho‘kkini usti dunku bo‘ldi”* tarzida qo‘llaniladi.

Yuqoridagi fikr va dalillardan ayon bo‘ladiki, o‘g‘uz shevasi o‘ziga xos frazeologizmlarga boy. Ushbu lahjani boshqa lahjalar bilan qiyoslaganimizda o‘zbek adabiy tilidagi frazeologizmlardan ancha farq qilishini ko‘rish mumkin. Ushbu shevadagi iboralarni o‘rganish nafaqat Xorazm hududidagi shevasini balki,

turkiy til shakllanishida ham ushbu shevaning sezilarli darajada o‘rni borligini anglaymiz. Uni chuqur o‘rganish esa, bugungi kun tilshunosligi uchun ham qimmatli faktlar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2011.
2. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933. стр.3
3. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
4. Xudayarova M. O‘zbek tilidagi taom nomlari (Qoraqalpog‘iston hududi materiallari asosida). - Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2020. 3 -b.

QORAQALPOQ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINING EVOLYUTSIYASI: XALQ OG'ZAKI IJODIDAN ZAMONAVIY NASRGACHA (qiyosiy-tarixiy tahlil)

Sidikova Dilnoza Serikbaevna
Nukus davlat texnika universiteti “Davlat tili va chet tillar” kafedrasi assistant o‘qituvchisi

Ayol obrazi har qanday xalq adabiyotida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat go‘zallik va mehr timsoli, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy qiyofasini aks ettiruvchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotida ham ayol obrazi qadimdan hozirgi davrgacha turli shakllarda tasvirlanib kelmoqda.

O‘zbek va qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida ayol obrazi asosan sadoqatli yor, mehribon ona va dono maslahatgo‘y sifatida tasvirlanadi. Masalan, dostonlarda ayollar jasoratli va fidoyi qahramonlar sifatida ham gavdalanadi. Qoraqalpoq eposlarida ayol obrazlari ko‘proq matonatli va kurashuvchan xarakterda beriladi.

“Alpomish” o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng yirik dostonlaridan biri bo‘lib, unda ayol obrazi yuksak badiiy darajada tasvirlangan. Ayniqsa, dostondagi Barchinoy (Barchin) obrazi ayol timsolining yorqin namunasi hisoblanadi.

Dostonda Barchinoy o‘z sevgisiga sodiq, irodali va qat’iyatli ayol sifatida tasvirlanadi. U oddiygina kutib turuvchi obraz emas, balki o‘z taqdirini o‘zi hal qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. Barchin o‘ziga munosib yigitni tanlash uchun shart qo‘yadi, bu esa uning mustaqil fikrlash qobiliyatini ko‘rsatadi.

Barchinoy obrazi orqali ayolning nafaqat go‘zalligi, balki uning aql-zakovati va jasorati ham ulug‘lanadi. U turli sinovlarga bardosh berib, o‘z sevgisiga sodiq qoladi. Bu jihat xalq og‘zaki ijodida ayolning faqat passiv emas, balki faol qahramon sifatida tasvirlanganini ko‘rsatadi.

Dostonda ona obrazi ham muhim o‘rin egallaydi. Ona farzand tarbiyasida mehribon, dono va sabrli sifatida tasvirlanadi. Bu orqali xalqning ayolga bo‘lgan hurmati va e’tibori ifodalanadi.

O‘zbek klassik adabiyotida ayol obrazi ko‘proq idealizatsiya qilinadi. U go‘zallik, iffat va sabr timsoli sifatida talqin etiladi. Shoirlar ayolni ilohiy darajaga ko‘tarib tasvirlaydilar. Qoraqalpoq adabiyotida esa ayol obrazi hayotiylikka

yaqinroq, real voqealar asosida yoritiladi. Bu yerda ayol nafaqat sevgi timsoli, balki jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni boshidan kechirayotgan shaxs sifatida ham ko‘rsatiladi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumush. Kumush obrazi-nafaqat “O‘tkan kunlar” romanining, balki butun bir O’zbek adabiyotining eng yorqin va kitobxonning xotirasida qolarli vakillaridan biridir. U orqali Abdulla Qodiriy o’zbek ayolining sabrli, fidoyi, mehribon, aqlli va sadoqatli bo’lishi kerakligini namoyon qilgan.Kumush – o’z muhabbatini, oilaviy baxtini, eriga bo’lgan vafosini hayotining mazmuni deb bilgan, chinakam milliy ayol obrazidir.[3]

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol obrazi yanada murakkablashib, uning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari chuqur tahlil qilinadi. Ayol endi faqatgina oila doirasida emas, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida tasvirlanmoqda.

Qoraqalpoq zamonaviy nasrida esa ayol obrazi ijtimoiy tenglik, mustaqillik va o‘zligini anglash masalalari bilan bog‘liq holda yoritiladi. Bu jihat ikki adabiyot o‘rtasidagi umumiylikni ko‘rsatadi. Har ikkala adabiyotda ayol obrazi mehr, sadoqat va fidoyilik timsoli sifatida umumiydir.

O‘zbek adabiyotida idealizatsiya kuchliroq bo‘lsa, qoraqalpoq adabiyotida realizm ustun. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridagi Robiya, Ra’no, Munavvar timsollari, Shuhratning “Oltinzanglamas” asaridagi Jannat, Musharraf, Adolat xola va Aziz timsollari o‘sha davrning qora kunlarida o‘zbek ayollarining sabr- matonati, vafosi, muhabbati haqida ro’yi rost hikoya qiladi. Robiya oddiy bir qiz bo‘lishiga qaramay, uning ichki dunyosi, orzulari va tuyg‘ulari nihoyatda chuqur. U unashtirilgan qaysi qaylig‘i urushga ketib, undan bironbir darak bo‘lmasa-da, yillar davomida uni sadoqat bilan kutadi. Bu kutish faqat tashqi ko‘rinishda emas, balki Robiyaning qalbida, o‘y-fikrlari va xotiralarida ham iz qoldiradi. Hatto taqdir uni boshqa kishiga turmushga chiqishga majbur ets a ham, Robiya bir lahza bo‘lsa-da chin dildan sevgan yorini unutmaydi. Uning nomini muqaddas yodlab, yuragining eng nozik burchagida abadiy saqlaydi. Robiyaning bu fazilatlari o‘zbek ayolining milliy xarakteriga xos bo‘lgan sadoqat va vafoning yorqin timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, Robiyaning taqdiri nafaqat shaxsiy fojia, balki o‘sha davr hayotining, urushning, kutishning og‘ir sinovlari oldida ham insoniy qadr-qimmatni saqlay olish namunasi sifatida qimmatlidir. Shunday qilib, Robiya obrazi nafaqat bir badiiy qahramon, balki o‘zbek ayolining sadoqati, mehr-muhabbati va vafosi ramziga aylangan o‘lmas siymosifatida qalblarda o‘chmas iz qoldiradi. Uning hayoti va ruhiy kechinmalari bugun ham o‘quvchini chuqur o‘ylantiradi, sadoqatning qanchalik muqaddas tuyg‘u ekanini yana bir bor yodga soladi. Mustaqillikdan keying adabiyotda ayol obrazi yanada murakkab va realistic tarzda tasvirlana boshladi. Endilikda ayol nafaqat go‘zallik yoki fidoyilik timsoli, balki murakkab qismat sohibasi sifatida ham gavdalanmoqda. Bugungi adabiyotda ayol qahramonlar jamiyatdagi muammolar–gender tengligi, oilaviy zo‘ravonlik, ta’lim va erkinlik masalalari bilan bog‘liq holda tasvirlanmoqda.

Zamonaviy feministik nazariya vakillaridan biri Bell Hooks ayol obrazini ijtimoiy tengsizliklar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Uning ta’kidlashicha, “to be

in the margin is to be part of the whole but outside the main body". Ushbu qarash ayolning adabiyotdagi o‘rni ko‘pincha markazdan chetda tasvirlanishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotida ham ayol obrazining jamiyatdagi mavqeyini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Zamonaviy davrda esa ikkala adabiyotda ham ayol obrazi ijtimoiy faol, mustaqil shaxs sifatida talqin qilinmoqda.

Fransuz feministik adabiyotshunosligi vakillaridan biri Naomi Schor ayol obrazini tahlil qilishda matndagi "detal" tushunchasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, an'anaviy adabiyotda mayda detallar ko‘pincha ayollik bilan bog‘lanadi va ikkinchi darajali unsur sifatida qaraladi.[2]

Schor bu qarashni tanqid qilib, aynan shu detallar orqali ayol obrazining ichki dunyosi, ruhiy holati va individual xususiyatlari ochib berilishini ta'kidlaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, ayol obrazini to‘liq anglash uchun matndagi kichik, lekin mazmunli tasvir elementlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur nazariyani o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotiga tatbiq etadigan bo‘lsak, ayol obrazini yaratishda mualliflar tomonidan qo‘llanilgan mayda psixologik detallar — tasviriy vositalar, ichki monologlar va hissiy ifodalar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, zamonaviy asarlarda ayolning ruhiy kechinmalari aynan shu detallar orqali chuqur ochib beriladi.

O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotida ayol obrazi tarixiy taraqqiyot jarayonida sezilarli o‘zgarishlarga uchragan. U dastlab an'anaviy rollarda tasvirlangan bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda mustaqil va faol shaxs darajasiga ko‘tarilgan. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala adabiyotda ayol obrazi milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. hooks, b. Feminism is for Everybody: Passionate Politics. New York: Routledge, 2000.
2. Schor, N. Reading in Detail: Aesthetics and the Feminine. New York: Routledge, 1987.
3. Qodiriy, A. (2019). O‘tkan kunlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA FOLKLORIZMLARNING O‘RGANILISHI

Urazbayev Muratbay Amanbayevich
O‘zbekiston, Nukus, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedgogik mahorat Markazi, Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Istiqlol sharofati bilan barcha sohalar qatorida adabiyotshunoslik ham tobora takomil topa borib, folklorning yozma adabiyotga ta'sirini turlicha yo‘nalishlarda tahlil va talqin qilish yanada keng tus oldi. Buning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o‘rni benihoya muhim bo‘lib, badiiy adabiyot ravnaqi, uning mutolaasi yoshlar ma'naviy kamolotini, ezgulik boqiyligini ta'minlaydi, albatta. Zero, "Kitobsiz

taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning kelajagi yo‘q” [1.114]

Folklorizm – bu ijodkorning xalq og‘zaki ijodida azaldan mavjud bo‘lgan syujet, obraz, motiv, xalqona uslubni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib qo‘yish emas, aksincha, folklorizm bu – ijodkorning xalq og‘zaki ijodga qayta ishlov berishi, o‘z ijodiy laboratoriyasida ziynatlab, boyitib, to‘ldirib, yangi asar yaratishi yoki asar ichida xalq maqollari va matallari, obrazli, qanotli ifodalarni, idiomalar, afsona, doston, ertak syujetlarini, obrazlarini qayta stilizatsiya qilib, asarga singdirib yuborishidir.

Jahon adabiyotshunosligida yozma adabiyot bilan xalq og‘zaki ijodining o‘zaro munosabati, ularning bir-biriga ijodiy ta’siri masalasi, muayyan ijodkorlarning xalq og‘zaki ijodidan foydalanish mahorati, folklorizmlar muammosini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yozma adabiyotda muayyan ijodkorlarning folklorizm hosil qilishi, folklorizmlarning turlari hamda ularning badiiy asar strukturasi va matnida tutgan ahamiyati, shuningdek, yozuvchi shaxsining folklorizm hosil qilish tajribasi muhim masalalardan hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida “folklorizm”lar masalasi deyarli yuz yildan beri o‘rganilib kelinadi. Yozma adabiyot paydo bo‘libdiki, unga xalq og‘zaki ijodining ta’siri, ijodiy an’anasi va har ikki adabiyot turining bir-biriga ijobiy va ijodiy ta’siri shubhasizdir. O‘tgan asrning 50-60 yillaridan e’tiboran, yozma adabiyotning folklordan foydalanishi, ta’sirlanishi “folklorizm” degan nazariy termin bilan atala boshlandi. Shu bilan birga, “folklorizm” termini muqim sur’atda qo‘llanilganiga qadar “xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot munosabati”, “yozma adabiyotda folklor an’analari”, “yozma adabiyotda xalq og‘zaki ijodi an’analari”, “yozma adabiyotda folklor traditsiyasi” terminlari ham baravar ravishda ishlatildi. Xususan, bu adabiy holat rus, ukrain, o‘zbek, qozoq, tojik, ozarbayjon adabiyotshunosligida keng miqyosda tadqiq etildi. Jumladan, Dimshits, M.Azadovskiy, U.Dalgat, I.Shott, V.Agrba, P.S.Vixodsev, G.A.Levinton kabi sobiq sho‘ro davri olimlarining tadqiqotlarini sanash mumkin [2. 3. 4. 5]. Mazkur monografik tadqiqotlarda muayyan milliy adabiyotga xos xalq og‘zaki ijodining beqiyos ijobiy ta’siri, ijodkorlarning folklordan foydalanish mahorati, folklorizmlarning tadqiqi masalalari jiddiy o‘rganilgan. Shuningdek, sho‘ro davri adabiyotshunosligida shakllanib rivojlanishda davom etgan o‘zbek adabiyotiga xalq og‘zaki ijodining ta’siri, munosabati, ijodkorning folklordan foydalanish mahorati masalasi N.Mallayev, J.Qobulniyozov, G‘.Jalolov, O.Sobirov, M.Amilova, G‘.Mo‘minov tadqiqotlarida Alisher Navoiy, Hamza, Oybek ijodida folklor an’analari, sho‘ro davri adabiyotida folklor va folklor an’analari muammolari monografik tadqiqotlar sifatida yaratilgan. Bu tizimli tadqiqotlar tabiiyki, mustaqillik davri adabiyotshunosligida izchil davom etdi. Binobarin, T.Abdurahmonov, T.Xo‘jayev, D.Quvvatova, M.Imomkarimova, X.Abdullayev, M.Narziqulova, L.Sharipova, D.Xoliqova kabi olimlarning ishlarida folklorizmlar masalasi asosiy ilmiy hadafga aylandi.

XX asrning 80-yillarida o‘zbek adabiyotshunosligi folklorizmni nazariy jihatdan asoslashga kirishdi. Ayrim nomzodlik dissertatsiyalari folklorizmning

adabiy tur va janrlar taraqqiyotidagi o‘rnini tadqiq etishga, uning tiplarini aniqlashga bag‘ishlandi. [6.7.8]. Ammo folklor va yozma adabiyot munosabatlari adabiyotning turli davrlarida o‘zgacha namoyon bo‘lishi, har bir tur va janr doirasida o‘ziga xoslik kasb etishi, ijodkor mahoratini namoyon etishi, ijodkor uslubining muayyan qirrasiga, asar badiiyatiga ta’sir qiluvchi omilga aylanishini o‘rganish zarurati muammoning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Albatta, o‘zbek adabiyotshunosligida “folklorizmlar” muammosining o‘rganilishiga doir yuzdan ziyod maqolalar, tadqiqotlar, risolalar yozilgan. Ularning har birida muayyan bir davr, janr, adiblar ijodi tadqiqot obyekti bo‘lgan. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida yozma adabiyotdagi folklorizmning badiiy-poetik xususiyatlari, tasnifi, tipologiyasi masalalari ulkan adabiyotshunos olim B.Sarimsoqovning qator ilmiy-nazariy maqolalarida yoritildi. Xususan, olimning bu sohadagi izlanishlarini shogirdi I.Yormatov davom ettirdi.

Umuman olganda, XX asrdan hozirgacha “folklordan foydalanish”, “folklor an’analari”, “folklor ta’siri” kabi turlicha istilohiy birikmalar orqali aralash-quralash holda ifodalanib kelinmoqda. Bu atamalar mohiyatan folklorizm tushunchasiga mos keladi. Chunki folklorizmlar yozma adabiyotda folklor ta’sirida folklordan foydalanish tufayli yuzaga keladi. Ammo “folklordan foydalanish, “folklor ta’siri” atamalari o‘ziga xos alohida ma’nolarga egaki, ularni doimiy ravishda folklorizm tushunchasiga nisbatan qo‘llash qiyin”.

Demak, folklorizm – bu ijodkorning xalq og‘zaki ijodida azaldan mavjud bo‘lgan syujet, obraz, motiv, xalqona uslubni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib qo‘yish emas, aksincha, folklorizm bu – ijodkorning folklorga qayta ishlov berib, o‘z ijodiy laboratoriyasida ziynatlab, boyitib, to‘ldirib, yangi asar yaratishi, yoki asar ichida xalq maqollari va matallari, obrazli, qanotli ifodalarni, idiomalarni qayta stilizatsiya qilib, asarga singdirib yuborishidir.

“Folklorizmlar” o‘zbek va jahon adabiyotshunosligida shu kunga qadar “Badiiy folklorizm”, “Publitsistik folklorizm”; Badiiy folklorizmning o‘zi qo‘llanish usuliga ko‘ra “oddiy folklorizm”, “analitik folklorizm”, “murakkab folklorizm”, yangi zamonaviy nazariyotchilar tasnifiga ko‘ra esa “ratsionalistik folklorizm”, “intuitiv folklorizm”, “konstruktiv folklorizm”, “organik folklorizm” va hakozo tasniflangan;

O‘zbek adabiyotshunosligida yozma adabiyot va folklorning o‘zaro munosabatlarini monografik tarzda o‘rganish XX asrning 60–70-yillarida birmuncha kuchaydi. Yaratilgan tadqiqotlarda folklor an’analari va motivlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, ijodkorlarning folklordan ta’sirlanishi va undan ijodiy foydalanishdagi mahorati, folklorning adabiy jarayonga, yangi oraliq shakllarning yaratilishiga ta’siri, badiiy asarda syujetning folkloriy asoslari singari qator ilmiy muammolar tekshirildi.

Shuningdek, istiqlolgacha o‘zbek adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot munosabatlarining ba’zi qirralarigina tadqiq qilindi. Holbuki, milliy she’riyat folklordan o‘zlashtirgan muayyan jihatlar qay taxlit kechgani, folklor bu xususiyatlar, obrazlar va motivlarni asotir olamidan o‘zlashtirib, ularni o‘z badiiy olamida qayta ishlagani, yozma she’riyat esa folklorga xoslikning ushbu jihatlarini

o‘ziga qay darajada singdirgani, yangi poetik vazifalar yuklaganini tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz uchun o‘ziga xos xulosalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 114
2. Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – М.,-Л.: Гослитиздат, 1960. – С. 547;
3. Емельянов Л.И. К вопросу о фольклоризме древней русской литературы / Русский фольклор. Том YII. – Л., 1962;
4. Выходцев П.С. На стихе двух художественных культур (Проблема фольклоризма в литературе) / Русский фольклор. Том XIX. – Л., 1979. – С. 3-31;
5. Горелов А.А. К истолкованию понятия “фольклоризм литературы” / Русский фольклор.
6. Ярматов И. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе (60-е и начало 80-х годов): Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1985;
7. Нарзиқулова М. “Сабъаи сайёр” достонида фольклоризмлар ва ўзбек фольклоризмидаги Баҳром сюжетининг талқини: Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2006;
8. Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол.фан.номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MODERNIZM: NAZARIY ASOSLAR VA BADIIY XUSUSIYATLAR

Yusupov Qudrat Erkabayevich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

XX asr jahon adabiyotida tub burilishlar davri bo‘lib, bu jarayon o‘zbek adabiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Modernizm – bu an’anaviy badiiy tafakkurdan voz kechib, yangi estetik tamoyillar asosida shakllangan adabiy yo‘nalishdir. Ushbu yo‘nalish inson ruhiyati, ichki kechinmalari va ong oqimini tasvirlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida modernizm muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan bu adabiy yo‘nalish an’anaviy realizm va romantizmga muqobil tarzda paydo bo‘lib, insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini va individual ongini tasvirlashga alohida e’tibor qaratadi. Modernizm o‘zbek adabiyotida ham ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, jadidchilik harakati va global madaniy ta’sirlar natijasida shakllandi.

Mazkur ilmiy maqola mavzusini yoritishda tavsifiy, tasnifiy, tarixiy-qiyosiy, kontekstual va kompleks yondashuv tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot adabiyotshunoslik muammolarini nazariy va tarixiy-badiiy tushunishga qaratilgan zamonaviy modernistik usullari asosida ko‘rib chiqilgan.

Modernizmning asosiy xususiyatlaridan biri – bu shakl va mazmundagi yangilikka intilishdir. An’anaviy syujet va obrazlardan farqli ravishda modernist asarlarda voqelik ko‘proq subyektiv tarzda, ya’ni qahramonning ichki kechinmalari orqali ifodalanadi. Bu esa adabiyotda psixologizmning kuchayishiga olib keldi. Shuningdek, modernist yozuvchilar til va uslub borasida ham tajriba qilishdan cho‘chimadilar: ramziy obrazlar, metaforik ifoda va noan’anaviy kompozitsiya keng qo‘llanila boshlandi. Modernizm adabiy yo‘nalish sifatida Yevropa adabiyotida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllandi. Uning paydo bo‘lishiga industrial jamiyat, urushlar, ijtimoiy inqirozlar va insonning ma’naviy iztiroblari sabab bo‘ldi. Modernizm realizmga qarshi o‘laroq, obyektiv voqelikni emas, balki subyektiv idrokni ustuvor deb hisoblaydi. Modernistik adabiyotda quyidagi tamoyillar subyektivlik va individualizm, ong oqimi usuli, ramziylik va ko‘p ma’nolilik, vaqt va makonning nisbiy tasviri, an’anaviy syujet va kompozitsiyaning buzilishi hisoblanadi. O‘zbek adabiyotida modernizm unsurlarini dastlab jadid adiblari ijodida kuzatish mumkin. Ular jamiyatni yangilash, inson ongini o‘zgartirish g‘oyalarini ilgari surar ekan, adabiy shakllarda ham yangilik qilishga intildilar. Keyinchalik esa modernizm to‘laqonli yo‘nalish sifatida XX asrning ikkinchi yarmida va ayniqsa mustaqillik davrida yanada rivojlandi. Mustaqillikdan keyingi davr o‘zbek adabiyotida modernistik qarashlar keng yoyildi. Bu davr ijodkorlari insonning ichki olami, erkinlik, yolg‘izlik, ma’naviy izlanish kabi mavzularni chuqur yoritishga kirishdilar. Asarlarda aniq xulosa berishdan ko‘ra, o‘quvchini mushohada qilishga undash ustuvor bo‘ldi. Bu esa o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayoni bilan uyg‘unlashuviga xizmat qildi.Modernizmning yana bir muhim jihati – bu an’anaviy qahramon tushunchasining o‘zgarishidir. Endilikda qahramon ideal shaxs emas, balki ichki ziddiyatlarga ega, murakkab ruhiy holatdagi inson sifatida tasvirlanadi. Bu esa o‘quvchiga qahramon bilan chuqurroq hissiy aloqa o‘rnatish imkonini beradi.

O‘zbek adabiyotida modernizm unsurlari dastlab jadid adabiyoti namoyandalari ijodida ko‘zga tashlanadi. Ular millatni uyg‘otish, yangi tafakkur shakllantirish bilan birga, adabiy shakl va mazmunda ham yangilanishga intildilar. Jadid adabiyotidagi islohiy ruh modernizmning ilk ko‘rinishlari sifatida baholanishi mumkin. Sovet davrida esa sotsialistik realizm hukmronligi sabab modernistik izlanishlar cheklangan bo‘lsa-da, ayrim ijodkorlar asarlarida ichki psixologik tahlil, ramziy ifodalar orqali modernistik unsurlarni saqlab qoldilar. Mustaqillik davriga kelib, o‘zbek adabiyotida modernizm keng rivojlandi. Bu davr ijodkorlari insonning ichki olamiga chuqur kirib borish, mavjud stereotiplarni buzish va erkin badiiy izlanishlar olib borishga katta e’tibor qaratdilar. O‘zbek modernistik adabiyotining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat, psixologizmning kuchayishi – qahramonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari asosiy tasvir ob’ektiga aylanadi, ramziy va metaforik ifoda – asarda yashirin ma’nolar, ramzlar orqali chuqur g‘oyalar ifodalanadi,Noan’anaviy kompozitsiya – syujet izchil rivojlanmaydi, balki parchalanadi, Individual qahramon obrazi – qahramon jamiyat vakili emas, balki alohida shaxs sifatida talqin etiladi, til va uslubdagi tajriba – yozuvchilar yangi badiiy vositalarni sinab ko‘radilar.

Xulosa qilib aytganda, modernizm o‘zbek adabiyotiga yangi nafas olib kirdi.

U adabiyotni faqat tashqi voqelikni tasvirlash vositasidan inson ruhiyatini o‘rganish maydoniga aylantirdi. Bugungi kunda ham modernistik unsurlar o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallab, yangi ijodiy izlanishlarga yo‘l ochmoqda. Modernizm o‘zbek adabiyotida muhim estetik hodisa sifatida shakllandi va rivojlandi. U milliy adabiyotimizni yangi bosqichga olib chiqib, inson ruhiyati va badiiy tafakkur imkoniyatlarini kengaytirdi. Bugungi kunda ham modernistik yondashuvlar adabiy jarayonda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2008.
2. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2006.
3. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010.
4. Sharipov J. Hozirgi o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2012.
5. Rasulov A. Adabiy tanqid va zamonaviy jarayon. – Toshkent: “Fan”, 2015.
6. Hamdamov U. Modernizm va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: “Akademnashr”, 2018.
7. G‘aniyev I. Jahon adabiyoti tarixi (XX asr). – Toshkent: “Universitet”, 2011.

МЕТАФОРАЛАРНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШДА ЛИНГВОМАДАНИЙ МУАММОЛАР

Ещанова Рая Мухиятдиновна

ҚДУ. Факултетлар аро чет тиллари кафедраси

Ҳозирги замон тилшунослигида метафора нафақат бадиий услуб воситаси, балки инсон тафаккури ва дунёқарашини шакллантирувчи муҳим когнитив механизм сифатида қаралмоқда. Шу боис, метафораларнинг турли тилларда ифодаланиши ва айниқса, уларни таржима қилиш жараёнида юзага келадиган лингвомаданий муаммоларни ўрганиш долзарб аҳамият касб этади. Глобаллашув шароитида турли маданият ва тил вакиллари ўртасидаги мулоқот кенгайиб бораётгани сабабли, метафораларни тўғри англаш ва адекват таржима қилиш масаласи янада муҳим аҳамият касб этмоқда [1]. Метафора тушунчаси илмий адабиётларда кенг ўрганилган бўлиб, George Lakoff ва Mark Johnson ўзларининг машҳур “Metaphors We Live By” асарида метафорани инсон тафаккурининг ажралмас қисми сифатида изоҳлайдилар, яъни инсон бир тушунчани иккинчиси орқали англайди [2]. Шу нуқтаи назардан, метафора тилда нафақат эстетик, балки концептуал вазифани ҳам бажаради.

Лингвомаданият эса тил ва маданият ўртасидаги узвий боғлиқликни ўрганувчи соҳадир. V.V. Vorobyev таъкидлаганидек, ҳар бир тилдаги лексик ва фразеологик бирликлар орқали миллатнинг маданий қадриятлари, анъаналари ва дунёқараши акс этади[3]. Шу сабабли, метафораларни таржима қилиш жараёнида нафақат тил, балки маданий омилларни ҳам ҳисобга олиш талаб этилади. Айниқса, қорақалпоқ ва инглиз тиллари мисолида метафораларнинг миллий-маданий хусусиятлари турлича намоён бўлади, бу эса таржима жараёнида қатор қийинчиликларни келтириб чиқаради.

Ушбу тадқиқотнинг асосий мақсади — қорақалпоқ ва инглиз тилларидаги метафораларни таржима қилиш жараёнида юзага келадиган лингвомаданий муаммоларни аниқлаш ва таҳлил қилишдан иборат. Шу мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифалар белгиланди: метафора тушунчасининг назарий асосларини ўрганиш, лингвомаданиятнинг тилдаги ифодасини таҳлил қилиш, метафораларни таржима қилишда учрайдиган асосий муаммоларни аниқлаш ва уларни ҳал қилиш усулларини кўрсатиш.

Метафора ва лингвомаданият ўртасидаги муносабат замонавий тилшуносликда муҳим тадқиқот объектларидан бири ҳисобланади. Метафора нафақат тил бирлиги, балки инсоннинг когнитив фаолиятини акс эттирувчи, тафаккур жараёнларини тизимлаштирувчи ва воқеликни англашга ёрдам берувчи муҳим восита сифатида қаралади. Айниқса, когнитив тилшунослик нуқтаи назаридан метафора инсон тажрибасини тушуниш ва уни маъно жиҳатидан қайта ишлаш механизми сифатида талқин қилинади. George Lakoff таъкидлаганидек, метафоралар инсоннинг концептуал тизимини шакллантиради ва дунёқарашини ифодалайди[4]. Бу нуқтаи назарга кўра, инсон атроф-муҳитни бевосита эмас, балки метафоралар орқали англайди ва тасвирлайди, яъни метафора фикрлашнинг ажралмас қисми ҳисобланади.

Шу билан бирга, метафоралар муайян маданиятга хос бўлиб, улар орқали халқнинг миллий қадриятлари, урф-одатлари, ҳаёт тарзи ва анъаналари намоён бўлади. Метафоралар фақат тилдаги образли ифода эмас, балки маданий код сифатида ҳам хизмат қилади. Улар орқали жамиятнинг табиатга муносабати, ижтимоий муносабатлари ва ахлоқий қарашлари ифодаланади. Тил ва маданият ўртасидаги узвий боғлиқлик шуни кўрсатадики, ҳар бир тилдаги метафоралар ўша жамиятнинг тарихий тажрибаси, ижтимоий тараққиёти ва маданий меросига таянади[5]. Шу маънода, метафоралар лингвомаданий ахборотни сақловчи ва авлоддан-авлодга етказувчи муҳим восита сифатида намоён бўлади.

Қорақалпоқ ва инглиз тилларида ҳам метафораларнинг миллий хусусиятлари турлича бўлиб, бу фарқлар ҳар икки халқнинг ҳаёт тарзи, табиий муҳити ва тафаккур анъаналари билан изоҳланади. Масалан, табиат, чорвачилик ва кундалик ҳаёт билан боғлиқ образлар қорақалпоқ тилида кўпроқ учрайди, бу эса халқнинг анъанавий турмуш тарзи ва табиат билан яқин алоқасини акс эттиради. Инглиз тилида эса кўпроқ абстракт, концептуал ва когнитив метафоралар устунлик қилади, бу эса индустриал ва постиндустриал жамиятнинг фикрлаш услубига хосдир. Шу билан бирга, ҳар икки тилда умуминсоний тажрибага асосланган универсал метафоралар ҳам мавжуд бўлиб, улар турли маданиятлар ўртасидаги ўхшашликларни намоён этади.

Метафораларни таржима қилиш жараёнида бир қатор лингвистик ва маданий муаммолар юзага келади. Бу муаммолар нафақат тиллар ўртасидаги фарқлар билан, балки ҳар бир халқнинг дунёқараши, тафаккур тарзи ва маданий хусусиятлари билан ҳам боғликдир. Энг асосий муаммолардан бири — лексик эквивалентлик масаласидир, яъни бир тилдаги метафора иккинчи тилда тўғридан-тўғри муқобилига эга бўлмаслиги мумкин[6]. Бундай

ҳолатларда таржимон метафоранинг шаклини эмас, балки унинг маъноси ва функциясини сақлаб қолишга ҳаракат қилади. Бу эса таржимада трансформация, яъни қайта ифодалаш усулларидан фойдаланишни талаб қилади. Бу ҳолат айниқса ноэквивалент метафораларда яққол намоён бўлади, чунки улар муайян маданиятга хос бўлган образлар асосида яратилади. Масалан, бир тилдаги табиатга ёки миллий урф-одатларга боғлиқ метафора бошқа тилда мутлақо бошқача ёки умуман мавжуд бўлмаслиги мумкин. Шунинг учун таржимон нафақат тил билимларига, балки маданий билимларга ҳам эга бўлиши зарур. Маданий фарқлар ҳам катта аҳамиятга эга бўлиб, бир маданиятга хос образ бошқа тил вакиллари учун тушунарсиз ёки нотўғри талқин қилиниши мумкин. Бу ҳолатда метафорани изоҳлаш, уни адаптация қилиш ёки бошқа ўхшаш образ билан алмаштириш каби усуллар қўлланилади.

Peter Newmark фикрига кўра, метафораларни таржима қилишда образлилик ва экспрессивликни сақлаб қолиш энг мураккаб вазифалардан биридир[7]. Чунки метафора нафақат маъно, балки эмоционал-экспрессив юкламани ҳам ўз ичига олади. Агар таржима жараёнида бу хусусиятлар йўқолса, матннинг таъсирчанлиги пасайиб кетади. Шу сабабли, таржимон ҳар бир метафоранинг стилистик ва прагматик вазифасини ҳисобга олиши лозим.

Бундан ташқари, контекст ҳам муҳим роль ўйнайди, чунки метафоранинг маъноси кўп ҳолларда контекстга боғлиқ ҳолда очилади. Бир хил метафора турли контекстларда турлича маъно англатиши мумкин. Агар контекст инобатга олинмаса, нотўғри таржима маъно йўқолишига ёки ҳатто мазмуннинг бузилишига олиб келиши мумкин. Шунинг учун метафораларни таржима қилишда комплекс ёндашув — лингвистик, маданий ва контекстуал омилларни биргаликда ҳисобга олиш зарур ҳисобланади.

Метафораларни таржима қилишда турли усуллар қўлланилади ва улар матннинг хусусиятига қараб танланади. Тўғридан-тўғри таржима (literal translation) усули метафоралар икки тилда ҳам ўхшаш бўлган ҳолларда самарали ҳисобланади[8]. Бироқ кўп ҳолларда мослаштириш (adaptation) усули қўлланилиб, метафора қабул қилувчи тил маданиятига мослаштирилади. Изоҳли таржима (explicitation) эса метафоранинг маъносини тушунтириш орқали берилишини таъминлайди. Шунингдек, алмаштириш (substitution) усулида бир метафора бошқаси билан алмаштирилиб, умумий маъно сақлаб қолинади. Mona Baker таъкидлаганидек, таржимадаги асосий мақсад — маъно ва таъсирни максимал даражада сақлаб қолишдир[9].

Қорақалпоқ ва инглиз тилларидаги метафораларни қиёсий таҳлил қилиш уларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатларини аниқлаш имконини беради. Масалан, инглиз тилидаги “time is money” метафораси иқтисодий дунёқарашни ифода этса, қорақалпоқ тилида вақт кўпроқ табиий жараёнлар билан боғлиқ ҳолда тасвирланади. Бундай ҳолатларда таржима жараёнида метафора ёки тўғридан-тўғри сақланади, ёки маданий жиҳатдан мослаштирилади. Айрим ҳолларда эса метафора таржимада ўз маъносини қисман ёки тўлиқ йўқотиши мумкин[10]. Бу эса таржимондан нафақат тил билимларини, балки маданий компетенцияни ҳам талаб қилади.

Хулоса қилиб айтганда, метафораларни таржима қилиш жараёни мураккаб ва кўп қиррали жараён бўлиб, у тил ва маданият ўртасидаги чуқур боғлиқликни акс эттиради. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, метафораларни адекват таржима қилиш учун лингвистик билимлар билан бир қаторда маданий омилларни ҳам ҳисобга олиш зарур. Шунингдек, турли таржима усулларидан самарали фойдаланиш орқали маъно ва экспрессивликни сақлаб қолиш мумкин. Келгусидаги тадқиқотларда метафораларнинг когнитив ва маданий жиҳатларини янада чуқурроқ ўрганиш, шунингдек, турли тиллар мисолида қиёсий таҳлилни кенгайтириш мақсадга мувофиқ бўлади[11].

Фойдаланилган адабиетлар:

1. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — pp. 3–5.
2. Vorobyev, V.V. *Lingvokulturologiya*. — Moskva: RUDN, 2008. — p. 37.
4. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — p. 25.
5. Kövecses, Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — p. 79.
6. Larson, M.L. *Meaning-Based Translation*. — Lanham: University Press of America, 1998. — p. 275.
7. Newmark, P. *Approaches to Translation*. Oxford: Pergamon Press, 1981. — p. 88.
8. Nida, E., Taber, C. *The Theory and Practice of Translation*. — Leiden: Brill, 1969. — p. 106.
9. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. — London: Routledge, 2011. — p. 254.
10. Schäffner, C. *Translation and Interpreting Studies*. — London: Routledge, 2004. — p. 130.
11. House, J. *Translation Quality Assessment*. — London: Routledge, 2015. — p. 56.

IJTIMOIY JARAYONLARIDA GUMANIZM PRINCIPLARINING AHAMIYATI VA UNING TABIATI

Joldasbayev Oralbay Yernazarovich

O‘zbekiston, Nukus, Nukus davlat pedagogika instituti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi assistenti.

Gumanizm yoki insonparvarlik ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidagi eng muhim va barqaror g‘oyalardan biridir. Uning markazida insonning o‘zi, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, ma’naviy kamoloti va jamiyatdagi o‘rni turadi. Bugungi globallashuv, texnogen taraqqiyot, ijtimoiy tabaqalanish, ma’naviy begonalashuv va zo‘ravonlik tahdidlari kuchayib borayotgan bir sharoitda gumanistik g‘oyalarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan qayta anglash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki insonni oliy qadriyat deb tan olmaydigan har

qanday ijtimoiy tizim oxir-oqibat shaxsiy erkinlikning cheklanishi, adolatsizlik va ma’naviy inqirozga olib keladi. Gumanizmning ijtimoiy mazmunini yoritishda, avvalo, unga lug‘atlar, ensiklopedik manbalar hamda ilmiy adabiyotlarda berilgan ta’rif va talqinlarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Zero, mazkur tushuncha faqat insonparvarlik g‘oyasini emas, balki inson qadr-qimmati, uning erkin kamoloti, huquq va manfaatlari, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning insoniy mezonlar asosida tashkil etilishini ham ifodalaydi. Shu bois gumanizmga doir lug‘aviy va nazariy qarashlarni tahlil qilish uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gumanistik g‘oyalarning markaziy kategoriyasi insondir. Insonni oliy qadriyat sifatida tushunish shuni anglatadiki, jamiyatdagi barcha institutlar davlat, huquq, siyosat, ta’lim, madaniyat, iqtisodiyot oxir-oqibat inson manfaatiga xizmat qilishi kerak. Inson qadr-qimmati tushunchasi bugungi etik, huquqiy va siyosiy nazariyalarda fundamental o‘rin egallaydi. Insonni oliy qadriyat sifatida tushunish avvalo, insonning jamiyatdagi o‘rnini vosita emas, balki maqsad sifatida talqin qilishda namoyon bo‘ladi. Bu g’oya I.Kant falsafasida yuzaga keladi.

I. Kant o’z davrida qo’ygan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta’limotga ko’ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o’zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o’z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas[1.380]. Kantga ko‘ra, insonni hech qachon shunchaki vosita sifatida ishlatish mumkin emas; har bir inson o‘z-o‘zida qadriyatga ega bo‘lgan maqsad sifatida hurmat qilinishi kerak. Quyida ushbu g‘oyani gumanistik, aksiologik va ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilamiz.

Gumanizmning asosiy g‘oyasi inson qadr-qimmati, erkinligi va sha’nini oliy qadriyat sifatida tan olishdir. Kantning ushbu fikri aynan shu tamoyilni falsafiy jihatdan asoslab beradi: Kant insonni mustaqil axloqiy subyekt deb hisoblaydi. Inson o‘z aqli orqali axloqiy qaror qabul qila oladi; shu sababli inson boshqa kishining manfaatini amalga oshirish uchun oddiy vosita bo‘la olmaydi; insonni maqsad sifatida tan olish bu uning sha’ni, huquqlari va erkinligini hurmat qilish demakdir. Gumanistik nuqtai nazardan bu g‘oya quyidagi natijalarni beradi: Har bir insonning qadr-qimmati teng; insonni kamsitish, ekspluatatsiya qilish yoki zo‘ravonlik qilish axloqiy tarafdan noto‘g‘ri; jamiyatda insonparvar munosabatlar - hurmat, hamdardlik va bag‘rikenglik ustuvor bo‘lishi kerak. Aksiologiya qadriyatlar tabiatini o‘rganadi. Kantning mazkur fikrida inson eng oliy axloqiy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Aksiologik tahlil shuni ko‘rsatadiki: insonning qiymati uning foydasi bilan emas, balki inson sifatida mavjudligi bilan belgilanadi; inson qadr-qimmati bilan tavsiflanadi, uni narx bilan o‘lchab bo‘lmaydi; shu sababli axloqiy qarorlar inson manfaatini emas, balki inson qadrini hurmat qilishga asoslanishi kerak.

Immanuel Kantning “inson vosita emas, balki maqsaddir” degan g‘oyasi ijtimoiy munosabatlar tizimini tushunishda muhim falsafiy tamoyil hisoblanadi. Avvalo, ijtimoiy munosabatlar jamiyat a’zolari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy aloqalar majmuini anglatadi. Kantning fikriga ko‘ra, ushbu munosabatlar jarayonida inson boshqa shaxslarning manfaatlarini amalga oshirish

uchun oddiy vosita sifatida qaralmasligi kerak. Aksincha, har bir inson o‘zining qadr-qimmati, erkinligi va aqliy mustaqilligi bilan ajralib turadigan shaxs bo‘lib, jamiyatdagi barcha munosabatlar aynan shu qadriyatlarga hurmat asosida qurilishi lozim. Insonni oliy qadriyat deb bilishning ijtimoiy-falsafiy mazmuni shundaki, ijtimoiy institutlar davlat, huquq, ta’lim, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat barchasi insonning erkin va munosib hayotini ta’minlash mezoni bilan baholanadi. Agar jamiyatda iqtisodiy o‘sish bo‘lsa-yu, lekin shaxs qadr-qimmati poymol etilsa, erkin fikr bo‘g‘ilsa yoki adolat izdan chiqsa, bunday taraqqiyot gumanistik mazmunga ega bo‘la olmaydi. Shu ma’noda gumanizm ijtimoiy taraqqiyotning insoniy mezonini belgilaydi. O‘zbekistonning konstitutsiyaviy rivojlanishida ham aynan insonparvar demokratik davlat va ochiq-adolatli jamiyat qurish vazifasi muqaddimada mustahkamlangan.

Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda Insonparvarlik - odamzodning qadri, erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotni ta'minlashdir[2:67]. Shu bois gumanizmning mohiyatini tushunish ijtimoiy munosabatlarni aksiologik, ya’ni qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash imkonini ham beradi. Zero, har qanday jamiyatning taraqqiyot darajasi faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar, siyosiy barqarorlik yoki tashkiliy qudrat bilan emas, balki unda insonning qadri qay darajada e’tirof etilishi, shaxs erkinligi va huquqlari qay darajada ta’minlanishi, ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillari qanchalik qaror topgani bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda gumanizm ijtimoiy munosabatlarning ichki ma’naviy mezonini belgilab beradi: u jamiyatni inson manfaatlariga xizmat qiluvchi tizim sifatida ko‘rishga, insonni esa ijtimoiy taraqqiyotning asosiy maqsadi va bosh qadriyati sifatida talqin etishga imkon yaratadi. Demak, gumanizmning mohiyatini anglash orqali ijtimoiy hayotdagi munosabatlarni nafaqat mavjud holatda tasvirlash, balki ularni insoniylik va qadriyat mezonlari asosida chuqur tahlil qilish ham mumkin bo‘ladi.

Gumanizmning ijtimoiy munosabatlarni baholashdagi o‘rni, avvalo, jamiyatning markaziga insonni qo‘yish bilan belgilanadi. Agar muayyan ijtimoiy tizim insonni faqat vosita, mehnat resursi, siyosiy kuch yoki iqtisodiy birlik sifatida talqin etsa, bunday yondashuv gumanistik mazmunga ega bo‘la olmaydi. Gumanizm esa insonni mustaqil qadriyat, jamiyat va tarixning faol subyekti sifatida ko‘radi. Shu sababli u har qanday ijtimoiy tuzumni inson manfaatlariga munosabati, uning huquq va erkinliklarini qay darajada ta’minlay olishi, shaxsning qadr-qimmatini qanchalik e’tirof etishi asosida baholaydi. Demak, gumanizm ijtimoiy munosabatlar mohiyatini insonparvarlik mezoni orqali tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur masalada adolat tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Adolat gumanizmning markaziy ijtimoiy-me’yoriy kategoriyalaridan biri bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning haqqoniy, muvozanatli va ma’naviy asosda tashkil etilishini anglatadi. Gumanistik nuqtai nazardan adolat bu faqat jazoni yoki mukofotni teng taqsimlash emas, balki har bir shaxsning qadr-qimmatini tan olish, uning ehtiyojlari, huquqlari va imkoniyatlariga hurmat bilan yondashishdir. Adolatli jamiyatda insonning sha’ni poymol etilmaydi, uning manfaatlari siyosiy yoki iqtisodiy maqsadlar yo‘lida qurbon qilinmaydi. Shu ma’noda adolat gumanizmning amaliy ifodasi bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarni insoniylashtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, adolat jamiyatdagi munosabatlarning insoniy mezon asosida tashkil etilishini bildiradi. Har qanday jamiyatda insonlar o‘rtasidagi aloqa, hamkorlik, boshqaruv, huquqiy tartibot va axloqiy me’yorlar mavjud bo‘ladi. Ana shu munosabatlarning qay darajada adolatli ekanligi jamiyatning ma’naviy darajasini belgilaydi.

Gumanistik yondashuvning ikkinchi yirik tamoyili tenglikdir. Tenglik gumanizmda insonlarning tabiiy qadr-qimmati bir xil ekanini tan olishni anglatadi. Bu yerda tenglik insonlarning iste’dodi, imkoniyati yoki ijtimoiy maqomi aynan bir xil degani emas. Gumanizmning maqsadi hammani bir qolipga solish emas, balki har bir insonning insoniy maqomini e’tirof etishdir. Ya’ni millati, dini, jinsi, tili, ijtimoiy kelib chiqishi yoki dunyoqarashidan qat’i nazar, har bir inson hurmat va huquqqa loyiqdir. Gumanistik tafakkur tizimida shaxs erkinligi markaziy o‘rin egallaydi. Shaxs erkinligi gumanistik g‘oyalarning nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy-falsafiy asoslaridan biri hisoblanadi. Insonning qadr-qimmati, huquqlari, ma’naviy kamoloti va ijodiy salohiyati aynan erkinlik sharoitidagina to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan erkinlik insonning o‘z mohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatidir. Aksincha, erkinlik insonning ongli ravishda tanlash, o‘z harakatining maqsad va oqibatlarini anglash, jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etgan holda faoliyat yuritish qobiliyatini bildiradi. Demak, shaxs erkinligi ichki ong, axloqiy yetuklik va ijtimoiy mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq hodisadir.

Xulosa qilib aytganda gumanistik yondashuvda shaxs erkinligi, avvalo, insonning tabiiy qadr-qimmati bilan bog‘lanadi. Agar inson oliy qadriyat deb e’tirof etilsa, u holda uning erkin fikrlashi, o‘z e’tiqodiga ega bo‘lishi, o‘z hayot yo‘lini tanlashi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi ham tan olinishi lozim. Insonni hurmat qilish faqat uning mavjudligini tan olish bilangina cheklanmaydi; bu ayni paytda, uning mustaqil fikr va iroda egasi ekanini tan olishni ham anglatadi. Shu ma’noda erkinlik gumanizmning ichki mazmunini ochib beruvchi muhim kategoriya hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyatiga ko‘ra insonlar o‘rtasidagi aloqa, hamkorlik, taqsimot, boshqaruv, mas’uliyat va manfaatlar uyg‘unligidan iborat. Ammo bu munosabatlar doimo adolatli yoki insonparvar shaklda bo‘lavermaydi. U ijtimoiy borliqni faqat qabul qilmaydi, balki uni yaratadi, o‘zgartiradi va unga ma’no beradi. Aksiologik jihatdan esa inson barcha ijtimoiy institutlarning maqsadi bo‘lishi kerak. Demak, davlat, huquq, siyosat, iqtisodiyot, ta’lim va madaniyatning asl qadri inson manfaatiga xizmat qilganida namoyon bo‘ladi. Gumanizm ijtimoiy munosabatlarni mana shu nuqtai nazardan baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Nazarov. Falsafa asoslari. O‘quv qo’llanma. -Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.
2. Иброхим Каримов. Сирожия Валиева. Карима Туленова. Ижтимоий фалсафа/ услубий кулланма Тошкент. 2008 й.67-б.
3. Древнекитайская философия. В двух томах. Том 1. М., 1972, 171 b.
4. Tafakkur Gulshani. Vladimir Vorontsov kompozitsiyasi. Sharifa Abdurazzoqova tarjimasi. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti:./ 1989. 29-bet

5. Фалсафа: энциклопедик лугат/ЎзР ФА, И.Муминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти. -Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2010. - 396 б
6. Нерсесянц В. С. Ҳуқуқ фалсафаси / Масъул муҳаррир: А. Х. Саидов, Т., «Адолат», 2003. 215 б.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ КУЛЬТУРНЫЕ РЕАЛИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РУССКИХ И ТЮРКСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ

Каллибеков Аметбек Рустембекович
Республика Узбекистан, г. Хива, преподаватель университета Маъмун

В современной филологической науке проблема изучения национально-культурных реалий занимает важное место, что обусловлено возрастающим интересом к вопросам межкультурной коммуникации и взаимодействия языков и культур. Национально-культурные реалии выступают одним из ключевых средств репрезентации специфики национального мировосприятия, отражая особенности быта, традиций, менталитета и ценностных ориентаций народа [Верещагин Е.:45]. Под национально-культурными реалиями понимаются языковые единицы, обозначающие предметы и явления, характерные для определённой культуры и не имеющие точных аналогов в других языках. Они включают элементы материальной и духовной культуры, такие как традиционные формы быта, обряды, социальные институты и символические представления. В художественном тексте реалии выполняют не только номинативную, но и экспрессивную, когнитивную и культурно-идентификационную функции.

В русской литературе национально-культурные реалии представлены в произведениях Лев Николаевич Толстой, Николай Васильевич Гоголь, Фёдор Михайлович Достоевский. Так, в романе «Война и мир» Л. Н. Толстого реалии дворянской культуры (балы, военные события, семейные традиции) формируют целостное представление о социально-исторической действительности России XIX века [Толстой Л.:120]. Через систему культурных деталей автор раскрывает особенности национального характера, отражающего духовные и нравственные ценности эпохи.

В произведениях Н. В. Гоголя значительную роль играют этнографические реалии, связанные с народной культурой: фольклорные мотивы, обрядность, народные верования [Гоголь Н.:35]. Они создают особую художественную атмосферу и способствуют формированию национального колорита. В творчестве Ф. М. Достоевского национально-культурные реалии проявляются в сфере духовной культуры, включая религиозные представления и нравственно-философские категории, определяющие специфику русской ментальности. В тюркской литературе национально-культурные реалии также играют важную роль. В произведениях Чингиз Торекулович Айтматов, Абдулла Кадри, Мухтар Омарханович Ауэзов

отражаются особенности традиционного уклада жизни, родоплеменных отношений и мировоззрения тюркских народов.

В романе Ч. Т. Айтматова «И дольше века длится день» важное место занимают такие реалии, как степь, юрта, традиционные представления о чести и памяти предков, которые формируют философскую концепцию человека, укоренённого в культуре своего народа [Айтматов Ч.:150]. В произведении А.Кадыри «Минувшие дни» представлены реалии узбекского общества конца XIX — начала XX века, включая семейные традиции и социальные нормы. В эпопее М. О. Ауэзова «Путь Абая» отражены особенности казахской культуры, такие как кочевой образ жизни, устная традиция и родовые связи [Ауэзов М.:210].

Сопоставительный анализ показывает, что в русской и тюркской литературах национально-культурные реалии выполняют сходные функции, однако отличаются по содержанию. В русской литературе преобладают реалии оседлой культуры, социальной структуры и государственной организации, тогда как в тюркской литературе значительное место занимают реалии кочевой культуры и природного пространства. Вместе с тем, несмотря на различия, наблюдаются общие тенденции: обращение к духовным ценностям, осмысление исторического опыта и внимание к внутреннему миру человека. Национально-культурные реалии в данном контексте выступают как средство художественного познания мира и формирования культурной идентичности.

Таким образом, национально-культурные реалии являются важным элементом художественного текста, обеспечивающим передачу этнокультурной информации и способствующим межкультурному взаимодействию. Их изучение позволяет глубже понять специфику национальных литератур и выявить универсальные закономерности художественного мышления.

Использованная литература

1. Верещагин Евгений Михайлович, Костомаров Виталий Григорьевич. Язык и культура. — М.: Русский язык, 2005. — С. 45–78.
2. Толстой Лев Николаевич. Война и мир. — М.: Художественная литература, 1983. С. 120.
3. Гоголь Николай Васильевич. Вечера на хуторе близ Диканьки. — М.: Просвещение, 1985. С. 35.
4. Айтматов Чингиз Торекулович. И дольше века длится день. — М.: Советский писатель, 1981. С. 150.
5. Ауэзов Мухтар Омарханович. Путь Абая. — Алма-Ата: Жазушы, 1987. — С. 210.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИСТОРИЧЕСКОГО ОПЫТА

Менлимуратова Индира Азатовна
Республика Узбекистан, город Ташкент, ассистент-преподаватель
Национальный исследовательский университет "Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"

Развитие профессиональной мыслительной деятельности студентов достигается посредством освоения исторического опыта, реализуемого через решение проблемных профессиональных задач, анализ первоисточников и моделирование исторических ситуаций. Данный подход способствует формированию критического мышления, творческого потенциала и способности к трансферу прошлого опыта для решения современных профессиональных проблем, что обусловливает формирование личностного смысла учебной деятельности. Подготовка студентов к творческой профессиональной деятельности и решению нестандартных задач предполагает учет не только общих закономерностей формирования учебной деятельности, но и развитие у студентов специфического научного мышления в рамках той дисциплины, которую они будут преподавать.

Психолог и методист М.И. Кругляк считает, что историческое мышление «заключается в умении разбираться в событиях и явлениях общественной жизни, находить их причины и следствия, их закономерности, изучать исторические события в их причинно-следственных взаимных связях, понимать исторические явления в возникновении и развитии как выражение закономерного поступательного процесса. Систематическое и целенаправленное раскрытие существенных особенностей изучаемых исторических явлений и их взаимных связей является необходимым условием развития исторического мышления». В этом определении специфика исторического мышления достаточно не раскрывается: нет указания на специфичность его предметного содержания. [Кругляк М.И.:1]

В педагогической энциклопедии активность личности рассматривается как деятельностное отношение к миру, способность человека производить социально значимые преобразования материальной и духовной среды на основе освоения общественно - *исторического опыта.* В отношении познания, активность выражается в наличии познавательных интересов, освоения навыков получения информации, сформированности само регуляции поведения; Г.И. Щукиной профессиональная мыслительная деятельность характеризуется как интеграция поисковой направленности в учении, познавательного интереса и его удовлетворения, при помощи различных источников знаний, благоприятных условий осуществления деятельности. [Щукина Г.И.:5] И.Ф. Харламов понимает познавательную активность как «деятельное состояние студента, которое характеризуется стремлением к учению, умственным напряжением и проявление волевых усилий в процессе

овладения знаниями» рассматривает мыслительную активность как качество личности, проявляющееся в отношении к содержанию и процессу деятельности, в стремлении к эффективному овладению знаниями и способами их получения, в мобилизации волевых усилий в достижении цели обучения. [Харламов И.Ф.:3] Вычленение типов профессиональной деятельности зависит от ракурса их исследования. Исходя из основных функций деятельности, А.М. Матюшкин условно выделяет два ее типа: адаптивный, обеспечивающий приспособление личности к условиям изменяющейся среды, и продуктивный - «сверх адаптивный», выходящий за пределы необходимого уровня адаптации. [Матюшкин А.М.:2]

Современная система образования, склонная к социологическому подходу в изучении истории, вынуждает студентов одновременно постигать как базовые факты, так и сложные абстракции. Это приводит к формированию стереотипной мыслительной деятельности, когда новые знания лишь вписываются в уже существующие, заученные схемы. В результате у студентов может возникнуть ощущение существования двух разных историй: одной – формальной, академической, которую они получают в вузе, и другой – живой и реальной, почерпнутой из книг, кино и СМИ. Такое разделение порождает двоемыслие, которое неизбежно ведет к конформизму или нигилизму. Чтобы по-настоящему развить у студентов историческое мышление и творческие познавательные способности, необходимо выстраивать обучение по принципу "от простого к сложному". Начинать следует с формирования ярких, эмоционально окрашенных представлений об истории, затрагивающих нравственные аспекты. Путь к глубокому пониманию истории лежит через поэтапное развитие мышления. Сначала мы выстраиваем события в стройный ряд, как звенья одной цепи, понимая, как действия людей и ход времени меняют мир. Затем мы учимся видеть не просто факты, а их взаимосвязи, различать главное и второстепенное, словно распутывая клубок причин и следствий. Финальный этап – это обретение целостного взгляда на историю, как на грандиозный, единый процесс, где проступают общие законы, и где мы можем ставить и решать сложные исторические вопросы. Будущим специалистам необходимо не только знать эти ступени развития исторического мышления, но и активно работать над его совершенствованием, чтобы быть готовыми к решению связанных с ним вызовов. Установление причинно-следственных связей исторических событий и явлений.

1. Понимание хода истории и движущих сил развития общества.
2. Выявление общих и специфических законов, управляющих развитием общества.
3. Нахождение связей и последовательности между историческими фактами, событиями, явлениями и периодами.
4. Оценка того, насколько историческое явление способствовало прогрессу.
5. Применение общих научных подходов, включая перенос выводов из наблюдений на более широкие области.

6. Осуществление ключевых исследовательских действий: идентификация научного факта, его объяснение и предсказание.

7. Развитие навыков мыслительных операций, таких как сопоставление, разбор, объединение, уточнение и обобщение.

8. Освоение принципов и методов диалектического мышления, позволяющих видеть исторические события во взаимосвязи, обусловленности, выявлять их противоречия и применять диалектический синтез в познании.

9. Стимулирование развития мыслительной деятельности, включая интуицию.

10. Знание и применение инструментов и методик, используемых в исторической науке.

В итоге, мы изучили, как исторический опыт влияет на мыслительную деятельность студентов, раскрывая его специфику, роль и цели. Профессиональное мышление студентов, опирающееся на историю, предполагает развитие системного подхода, умения анализировать прошлое, сравнивать его с настоящим и применять полученные знания для решения профессиональных задач. Этот навык формируется через проблемное обучение, работу с оригинальными источниками и развитие исторической памяти. Анализ исторических ситуаций является центральным элементом обучения, позволяющим студентам выявлять закономерности, строить логические связи и углублять понимание материала, диагностируя его через исследование причин, условий и последствий.

Использованная литература

1. Кругляк М.И. О проблемном изложении на уроках истории / М.И. Кругляк. − Киев, 1964. − 86 с.
2. Матюшкин А.М. Психологическая структура, динамика и развитие познавательной активности // Вопросы психологии. - 1982. - №4. - 5-17с.
3. Харламов И.Ф. Педагогика: Учеб. Пособие. - М.:Юрист, 1997. - 512с.
4. Шамова Т.И. Активизация учения школьников. - М.:Педагогика, 1982. - 209с.
4. Щукина Г.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе. - М.: Просвещение, 1979. - 160с.

СИСТЕМНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПАРАДИГМЫ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ НАЧАЛА XX ВЕКА: ОТ СИМВОЛИЗМА К АКМЕИЗМУ

Досымбетов Абдирахман
студент 4 курса отделения русского языка и литературы Каракалпакского государственного университета имени Бердаха
Научный руководитель: доц. Худайбергенова У.К.

Русская литература начала XX века развивается в условиях глубинного мировоззренческого кризиса, связанного с переоценкой ценностей классической культуры, кризисом рационалистической картины мира и

поиском новых оснований художественного мышления. Этот период характеризуется интенсивным формированием модернистских течений, каждое из которых предлагает собственную модель интерпретации реальности.

Символизм, доминировавший в конце XIX — начале XX века, стремился к созданию универсальной метафизической системы, в которой художественное слово выступало посредником между видимым и невидимым мирами. Однако усложнение символистской поэтики и её отрыв от конкретной реальности постепенно привели к необходимости пересмотра её эстетических принципов [1., с. 45].

Возникновение акмеизма стало закономерным этапом в развитии русской литературы, отражающим стремление к преодолению символистской неопределённости и восстановлению ценности предметного мира. В центре внимания акмеистов оказывается не трансцендентная реальность, а конкретное бытие, требующее точного и ясного художественного выражения.

Символистская поэтика наглядно проявляется в стихотворении «Незнакомка» Александр Блок. В этом тексте создаётся многослойный образ, в котором реальность и иллюзия переплетаются. Описание «пьяного воздуха» и «тлетворного духа» кабака сочетается с появлением загадочной женской фигуры, которая приобретает черты символа иной, высшей реальности. Образ Незнакомки не поддаётся однозначной интерпретации: она одновременно конкретна и призрачна. Такая двойственность отражает ключевую установку символизма — стремление выйти за пределы эмпирического мира [7., с. 189].

Аналогичная тенденция наблюдается в стихотворении «О, я хочу безумно жить…», где Блок утверждает: «Всё сущее — увековечить, / Безличное — вочеловечить…» [1., с.52]. Здесь поэзия понимается как акт преображения мира, как способ придания ему высшего смысла. Однако именно эта устремлённость к трансцендентному приводит к размыванию границ между реальным и воображаемым.

Bundan tashqari, yangi texnologiyalar va ilmiy yangiliklar paydo bo‘lishi bilan yangi terminlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ularni to‘g‘ri tarjima qilish va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tarjimashunosligi boy tarixiy tajribaga ega bo‘lgan va bugungi kunda ham izchil rivojlanib borayotgan ilmiy sohadir. Tarjima orqali xalqlar o‘rtasida madaniy, ilmiy va ma’naviy aloqalar mustahkamlanadi.

Kelgusida ushbu sohani rivojlantirish uchun tarjima nazariyasini chuqurlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda sifatli tarjimalar yaratish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komissarov V.N. “Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)”. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
2. Barkhudarov L.S. “Yazyk i perevod”. – Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya, 1975.
3. Nida E. “Toward a Science of Translating”. – Leiden: E.J. Brill, 1964.
4. Newmark P. “A Textbook of Translation”. – London: Prentice Hall, 1988.
5. Catford J.C. “A Linguistic Theory of Translation”. – London: Oxford University Press, 1965.
6. G‘aniev A. “Tarjima nazariyasi asoslari”. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Yo‘ldoshev B. “Badiiy tarjima masalalari”. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2005.

O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA QO‘LLANILGAN FONETIK O‘ZGARISHLAR

Avazova Farida Erkin qizi

Qoraqalpog ‘iston Respublikasi, Bo‘ston shahri, Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal’a fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2- bosqish talabasi

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o‘zaro ta’siri natijaida o‘zgarishlarga uchrashiga fonetik o‘zgarishlar deyiladi. Fonetik hodisalar unlilarga ham, undosh tovushlarga ham taalluqli.O‘zbek tili agglyutenativ til sanaladi. Agglyutenativ tilning muhim xususiyatlaridan biri shuki, so‘zga qo‘shimchalar qo‘shilganida ham tovuush tarkibi o‘zgarmaydi.Masalan, keldim so‘zida kel asosiga –di va –m qo‘shimchalari qo‘shilganda hech qanday fonetik o‘zgarish bo‘lmaydi. Lekin ayrim so‘zlarda qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida so‘zning tovush tarkibi o‘zgaradi.

Masalan, qayin+a=qayna tovush tushgan.

Ong+la=angla, tovush almashgan.

Isi+q=issiq, tovush ortgan. Bu esa o‘zbek tilida ham flektiv til elementlari mavjudligidan dalolat beradi.

Asosga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida so‘zning tovush tarkibi o‘zgarishiga fuziya yoki fleksiya deyiladi.Demak,yuqoridagi qiyna,angla,issiq so‘zlarida fuziya (fleksiya) kuzatilgan.

Fuziya tovush o‘zgarishi bo‘lib,so‘z asosida,qo‘shimchada,asos va qo‘shimchada bo‘lishi mumkin.Masalan,son+a=sana asosda fuziya bo‘lgan

tilak +ga = tilakka qo‘shimchada fuziya bo‘lgan, so‘ra+q+ga = so‘roqqa asos va qo‘shimchada fuziya bo‘lgan,fuziya ham fonetik o‘zgarishlarning ikkinchi nomi hisoblanadi.Fuziyaning ham o‘zbek tilida 3 ta turi bor:tovush tushishi,tovush ortishi,tovush o‘zgarishi.

Tovush tushishi:

1.yig‘i + la = yig‘la
2.qizil + ar = qizar
3.ulug‘ + ay = ulg‘ay
4.chaqin + a = chaqna
5.ho‘ngir + a =ho‘ngra

Tovush ortishi:

1.achi + qi =achchiq
2.sasi + q =sassiq
3.fan + iy = fanniy
4.his + iy =hissiy
5.shar + os =sharros

Tovush almashinishi

1.son + a =sana
2.chuchi + k = chuchuk
3.mudra + q = mudroq
4.ishqa + r = ishqor
5.yosh + ar = yoshar

EDI, EKAN, EMISH

EMAS to‘liqsiz fe'llari yetakchi fe`llar bilan birga qo‘llanganda fe`lning birinchi bo‘g‘inidagi o‘rta keng unli tushib qoladi.Masalan, kelgan emas – kelganmas, borgan emish – borganmish, borar edi – borardi, borar ekan – borarkan .Bu so‘zlar fonetik o‘zgarihga misol bo‘la olmaydi!

Buyuk yozuvchilar borki,har biri asarlarida yoki shoirlar o‘z she`rlarida shu kabi fonetik op`zgarishlardan foydalanmasdan asar yoki she`r yozsa.Shu jumladan,O‘tkir Hoshimov ham o‘zining har bitta asarlarida fonetik o‘zgarishlardan foydalangan.Yozuvchining “Ikki eshik orasi” romanida ham fonetik o‘zgarishlar keltirilgan.Misol uchun,”Ikki eshik orasi” romanida tovush tushishi,tovushj ortishi,tovush almashinishi kabi fonetik o‘zgarishlar yuz bergan.

Masalan,

1.O‘g‘il + im = o‘g‘lim tovush tushishi;
2.Yoq + i = yog‘i; tovush almashishi;
3.Qo‘ltiq + im = qo‘ltig‘im; tovush almashishi;
4.Sovi + q = sovuq; tovush almashishi;
5.Burchak + i = burchagi; tovush almashishi;
6.Titra + q = titroq; tovush almashishi;
7.O‘rin + i =o‘rni; tovush tushishi;
8.Qopqoq +i = qapqog‘i; tovushj almashishi;
9.Tomoq + im = tomog‘im; tovush almashishi;
10.Achi + q = achchiq; tovush ortishi;
11.Yig‘i + la = yig‘la; tovush tushishi;
12.Tuk + in = tugun; tovush almashishi;
13.Yumsha + q = yumshoq; tovush almashishi;
14.Oyoq + i = oyog‘i ; tovush almashishi;
15.Eshik + i = eshigi ; tovush almashishi;

O‘tkir Hoshimov o‘zining ushbu asarida shu kabi fonetik o‘zgarishlarga uchragan so‘zlardan ham foydalangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,fonetik o‘zgarishlar asosan egalik qo‘shimchalari qo‘shilishi bilan asos qismida tovush tushishi,tovush ortishi,tovush almashishi kabi fonetik o‘zgarishlar yoki jarayonlar yuz beradi.Egalik qo1`himchalari orqali fonetik o‘zgarishlarga uchragan so‘zlarga,misol uchun:

1.Qovoq + i = qovog‘i; egalik qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali asosda tovush almashishi yuz bergan.

2.O‘g‘il + im = o‘g‘lim; egalik qo‘shimchasi qo‘shish orqali asos qismida tovush tushishi yuz bergan.

Bu romanda turli xil qo‘shimchalar orqali fonetik o‘zgarihlar ro‘y bergan desak xato bo‘lmaydi.O‘tkir Hoshimov ham boshqa yozuvchilar kabi fonetik o‘zgariahlardan o‘rinli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘.Hosimov (“Ikki eshik orasi” romani), 3-nashr,”O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi,Toshkent-2018.

2 . N . Erkaboyeva (" O‘zbek tilidan ma’ruzalar ") to‘plami ,, Yosh kuch "nashriyoti , Toshkent 682- bet .

MAQOL VA MATALLARNING TIL BOYLIGIDAGI O‘RNI

Azadboyeva Yangiljon Adilbek qizi

Qoraqalpog ‘iston Respublikasi, Bo‘ston shahri, Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal’a fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Til — insonlar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Tilning boy va mazmunli bo‘lishi esa xalqning madaniyati va tafakkur darajasini ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, maqol va matallar til boyligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Ular xalq og‘zaki ijodining bebaho namunasi bo‘lib, asrlar davomida shakllanib kelgan.

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli.

Matal — muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. M.da o‘xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so‘z kabi badiiy

vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o‘z asl ma’nosi bilan ko‘chma ma’nosi o‘rtasida yaqinlik, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi lozim.

Maqol va matallar qisqa, lo‘nda va mazmunan chuqur iboralardir. Ular orqali xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi va dunyoqarashi ifodalanadi. Maqollar odatda tugallangan fikrni bildiradi, matallar esa ko‘proq obrazli ifoda sifatida qo‘llaniladi.Maqol va matallar nutqimizni boyitishda katta ahamiyatga ega. Ular yordamida inson o‘z fikrini aniq, ravon va ta’sirchan ifoda eta oladi. Ayniqsa, badiiy nutqda maqol va matallardan foydalanish fikrning kuchini oshiradi.Shuningdek, maqol va matallar tarbiyaviy jihatdan ham muhimdir. Ular yosh avlodni halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, vatanparvarlik kabi fazilatlarga o‘rgatadi. Masalan, “Mehnat qilgan to‘yadi”, “Sabr tagi sariq oltin” kabi maqollar insonni to‘g‘ri yo‘lga, mehnat qilishga, sabr-qanoatli va eng asosiysi insonni mehnat qilish orqali insonni to‘g‘ri yo‘lga undaydi.Bundan tashqari, maqol va matallar milliy qadriyatlarning ifodasi hisoblanadi. Ular orqali xalqning urf-odatlari, an’analari va turmush tarzi aks etadi.

Maqollardan namuna:

Yaxshi gap – jon ozig‘i.

Sabr tagi – sariq oltin.

Tilga e’tibor – elga e’tibor.

Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib.

Til bilgan – el biladi.

Yaxshi so‘z – jon ozig‘i.

Ma’nosi: Yaxshi va iliq so‘z insonni xursand qiladi, unga kuch va ruhiy quvvat beradi.

Tilga ehtiyot bo‘l, boshga balo bo‘lmasin.

Ma’nosi: Ehtiyotsiz aytilgan so‘z katta muammolarga olib kelishi mumkin.

Til – insonning ziynati.

Ma’nosi: Chiroyli va madaniyatli nutq insonning eng yaxshi fazilatlaridan biridir.

Maqollar insonni to‘g‘ri so‘zlashga, o‘z nutqiga ehtiyotkor bo‘lishga va madaniyatli muloqot qilishga o‘rgatadi. Ular orqali tilning kuchi va ahamiyati chuqur anglanadi. Maqollar xalqning donishmandligini ifodalab, nutqni boyitadi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu sababli til haqidagi maqollarni o‘rganish va amalda qo‘llash har bir inson uchun muhimdir.Xulosa qilib aytganda, maqol va matallar til boyligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Ular nutqni yanada ta’sirchan, obrazli va mazmunli qiladi, fikrni qisqa va aniq ifodalashga yordam beradi. Shuningdek, maqol va matallar xalqning donishmandligi va hayotiy tajribasini o‘zida aks ettirib, yosh avlodni tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, ularni o‘rganish va nutqda keng qo‘llash til madaniyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
2.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
3.Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.wikipedia.org

BIOGRAFIK ROMANDA TARIXIY VA BADIIY HAQIQAT

Azimova Gulzoda
O‘zbekiston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpoq davlat universiteti
4-bosqich talabasi

Ijodkor tafakkuri va badiiy taxayyul mahsuli bo‘lgan roman janrida jamiyat va inson hayoti, shaxs qismati hamda ijtimoiy-tarixiy jarayonlar murakkab badiiy talqin orqali ifodalanadi. Ayniqsa, biografik romanda tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat o‘zaro murakkab dialektik birlikni tashkil etadi. Bu birlikda tarixiy faktlar, hujjatlar va real voqelik yozuvchi estetik ideali hamda individual badiiy tafakkuri orqali qayta ishlanadi va yangi, san’at qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi badiiy haqiqatga aylanadi.

Har qanday roman problematikasi, mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishi, avvalo, ijodkorning estetik ideali bilan belgilanadi. Shu bilan birga, asar yaratilgan davrning ijtimoiy-madaniy muhiti, mafkuraviy talablari ham yozuvchi tafakkurining yo‘nalishini muayyan darajada belgilab beradi. Demak, biografik roman nafaqat tarixiy voqelikni aks ettiradi, balki uni zamon ruhiga mos holda talqin qiladi. Bu esa tarixiy va badiiy haqiqat o‘rtasidagi nisbatning nisbiyligini ko‘rsatadi.

Tarixiy-biografik romanning asosiy vazifasi o‘tmish voqealari va tarixiy shaxslar hayoti orqali bugun va kelajak haqidagi konseptual xulosalarni ilgari surishdan iboratdir. Bunda tarix ko‘zgusi orqali zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy muammolari tahlil qilinadi. Shu jihatdan tarixiy roman retrospektiv emas, balki konseptual-proyektiv xarakterga ega bo‘lib, unda o‘tmish – bugunning ma’naviy mezoni sifatida talqin etiladi.

O‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman an’analari Oybekning “Navoiy” asari, Pirimqul Qodirov ning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, Odil Yoqubov ning “Ulug‘bek xazinasi” romanlari bilan shakllangan bo‘lib, keyingi davrda izchil rivoj topdi. Ushbu an’ana mustaqillik yillarida yangi estetik va metodologik yondashuvlar bilan boyidi. Xususan, Sa’dulla Siyoyev, Asad Dilmurod, Omon Muxtor, Isajon Sulton, Luqmon Bo‘rixon kabi adiblar ijodida tarixiy shaxs obrazi badiiy-falsafiy talqin markaziga ko‘tarildi.

Mazkur tipdagi romanlarda tarixiy shaxs faqat faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki murakkab ruhiy olamga ega bo‘lgan individual xarakter sifatida tasvirlanadi. Shu orqali biografik roman tarixiy shaxsni “tiriltiradi”, uni zamonaviy o‘quvchi ongiga yaqinlashtiradi va badiiy-estetik idrok ob’ektiga aylantiradi.

Sa’dulla Siyoyev ning “Avaz O‘tar” romani bu jihatdan alohida e’tiborga loyiq. Asarda XIX asr Xiva adabiy muhiti, shu muhitning shakllanishida Muhammad Rahimxon II ning o‘rni, shuningdek, Avaz O‘tar shaxsiyati, uning ijodiy merosi va fojiali taqdiri badiiy talqin etiladi. Muallif tarixiy materiallarga, arxiv hujjatlariga va adabiyotshunoslik tadqiqotlariga tayangan holda badiiy to‘qima bilan uyg‘unlashgan yaxlit tasvir yaratadi.

Biroq biografik romanda tarixiy haqiqatni talqin etishda yozuvchining yashagan davri mafkurasi muhim rol o‘ynaydi. Sho‘ro davrida yaratilgan asarlarda tarixiy shaxslar ko‘pincha “sinfiylik”, “g‘oyaviylik” mezonlari asosida baholangan.

Shu sababli ayrim obrazlar biryoqlama yoki ideologik talqin asosida tasvirlangan bo‘lishi mumkin. Bu holni adibning shaxsiy pozitsiyasi bilan emas, balki davrning mafkuraviy-siyosiy bosimi bilan izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘riroqdir.

Demak, biografik romanda tarixiy va badiiy haqiqat o‘rtasidagi munosabat murakkab, ko‘p qatlamli jarayon bo‘lib, unda fakt va to‘qima, tarixiylik va estetiklik, obyektivlik va subyektivlik o‘zaro dialektik birlikda namoyon bo‘ladi. Badiiy haqiqat tarixiy haqiqatni inkor etmaydi, balki uni estetik qayta ishlash orqali yangi ma’no va mazmun bilan boyitadi. Shu bois biografik roman tarixni nafaqat aks ettiradi, balki uni talqin qiladi, baholaydi va yangicha ma’naviy-estetik qiyofa kasb ettiradi.

Yozuvchining tarixiy-biografik roman yaratish jarayonida manba bilan ishlash tamoyili alohida ilmiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Xususan, Sa’dulla Siyoyev “Avaz O‘tar” romanini yozishda shoirning boy ijodiy merosi, zamondoshlar xotiralari, tarixiy qaydlar, arxiv hujjatlari hamda adabiyotshunoslik tadqiqotlariga tayangan holda badiiy konsepsiya yaratadi. Bu jarayonda faktik material va badiiy to‘qima o‘zaro sintezlashib, tarixiy haqiqatning estetik qayta yaratilgan shakli – badiiy haqiqat yuzaga keladi.

Adabiyotshunos Hotam Umurov ta’kidlaganidek, yozuvchi tasavvuri real hayot materialini oddiy aks ettirish bilan cheklanmaydi, balki uni saralaydi, qayta ishlaydi va muayyan estetik g‘oya asosida yangi badiiy yaxlitlik hosil qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarixiy roman yaratish jarayoni mimetik (aks ettiruvchi) emas, balki transformativ xarakterga ega bo‘lib, unda hayotiy faktlar san’at qonuniyatlariga bo‘ysundiriladi.

Biroq tarixiy mavzudagi asarlarda ushbu jarayon yanada murakkablashadi. Chunki adib tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlashga majbur. Bu muvozanat “hayotiy me’yor” tushunchasi orqali belgilanadi: ya’ni tarixiy faktlar buzib ko‘rsatilmasligi, lekin ayni paytda ular badiiy-estetik talablarga mos ravishda qayta talqin etilishi zarur. Natijada tarixiy-biografik romanlarda fakt va to‘qima dialektik birlikda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Izzat Sulton. Asarlar. IV tomlik, I tom. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1971.
2. Ibrohim Haqqul. Hayot, adabiyot va abadiyat. – Toshkent: Tafakkur,
3. Hamdam U. Eski dunyo va yangi men. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 383.
4. Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 53-bet.

"QUYASH NURI"NAN NÁR ALǴAN POEZIYA

Balǵabaeva Anjella
QMU, Qaraqalpaq filologiyası hám jurnalistika fakulteti 2-kurs studenti

XIX ásirdiń aqırı XX ásirdiń basında ómir súrgen shayır hám publicist Ǵabdulla Toqay tatar poeziyasınıń quyashı boldı.Ol tek tatar xalqınıń ullı shayırı bolıp qalmastan, óziniń bahalı shıǵarmaları menen túrkiy tilles xalıqlardıń da súyikli

xalıq shayırına aynalǵan. Ol tatar poeziyasınıń ideya hám mazmunına ǵana emes, al formasına da jańalıqlar kirgizdi. Pushkin hám Lermontovtı ózine ustaz dep bildi. Óz gezeginde, Toqay da qaraqalpaq shayırlarına kúshli tásir etken. Ásirese,qaraqalpaq poeziyasınıń sónbes juldızı Ibrayım Yusupovtıń eń súyikli ruwxıy ustaz shayırlarınan biri bolǵan. Ol Ǵ.Toqaydı ,,Tatar poeziyasınıń quyashı" dep ataydı. Usı atamadaǵı toplamǵa jazǵan kiris sózinde I.Yusupov mınaday sózlerdi keltirgen. ,,Toqay 30-jıllardaǵı geypara qaraqalpaq shayırlarına kúshli tásir etken. Súyikli shayırdıń sol gezde awdarılǵan ba yamasa birew tárepinen ózgertip islengen be, bilmedim, "Jıldıń tórt máwsimi" degen qosıǵın oqıw kitaptan bizler yadlap júretuǵın edik. 1946-jılı men Toqaydıń Muwsa Jalil redaktorlıǵında 1938-jılı shıqqan bir tomlıǵın jolıqtırdım. Toqay sol kúnnen baslap meniń eń súyikli ustaz shayırlarımnan boldı. Onıń "Keńes", "Shayır", "Diywana", "Aldandım", "Muhabbat", "Sońında" degen qosıqların institutta oqıp júrgenimde-aq awdarıp yadlap júrdim.

Toqaydıń qosıǵınıń hár qatarı dáne maǵızlı pisip turǵan biyday masaǵı sıyaqlı. Bul masaqta bir de bos qawızaq, bir de push dán joq. Usı biydaydıń nanı sıyaqlı Toqaydıń qosıǵı hámmege birdey túsinikli de, mazalı da. Óytkeni xalıq poeziyası, xalıq turmısın, xalıq ármanın súwretlew, xalıq muńın muńlaw Toqay poeziyasınıń alfa hám omegası boldı". [1.96]

"Haqıyqatında da, qaraqalpaq ádebiyatınıń eń iri hám talantlı wákili I.Yusupovtıń Ǵ.Toqay haqqında, onıń dóretiwshiliginiń bahası hám tásiri tuwralı aytqan pikirleri Toqay mısalında tatar hám qaraqalpaq ádebiy baylanısınıń eń ayqın mısallarınan esaplanadı." [2.93].

I.Yusupovtıń qaraqalpaq kórkem ádebiyatına jańa tema hám jańa mazmun alıp keliwinde de Ǵabdulla Toqay poeziyasınıń tásiri boldı. Bunı biz shayırdıń ótken ásirdiń 70-jıllarında jazılǵan "Ana tilime" qosıǵınıń mazmunın da ayqın kóriwimizge boladı. Sebebi bul qosıq Ǵabdulla Toqaydıń óz ana tiliniń ullılıǵın maqtanısh sezimleri menen jırlaǵan "Ana tilime" qosıǵına únles keledi hám bul qosıqtı I.Yusupovtıń ózi qaraqalpaq tiline awdarma qılǵan. Endi bul eki qosıqtı da salıstırıp kóreyik:

Há tuwǵan til, há sulıw til, ata-anamnıń tili,
Dúnyada kóp nárse bildim sen til arqalı. [3.41]
yamasa
Naqıllarıń shaǵıp kórsem, mańızdan,
Juwabıysań zeyin suwın aǵızǵan.
Atam saǵan azamatlıq jan berip,
Anam saǵan miyrim sútin tamızǵan.[4.38]

Bul qosıq qatarlarında eki shayır da óz ana tilin sulıw dep biledi hám ana tili ata-anadan miyras bolıp qalǵan muqaddes baylıq ekenin atap ótken. Insan dúnyadaǵı bilimlerdi áyne ana tili arqalı ańlaydı,- deydi.

Ǵabdulla Toqay óz ana tiline múrajat etip, onı hár waqıtta ózine mádetker, yaǵnıy súyenish bolıp kelgenin aytadı. Insan ishindegi quwanısh (shadlıq) ta, dárt-hásiret te áyne ana tili arqalı ańlatılıwın atap ótedi:

Ana tilim! Hár waqıtta járdemiń menen seniń,
Kishkeneden ańlasılǵan shadlıǵım-qayǵım meniń.

Insannıń eń taza niyetleri, duwaları hám tilekleri ana tili arqalı bildiriledi. Ana tili - bul tek ǵana qarım-qatnas quralı emes, al jaratqan menen baylanıstırıwshı muqaddes baylanıs. Onı súyiw hám qásterlep saqlaw - ata-ananı, milliy ózlikti hám ruwxıylıqtı qádirlew menen teń. Bunı shayır tómendegi qatarlarda keltirip ótedi.

Yaratqan yar bol bizge hám ata-anama dep,
Sen arqalı tilek tilep, duwa qılǵanman eń ádep.[3.41]

I.Yusupov ta Toqay sıyaqlı óz ana tiliniń insan ómirindegi ornın oǵada tereń hám tásirsheń túrde kórsetedi:

Men teńeymen seni jegen nanıma,
Uwız benen ruwxıń singen qanıma,
Es bilgeli til jatırqap kórmedim,
Biraq sen dım jaqınsań-aw janıma.[4.38]

Shayır tildi ápiwayı baylanıs quralı sıpatında emes, al insannıń ırısqı-nesiybesi, qanı hám janı menen tıǵız baylanıslı bolǵan muqaddes jemis sıpatında súwretleydi. Ana tili shaxstıń ruwxıy dúnyası hám milliy ózligin belgileytuǵın tiykarǵı tayanısh ekenligin atap ótedi.

Juwmaqlap aytqanda, Ibrayım Yusupovtıń “Ana tilime” qosıǵında Ǵabdulla Toqay dóretiwshiligine tán kórkem ruwx, tilge bolǵan tereń húrmet hám milliy maqtanısh únleri ayqın seziledi. Bul jaǵday I.Yusupovtıń Toqay dóretiwshiliginen ilhamlanǵanın, onnan kórkemlik úlgiler alıp, olardı óz xalqınıń ruwxıyatı hám oy-pikiri menen úylestirgenin kórsetedi. Ibrayım Yusupov Ǵabdulla Toqay poeziyasında alǵa qoyılǵan ana tili haqqındaǵı ideyalardı dóretiwshilik jaqtan rawajlandırıp, olardı jańa kórkem basqıshqa kóterdi. Atap aytqanda, Yusupov "Ana tilime" qosıǵında Toqay tárepinen baslanǵan pikirler sistemasın logikalıq dawam ettirip, usı qosıqtıń keyingi qatarların jarattı hám ana tilin shaxs kamalǵa keliwi hám milliy sana-sezimdi qáliplestiriwshi joqarı ruwxıy qádiriyat sıpatında talqıladı.

Sonıń menen birge, Ibrayım Yusupov Toqay dástúrlerin kózsiz tákirarlamay, al olardı dóretiwshilik penen qayta islegen halda, qaraqalpaq xalqınıń milliy ózligin, ana tiliniń turmıslıq hám ruwxıy áhmiyetin ózine tán tárizde sáwlelendire alǵan. Demek, hár eki shayır dóretiwshiliginde ana tili tek ǵana baylanıs quralı emes, al milletti saqlap qalıwshı muqaddes qádiriyat sıpatında talqılanadı. I.Yusupovtıń bunnan basqa da tematikada jazılǵan qosıqlarında Ǵ.Toqaydıń ornı ayrıqsha. Bul eki shayır mısalında tatar hám qaraqalpaq ádebiy baylanıslarınıń bir kórinisin kóriwimizge boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Тоқай Ғ. Шығармалары. Қарақалпақ мәмлекетлик баспасы. Нөкис, 1960.
2. Мақсетов Қ. Қарақалпақ әдебиятының туўысқан халықлар әдебиятлары менен байланысы. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1987.
3. Ғабдулла Тоқай. Муңлы саз. - Нөкис, «Қарақалпақстан», 1981.
4. Юсупов И. Пазыйлет. - Нөкис: «Билим», 2014.

UMAR XAYYOM IJODIDA HAYOT FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Daminova Rano Muzaffar qizi
Qoraqalpog ‘iston Respublikasi, Bo‘ston shahri, Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal’a fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2- bosqish talabasi

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida Umar Xayyom alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat shoir, balki buyuk matematik, astronom va faylasuf sifatida ham mashhurdir. Uning ruboiylari orqali inson hayoti, uning ma’nosi, vaqtning o‘tkinchiligi va mavjudlik muammolari chuqur falsafiy ruhda ifodalangan.Bugungi globallashuv davrida insonning ruhiy izlanishlari, hayot mazmunini anglashga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotgan bir paytda Umar Xayyom ijodi yana-da dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Uning fikrlari zamonaviy inson uchun ham muhim hayotiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Sharq uyg‘onish davri ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida alohida o‘rin tutgan bo‘lib, bu davrda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar insoniyat tafakkurining rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ana shunday allomalardan biri Umar Xayyom bo‘lib, u o‘zining serqirra ijodi bilan nafaqat Sharq, balki butun jahon ilmiy va adabiy merosida chuqur iz qoldirgan. Xayyom ilmiy faoliyatida matematika, astronomiya va falsafa bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, uning nomi, ayniqsa, ruboiylari orqali keng mashhurlikka erishgan.

Umar Xayyom ruboiylari inson hayotining mohiyati, borliqning mazmuni, vaqtning o‘tkinchiligi va insonning bu olamdagi o‘rni kabi abadiy falsafiy masalalarni o‘z ichiga oladi. Shoir o‘z asarlarida hayotning qisqaligini chuqur his etgan holda, insonni har bir lahzaning qadriga yetishga, uni mazmunli va zavqli o‘tkazishga chorlaydi. Uning qarashlarida hayotga nisbatan realistik, ba’zan esa skeptik yondashuv seziladi. Shu jihatdan Xayyom ijodi nafaqat badiiy, balki falsafiy ahamiyatga ham egadir.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni, texnologik taraqqiyot va tezkor hayot sur’ati insoniyat oldiga yangi muammolarni qo‘ymoqda. Ruhiy zo‘riqish, ma’naviy bo‘shliq, hayot mazmunini yo‘qotish kabi holatlar zamonaviy jamiyat uchun dolzarb muammolardan biriga aylangan.

Bunday sharoitda Umar Xayyom ijodidagi hayot falsafasi inson uchun muhim ruhiy va ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Uning fikrlari insonni ortiqcha tashvishlardan voz kechib, hayotning asl mazmunini anglashga, oddiylik va tabiiylikni qadrlashga undaydi. Shuningdek, Xayyom ijodi orqali inson erkinligi, tafakkur mustaqilligi va shaxsiy qarashlarning muhimligi ilgari suriladi. Bu g‘oyalar esa bugungi demokratik jamiyat qurish jarayonida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida ilgari surilgan fikrlar insonning ichki dunyosini boyitishga, uni mustaqil fikrlashga va hayotga ongli munosabatda bo‘lishga undaydi.Mazkur ishning dolzarbligi shundaki, Umar Xayyom ijodidagi hayot falsafasini o‘rganish orqali zamonaviy insonning ma’naviy ehtiyojlariga javob topish, hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantirish va uning ruhiy barkamolligiga xizmat qiluvchi xulosalar chiqarish mumkin. Shu sababli ushbu mavzu bugungi kunda ham ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Umar Xayyom ijodi ko‘plab sharq va g‘arb olimlari tomonidan o‘rganilgan. Uning ruboiylari ilk bor Yevropada keng tarqalishi ingliz tarjimoni Edvard Fitsjerald nomi bilan bog‘liq. Tarjimalar orqali Xayyom falsafasi global miqyosda mashhur bo‘ldi. O‘zbek adabiyotshunosligida ham Xayyom ijodi chuqur o‘rganilgan bo‘lib, uning asarlarida insonparvarlik, hayotga realistik yondashuv va falsafiy teranlik alohida ta’kidlanadi. Tadqiqotchilar Xayyomni ba’zan skeptik, ba’zan esa erkin fikrli mutafakkir sifatida baholaydilar.Shuningdek, zamonaviy ilmiy ishlar Xayyom qarashlarini ekzistensializm bilan qiyoslab, uning g‘oyalari bugungi falsafiy oqimlar bilan hamohang ekanligini ko‘rsatadi.

Umar Xayyom ijodi insoniyat uchun abadiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan. Uning hayot falsafasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Insonni hayotni qadrlashga, har bir lahzani mazmunli o‘tkazishga undovchi bu qarashlar zamonaviy jamiyat uchun muhim ma’naviy manba hisoblanadi.

Umar Xayyom ijodi Sharq mumtoz adabiyoti va ilm-fani taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning ruboiylarida ilgari surilgan hayot falsafasi insonni borliq mohiyatini anglashga, vaqtning o‘tkinchiligi va hayot qadri haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Shoirning ilmiy va falsafiy qarashlari uning serqirra ijodkor ekanini ko‘rsatadi hamda uni jahon ilmiy-adabiy merosining yirik namoyandalaridan biri sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida Xayyom g‘oyalari insonning ma’naviy dunyosini boyitish, hayotga ongli munosabatni shakllantirish va ruhiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan uning ijodini o‘rganish nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy va falsafiy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umar Xayyom – “Ruboiylar”
2. Edvard Fitsjerald – “Rubaiyat of Omar Khayyam”
3. N. Komilov – “Sharq falsafasi”
4. A. Qayumov – “Sharq mumtoz adabiyoti tarixi”
5. Internet manbalari (ilmiy maqolalar va elektron kutubxonalar)

EPIGRAF VA UNING ASAR MAZMUNINI OCHISHDAGI ROLI (Abdulla Qahhor hikoyalari misolida)

Dovletmuradova Maxim Perdebay gizi
O‘zbekiston Respublikasi, Bo‘ston shahri, Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal’a fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2- bosqish talabasi

Badiiy adabiyotda qo‘llaniladigan har bir unsur asar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning o‘z bajaradigan muayyan vazifasi mavjud bo‘lib, asarning mazmun-mohiyatini ochib berishi o‘ta ahamiyatli hisoblanadi. Shunday unsurlardan biri epigraf bo‘lib, u asarda yozuvchi ilgari surgan g‘oyani ochib beradi va asar boshida keltiriladi. Asarda har doim epigraf keltiriladi. Epigraf qo‘llash yozuvchining ixtiyorida bog‘liq. Epigraf qo‘llansa asar boshidan o‘quvchimga ma’lum darajada asar mazmuni haqida ma’lumot berilgan sanaladi. Asosan epigraf sifatida maqol, matal, mashhur shaxslarning fikrlari, hikmatli so‘zlari, iqtiboslar,

she'riy parchalar, diniy yoki muqaddas kitoblardan iqtiboslar, tarixiy nutqlar keltirilishi mumkin.

Abdulla Qahhor o‘zbek hikoyanavisligida har bir detalga, xususan, epigraf tanlashga o‘ta sinchkovlik bilan yondashgan adibdir. Uning uchun epigraf shunchaki bezak emas, balki asar g‘oyasini ochuvchi “oltin kalit” vazifasini o‘taydi desak adashmagan bo‘lamiz.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi 1936-yilda yozilgan. Hikoyaning qisqacha mazmuni quyidagicha.

Asar markazida o‘ta qashshoq, soddadil dehqon — Qobil bobo turadi. Bir kuni kechasi uning yagona tirikchiligi, hayotini tebratib turgan ho‘kizi o‘g‘irlab etiladi. Qobil bobo ho‘kizini topish ilinjida hukumat vakillariga murojaat qiladi, biroq aynan shu yerda uning haqiqiy fojiasi boshlanadi. Amin va uning xizmat ko‘rlar choldan “suyunchi” va “xizmat haqi” deb bor-budini shilib olishadi. Pristav va tilmoch cholning dardini eshitish o‘rniga, rasmiyatchilik va poraxo‘rlik bilan uni yanada chigallikka solishadi. Hikoya oxirida esa Qobil bobo nafaqat ho‘kizidan ayriladi, balki amaldorlarning "yordami" tufayli qo‘lidagi bor-yo‘g‘i — bir necha so‘m puli va oxirgi moli ham ketib, butunlay xonavayron bo‘ladi. Ushbu hikoyaga "Otning o‘limi - itning bayrami" maqoli epigraf qilib olingan. Ushbu epigrafning o‘zidayoq hikoya mazmunnini tushunish mumkin. Ya’ni ot o‘lsa, bu it uchun bayram. Epigrafni tahlil qiladigan bo‘lsak, “otning o‘limi” bu yerda Qobil boboning ho‘kizi yo‘qolishidir. Dehqon uchun bu shunchaki moliyaviy yo‘qotish emas, balki butun hayotining poydevori qulashi, ochlik va chorasizlikdir. Adib ushbu maqol orqali kitobxonga voqelikka dehqonning ko‘zi bilan qarashni o‘rgatadi. “itning bayrami” esa amindat, pristav va tilmochlar uchun boyish niyatida Qobil bobodan pul talab qilishidir.

Hikoyada adib mustamlaka davridagi chor ma’murlari va mahalliy amaldorlarning xalqqa bo‘lgan munosabatini ayovsiz fosh qiladi. Qonun himoyachilari aslida xalqni talovchi "o‘g‘rilar"dan battar ekanligi ko‘rsatiladi. Qobil boboning haddan tashqari itoatkorligi va huquqini bilmasligi ham uning fojiasini chuqurlashtiradi. Ya’ni Qobil bobo va uning ayoli yo‘qolgan ho‘kizining yopilishi uchun bor narsalarini tikishadi, yo‘g‘ini topishadi. Yuqoridagi odamlar esa ularning soddaligidan, ilmsizligidan foydalanishadi. Aynan hikoyaning "Otning o‘limi-itning bayrami" epigrafidan yozuvchining niyatini tushunish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Epigrafning o‘zidanoq muallif ma’lum davrdagi qiyinchiliklar, mansabdor kishilarning oddiy insonlarni qiynashi, o‘z manfaati yo‘lida foydalanishi aniq yoritiladi. Shuningdek "O‘g‘ri" sarlavhasining ramziy ma’nosiga e’tibor qaratishimiz kerak. Hikoyada ho‘kizni o‘g‘irlagan noma’lum shaxs "kichik o‘g‘ri", ammo qonun nomidan cholni talagan amaldorlar "katta o‘g‘rilar" ekanligi asarning asosiy pichingidir. Hikoyada asosiy e'tibor ho‘kiz o‘g‘risiga emas, balki amaldorlarning ayyorligiga qaratiladi. Syujet yuzasida o‘g‘ri — bu kechasi Qobil boboning ho‘kizini yetaklab ketgan noma’lum kimsadir. Ammo epigraf syujetdagi yashirin qatlamni ochadi. Syujetda Qobil bobo amaldorlar huzuriga "najotkorlar" deb boradi. Lekin epigraf bu munosabatning asl tabiatini yashirin ma’nodan oshkoraga chiqaradi. Bobo amaldorlar uchun inson emas, balki g‘ajish lozim bo‘lgan "o‘limtik" (otning o‘limi). Epigrafdagi "it" so‘zi syujetda poraxo‘r

amaldorlarning ochko‘zligini, birovning musibatidan suyak chaynayotgan itdek lazzatlanishini ifodalovchi badiiy vositaga aylanadi.

Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi 1936-yilda yozilgan bo‘lib, adibning eng ayanchli va ta’sirli asarlaridan biridir. Asar voqealari chorizm davridagi qashshoq o‘zbek oilasining fojiasini aks ettiradi. Sotiboldining xotini og‘ir kasal. U xotinini davolatish uchun qo‘lidan kelgan hamma narsani qiladi: folbin, baxshi, azayimxonlarga boradi, bor-budini sarflaydi. O‘sha davr muhitida ilm-fan, tibbiyot rivojlanmagani yoki oddiy xalq uchun yopiq bo‘lgani sababli, odamlar faqat diniy va xurofiy amallardan najot izlashadi. Sotiboldi ham xotinining boshiga duoxonlarni chaqiradi, tovuq so‘ydiradi, lekin ahvol yaxshilanmaydi. Hikoya xotinning vafoti va bu oilaning butunlay xonavayron bo‘lishi bilan tugaydi. Adib asar so‘ngida Sotiboldining "Baxshining ishi besh bo‘ldi" degan istehzoli gapi orqali inson fojiasidan foyda ko‘ruvchi firibgarlarni ham fosh qiladi. Hikoyaga keltirilgan epigraf "Osmon yiroq-yer qattiq" Bu maqol xalq orasida mutlaq chorasizlik, hech qayerdan yordam kelmasligi ramzidir Sotiboldi uchun "osmon yiroq" — ya’ni duolari ijobat bo‘lmayapti, najot yo‘q. "Yer qattiq" — ya’ni bu dunyoda unga yordam beradigan, dardiga malham bo‘ladigan na bir odil qonun, na bir mehribon tabib bor. Epigraf o‘quvchini asar boshlanmasidanoq og‘ir va tushkun kayfiyatga tushiradi. U hikoyadagi qatlamlarni (ijtimoy qashshoqlik, ma’naviy jaholat va chorasizlik) o‘zida birlashtir adı. Bu epigraf ko‘pincha jamiyatdagi nohaqlik, tengsizlik yoki zulmni iifodalaydi Qahramon oddiy odam bo‘lishi mumkin, lekin tizim unga qqarshi U na yuqoridagi kuchlardan (hokimiyat, taqdir), na pastdagi muhitdan (odamlar, yaqinlar) yordam topa oladi. Bu yerda ushbu maqol insonning jamiyat ichidagi yolg‘iz kurashini ko‘rsatadi.

Bu ibora eng avvalo insonning og‘ir, boshi berk ko‘chaga kirib qolgan holatini bildiradi “Osmon yiroq” — yuqoridan yordam yo‘q, iltijo, orzu yoki umid uzoqda. “Yer qattiq” — pastdan ham tayanch yo‘q, odamlar, jamiyat yoki sharoit qattiq va befarq. Natijada inson o‘zini ikki tomondan siqilgan, chorasiz holatda his qiladi. Chorasiz qolgan hikoya qahramoni Sotiboldi eng so‘nggi najotni hali go‘dak bo‘lgan qizidan tilaydi. Hikoyada adib bemor Sotiboldining xotini emas, balki butun jamiyat ekanligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Ya’ni shuncha insonlar orasidan yordam beruvchi qo‘l topilmaydi. Oxiri bor umid go‘dakning duosiga qoladi.

Syujetda bemor — bu Sotiboldining to‘shakda yotgan, o‘lim yoqalab qolgan xotini. Ammo epigraf syujetdagi yashirin ma’noni chuqurlashtiradi. Aslida butun boshli jamiyat, odamlarning ongi va ijtimoiy tuzum bemor. Epigrafdagi "osmon" va "yer" orasidagi bo‘shliqda qolib ketgan insonning fojiasi — bu sog‘liqni saqlash tizimi o‘rniga xurofotga tayanib qolgan xalqning umumiy dardidir. Kalit shundaki, xotinning vafoti shunchaki biologik o‘lim emas, balki jaholatning qurboni bo‘lishidir.

Agar 'Bemor' hikoyasidagi epigrafni asardan olib tashlasak, voqealar shunchaki bir oilaning fojiasi bo‘lib qolishi mumkin edi. Biroq 'Osmon yiroq, yer qattiq' maqoli ushbu fojiani butun xalq va davrning dardi darajasiga ko‘tarib beradi.

Abdulla Qahhor hikoyalaridagi epigraflar shunchaki asar boshidagi iqtibos emas, balki matnning g‘oyaviy-kompozitsion o‘zagini tashkil etuvchi elementdir. "O‘g‘ri" va "Bemor" hikoyalari misolida ko‘rganimizdek, adib xalq maqollari orqali

syujetdagi yashirin ijtimoiy fojealarni bir jumlada fosh qiladi. Epigraflar asardagi ramziylikni kuchaytirib, o‘quvchini voqealar yakunidagi mantiqiy hukmga tayyorlaydi. Bu esa Qahhorning kichik janr orqali ulkan ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqishdagi mahorati va "i’joz" san’atining yuksak namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.E. Xudoyberdiyev "Adabiyotshunoslikka kirish" Toshkent. "Iqtisod-moliya" 2007
2.H. Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.2.
3.D. Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari”. T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
4.A. Qahhor "O‘g‘ri" G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019
5. A. Qahhor "Ayb kimda" "O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018

QARAQALPAQ XALÍQ ERTEKLERINDE ADAM MÚSHELERIN BILDIRETUǴIN SÓZLER

Kadirniyazova Biybijamal
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti studenti.

Ertek – folklordıń úlken tarawı. Ertekler kóbinese qara sóz benen belgili, kútá siyrek túrinde qosıq penen de ushırasadı. Ertek sóziniń ózi «erte» degen mánini ańlatadı. Bul termin kópshilik kúnshıǵıs xalıqlarına ortaq.

Qaraqalpaq folklorında ertekler kútá úlken orın iyeleydi, olar ózleriniń teması, mazmunına qaraǵanda da hár túrli bolıp keledi. Eger biz qaraqalpaq erteklerin klassifikaciyalıq olardı : haywanlar haqqında, qıyalıy, realistlik, legendalıq ertekler dep birneshe túrge bóliwimiz múmkin. [Ахметов.С. Бахадырова С.:30].

Hárqanday tildiń baylıǵı sol tilde sóylewshi xalıqtıń ózin qorshaǵan ortalıqtaǵı zat hám qubılıslar tuwralı túsinikleriniń xalıqtıń sana-sezimleriniń kúndelikli turmısınıń sáwlesi bolǵan sózlik quramdaǵı sózler arqalı kórinedi.

Leksikalıq qatlamdı anıqlaw hám úyreniw bul tillerdiń tuwısqanlıq qarım-qatnasın anıqlawda úlken áhmiyetke iye. Ilimpazlardıń kórsetiwinshe, túrkiy tillerdiń rawajlanıw basqıshlarınıń birinshi dáwiri altay dáwiri bolıp ol waqıtları házirgi túrkiy,monǵol xalıqları bir qáwimlik birlespede jasaǵan. Tyurkolog N.A.Baskakov óziniń “Qaraqalpaq tiliniń leksikalıq quramı hám sóz qurılısı” miynetinde túrkiy tillerdiń áyyemgi leksikaliq qatlamı tuwralı tómendegishe pikir bildiredi: «Túrkiy tiller leksikasınıń eń áyyemgi qatlamı keyin ala úlken qáwimlik birlespelerge nıǵayǵan túrkiy, monǵol hám tungus-manchjur qáwimleri ushın ulıwma bolǵan leksikalıq qatlam quraydı».[Баскаков Н.А.:69]. Házirgi zaman túrkiy tilles xalıqlardıń sózlik quramında da bul elementler saqlanıp qalǵan bolıp, bul sózler tiykarınan adam múshelerine baylanıslı, tuwısqanlıq qarım-qatnastı bildiriwshi sózler hám sol dáwirdegi tiykarǵı kásiplerdiń biri bolǵan mal sharwashılıǵına baylanıslı sózler bolıp esaplanadı.

Ertek tilinde tómendegi sózler ushırasadı:

«Ayaq» . Bul sóz Maxmud Qashqariydiń «Devanu lugat it turk» miynetinde «azaq» túrinde jumsalǵan. Bul sóz monǵol tilinde eki túrli «adaq» hám «ayaq» túrinde qollanılıp mánisi jaǵınan qaraqalpaq tilindegige sáykes kelse, qalmaq tilindegi «adg» sózi awıspalı mánide «dáryanıń ayaǵı, bir zattıń aqırı» degen mánilerde jumsaladı.[Abdinazimov Sh.: 17] Mısalı:

Sizler meniń arqama miniń, men terezeden eki ayaǵımdı suǵıp ańqırayın, sizler sol waqıtta birewińiz shaqırıń, birewińiz urıń, birewińiz miyawlań, sonnan keyin bular úyden shıǵıp qashar. [Qaraqalpaq xalıq ertekleri. : 79]

«Qarın». Adamlardıń, janlı-janıwarlardıń organı, asqazan. [Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. :408] Mısalı**:**Tórtewi dasturqan dógeregine jayǵasıp, qarınların jaqsılap toydırıp aldı da jatıwǵa qaradı. [Qaraqalpaq xalıq ertekleri.: 79]

«Jawırın». Bul sóz monǵol tilinde «ari», buryat tilinde «ara», evenk tilinde «arkan», tungus tilinde «arqan», even tilinde «arqan» túrinde ushırasadı. [Abdinazimov Sh.: 17] Mısalı:Jańaǵı adam úyge kirip, oshaqqa qarasa jıltıraǵan bir nárseni kórip, únile bergende pıshıq betin julıp aladı, iyttiń ayaǵın basqanda kópek wawildep úrip, sannıń etin julıp aladı, eshek jawırınan ıńqıldatıp tebedi. [Qaraqalpaq xalıq ertekleri. : 80]

«Kóz». Adamlardıń, haywanatlardıń, barlıq tiri janıwarlardıń, janlı-janıwarlardıń kóriw múshesi, aǵzası.[Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. :269]. Mısalı:Bunı esitken ógiz keyin sheginip, bórige taslanıptı. Qoraz bolsa onıń kózin shoqıptı. [Qaraqalpaq xalıq ertekleri. : 81]

«Awız». Adam hám haywanatlardıń aǵzası, dene múshesi. Mısalı:Hákke degen bizge ázelden dos emes. Awzınan tek jaman xabarlar shıǵadı,- depti. [Qaraqalpaq xalıq ertekleri. : 86]

«Qol». Altay tilleri semyasına kiretuǵın mongol tilinde «gar», buryat tilinde «gaar», tungus-manchjur tillerinde «gala» sózleri qol degen manini bildiredi. [Abdinazimov Sh.: 17] Mısalı: Erteń keshki waqıtta ol qus keler, sen sol góne tamnıń ishine kirip, qolıńa bir kese pal alıp, jasırınıp jat, kúndegi aytatuǵın qosıǵın aytıp bolǵan waqıtta, qolıńdaǵı paldı serpip jiber. [Qaraqalpaq xalıq ertekleri. : 90]

«Bas». Adam hám haywanlardıń eń tiykarǵı bólegi, múshesi. Mısalı:

Úlken hayallardıń balalarınıń densawlıǵı bekkem, áneydey, al, kishi hayaldıń balası bayaǵı jartı almanı jegeninen keyin balasınıń bası jartı bolıp dúnyaǵa kelgen. [Qaraqalpaq xalıq ertekleri. : 92]

Juwmaqlap aytqanda, qaraqalpaq xalıq erteklerinin tilin hár tárepleme hám tereń úyreniw qaraqalpaq ádebiy tiliniń dereklerin ele de anıqlawǵa, onıń qáliplesiw hám rawajlanıw jolların baqlawǵa, hár qıylı tillik qubılıslardıń nızamlıqların biliwge múmkinshilik beredi.

Paydalanílǵan ádebiyatlar:

1. Ахметов.С. Бахадырова С. Фольклорлық терминлердиң қысқаша сөзлиги. - Нөкис: "Билим"1992.

2. Баскаков Н.А.Состав лексики каракалпакского языка и структура слова. –Москва. 1962. -С.69
3. Abdinazimov Sh. Qaraqalpaq tili tariyxi’. -No’kis: “Qaraqalpaqstan”, 2014, -B.17
4. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2025.
5. Qaraqalpaq xalıq ertekleri. –Nókis: «Bilim».2018.

KOMEDIYA JANRÍNDA SOCIALLÍQ SÍN: TEORIYALÍQ HÁM ÁMELIY TALLAW

Xabipnazarova Gulshad Xojabaevna
Kórkem óner tanıwshılıǵı (kino kórkem óneri sın hám talqılawı) qánigeliginiń 2-kurs studenti

Kino kórkem óneri zamanagóy jámiyettiń áhmiyetli kommunikaciya qurallarınan biri esaplanadı. Ásirese, komediya janrı keń auditoriyaǵa iye bolıp, quramalı sociallıq máselelerdi ápiwayı hám túsinikli túrde jetkeriw imkániyatın beredi. Komediya arqalı jámiyettegi kemshilikler, sociallıq teńsizlik, stereotipler hám insanıylıq nuqsanlar kúlki arqalı ashıp beriledi. Usı jaǵınan, komediya janrı sociallıq kritikanıń nátiyjeli forması sıpatında kórinedi.

Komediya - bul kúlki arqalı tásir kórsetiwge tiykarlanǵan kórkem janr bolıp, onda turmıstaǵı qarama-qarsılıqlar yumor hám satira quralında sáwlelendiriledi. Komediyanıń tiykarǵı wazıypası tamashagóydi kúldiriw menen birge, onı oylawǵa májbúrlew. Sol sebepli, komediya kóbinese jasırın kritikalıq mazmunǵa iye boladı.Komediya janrında tómendegi usıllar keń qollanıladı: Satira (keskin sociallıq kritika), ironiya (jasırın mánis), parodiya (eliklew arqalı kritika), absurd (logikasızlıq arqalı haqıyqatlıqtı ashıw)

Sociallıq kritika - bul jámiyettegi bar mashqalalardı ashıp beriw, olardı bahalaw hám talqılaw procesi. Kino arqalı berilgen sociallıq kritika tamashagóyge tikkeley tásir kórsetedi, sebebi ol vizual hám emocionallıq qurallar menen bayıtılǵan boladı.Komediya janrında sociallıq kritika tómendegi baǵdarlarda kórinedi: Sociallıq teńsizlikti kórsetiw, siyasiy sistemalardı sınǵa alıw, mádeniy stereotiplerdi áshkaralaw, kúndelikli turmıstaǵı absurd jaǵdaylardı ashıp beriw. Zamanagóy kino kórkem ónerinde komediya janrı tek ǵana kewil ashar qural emes, al jámiyetlik pikirdi qáliplestiriwshi áhmiyetli faktor sıpatında da qaraladı. Jámiyettegi mashqalalardı tuwrıdan-tuwrı kritikalaw geyde keskin qarsılıqlarǵa sebep bolıwı múmkin, biraq komediya bul mashqalalardı jumsaq, kúlkili hám qabıl etiletuǵın formada jetkeredi. Sonlıqtan, komediya sociallıq mashqalalardı sáwlelendiriwde nátiyjeli usıllardan biri bolıp esaplanadı. Ol tómendegi tiykarǵı funkciyalardı atqaradı: Kritikalıq funkciya - jámiettegi mashqalalardı kúlki arqalı áshkaralaydı, Tárbiyalıq funkciya - tamashagóydi juwmaq shıǵarıwǵa iytermeleydi, Psixologiyalıq funkciya - mashqalalardı jeńil qabıl etiwge járdem beredi.Komediya janrında sociallıq mashqalalar túrli kórkem qurallar arqalı sáwlelendiriledi: Satira jámiyettegi unamsız jaǵdaylardı keskin, biraq kúlkili formada kórsetedi. Máselen, korrupciya, byurokratiya yamasa sociallıq ádalatsızlıq komediyalıq jaǵdaylar arqalı

ashıp beriledi. Tamashagóy kúledi, biraq sonıń menen birge tereń mánisti ańlaydı.Jámiyettegi stereotipler bórttirilip súwretlenedi. Bul bolsa olardıń logikasızlıǵın kórsetedi.Bazda real turmıstaǵı mashqalalar absurd dárejede kúsheytilip kórsetiledi. Bul usıl mashqalanıń tiykarǵı mánisin jáne de ayqın ashıp beredi.Komediya janrında tómendegi sociallıq mashqalalar kóp ushırasadı: Sociallıq teńsizlik, korrupciya hám ádalacızlıq, shańaraq mashqalaları, áwladlar arasındaǵı qarama-qarsılıq, mádeniy stereotipler hám kemsitiw. Bul mashqalalar kúlkili epizodlar arqalı kórsetilse de, olardıń tiykarında áhmietli sociallıq mazmun jatadı.

Komediya arqalı berilgen sociallıq kritika tamashagóyge nátiyjeli tásir kórsetedi. Bir tárepten, kúlki stressti kemeytedi hám filmdi qızıqlı etedi. Ekinshi tárepten bolsa, jasırın mánis tamashagóydi oylawǵa májbúrleydi, tamashagóy mashqalaǵa jańa kózqarasqa iye boladı, jámiyettegi kemshiliklerdi ańlaw kúsheyedi, jámiyetlik sana qáliplesedi. Ol quramalı máselelerdi ápiwayı hám túsinikli túrde sáwlelendirip, tamashagóydi pikirlewge shaqıradı. Sol sebepli, komediya tek ǵana kúlkiniń dáregi emes, al jámiyetti rawajlandırıwshı áhmiyetli kórkem óner túri sıpatında tán alınadı. Komediya janrı kino kórkem ónerinde sociallıq kritikanıń áhmiyetli hám nátiyjeli qurallarınan biri. Ol kúlki arqalı jámiyettegi mashqalalardı jarıtadı, stereotiplerdi buzadı hám tamashagóydi pikirlewge iytermeleydi. Sol sebepli, komediya tek ǵana kewil ashar janr emes, al tereń sociallıq mazmunǵa iye kórkem óner túri sıpatında bahalanıwı lazım.

Paydalanilgan ádebiyatlar:

1. Aristotel. Poetika. - New York: Dover Publications, 1997. - 90 b.
2. Henri Bergson. Laughter: An Essay on the Meaning of the Comic. London: Macmillan, 1911. - 201 b.
3. "Kino kórkem óneri tiykarları." - Tashkent: Ózbekiston milliy nashriyoti, 2010. - 180 b.
4. "Mádeniyat tanıw tiykarları." - Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. - 256 b.
Bordwell, D., Thompson, K. Film Art: An Introduction. New York: McGraw-Hill, 2013. - 544 b.

ZAMONAVIY O‘ZBEK DOSTONLARIDA URUSH MAVZUSINING IFODALANISHI

Jabborova Madina
O‘zbekiston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpoq davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Urush axloqiy nuqtai nazardan insoniyat tarixidagi eng ulkan yovuzliklardan biri hisoblanadi. U ezgulik, mehr-shafqat kabi yuksak qadriyatlarga, insoniylik haqidagi tushunchalarga jiddiy zarba berib, ularni parchalab yuboradi. Urush sharoitida insonning eng nozik tuyg‘ulari, axloqiy mezonlari sinovdan o‘tadi va ko‘pincha yemirila boshlaydi. XX asr davomida insoniyat ikki bor ulkan jahon urushini boshdan kechirishi natijasida asrlar davomida muqaddas sanalib kelgan ko‘plab qadriyatlar va an’analar izdan chiqdi. Urushlarning dahshatli oqibatlari nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham insoniyat ongida chuqur iz qoldirdi.

Shu sababli bu voqealarning bevosita guvohi bo‘lgan avlod chin ma’noda “yo‘qotilgan avlod” sifatida tarixga kirdi. Ularning hayot yo‘li, kechinmalari va fojiasi keyingi adabiy jarayonlarning muhim mavzularidan biriga aylandi. Mazkur avlodning taqdiri haqida ko‘plab badiiy asarlar yaratildi. Bu asarlarda urushning o‘zi emas, balki uning inson ruhiyatiga, hayotiga, taqdiriga ko‘rsatgan ta’siri – iztiroblar, yo‘qotishlar, ruhiy jarohatlar, ma’naviy sinishlar keng yoritildi. Urushning dahshatlari, insoniyatga yetkazgan moddiy va ma’naviy zararlar adabiyotda turli janr va shakllarda aks ettirildi.

O‘zbek adabiyotida ham urush mavzusi muhim o‘rin egallaydi. Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Saida Zunnunova, Zulfiya, Erkin Vohidov kabi ijodkorlar urush mavzusiga tez-tez murojaat qilganlar. Ularning asarlari janr jihatidan xilma-xil bo‘lsa-da, bu mavzuda doston janri alohida o‘rin tutadi. Urush davrining shiddati ijoddan tezkorlik, ta’sirchanlik va badiiy ixchamlikni talab qilgan. Shu bois kichik, tezkor janrlar bilan bir qatorda doston janri ham faol rivojlangan. Urush mavzusidagi dostonlar nafaqat urush davrida, balki urushdan keyingi davrda ham davom etib, ularni bevosita boshdan kechirmagan, biroq uning asoratlari ta’sirida ulg‘aygan yangi avlod vakillari tomonidan ham yaratilgan.

Mazkur bobda tahlil qilinayotgan Oybekning “Davrim jarohati”, Mirtemirning “Surat”, Saida Zunnunovaning “Alla”, “Qo‘shnilarim”, Erkin Vohidovning “Nido” dostonlarida davrning eng katta fojiasi, uning inson ong-u shuuriga ta’siri hamda qalbda qoldirgan og‘riqli izlari chuqur badiiy ifodasini topgan. Jumladan, Oybekning “Davrim jarohati” dostonida XX asrning eng dahshatli hodisalaridan biri – Xirosima fojiasi tasvirlanadi. Ushbu doston 1965-yilda Yaponiyaning Xirosima shahriga atom bombasi tashlanganiga 20 yil to‘lishi munosabati bilan yozilgan. Asarda muallifning o‘ziga xos teran mushohadakorligi, chuqur hissiy ifodasi yaqqol seziladi. Bu esa dostonning badiiy-estetik qiymatini yanada oshiradi. Adabiyotshunos U. Normatov tomonidan “Davrim jarohati” dostoni lirik-publitsistik yo‘nalishda ekanligi ta’kidlanadi[14]. Bu janr xususiyati dostonning mazmunida ham, ifoda uslubida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ya’ni asarda lirik kechinmalar bilan bir qatorda ijtimoiy muammolarni ochiq bayon etish, publitsistik ruh ustunlik qiladi. Dostonning asosini XX asrning mudhish xatosi, uning og‘riqli natijalari, tuzalmas jarohati – Xirosima fojiasidan tug‘ilgan iztirob va ulkan ijtimoiy dard tashkil etadi. Shoir ushbu fojia orqali nafaqat bir shahar yoki bir xalq taqdirini, balki butun insoniyatning umumiy fojiasini badiiy umumlashtiradi. Shu tariqa urush mavzusi asosida yaratilgan dostonlar o‘zbek adabiyotida insoniyat dardi, tinchlik qadri va insoniylik g‘oyalarini yuksak badiiy darajada ifodalagan muhim asarlar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Oybek ijodida urush mavzusining yoritilishi uning hayotiy tajribasi, bevosita kuzatuvlari va chuqur insonparvarlik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. 1941-yilda yozuvchi urushni bevosita ko‘rish va material to‘plash maqsadida harbiy komissariatga murojaat qilgani, keyinchalik esa front safariga qo‘shilgani uning ijodiy izlanishlarida muhim ahamiyat kasb etdi. Frontdagi kuzatuvlar, oddiy

[14] Норматов У. Тўлқинлар ўқирлар ҳазин марсия//Жаҳон адабиёти, 2015 йил, 8-сон, –Б.441.

askarlar hayoti, urushning dahshatli manzaralari yozuvchiga boy badiiy material berdi. U o‘zining kundaliklarida bu taassurotlarni qayd etib borgan, bu esa keyinchalik “Front bo‘ylab” kundaligi va “Olovli yillar” she’riy to‘plami uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Oybekning “Yuzlab epopeyaga sig‘maydigan bu ulkan muhoraba” degan fikri urushning ko‘lamini va insoniyat hayotidagi o‘rnini chuqur ifodalaydi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar Oybekning ijodiy uslubiga xos muhim xususiyatlardan biri sifatida realizm va romantizm uyg‘unligini ko‘rsatadilar. Ya’ni, uning realistik asarlarida romantik ruh, romantik asarlarida esa realistik unsurlar mavjud bo‘lib, bu holat ijodkorning badiiy mahoratini va janr imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Jazıwshınıń “Bir mártebe túnde” novellasında da qaharman psixologiyasın ,turmısta bolatuǵın waqıyalardı ayqın sáwlelendirip bergen. Bul novellada psixologiyalıq konflikttıń beriliwi nátiyjesinde qaharmannıń dunyasınıń hám xarakteriniń qanday ekenligi óz korinisin tapqan. Shıǵarmada SH. isimli adamnıń keshletip jumıstan qaytıp kiyatırǵanda, júz bergen hár qıylı waqıyalar onıń turmısta bolǵan kózqarasların sáwlelendirip baradı. “ Ol usınıń menen úshinshi mártebe tayıp jıǵıldı hám hár saparı keshqurınları túngi shıraqlardı jaqpay, kommunallıq xizmet kórsetiw mákemelerinde ishsiz turǵan texnikalardı kerekli ornında paydalanbay , qalanı usınday ábiger jaǵdayǵa tusirip qoyǵan qala basshısın taǵı sókti!”

Novellada tiykarǵı konflikt usılay baslanadı. Shıǵarma qaharmanı SH. ózi jasap atırǵan ortalıq, ondaǵı jetispewshilik hám kemshiliklerdiń sebeplerin izlep, tolǵanısqa túse baslaydı. Álbette, shıǵarmada SH. isimli qaharmannıń ishki oy-keshirmeleri arqalı turmıstaǵı ayırım kemshilikler menen biybastaqlıqlardı, ulıwma alǵanda , keń jámiyetke kerekli áhmiyetli máselelerdi kóterip shıqqanlıǵı menen dıqqatqa ılayıq.

“ Sońǵı jılları hawa rayımız keskin ózgerip ketti. Jawın-shashın muǵdarı az, qıs oǵırı suwıq kelip , jaz ayları ábden ıssı boladı. O, nege? ...”, “ Nege endi, usı bir shappattay qalanı kólik penen támiyinlep qoyıw qıyın ? ... Ex, eger meni bir jıl usı qalaǵa basshı etip qoyar ma edi, ne qılarımdı biler edim-aw? ...”

Shıǵarma qaharmanı SH. nıń psixologiyalıq gúyzelisi jámiyette bolıp atırǵan qarama-qarsılıqlardı ashıwǵa sebep bolıp turǵanlıǵı seziledi. Biz insanlardıń mápin oylap , kúyip-pisip sóylewine qarap olardı jaqsı adam dep oylawımız múmkin. Lekin, shıǵarmadaǵı kútilmegen ózgeris hám keskin konflikt SH. nıń kóshede gezip jurgen iytti ushıratqan waqtınan baslanadı. Iyt onı kutip, úyine shekem erip keledi. Lekin, usi orında júz bergen keskin burılıslı konflikt SH. nıń qanday xarakterli adam ekenligin kórsetedi. Jazıwshı waqıyalardı bayanlaw barısında olardıń xarakterlerin tolıq ashıp berıwge umtıǵanlıǵın kóremız. “ SH. basın shayqap turıp úydiń temir dárwazasın mushladı. Sol zamat jún oraypek tartqan bolımsız bir nashar ishten shıqtı da , xojayınınıń qolınan sumkasın aldı hám oǵan erip kelgen iytke: “jitt!” - dedi awzın shúrtiytip”. Demek, bul bayanlawdıń ózinen-aq, SH.nıń hayalı qanday minezdegi insan ekenligin ańlaw múmkin. Shıǵarma kútilmegen juwmaq penen tamamlanadı. SH. izine erip kelgen kóshe iytine qarap taslanıp atırǵan óziniń iytine qatınsha dawısta:! “- Báass!- dep qısqa buyrıq berdi hám kózleri qantalasıp ırıldaǵan iyttıń shınjırın túyininen jazdırıp jiberdi...” Mine, bul orında ishki oy-keshirmelerdıń keskin konflikti SH.nıń jámiyetke bolǵan jeke kózqarasın ayqın sáwlelendiredi. Novellada ózine tán qısqalıq, keskin konflikt nátiyjesinde júz bergen kútilmegen burılıslı waqıyalar hám tań qalarlıq sheshim birgelikte kórkemlik xızmet atqara alǵan.

M.Tawmuratovtıń shıǵarmalarınıń qaharmanları quramalı , ózine tán hám turli ólshemge iye bolǵan xarakterler bolıp , búgingi kún adamlarınıń tillik obrazın dórete alǵan. Jazıwshınıń stillik ózgesheligi de sonnan ibarat , ol turmısta juz berıp atırǵan shınlıqtı kórkem shınlıqqa aylandırıwda bayanlaw hám kórkemlew qurallarınan utımlı paydalanıp, qaharman obrazın isenimli jaratıwǵa hám áhmiyetli máselelerdi kóterip shıǵıwǵa erise alǵan.

Ádebiyatlar:
1. Kamalova D. Qaraqalpaq ádebiyatında novella janrı. Nókis- 2022.
2. Tawmuratov M. Toǵay qosıǵı... Nókis. «Qaraqalpaqstan». 2019.
3. Tawmuratov M. Sen meni kút... Nókis «Avangard-Baspa» baspası. 2021.
4. Tawmuratov M. Qisqa roman. Nókis. «Qaraqalpaqstan». 2004.

HAJVIYANING BOLALAR RUHIYATI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Maqsudova Sevinch
O‘zbekiston, Nukus, Qoraqalpoq davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Insonlar ruhiyatidagi kamchiliklar bir zumda yuzaga kelmaydi, balki bolalikdan ildiz otib, butun umr davomida turli darajalarda shakllanadi. Shu jihatdan, odamlarning dastlabki hayot davrida to‘g‘ri yo‘nalish berish va tegishli munosabatda bo‘lish, xalq pedagogikasi nuqtai nazaridan, ya’ni tarbiyaviy mohiyatiga ko‘ra, bolalar adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Aynan shu xususiyat bolalar hajviy she’riyatining tub mohiyatini belgilaydi.

Istiqlol davri o‘zbek bolalar adabiyotidagi yumoristik she’rlar o‘zining keng qamrovliligi, badiiy mazmun bilan bir qatorda ijtimoiy mazmunni ham ifodalashi bilan ajralib turadi. Shuningdek, mavjud an’analar muvaffaqiyatli davom ettirilibgina qolmay, ijodiy jihatdan boyitilganini ham kuzatish mumkin. T.Adashboyev, A.Obidjon, Q.O‘tayev, R.Tolibov, A.Ko‘chimov, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, D.Rajab, A.Akbar kabi ko‘plab ijodkorlar she’riyatida yumoristik obrazlar tizimining yaratilgani shundan dalolat beradi.

Xususan, T.Adashboyev she’r va ertaklari mavzusidan qat’i nazar, bolalik olamining betakror kashfiyotlariga aylanadi. Shoir ijodi haqida professor A.Rasulov “Bolalikning beg‘ubor osmoni” maqolasida: “Uning she’rlarida bola tabiatiga xos samimiylik, botiniy po‘rtana, vulqoniy shiddat bor. U bola ko‘zi bilan ko‘radi, ko‘rganini quvonib tasvirlaydi”, deya alohida ta’kidlaydi.

Shoirning yumoristik she’rlarida bolalarga bo‘lgan chuqur mehr-muhabbat va samimiyat yaqqol sezilib turadi. Uning “Hali yosh-da”, “Muharramning mashg‘uloti”, “Burni qonab”, “Ahil do‘stlar”, “Dilmurodning vaqti yo‘q”, “Oshxo‘rak”, “O‘n ikki varaq daftar”, “To‘rt amaldan – bir amal”, “Alg‘ov-dalg‘ov aralash”, shuningdek, maktublar turkumiga kiruvchi bir qator she’rlari hamda “Uch bo‘taloq va sirli qovoq” kabi ertaklarida samimiyat nafasi ufurib turadi. Ushbu asarlarda bolalar tabiatida uchraydigan ayrim nuqsonlar kulgi vositasida o‘ziga xos poetik bo‘yoqlarda fosh etiladi. Shoir ko‘pincha qahramon xatti-harakatining oqibatlarini ochiq izohlab bermaydi, balki xulosa chiqarishni kitobxonning o‘ziga havola etadi. Bu esa muallif bilan kitobxon o‘rtasidagi o‘ziga xos ijodiy muloqotni yuzaga keltiradi.

Darhaqiqat, Tursunboy Adashboyev bolalar ruhiyatiga xos zukkolik va topqirlik, xayolparastlik va boy fantaziyani, orzu-umid va intilishlarni yumoristik ohanglarda mohirona ifodalay oladi. Chunonchi, faqat bolalargina quyosh botishini quyidagicha tasavvur qilishi mumkin:

- Dada, quyosh dumalab,
Tog‘ boshiga yetibdi.
Yiqilibdi shekilli,
Burni qonab ketibdi. (“Uch bo‘taloq va sirli qovoq”, 17-b.)

Mazkur she’rda hajv tanqid vositasi sifatida emas, balki bolalar tasavvuridagi quvnoqlik va beg‘uborlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu kulgi bolalik dunyosining tabiiy ifodasi bo‘lib, ijtimoiy muammo yoki tarbiyaviy da’vo bilan yuklanmagan.

“Ahil do‘stlar” she’rida esa Suhrob va Jahongirning doim birga yurishi, o‘ynashi, bog‘chaga ham birga borib kelishi tasvirlanar ekan, ularning haddan tashqari ahilligi kutilmagan kulgili vaziyatga olib keladi:

Sovg‘aga kelgan to‘pni
Yotsiramay olishdi.
Teng sherikka bo‘lishdi,
Shart ikkiga yorishib. (“Uch bo‘taloq va sirli qovoq”, 21-b.)

Bu tasvir orqali shoir bolalar ruhiyatiga xos soddalik va beg‘uborlikni kulgili manzara orqali ochib beradi.

Kichik qahramonlar tushgan vaziyatlardan kulgi yaratish usuli Q.O‘tayev ijodiga ham xosdir. Shoir ko‘plab hajviy she’rlarida oddiy hayotiy vaziyatlardan kutilmagan mantiqiy yechimlar topadi va ko‘pincha so‘z o‘yinlariga murojaat qiladi. “Qandingni ur” she’rida bolalarga xos ishonuvchanlik va sodda tafakkur so‘z o‘yinlari orqali kulgili tarzda ifodalanadi:

Qandingni ur dedingizmi,
Qandni nega uraman?
Yaxshisi, men qandmi, novvot —
Qolmaguncha so‘raman. (“Shirin so‘z”, 34-b.)

Shoir ushbu qisqa satrlarda bolalar tabiatiga xos sodda va ishonuvchan tafakkurni beg‘araz kulgi vositasida badiiylashtira olgan. Bu kulgi istehzoli emas, balki bolalikka xos o‘tkinchi holat sifatida qabul qilinadi.

Bolalar she’riyatida so‘z o‘yinlaridan foydalanish orqali kulgi hosil qilish an’anasi mavjud. Ijodkorlar bolalar uchun hali notanish bo‘lgan iboralar, mazmunini to‘liq anglab yetmagan maqollar yoki turg‘un birikmalardan foydalangan holda kulgili vaziyatlar yaratadilar. Bunda istehzoli holatlar yuzaga kelmaydi, aksincha, beg‘araz kulgi tug‘iladi. Shu orqali bolalarda maqol va iboralarning mazmunini so‘rab, tushunib olishga bo‘lgan qiziqish ham kuchayadi.

“Kechirdim” she’rida o‘rtog‘ining uy vazifasini ko‘chirib, “3” baho olgan bolaning ruhiy holati va voqelikka munosabati quyidagicha tasvirlanadi:

Uy ishini
Daftaringdan ko‘chirdim.
“Uch” olsam ham,
Mayli, seni kechirdim. (“Shirin so‘z”, 37-b.)

O‘rtog‘ining daftaridan uy ishini ko‘chirib olayotgan, buning uchun zarracha hijolat ham chekmay, past baho olgan bo‘lsa-da, go‘yoki oliyjanoblik ko‘rsatib, o‘rtog‘ini “kechirayotgan” lirik qahramon ruhiyatidagi bu nomutanosib holat o‘ziga xos kulgi uyg‘otadi va she’rga yumoristik ruh bag‘ishlaydi. Shu bilan

birga, bu holat ko‘chirmachi bolalar uchun muayyan saboq ham bo‘lishi mumkin: xatoni ko‘chirish orqali emas, balki keyingi safar o‘z kuchi bilan yaxshi baho olish orqali tuzatish mumkinligi anglatiladi.

“Hayronlik” she’rida esa ota-onalarning shaxsiy gigiyenaga rioya qilish haqidagi nasihatlariga bolaning o‘ziga xos topqirlik bilan bahona topishi bolalarbop, ixcham satrlarda ifodalanadi:

Yuzimni ko‘p yuva versam,
Soqol o‘sib ketsa-ya.
Yuvmay desam, kir-chir qilib
Yara bosib ketsa-ya? (“Shirin so‘z”, 37-b.)

Albatta, har qancha yuvinish bilan soqol o‘sib ketmasligini ham, yuvinmaslik yara bosishiga olib kelmasligini kitobxon yaxshi biladi. Shu sababli lirik qahramonning bila turib “bilmaslikka olishi” kulgili holatni yuzaga keltiradi. Ta’kidlash joizki, yumoristik she’rlarda ijodkorlar ko‘pincha mubolag‘ali tasvirlar, shartli badiiy detallar hamda majoziy obrazlardan unumli foydalanadilar. Tadqiqotchi R. Xo‘jayeva: “Kulgi kulgili voqea, hodisa yoki holatdan kelib chiqadi, shu bilan birga kulgi bolalar tabiatida, faoliyatida va xarakterida ham mavjud. Demak, ijodkor voqea va hodisadagi kulgili holatni ilg‘ab oladi va undan kulgi keltirib chiqaradi”, — deya ta’kidlaydi. Bu xususiyat Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Rustam Nazar kabi ko‘plab shoirlar ijodida ham kuzatiladi.

Mustaqillik yillarida bolalar adabiyoti, xususan, bolalar she’riyatida o‘ziga xos uslubiy izlanishlar yuzaga keldi. Bu jarayonda keng ma’nodagi uslubiy izlanishlar — ya’ni davr bolalar adabiyotiga xos badiiylik tamoyillaridagi yangilanishlar bilan bir qatorda, har bir ijodkorning individual uslubi ham namoyon bo‘ldi. Istiqlol davri adabiyotining o‘ziga xosligi an’anaviy mavzularda yaratilgan asarlarning ham poetik mazmuni, ham badiiy ifodasi jihatidan yangilanganida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘afurov I. She’riyat-izlanish, kurashchanlik demakdir. – Toshkent, 1984.
2. Rasulov A. Betakror o‘zlik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009.
3. Obidjon A. Meshpolvon jangga otlandi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Rustam Nazar. Rangli favvora. U. Shukurov. Bolari va chumoli. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991.

INFORMATSIYALASQAN JÁMIYETTE MILLIY DÁSTÚRLERDIŃ TURAQLILIǴI: BESIK JIRINIŃ BALA PSIXOLOGIYASINA TÁSIRI. ILIMIY ANALIZ

Yaxiyaev Muxammetdin Jumabaevich
Qaraqalpaqstan Respubdikası, Nókis qalası, Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı, Jurnalistika baǵdarı 1-kurs studenti.

Ilimiy basshı: Maulenbergenova Gulnaz Otepbergenovna
Kórkem ónertanıw kafedrası assistent oqıtıwshısı

Qanday xalıq bolsa da milliy ózgeshelik hám ózlikti ańlaw onıń perzent tárbiyasınan baslanadı. Qaraqalpaq etnografiyasında besik hám hayyiw balanıń ruwhıy dúnyasın qáliplestiriwshi birinshi process bolıp tabıladı. Háyyiw bul- tek ǵana balanı uyıqlatiwshı nama emes al, onıń tuwılıp kamalǵa kelgenine shekem ruwxıy azıq sıpatında xizmet etiwshi faktor sanalıp kelinbekte. Bala tiliniń kognetiv qáliplesiwi háyyiw qosıǵı hám ana sózleri arqalı júzege shıǵadı.

Háyyiwdiń universal qásiyetleri (tómen ritm, jumsaq namalar, tákirarlanıwshılıq) nárestenıń júrek urıwı, dem alıwı hám stress dárejesin tómenletiwi empirikalıq dáliyller menen tastıyıqlanǵan. Ózbek hám qaraqalpaq besik jırları milliy tárbiya hám ruwxıy rawajlanıwda áhmiyetli orın tutatuǵınlıǵı ayrıqsha atap ótilgen. Izertlew nátiyjeleri balalar psixologiyası, muzıka terapiyası hám shańaraqlıq tárbiyada ámeliy qollanıw ushın birqansha usınıslar beredi.

Besikke balanı bólew Qaraqalpaq xalqı ushın belgili bolǵan dástúrleriniń biri bolıp kelmekte. Bul dástúrdi xalqımız eń jaqın adamları menen ámelge asıradı.. Alımlardıń pikirinshe besik bala ózin ana qarnınan keyingi ózin qáwipsiz sezinetuǵın orın ekenligin atap ótken. Dástúrli besik jırına ásirler boyı aytılıp qáliplesken, mazmunlıq-kompazitsiyalıq negizi tolıq saqlanıp aytıladı. Bul jırlar negizinen tikkeley balalarǵa arnalǵan. Jır qurılısında “Háyyiw-háyyiw” yamasa “jılama, balam, jılama” sıyaqlı qaytalanatuǵın mativlik shekleri boladı. Besik jırınıń baslı maqseti balanı uyıqlatıw, onı tınıshlandırıw, balanıń jarqın keleshegine jaqsı tilekler aytıwǵa qurıladı. Bala terbetip otırǵan ana besik jırınıń dástúrli formasın paydalanadı. Óziniń oy tolǵanısın kúyinish-súyinishin sırtqa shıǵaradı. Bul topardaǵı jırlardı táriyxıy turmıslıq temadaǵı hám aytıwshınıń jeke ózine baylanıslı bolıp keldedi. Tiykarında besikte jatırǵan bala ananıń tilin túsinbeydi bıraq ananıń súyiwshilik júregin bul ıńıldawlardan sezedi.

Qaraqalpaq besik jırı bul háyyiw aytıw, terbetiw yamasa balanı aldına alıp otırıp bir qálipte shayqaw degen túsinikti beredi.

“Háyyiw- háyyiw” ózbek xalqında “Alla -alla” sıyaqlı qarqalpaq besik jırındaǵı turaqlı aytılatuǵın orın. Xalıq turmısında besik jırın aytıwshılar tek ǵana analar emes, aqlıǵın jubatqan atalar hám shańaraq aǵzaları barlıǵıda orınlaydı.[1]

Besik at. 1. Jas balanı bólep uyıqlatıw ushın qol-ayaǵın baylap jatqarıwǵa qolaylastırılıp , tórt tuyaqlı etip aǵashtan islengen zat.

Arnap maǵan atajan, altınnan besik soqtırdıń («Qırıq qız»). [2]

Salıp bul qızdı besikke,

Qoymayıq sańlaq tesik te,
Turaman ózim esikte,
Dep ózi bas bolǵan eken (« Berdaq »).[2]

Besikke bólew (Besikke salıw): Besikke salıw dástúrinde «alaslaw» (ádiraspan tútetiw) arqalı bala ruwxıy jaqtan páklenedi.

Besik shabıw: Balanı besikke salıw húrmetine shıǵarılǵan dástúr bolıp, besik ústine mingen balaǵa jaqsı niyetler tilenedi.

Professor Zarifboy Ibodullaevtiń aytıwınsha, besik — balanıń den-sawlıǵı ushın eń qáwipsiz orın: *Garmonlar sintezi*: Balanıń mıyındaǵı áhmiyetli garmonlar dál usı besiktegi turaqlı hám tınısh uyqı waqtında sintezlenedi. Omırtqa hám dene kórinisi: Besik balanıń omırtqasınıń tuwrı ósiwine xizmet etedi hám túrli skolioz kibi keselliklerdiń aldın aladı. Mıydıń shayqalıwı haqqında mifler: Ayırım jaǵdaylarda besik mıydıń shayqalıwına sebep boladı degen pikirler bar, biraq ilimiy kózqarastan bir tegis ritmde shayqalǵan besik balanıń nerv sistemasınıń bekkemleniwine járdem beredi.[3]

Aynalayın appaǵım-ay,
Qızlar kiygen qalpaǵım-ay,
Qatarıńnan kem bolmay-ay,
Ashılǵay balam bul baxtıń-ay.

Aynalayın qulınım-ay,
Qızlar qoyǵan tulınım-ay,
Sayraǵan baǵda búlbilim-ay,
Aq tamaǵıń búlkildep-ay. [4]

Besik jırı tek ǵana mádeniy miyras emes al, dástúriy tárbiya quralı bolıp da esaplanadı. Bul hátteki ilimiy tárepten tastıyıqlanǵan bolıp háyyiw esitip ósken bala ruwxıy salamat, aqıllı hám shaqqan boladı. Sebebi besik balanıń fizikalıq densawlıǵın bekkemlep qoymastan júrek qan tamır sistemasınıń iskerligin turaqlastıradı. Psixologlardıń pikirinshe besikte uyıqlaw nárestenıń uyqısın bekkemleydi, jıllı bir temperatura bolsa, tereń uyqını qollap-quwatlaydı. Balanıń kewil-keypiyatı uyqı menen tikkeley baylanıslı bolǵanlıǵı sebepli tınısh uyıqlaǵan bala emotsional ózin uslawı da sezilerli dárejede jaqsı boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Járimbetov Q. va boshq. Qaraqalpaq folklorí. – T.: Sano-standart, 2018. – B. 5**9.**
2. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. Jeti tomlıq. Ekinshi tom (B (baslaw) – G (gimnastika)). – Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2023. – 89 b.
3. Ibodullaev Z. Beshikda yot(ma)gan bolalar va pampers zarari // http.uz Ishonch.uz. — 21.11.2024.
4. Járimbetov Q., Nizamatdinov J., Allambergenova İ. Qaraqalpaq folklorı: Filologiya hám tillerdi oqıtıw (qaraqalpaq filologiyası) baǵdarı talabaları ushın sabaqlıq. – Tashkent: «Sano-standart» baspası, 2018. – 60 b.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARDA ATOQLI OTLAR VA ULARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI (shaxs nomlari misolida)

Olimjanov Oybek Hakimjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Jahon tillar fakulteti 4-bosqich talabasi
Sadriddinova Dildora Mamadjanovna
Namangan davlat universiteti Jahon tillar fakulteti, “Fakultetlararo chet tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tilshunoslikda atoqli otlar alohida o‘rin tutadi. Shaxs nomlari — antroponimlar — har bir xalqning milliy-madaniy o‘ziga xosligini, tarixi va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiradi. Globallashuv jarayonida tillararo muloqotning kuchayishi, tarjima sohasining rivojlanishi bilan birga atoqli otlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazish muammosi ham yanada dolzarb tus olmoqda.

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjimada shaxs nomlari bilan bog‘liq muammolar ayniqsa keskin namoyon bo‘ladi. Ikkala til turli tizimlar — analitik (ingliz tili) va agglutinativ (o‘zbek tili) — ga mansub bo‘lib, ularning fonetik, grafik va grammatik tuzilishlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Inglizcha John, Katherine, William kabi nomlarni o‘zbek tiliga o‘tkazishda, shuningdek, o‘zbekcha Og‘abek, Maftuna, Feruza kabi nomlarni ingliz tiliga tarjima qilishda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirga qadar ingliz-o‘zbek tarjimashunosligida antroponimlarni tarjima qilishning yagona ilmiy asoslangan standartlari ishlab chiqilmagan. Turli tarjimonlar bir xil nomni turlicha uzatadilar, bu esa beqarorlik va chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, inglizcha George nomi o‘zbek matbuotida «Jorj», «Georg», «Georgiy» shakllarida uchraydi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi shaxs nomlarining lingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, tarjimada qo‘llaniladigan usullarning samaradorligini baholash va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Atoqli otlar umumiy otlardan bir qator jihatlar bilan farq qiladi: ular aniq bir shaxs, joy yoki ob’ektni nomlaydi, ko‘pincha lug‘aviy ma’nodan mahrum bo‘ladi va ko‘chmas xarakter kasb etadi. A. Superanskayaning klassik ta’rifiga ko‘ra, atoqli ot — bu bir ob’ektning nomi bo‘lib, uni bir sinfning boshqa ob’ektlaridan farqlash uchun xizmat qiladi.

Antroponimlar — shaxs nomlarining maxsus kategoriyasi — quyidagi turlarga bo‘linadi: ism (given name), familiya (surname/last name), otasining ismi (patronymic), taxallus (pseudonym) va laqab (nickname). Ingliz tili an’anasida odatda ism + familiya tuzilishi qo‘llaniladi (James Brown), o‘zbek tilida esa ism + otasining ismi yoki ism + familiya shakllari keng tarqalgan (Jasur Raximov yoki Jasur Raximovich).

Ikkala tildagi antroponimik tizimlar o‘rtasidagi farqlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, fonetik tizim — ingliz tilida o‘zbek fonetikasiga mos kelmaydigan [æ], [ð], [θ], [ŋ] tovushlari mavjud; ikkinchidan, grafik tizim — ingliz tili lotin alifbosiga, o‘zbek tili esa 1995-yildan lotin, avval esa kirill alifbosiga

asoslanadi; uchinchidan, morfologik tizim — o‘zbek tilida ismlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi mumkin (Jasurga, Jasurning), ingliz tilida esa bunday imkoniyat yo‘q.

Tarjimashunoslik nazariyasida atoqli otlarni tarjima qilishning quyidagi asosiy usullari mavjud:

1. Transkripsiya — nomning tovush tarkibini saqlab qolish usuli. Masalan: Michael → Маукл (o‘zbek: Maykl), Elizabeth → Elizabet. Bu usul fonetik ekvivalentlikni ta’minlaydi, biroq ingliz tili orfografiyasining murakkabligi (silent letters — talaffuz qilinmaydigan harflar) tufayli qiyinchiliklar tug‘diradi: Hugh → Xyu (*Xug emas), Knight → Nayt (*Knayt emas).

2. Transliteratsiya — nomning grafik shaklini saqlab qolish usuli. Bu usul ingliz-o‘zbek tarjimasida kam qo‘llaniladi, chunki ikkala tildagi harflar to‘liq mos kelmaydi. Biroq ilmiy va rasmiy matnlarda ba’zan qo‘llaniladi: James → Djeyms (rus orqali) yoki Jeyms (to‘g‘ridan-to‘g‘ri).

3. Kalkalash — nomning ma’noviy jihatdan tarjima qilinishi. Bu usul asosan ma’noli antroponimlarga nisbatan qo‘llaniladi: atoqli otlar ko‘pincha umumiy otlardan hosil bo‘lganligi sababli ba’zan semantik tarjima mumkin. Masalan, inglizcha Faith (imon), Hope (umid), Grace (nafosatli) kabi ismlar o‘zbek tilidagi Iymon, Umid, Latofat kabi ismlarga ma’noviy ekvivalent bo‘lishi mumkin.

4. Muqobil qidirish — maqsad tildagi funksional jihatdan mos ismni tanlash. Bu usul badiiy tarjimada keng qo‘llaniladi: inglizcha John o‘zbek tiliga ba’zan «Yahyo» (tarixiy-diniy muqobil), ba’zan «Jon» (transkripsiya) tarzida uzatiladi.

Ingliz-o‘zbek tarjimasida shaxs nomlarini uzatishda quyidagi muammolar alohida e’tiborni talab qiladi:

Fonetik nomuvofiqlik muammosi. Ingliz tilida o‘zbek fonetik tizimida mavjud bo‘lmagan tovushlar bor. Masalan, [w] tovushi o‘zbek tilida yo‘q: William → Vilyam (rus orqali) yoki Uilyam (to‘g‘ridan-to‘g‘ri). Shuningdek, [v] tovushi ingliz tilida kam bo‘lib, o‘zbek ismlarini inglizchaga o‘tkazishda muammo tug‘diradi: Vohid → Vahid yoki Vohid. Bu beqarorlik tarjima standartlarining yo‘qligidan dalolat beradi.

Jins belgisini ifodalash muammosi. O‘zbek tilida ismlar grammatik jins kategoriyasiga ega emas, ingliz tilida esa ismlar biologik jinsga qarab farqlanadi. O‘zbek tilida uniseks ismlar (Kamol, Shirin, Nozim) ingliz tiliga o‘tkazilganda jins belgisi aniq bo‘lmasligi mumkin. Tarjimon bu holda kontekstga tayanishi yoki izoh qo‘shishi zarur.

Ko‘p variantlilik muammosi. Bir ingliz ismining o‘zbek tilidagi turli variantlari mavjud: George → Jorj / Georg / Georgiy; Catherine → Ketrin / Katerina / Ekaterin. Bu holat tarjimada izchillikni buzadi va o‘quvchida chalkashlik tug‘diradi. Yagona standart bo‘lmaganligi sababli har bir tarjimon o‘z ixtiyoriga ko‘ra ish tutadi.

Madaniy-tarixiy kontekst muammosi. Ba’zi ingliz ismlari o‘zbek kitobxoni uchun muayyan madaniy konnotatsiyalar (qo‘shimcha ma’nolar) kasb etadi: Romeo, Sherlock, Romeo kabi ismlar tarjimada saqlanishi yoki muqobil bilan almashtirilishi mumkin. Bu holda tarjimon madaniy ekvivalentlikni ta’minlash bilan birga badiiy ta’sirchanlikni ham saqlab qolishi zarur.

Ikki tildagi shaxs nomlari tizimlarini qiyoslab o‘rganish bir qator muhim xulosalarni beradi. Ingliz tilida ismlar ko‘pincha bibliya (John, Mary, James), german (William, Alfred, Emma), lotin (Victor, Julia, Marcus) yoki boshqa tillar (Karen — skandinav, Barbara — yunoncha) kelib chiqishiga ega. O‘zbek ismlarining asosiy qatlami esa arab-fors (Hamid, Zulfiya, Nodira), eski o‘zbek-turk (Ulug‘bek, Maftuna, Bahrom) va hozirgi o‘zbek so‘zlaridan (Bahor, Nilufar, Quyosh) hosil bo‘lgan.

Bu etimologik farqlar tarjimaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi: arab kelib chiqishli o‘zbek ismlari (Abdulloh, Muhammadali, Zuhra) ko‘pincha ingliz tilida o‘sha arabcha shaklida saqlanadi (Abdullah, Muhammad, Zuhra), bu esa tarjimani osonlashtiradi. Biroq sof o‘zbek ismlari (Ko‘zimcha, Oydin, Sarvinoz) ingliz tiliga o‘tkazishda muammo tug‘diradi, chunki ular ingliz fonetik tizimi uchun g‘ayritabiiy.

Ushbu tadqiqot natijalari ingliz-o‘zbek tarjimashunosligida antroponimlarni o‘rganish sohasida yangi yo‘nalish ochadi va tarjimonlar, tilshunoslar hamda o‘quv muassasalari uchun amaliy ahamiyatga ega. Kelajak tadqiqotlarda elektron korpuslardan foydalanib, ingliz-o‘zbek tarjimalaridagi antroponimlarning keng qamrovli statistik tahlilini o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkhudarov L. S. Yazyk i perevod. — M.: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1975. — 240 s.
2. Garbovskiy N. K. Teoriya perevoda. — M.: Izd-vo MGU, 2004. — 544 s.
3. Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). — M.: Vysshaya shkola, 1990. — 253 s.
4. Nida E. A., Taber Ch. R. The Theory and Practice of Translation. — Leiden: Brill, 1969. — 218 p.
5. Newmark P. A Textbook of Translation. — New York: Prentice Hall, 1988. — 292 p.
6. Reformatskiy A. A. Vvedeniye v yazykoznaniye. — M.: Prosveshcheniye, 1967. — 544 s.
7. Superanskaya A. V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. — M.: Nauka, 1973. — 366 s.
8. Superanskaya A. V. Sovremennye russkie familii. — M.: Nauka, 1981. — 176 s.
9. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — T.: O‘zbekiston, 2010. — 400 b.
10. Vlakhov S., Florin S. Neperevodimoe v perevode. — M.: Vysshaya shkola, 1986. — 416 s.
11. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. — T.: Fan, 2007. — 178 b.

JAMOL KAMOL IJODIDA IJTIMOIY MAVZULARNING BADIIY TALQINI

Rustamova Mohichehra
Qoraqalpoq davlat universiteti 4-bosqich talabasi

She’r va shoirlik haqidagi nazariy qarashlarda haqiqiy ijodkor xalq dardining ifodachisi, uning ichki iztiroblari va orzu-intilishlarining tarjimoni bo‘lishi zarurligi ko‘p ta’kidlanadi. Bu mezon Jamol Kamol ijodiga to‘la mos keladi. Zero, uning nafaqat she’riyati, balki publitsistik faoliyati ham bir butun ma’naviy tizimni tashkil etib, o‘zaro uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shoirning she’rlarida ko‘tarilgan ijtimoiy dardlar publitsistik maqolalarida kengroq, tahliliy ruhda davom ettirilsa, publitsistikadagi muammolar esa she’riy shaklda badiiy umumlashma darajasiga ko‘tariladi. Shu jihatdan, uning ijodi ichki yaxlitlikka ega bo‘lgan murakkab badiiy-publitsistik hodisa sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Jamol Kamolning ijtimoiy-ma’rifiy mavzudagi she’rlari o‘quvchini befarq qoldirmaydi, aksincha, uni bevosita suhbatdoshga aylantiradi. Bu she’rlarda shoir jamiyatni uyg‘otish, millatni o‘zligini anglashga undash, ma’naviyatni yuksaltirish kabi dolzarb masalalarni ilgari suradi. Uning ilgari surgan g‘oyalari faqat milliy doirada qolib ketmay, balki umuminsoniy, hatto global ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorning publitsistik merosi – “Jahon tarozisining ikki pallasi”, “Til – xalqning nomusi, tarix – uning qomusi”, “Dunyoga chiqish kerak”, “Toqqa chiqish san’ati” kabi suhbatlari hamda “Eshiksiz qo‘rg‘on”, “Abadiyat ostonasida”, “Quyoshdek ravshan haqiqat”, “Amerika chiroqlari”, “Yetuk jamiyat orzusi” singari maqolalari – uning ijtimoiy tafakkuri qanchalik keng va teran ekanini ko‘rsatadi. Xuddi shu ruh “Menga og‘ir”, “Xurofot”, “Oqibat”, “O‘zbekiston ayblidirmu?”, “Xalqim”, “Yonayotgan dala”, “BMTga maktub”, “Qo‘shnilar”, “Munofiqlar”, “Dunyo yo‘li” kabi she’rlarida ham davom etadi. Bu esa shoir ijodida mavzu va g‘oyaning turli janrlar doirasida qayta-qayta ishlanishi, boyitilishi va chuqurlashtirilishidan dalolat beradi.

Jamol Kamol ijodida markaziy o‘rinni egallagan masalalardan biri – milliy ongni yuksaltirish, erkinlik va mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilishdir. Shu bilan birga, u globallashuv jarayoniga ham befarq qarab turmaydi, balki uni murakkab, ko‘p qirrali tarixiy hodisa sifatida talqin etadi. Xususan, “Eshiksiz qo‘rg‘on” suhbatida u sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi, yangi mustaqil davlatlarning shakllanishi va bu jarayon bilan bog‘liq iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolar haqida fikr yuritadi.

Shoir bu jarayonga biryoqlama baho berishdan yiroq turadi. Aksincha, u globallashuvni obyektiv tarixiy jarayon sifatida ko‘radi va uni to‘g‘ri anglash uchun yuksak ma’naviyat va madaniyat zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayrim kuchlar tomonidan bu jarayonni “buzg‘unchilik” yoki “separatizm” bilan izohlash biryoqlama va xato yondashuvdir. Aslida esa, globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi teng huquqli iqtisodiy va madaniy aloqalar taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi.

Ijodkor Amerika, Yaponiya, Singapur, Kanada kabi davlatlar misolida aynan o‘zaro tenglik, hamkorlik va ochiqlik rivojlanishning asosiy sharti ekanini ko‘rsatadi. Bu qarashlar uning nafaqat shoir, balki chuqur tafakkurga ega publitsist ekanini ham tasdiqlaydi. Jamol Kamol ijodida she’riyat va publitsistika bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning har ikkisida ham jamiyat dardi, millat taqdiri, insoniyat kelajagi kabi yuksak g‘oyalar markaziy o‘rin tutadi. Shu bois, uning ijodini o‘rganish nafaqat adabiy-estetik, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, zamonaviy tafakkur rivojiga xizmat qiladi.

Jamol Kamol ijodida globallashuv masalasi murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida talqin etiladi. Shoir dunyo taraqqiyotining jadallashganini, ayrim davlatlar iqtisodiy va texnologik jihatdan ancha ilgarilab ketganini chuqur anglaydi. Shu bois u zamon talabidan kelib chiqib, yopiq holda yashash, tashqi dunyodan uzilib qolish taraqqiyotga olib kelmasligini qat’iy ta’kidlaydi. Uning fikricha, insoniyat taraqqiyoti umumiy jarayon bo‘lib, undan chetda qolgan millat ortda qolishga mahkum.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida globallashuv g‘oyasining keng ommalashuvi, ayniqsa, sobiq Sovet Ittifoqi hududlarida “yopiq eshiklar”ning ochila boshlashi bilan bog‘liq jarayonlar shoirning diqqat markazida turadi. Bu davrda dunyo bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning kuchayishi zaruratga aylangan edi. Jamol Kamol bu jarayonni tabiiy va muqarrar hodisa sifatida qabul qiladi. Mazkur g‘oyalar uning “Dunyo yo‘li” g‘azalida ham badiiy ifodasini topgan:

Boq, bugun qaydin kelib,
Ketgay qayon dunyo yo‘li,
Har qadam mehnat-mashaqqat,
Tashvish-u g‘avg‘o yo‘li...

Bu misralarda “dunyo yo‘li” obrazli ifoda sifatida qo‘llanib, global harakat, taraqqiyot va o‘zgarishlar ramziga aylanadi. Shoir bu yo‘lning oson emasligini, unda mehnat, tashvish va murakkabliklar mavjudligini ta’kidlaydi. Demak, globallashuv shunchaki imkoniyat emas, balki sinov va mas’uliyat hamdir. She’rning keyingi satrlarida bu “yo‘l”ning aniq mazmuni ochiladi:

Qit’alardin qit’alarga
O‘tgay u chirmash bo‘lib,
Paxtayu bug‘doy, kumush, gaz,
Pilla-yu tillo yo‘li.

Bu yerda iqtisodiy aloqalar tizimi tasvirlanadi. Turli qit’alarni bog‘lab turgan savdo yo‘llari, xomashyo va mahsulotlar almashinuvi globallashuvning moddiy asosini tashkil etadi. Shoir bu jarayonni ijobiy hodisa sifatida baholaydi, chunki u mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, taraqqiyotga xizmat qiladi.

Biroq Jamol Kamol bu jarayonning salbiy jihatlaridan ham ko‘z yumib o‘tmaydi. U iqtisodiy va madaniy aloqalar “bosqin, tajovuz, fitna-yu ig‘vo yo‘li”ga aylanib ketish xavfidan ogohlantiradi. Bu fikr globallashuvning ikki tomonlama mohiyatini ochib beradi: bir tomondan, u taraqqiyot va yaqinlashuv omili bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u siyosiy bosim, madaniy assimilyatsiya yoki iqtisodiy qaramlik vositasiga aylanishi mumkin.

Shoirning bu yondashuvi muvozanatli va teran tafakkur mahsulidir. U globallashuvni inkor etmaydi, aksincha, uni to‘g‘ri anglash va undan oqilona foydalanish zarurligini ilgari suradi. Ya’ni, tashqi dunyo bilan aloqalarni rivojlantirish zarur, ammo bu jarayonda milliy manfaatlar, madaniy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlar himoya qilinishi lozim. Jamol Kamol ijodida globallashuv g‘oyasi ijobiy va salbiy jihatlari bilan birgalikda tahlil etiladi. Shoir “dunyo yo‘li”ni taraqqiyot yo‘li sifatida e’tirof etar ekan, uning murakkab va ziddiyatli tabiatini ham chuqur anglaydi. Shu tariqa, uning she’riyati o‘quvchini zamonaviy dunyo jarayonlariga ongli, hushyor va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
2.Sharafiddinov O. Iste’dod jilolari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.
3. Jamol Kamol. Asr bilan vidolashuv. Saylanma. I jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Jamol Kamol. Yonayotgan dala. Saylanma. II jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

XOSIYAT RUSTAMOVA LIRIKASIDAGI YETAKCHI G‘OYALAR

Shukrullayeva Nafisa
Qoraqalpoq davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Xosiyat Rustamova she’riyatining eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u yurak kechinmalarini samimiy va tabiiy tarzda ifoda eta oladi. O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ta’kidlaganidek, shoira “mavzu izlab ko‘chaga yurmaydigan”, balki qalbining ichki dunyosini so‘zga aylantira oladigan ijodkorlardan biridir. Darhaqiqat, chinakam shoir uchun yurakning o‘zi cheksiz mavzudir. Xosiyat Rustamova ham ana shu haqiqatni nozik did va pokiza iqtidor bilan his etgan ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoiraning ijodida sun’iy yoki “ijodiy oyog‘i yerdan uzilgan” mavzular deyarli uchramaydi. Uning she’rlarida hayotning eng muhim va abadiy masalalari – Vatan va ozodlik, urush va tinchlik, hayot va o‘lim, tabiat va inson, mehr va muhabbat kabi umuminsoniy mavzular keng o‘rin oladi. Biroq bu mavzular an’anaviy bo‘lishiga qaramay, shoira ularni ifodalashda o‘ziga xos poetik uslub va noan’anaviy badiiy talqinlardan foydalanadi. Aynan shu jihat uning she’riyatini o‘quvchi uchun qiziqarli va ta’sirchan qiladi.

Masalan, shoiraning “Najot” to‘plamidan o‘rin olgan “Xayol” she’rida inson hayotining g‘oyat murakkab va sirli kechinmalari falsafiy ohangda ifoda etiladi:

Men hamon ortimga tashlayman qadam,
Ergashar kimlardan
qolgan bu otim.
Qachondir yashagan biror kimsadan
Tarjima bo‘lganga o‘xshar hayotim. (“Xayol”, “Najot” to‘plami, 2003-yil, 5-bet)

Ushbu satrlarda inson hayotining davomiyligi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlik hamda mavjudlikning sirli mohiyati poetik timsollar orqali ifodalanadi. “Hayotim tarjima bo‘lganga o‘xshar” degan metafora orqali shoira inson hayotini go‘yo o‘tmishda yashagan kimningdir taqdiridan davom etayotgan ruhiy tarjimaga qiyoslaydi. Bu esa hayot falsafasi, inson taqdiri va mavjudlikning uzviyligi haqidagi chuqur mushohadalarni uyg‘otadi.

Shoiraning “Ishg‘ol” to‘plamidan o‘rin olgan quyidagi satrlari ham ijodkor qalbining iztiroblari va ruhiy izlanishlarini yorqin aks ettiradi:

Ollohning karami cheksiz, bepoyon,
Yaratgan bir kuni,
Meni olib tan,
Boshqa mamlakatda
Qachon bo‘lsa ham
Nashr qilarmikan meni qaytadan?!
Yo uning joniga tegdimmikan men,
Qiyofamda ming bir quvonchu g‘ussa.
Balki nashr etar – uning bag‘ri keng,
Hech yo‘q o‘n ming nusxa,
Hech yo‘q ming nusxa.

Bu satrlarda shoira insonning o‘zligini anglash, o‘z hayoti va taqdiri ustida mushohada yuritish jarayonini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Shoiraning o‘z hayotini go‘yo qayta nashr etiladigan kitobga qiyoslashi hayot falsafasining o‘ziga xos poetik talqinidir. Bu obraz orqali inson taqdirining murakkabligi, uning quvonch va iztiroblardan tarkib topganligi ifodalanadi.

Yuqoridagi lirik satrlar sir-sinoatga to‘la bu dunyoda insonning o‘zligini anglash istagi qalbimizda doimo ma’lum bir bezovtalikni uyg‘otadi. Ba’zan yolg‘izlik hissi qalbimizni chulg‘ab olgan paytlarda, olamning qaysidir burchagida biz kabi o‘ylayotgan, biz kabi dard chekayotgan va biz kabi yashayotgan ruhdosh insonlar bormi-yo‘qligi haqida o‘ylab qolamiz. Xosiyat Rustamova she’riyati aynan ana shu ruhiy holatlarni, inson qalbining eng nozik va murakkab kechinmalarini samimiy va teran poetik ifoda bilan tasvirlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Buyuk olmon mutafakkiri Iogann Vol’fgang Gyote ta’kidlaganidek: “Yangi davrning eng betakror yozuvchilari biror yangi narsa yaratganlari uchun emas, balki hammaga ma’lum gapni ulargacha hech qachon aytilmaganidek aytishga qodir bo‘lganliklari uchun betakrordirlar”, ushbu fikr Xosiyat Rustamova ijodini tushunishda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Shoiraning tafakkur olami nafaqat o‘zi yashayotgan jamiyat va davr bilan cheklanib qolmaydi, balki butun borliqni qamrab oladi, oddiy insonlar ilg‘amaydigan hodisalarni ilg‘ashi bilan ajralib turadi. Bu esa uning ijodini o‘zga shoirlardan farqlashga yordam beradi.

Badiiy asarning estetik mohiyati ijodkorning “yonib turgan dardi” orqali namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, biror mavzu yoki butun asarning shakl va mazmuni, uning hissiy-axloqiy-falsafiy qudrati ijodkor qalbidagi ehtiros va g‘oyaviylik bilan belgilanadi. Ijod jarayonining boshidan oxirigacha ishtirok etadigan ruhiy quvvat – bu tasavvurdir. Badiiy tasavvur qidiruvchan, ehtirosli va mavhum bo‘lib, biror hodisa yoki voqea hali aniqlanmagan bo‘lsa ham ijodkorni

o‘ziga chaqirib turadi. Tasavvurni aniqlash qiyin bo‘lsa-da, u aql-idrokni chetlab, estetik ko‘rinish topadi; mo‘jizaviylik, xayoliylik va karomat unsurlarini o‘zida mujassam etadi.

Badiiy asardagi tasavvur mahsuli syujet, badiiy qiyofa yoki majoziy shaklida bo‘lishidan qat’i nazar, o‘quvchida hayotiy reallik taassuroti uyg‘otadi. O‘quvchi uni badiiy reallik sifatida qabul qilib, hayratlanadi, quvonadi, qayg‘uradi; xullas, aqlga quloq solmay unga ishonadi. Shu tariqa, tasavvur orqali ijodkor o‘quvchini bo‘lmagan narsaning bo‘lganligiga yoki shunday bo‘lishi kerakligiga ishontiradi. Shu nuqtai nazardan Xosiyat Rustamova she’riyati ham o‘quvchini o‘z xayoliy dunyosiga ishonarli tarzda yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1955.
2.G‘afurov I. Lirikaning yuragi. Adabiy o‘ylar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. – B. 224.
3. G‘afurov I. She’riyat-izlanish, kurashchanlik demakdir. – Toshkent, 1984.
4.Rustamova, Xosiyat. Osmondagi uy: She’rlar. – Toshkent: Yozuvchi, 1997.

ERKIN A’ZAM IJODIDA AFORIZMLAR

Sotimboyeva Halima
O‘zbekiston, Nukus Qoraqalpoq davlat universiteti,4-bosqich talabasi

Aforizmning badiiy-estetik tabiati uning nafaqat ixchamligi, balki mantiqiy izchillik asosida shakllangan umumlashgan hikmatni ifodalash xususiyati bilan belgilanadi. Aforistik tafakkur mohiyatan dialektik xarakterga ega bo‘lib, unda fikr ko‘pincha qarama-qarshiliklar orqali ochiladi va inkor etib bo‘lmas haqiqat darajasiga ko‘tariladi. Shu jihatdan aforizm – bu oddiy qisqa jumla emas, balki murakkab fikriy tizimning siqilgan, semantik jihatdan yuqori darajada zichlashgan ifodasidir.

Biroq ijodkorning aforistik shaklga ortiqcha berilishi ba’zan mazmuniy izchillikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa badiiy nutqning ichki uyg‘unligiga putur yetkazadi. Demak, aforizmning estetik qiymati uning nafaqat qisqaligida, balki mazmuniy aniqligi, mantiqiy asoslanganligi va kontekstga mosligida namoyon bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodiga mansub maqol va matallar esa aforistik tafakkurning tarixiy shakli sifatida yozma adabiyotda yangi semantik qatlam hosil qiladi. Har bir ijodkor ushbu tayyor hikmatlarni o‘z badiiy konsepsiyasiga mos ravishda qayta talqin etadi. Masalan, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor va G‘afur G‘ulom ijodida xalq hikmatlari turlicha stilistik vazifani bajarib, ularning individual uslubini shakllantiruvchi muhim omilga aylanadi.

Zamonaviy o‘zbek nasrida aforizmlardan foydalanish tendensiyasi yanada murakkablashib, individual ijodiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, Erkin A’zam ijodida aforizmlar nafaqat til bezagi, balki asar strukturasini tashkil etuvchi semantik markaz vazifasini bajaradi. Uning nasrida

psixologik tasvir, yumor va lo‘ndalik uyg‘unlashib, aforistik fikr orqali chuqur ijtimoiy va axloqiy xulosalar beriladi.

Adibning aforizmlardan foydalanish usuli uch asosiy yo‘nalishda ko‘zga tashlanadi:

1. xalq orasida shakllangan aforizmlarni o‘zgartirmasdan qo‘llash;
2. ularni qisman transformatsiya qilib, yangi kontekstga moslashtirish;
3. mutlaqo yangi individual aforizmlar yaratish.

Bu uchala usul ham badiiy matnda turli funksional vazifalarni bajaradi: syujetni rivojlantirish, obraz xarakterini ochish, kompozitsion yaxlitlikni ta’minlash va muallifning g‘oyaviy pozitsiyasini ifodalash. Masalan, “Yozuvchi” hikoyasida qo‘llangan “u qozonning qopqog‘ini ochgisi kelmadi” kabi iboralar yashirin ijtimoiy munosabatlarni kinoyaviy tarzda ochib bersa, “Birovga choh qazisang – o‘zing tushasan” maqoli esa voqeaga umumlashtiruvchi axloqiy hukm sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, “Balo egizak bo‘ladi”, “Hammamiz ham o‘lamiz” kabi aforistik birliklar matnda nafaqat hayotiy haqiqatni ifodalab, balki voqelikni falsafiy idrok etish vositasiga aylanadi. Bu holat aforizmning badiiy matndagi gnoseologik funksiyasini, ya’ni bilish va anglash jarayonidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Erkin A’zam miniaturalari esa individual aforizm yaratishning yorqin namunasi bo‘lib, unda muallif so‘z va kitobning ontologik ahamiyatini ta’kidlaydi. “Kitob ursa, yomon uradi” kabi iboralar diniy-ma’rifiy manbalar bilan semantik aloqaga kirishib, kitobni muqaddas qadriyat sifatida talqin etadi. Bu yerda aforizm nafaqat estetik, balki axloqiy-didaktik funksiyani ham bajaradi.

“Suv yoqalab” qissasida esa aforistik fikrlar obrazlar nutqida mujassamlanib, hayotiy tajriba va xalqona donishmandlikni ifodalaydi. Bu esa aforizmning dialogik tabiatini, ya’ni u orqali ijtimoiy tajriba avloddan-avlodga uzatilishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, zamonaviy o‘zbek nasrida aforizmlar badiiy tafakkurning muhim komponenti sifatida namoyon bo‘lib, ular orqali muallif voqelikni umumlashtiradi, obrazlarni chuqurlashtiradi va asarning estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi. Aforizm – bu badiiy matnning semantik zichligini oshiruvchi, uning falsafiy qatlamini boyituvchi va o‘quvchini tafakkurga chorlovchi kuchli poetik vositadir.

Bolta Mardon obrazi orqali muallif o‘zbek xalqining pedagogik-falsafiy qarashlarini badiiy talqin etadi. Bu obrazda avtoritar tarbiya emas, balki dialogik va erkin tafakkurga asoslangan tarbiya modeli ustuvorlik qiladi. U farzandlariga o‘z fikrini majburan singdirishga intilmaydi, aksincha, ularni mustaqil fikrlashga, hayotiy tanlovni ongli ravishda amalga oshirishga undaydi. Bu holat zamonaviy adabiyotshunoslikda shaxs erkinligi va individual qaror qabul qilish konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi.

Qodirning sevgi masalasida otaning tutgan pozitsiyasi ayniqsa e’tiborlidir. Bolta Mardon farzandining tanloviga qarshilik bildirmay, “Bu – bir umrlik azob” degan hukmni bildiradi. Mazkur ibora o‘zining umumlashganligi, hayotiy tajribaga tayanganligi va semantik chuqurligi bilan aforistik xarakter kasb etadi. Unda insoniy tanlovning mas’uliyati, xatolikning uzoq davom etuvchi oqibatlari falsafiy

jihatdan mujassamlashgan. Bu yerda aforizm individual vaziyatdan chiqib, umuminsoniy haqiqat darajasiga ko‘tariladi.

Shuningdek, otaning “Ota degani payg‘ambar bo‘ptimi?” degan so‘zlari ham muhim semantik yuklama kasb etadi. Ushbu iborada ota-ona mutlaq haqiqat sohibi emasligi, farzand esa mustaqil subyekt sifatida qaralishi g‘oyasi ilgari suriladi. Bu fikr xalq orasida keng tarqalgan “Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l” maqolining badiiy transformatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada matnda xalqona hikmat bilan individual muallif pozitsiyasi sintezlashadi.

Asarda suv motivining yetakchi poetik obraz sifatida qo‘llanishi ham alohida nazariy tahlilni talab qiladi. “Suv yoqalab” sarlavhasining o‘ziyoq asarning semantik markazini belgilaydi. Suv bu yerda nafaqat tabiiy unsur, balki hayot, poklanish, davomiylik va baraka ramzi sifatida talqin etiladi. Bolta Mardonning qaqroq yerlarga suv chiqarish g‘oyasi ijtimoiy faoliyatning badiiy ifodasi bo‘lsa, hikmatli iboralarda suvning metaforik ma’nosi kengayadi.

Masalan, Hamro boboning “Suv keltirganning yo‘li oydin bo‘ladi. Suv – yorug‘lik” degan fikri xalq maqolidagi “Suv – hayot” g‘oyasining yangi poetik talqinidir. Bu yerda suv hayot manbai sifatida emas, balki ma’naviy poklik va nur timsoli sifatida kengaytiriladi. Demak, aforizm orqali oddiy maqol yangi semantik qatlam kasb etadi.

“Yelday kelib, selday ketgani shu-da odamning. Umr deganlari huv ariqdagi suvday gap” kabi iboralar esa vaqt va umr konseptining poetik ifodasidir. Bu yerda “yel”, “sel”, “ariq”, “suv” kabi tayanch obrazlar o‘zaro semantik uyg‘unlik hosil qilib, hayotning o‘tkinchiligi haqidagi falsafiy xulosani kuchaytiradi. Ushbu tasvirlar o‘xshatish, jonlantirish va metaforik parallelizm vositasida “Umr – oqar daryo” maqolining badiiy kengaytirilgan variantini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Izzat Sulton. Asarlar. IV tomlik, I tom. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1971.
2. Ibrohim Haqqul. Hayot, adabiyot va abadiyat. – Toshkent: Tafakkur,
3. Hamdam U. Eski dunyo va yangi men. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 383.
4. Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 53-bet.
5. Hamdam U. Yangi o‘zbek she’riyati. – T.: Adib, 2012.

O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATI: TA'LIM TIZIMIDA MILLIY QADRIYATLAR VA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

Soyibova Dilobarxon Qobiljonovna
O'zbekiston, Farg'ona viloyati, Farg'ona davlat universiteti, Tarix fakulteti talabasi

Har qanday jamiyatning kelajagi avvalo uning yoshlarida mujassamlashadi. Yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va fuqarolik pozitsiyasi davlatning istiqboliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yoshlar tarbiyasi — bu faqat pedagogik masala emas, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyat kasb etuvchi umumdavlat vazifasidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon yoshlarga munosabat tubdan o'zgardi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim islohoti faqat bilim sifatini yaxshilash bilan cheklanmay, balki yosh fuqarolarni milliy ruhda, yuksak axloq mezonlari asosida shakllantirish maqsadini ham ko'zlaydi. Ayniqsa so'nggi yillarda ta'lim siyosatida vatanparvarlik tuyg'usini tizimli tarzda rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda [Yusupov E.:23].

Ushbu maqolaning maqsadi — O'zbekistonda yoshlarga yo'naltirilgan davlat siyosatining asosiy parametrlarini ko'rsatish va ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning mavjud mexanizmlarini ilmiy nuqtai nazardan baholashdir.

Yoshlar siyosatining nazariy asoslari va O'zbekiston tajribasi, "Yoshlar siyosati" tushunchasi ostida davlat tomonidan yosh fuqarolar manfaatini ko'zlab ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar majmui tushuniladi. Ushbu siyosat qamroviga ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniy va ma'naviy rivojlanish kabi sohalar kiradi. Jahon amaliyotida yoshlar siyosatini shakllantirishda ikki asosiy model mavjud: integratsion model — yoshlarni jamiyat hayotiga faol jalb etish; va himoya modeli — zaif toifadagi yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash [Qodirov A.:11].

O'zbekistonda ushbu ikki model uyg'unlashtirilgan tarzda qo'llaniladi. Bir tomondan, iqtidorli yoshlarni ilm-fan, sport va madaniyatga jalb etish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ikkinchi tomondan, hayotiy qiyinchiliklarga duch kelgan yosh fuqarolar uchun ijtimoiy yordam tizimlari mustahkamlanmoqda. Biroq ushbu maqolada asosiy e'tibor yoshlar tarbiyasining ma'naviy-axloqiy jihatiga — milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlikni shakllantirish masalasiga qaratiladi.

2016-yildan boshlab O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy yangilanish jarayoni yoshlar siyosatini ham tubdan isloh qildi. Yoshlarga oid qonunchilik bazasi qayta ko'rib chiqildi, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi, Yoshlar ittifoqining vakolatlari kengaytirildi. Natijada yoshlar nafaqat davlat siyosatining ob'ekti, balki uni shakllantirishda faol ishtirokchi sifatida tan olindi [Rahimov B.:8].

Milliy qadriyatlar — bu xalqning asrlar davomida to'plagan axloqiy, madaniy va ma'naviy merosi bo'lib, avloddan-avlodga o'tib keladigan muqaddas boylik sifatida qaraladi. Ularning mohiyatida mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik, kattani hurmat qilish, vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlar mujassamlashgan. Mazkur qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirish ta'limning bosh vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi o'zbek maktablarida milliy qadriyatlarni o'rgatishning bir necha asosiy yo'li qo'llanilmoqda. Birinchidan, maxsus fanlar — O'zbekiston tarixi, adabiyot, ona tili kabi o'quv predmetlari orqali o'quvchilar xalqimizning boy merosini, buyuk ajdodlarning hayoti va faoliyatini o'rganadi. Ikkinchidan, maktabdan tashqari tadbirlar — bayramlar, ko'rik-tanlovlar, milliy o'yinlar va mehnat loyihalari — nazariy bilimni amaliyot bilan bog'laydi. Uchinchidan, oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida ota-onalar ham tarbiya jarayoniga jalb etilmoqda [Holiqov M.:19].

Oliy ta'lim bosqichida esa milliy qadriyatlarni tarbiyalash yanada murakkab va ko'p qirrali tus oladi. Talabalar falsafa, tarix va ma'naviyat asoslari kabi fanlarni o'rganishdan tashqari, ijtimoiy-madaniy tadbirlarda, ilmiy anjumanlarda, jamoat

ishlarida qatnashadi. Universitetlardagi yoshlar tashkilotlari ham talabalarda fuqarolik ongi va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha muntazam ishlar olib boradi.

Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari

Vatanparvarlik tuyg'usi — bu shaxsning o'z yurti, xalqi va madaniyatiga nisbatan kuchli hissiy bog'liqligi va mas'uliyat sezgisidir. Uni faqat nutq va ma'ruzalar orqali tarbiyalab bo'lmaydi; buning uchun o'quvchi yoki talabaning o'zi faol qatnashuvchi bo'lgan amaliy tajribalar zarur [Toshmatov S.:31].

Zamonaviy pedagogika vatanparvarlikni tarbiyalashda bir nechta samarali usullarni tavsiya etadi. Loyiha asosida o'qitish usulida o'quvchilar mahalliy tarix, madaniy meros yoki ekologik muammolarga bag'ishlangan ishlar ustida ishlaydi; bunday faoliyat ularda ona-yurtga egalik hissini uyg'otadi. Muzeylar, tarixiy joylar va memorial majmualar bilan integratsiya esa o'quvchilarni real tarixiy muhitga olib boradi hamda mavhum tushunchalarni jonlantiradi.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish ham tobora dolzarb yo'nalishga aylanmoqda. Vatan tarixiga bag'ishlangan virtual ekskursiyalar, onlayn viktorinalar, milliy qahramonlarning hayotini aks ettiruvchi animatsion filmlar yoshlarning qiziqishini uyg'otib, ularning ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda bu sohadagi ilk qadamlar allaqachon qo'yilgan bo'lib, bir qator raqamli ta'lim dasturlari ishga tushirilgan [Abdullayev N.:45].

Shuningdek, badiiy adabiyot va san'atning kuchi ham e'tiborga molik. Milliy epik asarlar, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi yoshlarda milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'ularini jonlantiradi. Ta'lim jarayonida ushbu asarlarga oid ijodiy topshiriqlar, insho yozish va teatr taqdimotlari kabi faoliyat turlarini faollashtirish sezilarli samarali natija beradi.

Ta’lim jarayoni zamonaviy texnika va texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar hamda o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanib tashkil qilishda didaktik tamoyillardan o‘z o‘rnida foydalanib tashkil qilish orqali samarali natijaga erishish mumkin. Yuqorida didaktik tamoyillar ularning mazmun va mohiyati, ta’lim jarayonida amalga oshirish ketma-ketligi to‘g‘risida ma’lumotlarni bayon qilinadi. Didaktik tamoyillar umumiy maqsadga hamda masalalarga tegishli bo‘lgani uchun, o‘qitish jarayonining mazmunini, shaklini hamda metodlarini aniqlovchi asosiy loyiha bo‘lib hisoblanadi. Boshqacha aytganda, didaktik tamoyil o‘qitish jarayonining asosiy qonunlarini hamda qonuniyatlarini amalda qo‘llash usuli. Demak, har bir didaktik tamoyildan aniq loyiha hamda rejalar paydo bo‘ladi. Didaktik loyihalar bevosita tamoyillardan kelib chiqmaydi, balki ular pedagoglarning to‘plagan amaliy tajribasidagi kamchiliklarini umumlashtirish va ularni bartaraf qilish asosida kelib chiqadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘qitishning amaliy tajribasi qoidalarda, loyihalarda aks etadi va ular ikki xil vazifani bajaradi.

Birinchidan, o‘qitish jarayonining asosiy qonuniyatlarini avloddan- avlodga o‘tishini ta’minlasa;

Ikkinchidan, ma’lum bir qoidalar va loyihalar ayrim hollarda o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir qilishidan saqlaydi. Shuning uchun, har bir didaktika qoidalaridan, loyihalardan bevosita foydalanibgina qolmasdan, balki ularni har bir pedagogik jarayonga mos ravishda qo‘llash kerak. O‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlarida yangi material mazmunini tushuntirishda, dars samaradorligini oshirish hamda ko‘zlangan maqsadga erishishda turli chizma, jadval, diagrammmalar, turli muqobil energiya manbalari qurilmalarning maket va modellaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchi darsni qiziqarli o‘tishi, o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, darsda ularni faol ishtirok etishlarini ta’minlash maqsadida muqobil energiya manbalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berishda turli xildagi yangi vositalarni tayyorlash va ulardan o‘z o‘rnida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida).Avtoref. ped. fan. dokt…diss. – Toshkent, 2006. – 38 b.
2. Abduqodirov A., Pardaev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b.
3. Nurmatov A. Zamonaviy OAVda kasbiy universallashuv va ixtisoslashuv.– Toshkent: 2013. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – 516 b
4. 2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022- yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
5. Umataliev Z. Mediaxavfsizlik ishlarimiz kelajagining poydevori sifatida.—Ilmiypedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali informatsiyaviy

tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizm respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – T.: 2017. 223 b.
6. Xudayqulov X.J. Zamonaviy ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyadan foydalanish.-T.:Navruz.2011 y.138-bet.
7. Xudayqulov X.J. Pedagogika.Darslik,-T.: “Ta’lim” nashriyoti.2022 y.
8. Xudaykulov X. J. Informatsionno-kommunikatsionnыe texnologii: aktualnыe voprosы pravovogo regulirovaniya. Jurnal "Demokratizatsiya i prava cheloveka". -T.: 2009. №2.
9. Xudaykulov X.J. Vliyanie informatsionnых i kommunikatsionnых texnologiy na obuchayuщixsya v epoxu globalizatsii. Sovremenыy obucheniya. Jurnal №4 -T.: 2020 g.
10. Xudaykulov X. J. Ta’lim samaradorligini oshirishda mediata’lim tizimidan foydalanish imkoniyatlari. Jurnal «Academic research in educational sciences». Tom-5. Nomer Conference NUU 5. 2024. Stranisы 14-19.
11. Khol Khudokulov. Formation of speech ethics and culture of people in interrelationships. Jurnal. «International Journal of Artificial Intelligence». Tom1. №-4. 6/18, 2025.Str - 1825-1829
12. Xudaykulov, X. J. "Zamonaviy ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyadan foydalanish." -T.: Navruz. 2011.

O‘QUV MATERIALLARINI LOYIHALASHNING DIDAKTIK ASOSLARINI MODERNIZATSIYA QILISH

Berdimuratova A.Q.
Falsafa fanlari doktori, proffessor, QQDU «Ijtimoiy fanlar kafedrasi» mudiri

Opaeva G.A.
Pedagogika yo‘nalishi tadqiqotchisi, QQDU « Algebra va funktsional analiz kafedrasi »katta óqituvchisi

Zamonaviy globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda bilimlarning tez eskirishi, axborot oqimining ortishi va mehnat bozorining o‘zgaruvchanligi o‘quv materiallarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shu sababli o‘quv materiallarini loyihalashning didaktik asoslarini modernizatsiya qilish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

An’anaviy ta’lim tizimida o‘quv materiallari asosan bilimlarni uzatishga xizmat qilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvda ular o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammolarni hal etish va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur [1].

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

tizimli tahlil; qiyosiy tahlil; modellashtirish; pedagogik kuzatuv;

ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish.

Mazkur metodlar orqali o‘quv materiallarini modernizatsiya qilishning samarali yo‘nalishlari aniqlashtirildi.

O‘quv materiallarini loyihalash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

ilmiylik; tizimlilik; izchillik; tushunarlilik; faollik; amaliy yo‘naltirilganlik.

Mazkur tamoyillar pedagog olimlar tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, ular ta’lim samaradorligini ta’minlashda asosiy mezon hisoblanadi [2].

Shu bilan birga, zamonaviy didaktika konstruktiv va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslanadi. Bu esa o‘quv materiallarini qayta loyihalashni talab qiladi [3].

Raqamli transformatsiya

Didaktika ta’lim jarayonining mazmuni va qonuniyatlarini o‘rganadi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirdi. Elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari va sun’iy intellekt vositalari keng qo‘llanilmoqda [4].

Kompetensiyaviy yondashuv

Zamonaviy ta’lim tizimi bilim emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu esa o‘quv materiallarining mazmunini yangilashni talab etadi [5].

Axborot ortiqligi muammosi

Bugungi kunda asosiy muammo — axborotni yetkazish emas, balki uni saralash va tizimlashtirishdir [6].

O‘quv materiallarini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari

Raqamli didaktika

Raqamli o‘quv materiallari quyidagi xususiyatlarga ega:

multimediaviylik;

interaktivlik;

moslashuvchanlik.

Bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi [7].

Interaktiv metodlar integratsiyasi

Interaktiv metodlar:

muammoli o‘qitish;

loyiha asosida o‘qitish;

case-study metodlari

o‘quv materiallarini samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi [8].

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan loyihalash

Materiallar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi [9].

Adaptiv ta’lim texnologiyalari

Adaptiv tizimlar o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga oladi va ta’limni shaxsiylashtiradi [10].

Modernizatsiyalashgan didaktik model

Taklif etilayotgan model quyidagi bosqichlardan iborat:

diagnostika;

loyihalash;

raqamlashtirish;

joriy etish;

baholash.

Mazkur model o‘quv materiallarini tizimli ravishda takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

o‘quvchilarning bilim darajasi oshdi;

mustaqil fikrlash rivojlandi;

ta’limga qiziqish kuchaydi.

Shu bilan birga, quyidagi muammolar aniqlandi:

texnik infratuzilma yetishmasligi;

pedagoglarning tayyorgarlik darajasi pastligi;

metodik qo‘llanmalar yetishmovchiligi.

O‘quv materiallarini loyihalashning didaktik asoslarini modernizatsiya qilish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu jarayon:

ta’lim sifatini oshiradi;

o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantiradi;

innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar’dagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi Ózbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘ǵrisida”gi PF-60-sanli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
2. Aldjanova G.A., Pirniyazova N.V. Ulıwma pedagogika.Sabaqlıq. – Nókis: «BILIM»,2025. 260 b.
3. Xodjaev B.X. Ulıwma pedagogika. Sabaqlıq. – Tashkent: «Sano-standart», 2017. 434 b.
4. Abdullaeva Sh., Askarov A. Ulıwma pedagogika. Pedagogikalıq emes úy bilimlendiriw mákemesi ushın sabaqlıq. – T.: Ilim hám málimleme texnologiyaları, 2019. – 280 b.
5. Podlasıy I.P. Pedagogika. 2-kitap. Oqıtıw teoriyası hám texnologiyası. – M.: VLADOS, 2007.
6. Podlasıy I.P. Pedagogika. 3-kitap. Tárbiya teoriyası hám texnologiyası – M.: VLADOS, 2007. 3-kitap. – 463 b.
7. Azizxodjaeva N.N. Pedagogikalıq texnologiyalar hám pedagogikalıq sheberlik. – T.: Finans, 2002. – 192 b.
8. Muslimov N.A. Pedagogik kompetensiya va uning shakllanishi. – Toshkent, 2017.
9. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2012.
10. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2014.

ЖАЗЫЎШЫ ДӨРЕТИЎШИЛИГИН ОҚЫТЫЎ АРҚАЛЫ ЖАСЛАРДЫҢ РУЎХЫЙ ДҮНЬЯСЫН БАЙЫТЫЎ

Юсупов Конысбай Абылович

Қарақалпақстан Республикасы, Нөкис қаласы, Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети профессоры, педагогика илимлериниң докторы

Педагогика бойынша В.Л.Голиш [1], Н.Ғуломова [2], Г.М.Давлетшин [3], А.С.Зуннунов [4], Ў.Қ.Толипов [5], Б.Тухлиев [6], К.А.Юсупов [7.] ҳәм баска да алымлардың мийнетлеринде оқытыў формалары, лекция, семинар ҳәм методлар бойынша ҳәрқыйлы көз қараста методикалық пикирлер билдирилген. Усы көз қарастан қарақалпақ әдебиятын оқытыў методикасында жазыўшылардың дөретиўшилигин үйрениў бойынша методикалық пикирлер аз айтылған. Сонлықтан Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин оқытыў аркалы базыбир методикалық пикирлерди билдирип өткенди мақул көрдик. Бағдарламада берилген усы белгили жазыўшының дөретиўшилигин оқытыў барысында сабақ түрлери, лекция ҳәм методлардан дурыс пайдаланыўда ҳәрбир әдебиятшы муғаллимнен үлкен методикалық шеберлик талап етеди.

Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин оқытыўда машқалалық лекция, монографиялық лекция, шолыў лекциясы, энергия алмасыў лекцияларын пайдаланыў мақсетке муўапық болады. Усылардың ишинде машқалалық лекцияның қолланыў усылларына тоқтап өтейик. Бул лекция түринен пайдаланыў сабақта өтилежақ материалдың көлемине, сабақтың мақсетине ҳәм ўазыйпаларына муўапық болады.

Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин машқалалық лекция менен оқытыў ушын ең дәслеп машқалалық ситуацияларды жаратыў ҳәм сабақ барысында жүзеге келтириўде әдебиятшы муғаллимнен теориялық саўатлылық ҳәм методикалық шеберлик талап етиледи. Муғаллим бул машқалаларды сабақ барысында ҳәр түрли усыллар менен әмелге асырады. Биринширен, бағдарламада берилген жазыўшының дөретиўшилигин оқытыўда машқалалық ситуацияны келтирип шығаратуғын мәселелерди ажыратып алады. Буның ушын оқытыўшы жазыўшы прозасының мазмунын, дөретпелериниң жанрлық өзгешеликлерин, оның дөретпелери бойынша изертлеў жумысларын тереңнен билиўи тийис. Буннан соң жазыўшының дөретиўшилиги бойынша қарама-қарсылыққа ийе болған, жасырын машқалалы сораўларды муғаллим излеп, таба билиўи керек. Екиншиден, жазыўшының дөретиўшилигинен машқалалық жағдайды жүзеге келтиретуғын мысалларды билиўи керек.

Мәселен, «Маман бий» романындағы Аманлық образын таллаў арқалы бирқанша қарама-қарсылықлы пикирлерди жаслар жүзеге келтириўи мүмкин. Аманлықтың қарындасына билмей қосылыўы, Маман бийдиң узақтан оларды таныўы, оларға өлим шарасын қолланыўы усаған мәселелер жасларға терең ой салады. Усы пикирлердиң кайсысы дурыс екенлигине жаслар өз көз қарасларын билдиреди. Нәтийжеде олар арасында қарама-қарсылықлы пикир пайда болыўы мүмкин. Сонлықтан, оқытыўшылар тәрепинен бул мәселе бойынша нелерди алдынан билиўи керек екенлигин, булардан басқа жазыўшының қайсы дөретпелеринде қарама-қарсы пикирлер бар екенлиги

анықланады. Айырым машқалалық мәселелердиң салыстырмалы сыпатқа ийе екенлиги есапқа алынады. Сондай-ақ бул машқалалық мәселелер ўақтынан бурын яки кешигип пайда етилсе, онда оқыўшылар ушын усы машқалалық мәселе пайдасыз ҳәм нәтийжеси аз болады. Үшиншиден, Т.Қайыпбергеновтың прозалық шығармаларының мазмуны, ондағы қаҳарманлары, дөретпелериндеги өзгешеликлер бойынша машқалалы пикирлерди жүзеге келтириўи мүмкин. Демек, оқыўшыларға берилетуғын сораўлар избе-из тәртипте, белгили мақсетке тийкарланып, жасырын ҳәм ашық түрде берилиўи зәрүр. Мәселен, Т.Қайыпбергенов не ушын поэзиялық шығармаларды өнимли жазбаған? Драмалық шығармаларында қаҳарман образы қалай ашып берилген? ҳ.т.б. сораўлар бериледи. Төртиншиден, Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилиги бойынша пайда етилген машқалалық ситуацияның оқыўшылар тәрепинен қалай шешилиўи анықланады. Олардың ой-пикирлери тереңлесип барады. Нәтийжеде машқалалық мәселелер оқыўшылардың тәрепинен шешилип барылыўы тийис.

Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин оқытыўда машқалалық лекциядан пайдаланыў көп нәтийжелерге алып келеди. Себеби, бул лекция түри оқыўшылар санасында илимий излениўге тийкарланған билим, уқып ҳәм көнликпелерди пайда етеди. Жазыўшының прозалық шығармалары бойынша машқалалық лекцияны өткериў барысында зәрүрли оқыў материаллары ҳәм қураллары дурыс таярланыўы керек. Тийкарынан машқалалық лекция: машқалалық мәселе, сораўлар, қысқаша бағдарлама, лекция текстти, тирек сөзлер, жоба, тийкарғы әдебиятлар дизими, лекция текстинен турады. Оның прозалық шығармалары бойынша машқалалық лекцияға қойылатуғын талаплар: терең мазмунға, шебер қурылған машқалалық сораўларға, оқыў режесиндеги саатларға сәйкес сапалы болыўы тийис.

Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин оқытыўда ҳәрекетшең лекция түринен пайдаланыў методикалық мәселелердиң бири. Оқыўшыларға бул лекция түринен пайдаланыў әдебиятшы муғаллимнен илимий теориялық ҳәм методикалық излениўшилик талап етеди. Усы лекцияны әмелге асырыў ушын оқыўшылар сабаққа толық ҳәм қызығыўшылық пенен қатнасыўы керек. Себеби олардың қатнасында орынланады.

Т.Қайыпбергеновтың прозалық шығармаларын оқытыў бойынша лекцияны баслаўдан алдын компьютер проекторы жәрдеминде өтилежақ тема ҳәм сабақ мақсети таныстырылады, ўазыйпалар атап өтиледи. Сабақтың мақсети тийкарынан оның дөретиўшилик шеберлигин, көркем дөретпелерин оқытыў арқалы оқыўшыларда миллий идеялар, ўатанға сүйиўишилик, адамгершилик сезимлерди сиңдирип барыў, олардың тил байлығы, сөйлеў мәдениятын раўажландырып барыўдан ибарат.

Әдебият сабақларында жазыўшылардың дөретиўшилигин оқытыў әдебиятшы муғаллимнен методикалық шеберлик талап етеди. Себеби әдебияттаныў илиминде ең қызықлы, бирақ жүдә аз сөз етилип, кем изертленген мәселелердиң бири жазыўшылардың дөретиўшилик шеберлиги болып есапланады. Ҳәрбир жазыўшының сырлы ҳәм жумбақлы екенлигине, ҳәрбир қәлем ийесиниң ишки дүньясы, дөретиўшилик процессиндеги

психологиялық кеширмелериниң бир-бирине ҳеш бир уқсамаслығы оқыўшыларға қызығыўшылық пайда етеди. Усы себепли де белгили әдебиятшы З.Қабдолов, К.Мәмбетов, Қ.Камалов, Ә.Пахратдинов, К.Алламбергенов, Қ.Оразымбетов ҳ.т. басқалардың мийнетлеринде айтылған. Мәселен, әдебиятшы З.Қабдолов жазыўшылардың дөретиўшилик ўақтындағы ҳалатларына байланыслы көплеген қызықлы ҳәм сырлы фактлерди келтиреди [8]. Оларға дыққат бөлсек: атақлы жазыўшы Э.Хеменгуей көкирек аўзына келетуғын кафедра-минбер алдында түргелип турып жазбаса иси келиспеген, ал биреўлер жерде дус төменине жатып алып жазған, тағы биреўлер үйлеринен қашып саяхатта ямаса дөретиўшилик үйлеринде жазады, гейпаралар өз үйлери, өз столынан басқа жерлерде иси жүриспейтуғынын айтады. Булардың барлығын оқыўшыларға қызықлы етип түсиндириў муғаллимниң оқытыў шеберлигине байланыслы әмелге асады.

Жасларға Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилик шеберлигин түсиндириў барысында төмендеги мағлыўматларды беремиз: Белгили жазыўшы Т.Қайыпбергенов: «Мен «Қарақалпақнама»ны жазыўға отырғанда неликтенде әўели өзиме сүйенип, өзимди көремен… набада өзим деп халқым ҳаққында надурыс бир нәрсе айтып саламан ба деген қәўип пенен ойланаман. Бул мениң кеўилим әл асмандалығынан дерек береди деп қорқаман» [9. 31-бет],- деген екен. Ал және де ол: «Қорқақлық-бахытсызлықтың белгиси … орынсыз сөз сөйлеўдиң қорқынышы, әне, ҳақыйқый қорқыныш» [10. 14-бет], - деп жазады. Жазыўшының бул дөретиўшилик ҳаққында ойларын оқыўшыларға түсиндириў барысында буннан басқа да мысаллардан пайдаланыў керек. Бул мәселелерди түсиниўи арқалы оқыўшылар санасында жазыўшының ишки психологиялық, руўхыйлық ақыл-парасаты ҳаққында қызығыўшылығы артып барады. Нәтийжеде олар бундай ой-пикирлердиң жазыўшыларға тийисли екенлигин билип барады. Соның ушын да жазыўшылардың дөретиўшилик шеберлигин оқыўшыларға қызықлы, қарама-қарсылықлы, көп түрли рәң-бәрең етип мысаллар арқалы түсиндириў зәрүр. Жазыўшылардың шеберлиги әпиўайы қарапайым инсанлардан таланты, сезимталлығы, дөретиўшилик қыялы, йош, илҳам, өмир тәжирийбеси арқалы ажыралып турады. Бул сыпатлар көпшилик илимий мийнетлерде, әдебият теориясы бойынша изертлеўлерде биреўден-биреўге көшип пайдаланып жүрген дәстүрий түсиник. Бизде оларға сүйенемиз. Сондай-ақ жазыўшылардың дөретиўшилик шеберлигинде булардан тысқары өмирди гүзетип барып, оны тынымсыз бақлай билиў, оқып излениў, дөретиўшилик саяхат ҳәм оның нәтийжелери, бийик ақыл-парасат сыяқлы ишки руўхый ҳәм әмелий тәреплери де бар екенлигин оқыўшыларға үйретиў шәрт.

Қарақалпақ әдебияты бағдарламасында берилген жазыўшылардың дөретиўшилик шеберлиги бойынша тереңирек үйретиў ушын илимге зәрүрли, дәлил ҳәм пикир пайда етиўге де белгили материаллар, яғный олардың еске түсириў ямаса күнделик дәптерлери, жазған мақалалары, бир-бирине жазған хатлары ҳәм т.б. керек. Бул материаллар қарақалпақ әдебиятында жүдә аз. Ал өзбек, қазақ, орыс, ингилис т.б. шет ел жазыўшыларының бул тараўда жүдә көп мийраслары бар. Деген менен әдебиятымыздағы бул қыйыншылық ҳәм

кемисликлерге қарамастан, ХХ әсирдиң екинши ярымынан кейин өнимли дөретиўшилик мийнет ислеп, бираз табыслы шығармалар берген Т.Қайыпбергенов, И.Юсупов, Ш.Сейитов, К.Мәмбетов, Қ.Камалов, Ә.Пахратдинов, К.Алламбергенов ҳәм тағы да басқалардың аз сандағы еске түсириў мақалалары, әдебий сын мийнетлери ҳәм олардың өз шығармаларына да тийкарланып жазыўшылық шеберлигин ҳәм дөретиўшилик психологиялық, минез-қулық белгилерин оқыўшыларға сабақ барысында түсиндириў керек. Жазыўшының дөретиўшилигин үйрениў барысында ең дәслеп сөз шеберинің таланты ҳаққында гүрриңлесиў өткерип, оларға сабақ барысында сөз зергериниң таланты, еске түсириўлери туўралы айтып бериў зәрүр.

Т.Қайыпбергенов талант ҳаққында былайынша баҳа береди: «Жазыўшының мийнети әпсанадағы дозақты еслетеди, оның отлы гүрсисине айрықша талантлар ғана төтепки бере алады». Тағы да ол: «Мен қалай жазыўшы болдым? Бул басқалар түўе өзимде де жумбақ», - деп жазады. «… жазыўшы болыў айрықша шыдамлылықты талап етеди. Бул шыдам сенде қәлиплескен ойлардың шығымлылығы, сол ойларды өз ўақтында қағазға түсириў ушын столда отыра билиў шыдамлылығы» [11. 136-бет]

Т.Қайыпбергенов және де өзиниң ишки дөретиўшилик шеберлигине байланыслы былай дейди: «Қай ис туўралы, я күйиниш, я сүйиниш болсын, мениң айтыўым тийисли пикирлер бәрҳа соңынан, жекке жүргенимде я үйге келип жалғыз өзим кроватқа созылып жатқанымда есиме түседи… ишимде пысқыған ҳәўирди сыртқа шығарып жеңиллетейин десем, қасымнан мени түсинетуғын адам таппай столға отыраман да жазаман. Оқыған киси түсинетуғын қылыўға тырысып қайта-қайта жазаман. Өширемен, көширемен, өширемен, көширемен … Бир күнлери жазғанларым бир шығармаға арқаў болып шыға келеди. Сөйтип жазыўшы болған усайман» [12. 136-бет] Муғаллим жасларға жазыўшының образлар дөретиўдеги, идеяларды көркем сәўлелендириўдеги дөретиўшилик шеберлиги ҳаққында мысаллар арқалы түсиник бериў керек. Сондай-ақ жазыўшылардың дөретиўшилик шеберлигиндеги шығармаларды қайта ислеў, дөретиўшилердиң бирнеше вариантларын жаратыў арқалы оны кем-кемнен жетилистирип барыў өнери ҳаққында айтылған пикирлер жаслар ушын қызығыўшылық пайда етеди. Бул қубылыс ҳәрбир қәлем ийесинде, ҳәтте оның ҳәрбир дөретпесинде ҳәрқыйлы өтеди. Сонлықтан Т.Қайыпбергенов: «Шексиз ақылдың кәни Лев Толстой «Сон» деген гүрриңин 29 мәрте көширип, ал гениал эпопеясы «Урыс ҳәм парахатшылықты» 15 рет қайта баслап жазғанын, сонда да баспаға бергеннен кейин мулт кеткен қатарларын еслеп, қатты өкингенин оқығанымда ишеклериме қоз түскен сыяқланды» [13. 245-бет] -деп жазады. Демек жазыўшының дөретиўшилигиндеги шеберликти сабақ барысында түсиндириў ҳәрбир әдебиятшы муғаллимниң баслы ўазыйпасы. Нәтийжеде жасларға қарақалпақ әдебияты бағдарламасында берилген жазыўшының дөретиўшилигин үйрениў арқалы ўатанға болған сүйиўшилик, улыўма инсаныйлық, ҳадаллық, мийнет сүйгишлик, ҳүжданлық, қыйыншылықты жеңе билиў сезимлерин өзлериниң санасында қәлиплестирип, көркем әдебиятқа болған қызығыўшылығын арттырып барады.

Улыўмаластырып айтқанда, Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин оқытыўда сабақ түрлеринен ҳәм интерактив усылларды методикалық жақтан дурыс пайдаланыў арқалы жаслардың әдебият сабағына, пәнге қызығыўшылығы арттырады, және де оқыў искерлигине белсендилик пенен қатнасады. Нәтийжеде, жаслар оқыў материалларын беккем өзлестиреди, олардың тереңнен ойлаў ҳәм еркин пикирлеўи раўажланады, қарым-қатнас жасаў мәденияты қәлиплеседи.

Пайдаланған әдебиятлар:

1. Голиш Л.В. Технологии обучения на лекциях и семинарах /Учебное пособийе//. Под обшей редакцией академика С.С.Гулямова. - Т.:ТГЭУ, 2005.
2. Ғуломова Н. Адабиёт дарсларида илғор педагогик технологияларидан фойдаланиш. Тошкент. «РТМ», 2003.
3. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. Тошкент. «Ўзбекистон», 1999.
4. Зуннунов А.С., Хотамов Н., Есонов Ж., Иброҳимов А. «Адабиёт ўқитиш методикаси». Т., «Ўқитувчи», 1992.
5. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. Тошкент. 2006.
6. Тухлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент. 2010.
7. Юсупов Қ. Қарақалпақ әдебиятын оқытыў методикасы. Ташкент, “Сано-стандарт”, 2018.
8. Қабдалов З. Сөз өнери. Алма-Ата. «Мектеп», 1982. 12-17 бетлер.
9. Қайыпбергенов Т. Қарақалпақнама. Нөкис. «Қарақалпақстан» 1985, 31-бет
10. Қайыпбергенов Т. Қарақалпақнама. Нөкис. «Қарақалпақстан» 1985, 14-бет
11. Қайыпбергенов Т. Қарақалпақнама. Нөкис. «Қарақалпақстан» 1985, 136-бет
12. Қайыпбергенов Т. Қарақалпақнама. Нөкис. «Қарақалпақстан» 1985, 136-бет
13. Қайыпбергенов Т. Қарақалпақнама. Нөкис. «Қарақалпақстан» 1985, 245-бет

РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТНОЙ ПОЗИЦИИ СЛУШАТЕЛЕЙ КУРСОВ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ НА УЧЕБНОМ ЗАНЯТИИ

Пирниязов Искандер Кудиярович

Узбекистан,г. Нукус, Профессор, кандидат педагогических наук, Центр педагогического мастерства Республики Каракалпакстан.

Повышение качества общего образования - ключевая цель реализации государственной программы Концепцииразвития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года. [1].Достижение этой цели напрямую зависит от профессионального уровня педагогических работников.

Развитие субъектной позиции учителя как одного из участников образовательного процесса становится важной задачей повышения

квалификации педагогических работников, потому что только специалист, проявляющий активную профессиональную позицию, интерес к процессу и результатам своего труда, нацеленный на самореализацию и саморазвитие в профессии, может выстраивать субъект-субъектное взаимодействие с другими участниками образовательного процесса.

Под субъектной позицией педагога в процессе повышения квалификации будем понимать интегративную личностную характеристику, отражающую систему доминирующих отношений педагога к процессу повышения квалификации, проявляющуюся в избиратель- ной образовательной активности, самостоятельном целеполагании, способности к само- определению, построению и реализации собственной траектории образования, способности к рефлексии, к партнерскому взаимодействию с коллегами и преподавателями-андрагогами [2, с. 11]. Субъектная позиция учителя-слушателя курсов повышения квалификации проявляется в его образовательной активности, ответственности за результаты своего обучения, самостоятельности и инициативности в процессе повышения квалификации.

Задача преподавателей, работающих со взрослыми обучающимися на курсах повышения квалификации, – создать условия для раз- вития их субъектной позиции, сделать так, что- бы процесс обучения был не формальным, при котором обучающиеся пассивно принимают информацию, а личностно ориентированным, учитывающим индивидуальные потребности и возможности слушателей.

Учителя, обучающиеся на курсах повышения квалификации, как правило, хотят получить ответы на вопросы, вызывающие профессиональные затруднения, разрешить проблемные ситуации, с которыми они сталкиваются в процессе педагогической деятельности. Стоит отметить, что, если учитель, пришедший на курсы повышения квалификации, имеет ряд вопросов или ситуаций, которые он не может разрешить самостоятельно, опираясь только на собственные знания и опыт, и хочет обсудить их с коллегами, преподавателями-андрагогами, он уже демонстрирует проявление профессионального интереса, а значит, мотивацию к обучению, профессиональному и личностному росту. Такой слушатель готов к профессиональному взаимодействию в процессе повышения квалификации, настроен на положительный результат процесса обучения, проявляет потребность в рефлексии результатов собственной педагогической деятельности. Однако для развития и проявления субъектной позиции слушателей необходимо создать творческо- развивающую образовательную среду – особое пространство взаимодействия слушателей и преподавателей [3].

Создание развивающей, ориентированной на субъект-субъектные отношения образовательной среды в учреждении дополнительного профессионального образования позволит решить одну из проблем, связанных с повышением уровня профессиональной подготовки педагогических работников, а именно проблему безадресного и неперсонифицированного характера программ повышения квалификации.

Преподаватель, работающий в системе повышения квалификации, должен в своей профессиональной деятельности руководствоваться требованиями андрагогической модели обучения: при выборе технологий, форм и методов обучения взрослых необходимо учитывать их образовательные потребности и запросы, психофизиологические особенности. В образовательном процессе необходимо обеспечить интеграцию теории и практики, это даст возможность обучающемуся получить новые знания и актуализировать имеющиеся, систематизировать накопленный опыт, получить стимул к его обобщению и диссеминации. Необходимо помнить о том, что взрослый обучающийся является равноправным субъектом образовательного процесса и он сам может управлять этим процессом, координировать его.

Преподаватели испытывают затруднения в использовании активных форм и методов обучения, которые были бы наиболее эффективны в работе со взрослыми обучающимися.

Преподавателю важно так строить учебное занятие, чтобы мотивировать слушателей курсов повышения квалификации на активное, самостоятельное, творческое освоение учебного материала, проектировать учебное занятие с опорой на жизненный и профессиональный опыт обучающихся. Преподаватель, работающий со взрослыми обучающимися, должен владеть целым арсеналом активных методов и приемов обучения.

На наш взгляд, одним из эффективных способов организации обучения взрослых слушателей на учебном занятии является применение метода кейс-стади (case study). Данный метод можно успешно применять как на лекционном, так и на практическом занятии.

Кейс – это описание ситуации, которая имела место в той или иной практике и содержит в себе некоторую проблему, требующую разрешения. Это своего рода инструмент, посредством которого в учебную аудиторию привносится часть реальной жизни, практическая ситуация, которую предстоит обсудить и предоставить обоснованное решение. Задача обучающихся – осмыслить предложенную ситуацию (педагогическую, методическую), описание которой отражает не только практическую проблему, но и актуализирует ранее усвоенный комплекс знаний, четко сформулировать и квалифицировать проблему и выработать определенный алгоритм действий, который ведет к решению проблемы.

Кейс-метод относят к интерактивным методам обучения, так как он позволяет взаимодействовать всем обучающимся, включая преподавателя, следовательно, включает всех субъектов образовательной деятельности в диалогическое общение. Совместная учебная деятельность в процессе решения кейса создает атмосферу партнерства, позволяет организовать взаимное обучение. В идеале каждый обучающийся, участвующий в разрешении проблемной ситуации, обозначенной в кейсе, должен чувствовать свою вовлеченность в процесс обучения.

Педагоги, использующие в своей практике кейс-метод, считают, что результативность этого метода обусловлена следующими факторами:

- акцент обучения переносится на выработку знаний, а не на овладение готовым знанием;

- приобретаются навыки анализа сложных и неструктурированных проблем;

- развивается умение слушать и понимать других людей, работать в команде, умение учитывать альтернативную точку зрения, аргументированно высказывать свою;

- развивается самостоятельное критическое и стратегическое мышление.

Преимуществом использования этого метода именно в обучении взрослых является то, что оптимальным образом сочетаются теория и практика, а это позволяет обращаться к опыту обучающихся, что, в свою очередь, дает возможность для развития их субъектной позиции.

Следующая серьезная проблема, с которой сталкиваются преподаватели курсов повышения квалификации, – это организация самостоятельной работы слушателей.

В процессе повышения квалификации необходимо организовать самостоятельную работу обучающихся как на аудиторных занятиях, так и во внеаудиторное время.

Степень самостоятельности слушателей на учебном занятии, конечно, зависит от его формы: так, на лекции она будет ниже, чем на практическом занятии или во время работы над проектом, в процессе деловой игры или учебной дискуссии. Но в любом случае на курсах повышения квалификации у слушателя должна быть возможность для самостоятельной научно-исследовательской и познавательной деятельности.

На наш взгляд, при планировании учебного процесса и проектировании учебного занятия преподавателям необходимо учитывать результаты мониторингового исследования, что будет способствовать как повышению эффективности учебных занятий, так и развитию субъектной позиции слушателей курсов повышения квалификации.

Использованная литература:

1. Концепцияразвития системы народного образованияРеспублики Узбекистан до 2030 года. (№УП-5712 от 29 апреля 2019).

2. Кузнецова И. Андрагогические условия развития субъектной позиции педагога в процессе повышения квалификации: автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08 / И. Ю. Кузнецова. – Кемерово: Кемер. гос. ун-т, 2011. 24 с.

3. Соловьёва Т. В. Сочетание форм учебных занятий на курсах повышения квалификации как условие обеспечения личностно ориентированного и деятельностного подхода в обучении слушателей / Т. В. Соловьёва // Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. – 2015. – № 1 (22). – С. 81–85.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV QIZIQISHLARI VA NUTQ FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VOSITASI

Jumasheva Gulnara Xamidullaevna
NDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi mudiri, p.f.d., professor,
Shukurlayeva Venera Kabirovna
Nukus shahar 23-Maktabgacha ta'lim tashkiloti 1-toifali tarbiyachisi,Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 1-kurs mustaqil izlanuvchisi
Batırbaeva Bibiayım Maxsetbay qızı
NDPI 2-kurs talabasi

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2023 yil aprel oyida Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tashkil etilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ta'lim mazmunini belgilovchi (ta'lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklarga oid) qator vakolatlari shu markazga o‘tkazilgan edi. "Ta'lim to‘g‘risida"gi qonunda bu markaz ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari qatorida aks etirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 2019 yil 3 maydagi PQ–4307-son qaroriga muvofiq yoshlarni mustaqil hayotga kafolatli tayyorlash, tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib, 18 yoshigacha davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizligiga asoslangan metodikani ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, yoshlarni shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish, dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan [1; b.5]. Natijada xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning kognitiv faolligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan qoraqalpoq tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik mamlakatimizning siyosiy va ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir. Har kim o‘z tilini yaxshi bilishi uchun xalq og‘zaki ijodi namunalariga murojaat qilsa, undagi mohiyatni anglasa, albatta, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki xalq og‘zaki ijodi janrlarida xalqimizning o‘zi boshidan o‘tkazgan, hayot sinovida sinalgan, tajriba namunalari sanalib, unda hayotning turli xil vaziyatlari va ularning yechimlari xususidagi qarashlar jamlangan [2; b.3]. Dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqol, ertak, rivoyat va hikoyatlarda ham tilimizdan keladigan foyda va zararlar, yaxshilik va yomonliklar talqin qilib berilgan.

Xalq og‘zaki ijodi janrlaridan hisoblangan maqollarda ham ayni shu haqida juda kerakli fikrlar berilgan. Maqollar–bu xalqning donoligi, millatning ruhini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining gavharidir. Maqollar– bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig‘isi, shodligi va sevinchi, qayg‘usi va ovunchi, xalq haqiqati uni to‘g‘ri yo‘lga eltuvchi mayoqdir.

Maqol fikrlarni ixcham, lo‘nda aniq mantiqli ta'sirchan tarzda o‘zida qamrab olganligi bilan oson o‘zlashadi, xotirada saqlanadi. Ana shu omil asosida xalq og‘zaki ijodi janri sifatida shakllanishi, qo‘llanishi imkonyatlari ta'minlanadi.U fikr

ifodalashning oson va qulay, ta’sirchan vositasi sifatida keyinchalik og‘zaki nutqdan yozma adabiyotga ko‘cha boshlagan. Kishi har bir so‘zini o‘ylab, ehtiyot bo‘lib gapirishi kerak. Shu bois ayrim xalq maqollarida biror gapni aytishdan avval uni obdon o‘ylab, atroflicha mulohaza qilib olish zarurligi uqtiriladi.

Kognitiv rivojlanish muammosi, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim faolligini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar ko‘p yillar davomida psixologik va pedagogik tadqiqotlarda yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish hususiyatlarini o‘rganib, biz maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv rivojlanishidagi turli xil psixologik omillarning ro‘lini aniqlashni, bu yoshda kognitiv rivojlanishning qanday umumiy xususiyatlari rivojlanishini, har bir omil ta’siridan qanday kognitiv oqibatlarga olib kelishini aniqlashimiz mumkin. Maktabgacha yosh davrida kognitiv rivojlanish - bu atrof-muhit ta’siri ostida, shuningdek, maxsus tashkil etilgan o‘quv va tarbiya ta’siri va bolaning o‘z tajribasi bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlash jarayonlarida yuz beradigan sifat va miqdoriy o‘zgarishlarning yig‘indisi. Kognitiv rivojlanishni nutq bilan bog‘liqligini M.M. Alekseeva, V.I. Yashin, V. Kojakar va S.A. Kozlova bola barqaror manfaatlarini ta‘minlashda pedagogik shart-sharoitlar muhim ro‘l o‘ynashini, D.B. Godovikova kognitiv faoliyatda atrofdagi olamdan bilim olishga intilish, bu ham kognitiv ehtiyoj, ham shu bilan qo‘zg‘aladigan bilim faoliatidir deydi. A.Z Zaporojets aqliy tarbiyaning alohida vazifasini boshlang‘ich bilimlar tizimini va hayotiy hodisalarini aqliy rivojlanish sharti sifatida qaraydi. O‘zbek olimlaridan F.Qodirova va boshqalar bolalarda kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish o‘zining muhim ilmiy ishlari bilan bog‘liq. Ular bolalarning fikrlash va bilish jarayonlarini faollashtirishga hissa qo‘shgan metodikalarni ishlab chiqan. Dilbar Jo‘rayeva bolalarning kognitiv rivojlanishiga ertaklar va hikoyalar orqali ta'sir qilish jarayonini o‘rgangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha alohida ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va barcha yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish, ularni qayta takomillashtirish, ta‘lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi. Amaldagi ta‘lim-tarbiya jarayonining tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan texnologiyalarini takomillashtirish, hozirgi kishilik jamiyatida inson ehtiyojlariga va zamonaviy talablariga mos mutaxassislarni yetishtirish katta ahamiyat kasb etadi. Qayd etilganidek, belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda pedagog xodimlarning malaka darajasini yuksaltirish, albatta ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyatga ega. Xususan, ular axloqiy-ma‘naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy faol, ijodiy faoliyatga moyil, yangicha kasbiy dunyoqarash jumladan, takomillashayotgan zamon talablariga moslasha olish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari talab etiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda uzluksiz ta’limning birinchi bosqichi sanalgan maktabgacha ta‘limda faoliyat yuritayotgan pedagoglarga ulkan mas‘uliyat yuklanadi. Bugungi zamon talabidagi pedagog maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning eng samarali yo‘llarini tanlay olish mahoratiga ega bo‘lishi kerak .

Shunday ekan, eng avvalo yosh avlodning madaniyatini, ma’naviy-axloqiy salohiyatini ko‘tarmoq, milliy mafkurasini uyg‘otmoq zarur. Zero, o‘zini anglagan, millat ma’naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini taniydi. Xalq va millat oldidagi burchni, mas’uliyatini, majburiyatini anglaydi.

Har bir jamiyatning rivoj topishi va ravnaqida uning kelajak poydevori bo‘lgan o‘sib kelayotgan yosh avlodga yaratayotgan imkoniyatlari, shart-sharoitlari asos bo‘ladi. Bizning mamlakatimizda ham yosh avlodning o‘sib unishi uchun zamonaviy barcha talablarga javob beradigan qiziqish va intilishlarni qondiradigan shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga xalq og‘zaki ijodi orqali ta’lim-tarbiya berish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv o‘sib kelayotgan bolalarni har tomonlama hayotiy muhim ko‘nikmalarini, ma’naviy-axloqiy me’yoriy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ijtimioy munosabatlarini hamda insonlar bilan muloqot qilish, turli faoliyat xususiyatlarini shakllantirishga tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari asosida mantiqiy fikrlashga, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga, bir so‘z bilan aytganda, ularni maktabga tayyorlashga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim tizmini takomillashtirish, barkamol avlod ta’lim-tarbiya jarayonining tarbiyachi-pedagoglar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlashda pedagoglarning kasbiy mahorati hamda ularning malakasini oshirish jarayonining samarali tashkil etilishida muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim sohasining muhim vazifalarini talqin etishda quyidagilarni inobatga olishimiz shart:

birinchidan, taraqqiyot strategiyasiga mos va taraqqiyotni rag‘batlantiruvchi darajadagi ta’limni joriy etish;

ikkinchidan, ta’lim muassasalari va ta’limiy xizmat iste’molchilari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish;

uchinchidan, iste’molchi va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirish;

to‘rtinchidan, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida xalq o‘yinlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslarini yaratish.

Bunday ijobiy natijalarga erishishda ta‘lim jarayonida xalq o‘yinlari vositalari yordamida bolalarga ma‘naviy-axloqiy tarbiya berish yuzasidan pedagoglarni malakasini oshirish kurslarida seminarlar tashkil etish va bunda xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganib borish, o‘rganilgan ilg‘or tajribalar umumlashtirilib, metodik qo‘llanmalar yaratish va o‘z faoliyatida xorijiy tajribalarni qo‘llash malakalariga ega bo‘lishlarini ta‘minlash muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2019-yil 3-maydagi PQ–4307-son qaroriga ilova O‘zbekiston Respublikasining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oshirishni yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-to'g'risida"gi qaroriga.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning turli ma’ruzalarida, xususan, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning 33 yilligi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqlari.
3. "Ilk qadam". Davlat o'quv dasturi. Toshkent 2018.

4. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Qayumova N, A’zamova M. Maktabgacha pedagogika.-T.: Tafakkur nashriyoti, 2019.
5. Козлова С.А., Куликова Т.А. Дошкольная педагогика. – М.: “АСАДЕМА”, 2000. – 416 с.

SAKLAR MODDIY MADANIYATIDA AMALIY SAN’AT: USLUBIY O‘ZIGA XOSLIK VA BEZAK AN’ANALARI

Yusupov Axmedjon Shonazarovich
O‘zbekiston Respublikasi, Urganch shahar, Urganch davlat universiteti Tarix kafedrasi dotsenti., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Markaziy Osiyoning ilk temir davri madaniyati tarixida sak qabilalarining amaliy san’ati o‘zining betakror uslubi va texnologik mukammalligi bilan alohida ajralib turadi. Ko‘chmanchi chorvachilik va harbiy mahoratga asoslangan hayot tarzi saklarning moddiy madaniyatida, ayniqsa, zargarlik, metallurgiya va bezak san’atida yorqin in’ikosini topgan. Sak hunarmandlari yaratgan buyumlar shunchaki kundalik ehtiyoj ashyolari emas, balki qabilaviy o‘ziga xoslik, ijtimoiy tabaqalanish va murakkab mifologik dunyoqarashning vizual ifodasi bo‘lib xizmat qilgan.

Sak amaliy san’atini o‘rganishning dolzarbligi uning nafaqat badiiy qiymati, balki qadimiy xalqlarning falsafiy qarashlarini ochib beruvchi muhim manba ekanligi bilan belgilanadi. Ushbu san’atning o‘zagini tashkil etuvchi “hayvon uslubi” dunyo madaniyati xazinasidan munosib o‘rin egallagan bo‘lib, u koinotning uch qatlamli modeli va tabiat bilan inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiradi. K.A. Akishev, V.N. Yagodin va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida ta’kidlanganidek, Issiq, Pazirig va Orolbo‘yi yodgorliklaridan topilgan ashyolar sak hunarmandlarining metallni quyish, zarb qilish va donador usullarini mukammal egallaganliklarini isbotlaydi.

Saklar xo‘jaligida metallurgiyaning naqadar rivojlangani va qurol-yarog‘ bezash an’analari antik davr manbalarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, Gerodot “Tarix” asarida ularning ushbu jihatlarini shunday tavsiflaydi: “Ularning skif-saklarning barcha narsalari oltin va misdan yasalgan. Nayza uchlari, o‘q uchlari va jangovar boltalari (sagaris) misdan, bosh kiyimlari, kamarlari va ko‘krak nishonlari (sovutlari) esa oltin bilan bezatilgan. Shuningdek, otlarning ko‘krak bandlari ham misdan, jilovlari va egar bezaklari oltindan ishlanadi. Ular temir va kumushni mutlaqo ishlatmaydilar, chunki ularning mamlakatida bu metallar uchramaydi, oltin va mis esa juda ko‘p” [1]. Shuni aytishimiz mumkinki, saklarning jangovar ruhga ega, zargarlik va metallurgiya borasida o‘ta ilg‘or, hamda o‘z hududidagi tabiiy resurslardan oqilona foydalangan boy madaniyat egasi bo‘lganini isbotlaydi.

“Ular o‘zlarida mavjud bo‘lgan mis va oltindan keng foydalanadilar. Ularning nayzalari, o‘q uchlari va jangovar boltalari misdan yasaladi. Bosh kiyimlari, kamarlari va bog‘ichlari oltin bilan bezatiladi. Otlarning egar-jabduqlari ham shunday dabdabali: jilovlari oltindan, ko‘krak nishonlari esa misdan ishlanadi”[2].Strabonning fikriga ko‘ra, massaget-saklar o‘z davrining

“metallurgiya gigantlari” bo‘lgan. Ularning madaniyati jangovarlik va nafosat (oltin bezaklar) uyg‘unligidan iborat bo‘lib, bu ularni antik dunyoning eng boy va qudratli ko‘chmanchi qabilalaridan biri sifatida tavsiflaydi.

Saklardagi san’atning rivojlanishi mifologik ko‘rinishda rivojlangan. Bunga misol sifatida, tadqiqotchi Rtveladze E.V. tadqiqotlarini keltirib o‘tamiz. “Sak-skif amaliy san’ati namunalarida dunyoning uch qatlamli modeli (osmon, yer va yer osti) aniq aks etgan. Masalan, bosh kiyimlarning yuqori qismida qushlar (osmon), markazida tuyoqli hayvonlar (yer) va pastki qismlarida ilonlar yoki yirtqichlar (yer osti olami) tasvirlanishi orqali koinotdagi uyg‘unlik va tartib ifodalangan” [3]. E.V. Rtveladze ta’kidlaganidek, saklar o‘z san’at asarlari orqali koinotdagi uyg‘unlikni va insonning ushbu ulkan tizimdagi o‘rnini moddiy shaklda muhrlab qo‘yganlar. Bu ularning nafaqat mohir zargar, balki chuqur o‘ylaydigan faylasuf bo‘lganliklaridan dalolat beradi.

“Sak zargarlari oltin va mis bilan ishlashda yuksak mahoratga erishganlar. Ayniqsa, jangchilarning kamarlari, qilich qinlari va ot egar-jabduqlariga ishlov berishda hayvonlarning bir-biri bilan olishayotgan sahnalari (hayvonlar jangi) ko‘p tasvirlangan. Bu tasvirlar egasiga o‘sha hayvondagi kuch va shiddatni o‘tkazadi, degan magik tushunchaga asoslangan”[4]. Bunda ko‘rish mumkin, “Hayvonlar jangi” tasvirlangan har bir asar sak jangchisi uchun shunchaki bezak emas, balki uning kuchini oshiruvchi, g‘alabasini ta’minlovchi va tabiat bilan bog‘lovchi muqaddas ramz bo‘lib xizmat qilgan.

“Skif-sak san’ati namunalari orasida kiyim-kechaklar va ot-abzallarining bezaklarida uchraydigan tasvirlar o‘zining kompozitsion murakkabligi bilan ajralib turadi. Hayvonlar tasviri ko‘pincha ma’lum bir shaklga (masalan, egar yopinchig‘i yoki kiyim plastinkasiga) moslashtirilib, o‘ta mohirlik bilan “siqib” joylashtirilgan. Bu yerda biz nafaqat dekorativ san’atni, balki har bir chizig‘i muayyan bir mifologik hikoyani yoki qabila an’anasini so‘zlovchi vizual tilni ko‘ramiz. Ayniqsa, kigiz va teridan ishlangan applikatsiyalarda hayvonlarning olishuv sahnalari realizm va fantastik tasavvurning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasidir” [5]. Aynan bu davrdagi san’atni tahlil qilishda arxeologik qidiruv natijasida o‘rganilgan mozor qo‘rg‘onlar yaxshigina samara beradi.

“Issiq qo‘rg‘oni zargarlik buyumlarining o‘ziga xosligi shundaki, ularda hayvonlar siymosi o‘ta dinamik va ayni paytda qat’iy uslubda tasvirlangan. Har bir oltin plastinka – bu shunchaki hayvon shakli emas, balki sak san’atkorlarining material (oltin) va mavzu (mifologiya) ustidan yuksak g‘alabasidir. Hayvonlar tanasining kuchli bukilishi, mushaklarining bo‘rttirib ko‘rsatilishi sak amaliy san’atiga xos bo‘lgan realistik an’analar va fantastik tasavvurlarning sintezidan dalolat beradi” [6]. Issiq qo‘rg‘oni topilmalari saklarning nafaqat boy bo‘lganini, balki ularning estetik tafakkuri o‘ta murakkab va falsafiy mazmun bilan sug‘orilganini isbotlaydi. Ularning san’ati – hayot shiddati va ilohiy e’tiqod (mifologiya)ning oltin sahifalaridagi mukammal in’ikosidir. Bu fikrga misol sifatida, “Shoh kiyimidagi to‘rt mingdan ortiq oltin buyumlar tasodifiy joylashtirilmagan. Ular kiyimning barcha qismlarini (bosh kiyimdan etikgacha) yaxlit bir badiiy-g‘oyaviy ansamblga birlashtiradi. Bu yerda amaliy san’at kiyim bilan uzviy bog‘lanib, marhumning nafaqat boyligini, balki uning “koinot

markazidagi” muqaddas o‘rnini vizual tarzda namoyish etadi. Har bir detalni ishlashda qo‘llanilgan shtamplash (zarb qilish) va o‘yma naqsh usullari saklarda hunarmandchilikning yuksak ixtisoslashganini ko‘rsatadi”[6].

“Tyan-Shan va Pomir-Oloy saklarining qabr inshootlaridan topilgan ashyoviy dalillar, ayniqsa, bronza qozonlar va oltin bezaklar sak hunarmandlarining quyish va zarb qilish texnikasini mukammal egallaganliklarini ko‘rsatadi. Amaliy san’at namunalarida hayvonlarning dinamik holatda — yirtqichlarning o‘ljaga tashlanishi yoki tuyoqlilarning shiddatli harakati tasvirlanishi bu madaniyatning o‘ziga xos realistik xususiyatidir”[7]. Tyan-Shan va Pomir-Oloy saklarining moddiy va ma’naviy dunyosi naqadar boy bo‘lganini ko‘rsatadi. Bronza qozonlar – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni, oltin bezaklardagi hayvonlar tasviri esa – chuqur estetik tafakkur va tabiat bilan uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi asosiy dalillardir.

“Baland konus shaklidagi bosh kiyim (kuloh) bezaklari sak amaliy san’atining eng murakkab namunasi hisoblanadi. Undagi oltin plastinkalar – qanotli tulporlar, tog‘ cho‘qqilari, qushlar va daraxtlar – dunyoning vertikal modelini ifodalaydi. Bu yerda san’at asari kosmogramma vazifasini o‘tab, saklar dunyoqarashidagi osmon va yer o‘rtasidagi aloqani badiiy tilda muhrlagan” [6]. A.K.Akishevning tadqiqotlaridagi, saklarda osmon va yer ya’ni tabiat kuchlariga, xudolarga sig’inish ko’rinishi ham mavjud.

Diniy e’tiqodlarini amaliy san’at namunalarida ko‘rsatishga harakat qilishganligi arxeologik manbalardan o‘z aksini topgan. “Karchin (Kyrchin) hududidan topilgan sak qurbongohlari ularning san’atidagi simvolizmning yorqin namunasidir. Bunday ashyolarning chetlariga o‘rnatilgan hayvon haykalchalari saklar amaliy san’atining diniy e’tiqod bilan naqadar chambarchas bog‘liqligini va ularning haykaltaroshlik borasidagi o‘ziga xos uslubini tasdiqlaydi” [7]. “Pazirig kurganlaridan topilgan kigiz yopinchig‘lar va applikatsiyalar sak-skif amaliy san’atining rang-barangligini namoyish etadi. Ularda tasvirlangan afsonaviy grifonlar va turli hayvonlar kombinatsiyasi ko‘chmanchi aholining nafaqat metall, balki to‘qimachilikda ham yuksak badiiy didga ega bo‘lganini isbotlaydi” [8].

“Ili saklarining moddiy madaniyatida bronza va oltindan yasalgan buyumlar markaziy o‘rin tutadi. Sak hunarmandlari quyish, zarb qilish (tisneniye) va gravyura texnikalarini mukammal egallaganlar. Ayniqsa, jangovar qurollar, kamarlar va ot egar-jabduqlariga ishlov berishda qo‘llanilgan badiiy usullar saklar amaliy san’atining o‘z davrida yuksak darajada ixtisoslashganidan dalolat beradi” [9]. Saklar madaniyati – bu metallurgiya kuchi va to‘qimachilik nafosatining o‘zaro uyg‘unligidir.

Следующей важной стратегией является контекстуальное обучение. Изучение грамматических структур в отрыве от речевой ситуации снижает эффективность их усвоения. Поэтому важно вводить грамматический материал в контексте. Примером может служить изучение прошедшего времени. Вместо изолированного объяснения правил учащимся предлагается прочитать короткий текст о прошедшем дне, выделить глаголы, а затем составить собственные предложения: «Вчера я ходил в школу», «Я смотрел фильм». После этого организуется диалогическая практика, в ходе которой учащиеся задают друг другу вопросы. Такой подход способствует формированию навыка использования грамматических форм в реальной речи.

Еще одной эффективной стратегией является многоканальное обучение, предполагающее одновременное использование различных каналов восприятия. Включение аудиальных, визуальных и кинестетических элементов способствует лучшему запоминанию материала. Например, при изучении темы «Одежда» учащиеся могут смотреть видео, слушать аудиозаписи, работать с карточками и участвовать в ролевых играх («В магазине»). Это позволяет задействовать различные виды памяти и повышает интерес к обучению.[2]

Особое значение имеет стратегия повторения и автоматизации. Для уровня А2 важно довести использование базовых грамматических конструкций до автоматизма. Это достигается через систематическое повторение материала в различных формах. Примером может служить работа с конструкцией «у меня есть». Учащиеся сначала выполняют упражнения на подстановку, затем составляют собственные предложения, после чего переходят к диалогам и небольшим монологам. Такая последовательность обеспечивает постепенный переход от контролируемой практики к свободному использованию языка. Не менее важной является стратегия эмоциональной вовлеченности. Нейропсихологические исследования показывают, что информация, связанная с эмоциями, запоминается лучше. Поэтому преподавателю важно создавать условия, при которых учащиеся проявляют личный интерес к изучаемому материалу. Например, при изучении темы «Моя семья» учащимся предлагается рассказать о своих близких, задать вопросы одноклассникам и представить небольшую устную презентацию. Это делает процесс обучения более значимым и мотивирующим.[3]

В условиях школ Каракалпакстана необходимо учитывать региональные особенности. Эффективным является использование тем, связанных с повседневной жизнью учащихся, культурными традициями и социальной средой. Это облегчает понимание материала и способствует его практическому применению. Таким образом, применение нейролингводидактических стратегий позволяет значительно повысить эффективность формирования лексико-грамматических навыков у учащихся уровня А2.

В современных условиях развития языкового образования нейролингводидактика становится одним из ключевых направлений, обеспечивающих повышение качества обучения иностранным языкам. Ее применение в процессе обучения русскому языку как иностранному позволяет учитывать особенности когнитивной деятельности учащихся и оптимизировать процесс усвоения языкового материала. Проведённый анализ показал, что использование нейролингводидактических стратегий способствует эффективному формированию лексико-грамматических навыков у учащихся уровня А2. Ассоциативное и контекстуальное обучение обеспечивает более глубокое понимание и запоминание материала, многоканальное восприятие усиливает когнитивную активность, а систематическое повторение способствует автоматизации навыков. Особую роль играет эмоциональная вовлеченность учащихся, которая повышает мотивацию и делает процесс обучения более продуктивным. Важным также является учет региональных особенностей школ Республики Каракалпакстан, включая многоязычную среду и ограниченные возможности языковой практики.

Практические примеры, представленные в статье, демонстрируют, что использование интерактивных методов и коммуникативных заданий способствует активному включению учащихся в процесс обучения и развитию их речевых навыков. Таким образом, нейролингводидактические стратегии представляют собой эффективный инструмент формирования лексико-грамматических навыков и коммуникативной компетенции. Их дальнейшее внедрение в образовательную практику позволит повысить уровень владения русским языком у учащихся и обеспечить более качественную подготовку.

Использованная литература:

1. Лурия А. Р. Основы нейропсихологии. – М.: МГУ, 1973.
2. Ахутина Т. В. Нейролингвистика: теория и практика. – М.: Академия, 2014.
3. Черниговская Т. В. Язык и сознание**.** – СПб.: Питер, 2017.
4. Germain C., Netten J. The Neurolinguistic Approach (NLA)**.** – Cambridge Scholars Publishing, 2013.
5. Paradis M. Declarative and Procedural Determinants of Second Languages. – Amsterdam, 2004.

INTEGRATING CREATIVITY, CRITICAL THINKING AND PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION

Scientific advisor: Jumambetova Gulziba Kongratbaevna
Uzbekistan, Nukus, Karakalpak State University, Faculty of Foreign Languages, EFL teacher
Sarsenbaeva Raya Janabay qizi
3rd-year student at Karakalpak State University, Faculty of Foreign Languages, English Language and Literature Department

In recent years, English language teaching (ELT) has undergone a significant shift from traditional teacher-centered methods toward more interactive and learner-centered approaches. Problem-Based Learning (PBL) represents one such approach, emphasizing student inquiry, collaboration, and the resolution of real-world problems. At the same time, rapid technological development has reshaped the educational environment by providing a wide range of digital tools and platforms that support learning. The integration of PBL with innovative technologies offers a promising strategy for enhancing ELT outcomes by encouraging active participation and deeper engagement. Higher Education Institutions play a significant role in developing competitive students and shaping the qualities of an ideal graduate.

Thinking skills are essential in the processes of problem-solving and decision-making. With a good understanding of these skills, individuals are able to express new ideas and share insights more effectively in communication. According to [1], understanding students' thinking styles helps teachers apply more effective teaching methods and design classroom activities that meet learners' needs.

In addition, thinking styles are important for generating new ideas, reducing the risk of failure, and improving problem-solving abilities. They are also important in areas such as management, teaching, and learning [2]. It is widely accepted that each individual has a unique way of thinking.

Contemporary education increasingly requires dynamic, interactive, and student-focused teaching methods [3]. In ELT, traditional grammar-translation approaches are gradually being replaced by communicative and problem-oriented methods. PBL, in particular, fosters critical thinking, collaboration, and authentic language use by involving learners in meaningful problem-solving activities [4]. When supported by innovative technologies, PBL becomes an effective model for promoting language acquisition in interactive learning environments. This study explores the effectiveness of incorporating digital technologies into PBL to improve English teaching and learning outcomes. This research adopts a qualitative approach by reviewing relevant literature and examining classroom practices in which innovative technologies are integrated into PBL in English language contexts [5]. Data were collected from academic publications, teacher reports, and case studies conducted at both secondary and tertiary education levels. Particular attention was given to the use of digital platforms such as Google Workspace, Padlet, Kahoot!, as well as language learning applications including Duolingo and Quizlet, within PBL-based English lessons.

The findings indicate several advantages of combining innovative technologies with PBL in ELT [6]. First, student motivation increased, as interactive tools sustained learners' interest and participation. Second, collaboration improved through platforms such as Google Docs and Zoom, which enabled real-time interaction and peer feedback [7]. Third, language skills were enhanced, as multimedia-based problem-solving activities supported vocabulary development and communication. Finally, students demonstrated greater autonomy and responsibility, taking more control over their learning when engaging with real-life problems through digital tools[8].However, the study also identified several challenges, including unequal access to technology, insufficient teacher training, and the need for curriculum adaptation to fully support technology-enhanced PBL implementation. The integration of innovative technologies into PBL provides significant benefits for English language learners, particularly in developing essential 21st-century skills. Nevertheless, its successful implementation depends on careful planning, teacher preparedness, and institutional support. Educators must possess not only technological competence but also a clear understanding of PBL pedagogy [9]. Furthermore, it is essential to align digital tools with learning objectives to ensure meaningful use of technology rather than superficial application.

The combination of PBL and innovative technologies has the potential to transform English language instruction. By emphasizing problem-solving activities and using technology as a learning medium, educators can promote deeper understanding and improved language proficiency. [10].However, effective integration requires thoughtful design, appropriate tool selection, and inclusive practices. Continuous professional development is also necessary to enhance teachers' confidence and reduce resistance to adopting digital tools in the classroom.

In conclusion, the integration of innovative technologies into Problem-Based Learning (PBL) provides an effective approach to improving English language teaching. This combination helps increase student engagement, develop critical thinking, and improve communication skills through active and meaningful learning. The use of digital tools also supports collaboration and encourages students to take more responsibility for their learning.

References:

1. J.S. Bridle, "Probabilistic Interpretation of Feedforward Classification Network Outputs, with Relationships to Statistical Pattern Recognition," Neurocomputing—Algorithms, Architectures and Applications, F.Fogelman-Soulie and J. Herault, eds., NATO ASI Series F68, Berlin: Springer-Verlag, pp. 227-236,1989. (Book style with paper title and editor)

2. Jones, K. O. & Reid, J. M. V. (2007). "Modifying Teaching to Address Thinking Styles." Proceedings of International Conference on Computer Systems and Technologies, CompSysTech 2007, Article No. 79.

3.Y.M.Heong, N. Hamdan, K.B.Ching, T.T.Kiong, Nurulwahida Azid International journal of scientific & technology research volume 9, issue 03, march 2020 issn 2277-86166567 ijstr©2020 www.ijstr.org development of integrated creative and critical thinking module in problem-based learning to solve problems.

4. Gofurova, G. (2025). SIMPLIFYING MEDICAL INFORMATION FOR THE GENERAL PUBLIC.International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1789-1791.
5. Mannapovna, G. O. G. (2023). Methodology of Teaching English in Higher Educational Institutions Not Related to Philology. International Journal of Scientific Trends, 2(2), 61-64.
6. Tukhtaeva, K., & Khasanova, G. (2021). Teaching idioms with a color component reflecting a person's internal world. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 162-169.
7. Tukhtaeva, K. (2023). Formation of Lexical Combinations in Media Texts.Finland International Scientific Journal of Education.
8. Xamdamovna, I. M. (2022). Stylistic features of the use of asindetone in languages of different systems. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 30-33.
9. Bekova, N., & Sayliyeva, M. (2015). The Interpretation of Praise in The East Literature. Научная дискуссия: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии, (12), 147-151.
10.Bakhronova Z.,Davronova S. (2025).Applying innovative technologies of problem-based learning in english language teaching p. 158–162.

METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Orazimbetov Shingisbek
University of Innovation Technologies, acting associate professor of the department of Philology
Gulnaz Jarılqağanova
University of Innovation Technologies,a student of the group 1-FT-23

In today's interconnected world, the ability to communicate in a foreign language is one of the key competencies required for success in education, business, and cultural exchange. The process of teaching and learning a foreign language has evolved significantly over the past century, reflecting shifts in linguistic theory, psychology, and educational practice [1]. Teachers play a crucial role in selecting appropriate teaching methods that meet learners' cognitive, emotional, and social needs. Since no single method fits all learners, understanding various teaching approaches is essential for achieving effective instruction.

The Grammar–Translation Method (GTM) is one of the earliest and most traditional approaches to foreign language teaching. It focuses on reading and writing, emphasizing grammar rules, vocabulary lists, and translation exercises. The main goal is to develop accuracy rather than fluency. Although GTM promotes analytical thinking and a deep understanding of language structure, it neglects speaking and listening skills [2]. In modern contexts, this method is often combined with communicative activities to balance accuracy and fluency.

The Direct Method arose as a reaction to the limitations of GTM. It emphasizes learning the foreign language through direct exposure, without translation into the mother tongue. Teachers and students use only the target language, and grammar is taught inductively—through examples rather than explanation [3]. This method enhances pronunciation, listening, and speaking skills, promoting thinking directly in the foreign language. However, its effectiveness depends heavily on the teacher's proficiency and classroom conditions.

The Audio-Lingual Method (ALM) emerged in the mid-20th century, inspired by behaviorist psychology and structural linguistics [4]. It focuses on habit formation through pattern drills, repetition, and dialogue memorization. ALM successfully develops listening and pronunciation skills, but it has been criticized for limiting creativity and meaningful communication. Despite this, some elements of ALM—such as structured practice—are still valuable in pronunciation and grammar teaching.

Communicative Language Teaching (CLT) represents a major shift toward learner-centered education. This approach focuses on using language as a tool for real communication rather than merely studying its structure [5]. CLT encourages interaction, problem-solving, and task completion through authentic materials. It integrates all four language skills—listening, speaking, reading, and writing—and develops both fluency and confidence. However, CLT requires well-trained teachers and supportive classroom environments to be fully effective.

Task-Based Language Teaching is an evolution of the communicative approach, emphasizing the completion of meaningful tasks using the target language [6]. Learners engage in real-life activities such as writing reports, conducting interviews, or making presentations. TBLT fosters autonomy, collaboration, and problem-solving. It promotes language learning through doing rather than memorizing. While it encourages creativity and interaction, TBLT requires careful planning and assessment strategies focused on communicative outcomes rather than grammatical accuracy.

Content and Language Integrated Learning (CLIL) is an innovative approach that integrates subject learning with foreign language instruction. For instance, students may study geography or history in English while simultaneously developing language skills. This method strengthens both academic and linguistic competence [7]. CLIL enhances motivation by providing authentic contexts for language use, but it demands teachers who are proficient in both the subject matter and the target language.

Modern education increasingly relies on technology to support and enhance traditional teaching methods. Digital platforms, multimedia resources, and artificial intelligence tools allow teachers to create interactive, engaging lessons [8]. Mobile applications like Duolingo and Quizlet help learners practice vocabulary independently. Video conferencing tools such as Zoom and MS Teams enable communication with native speakers and facilitate online discussions. Moreover, AI-powered platforms provide instant feedback on pronunciation, grammar, and writing. Integrating technology into communicative and task-based methods increases learner motivation, autonomy, and effectiveness [9].

The Eclectic Approach. Because each teaching method has strengths and weaknesses, many educators adopt an eclectic approach that combines elements of multiple methodologies. For example, a teacher may use grammar-translation for accuracy, CLT for fluency, and technology for engagement. The eclectic method allows flexibility, enabling instructors to adapt lessons to different learner profiles, contexts, and goals. It reflects the understanding that effective language teaching is dynamic and multifaceted.

In conclusion The development of methods for teaching a foreign language reflects the continuous search for effective ways to promote communication, understanding, and global competence. From traditional grammar-based instruction to modern communicative and technology-driven approaches, each method contributes valuable insights into how languages are best learned. The integration of classical and innovative techniques creates a balanced learning environment where accuracy, fluency, and motivation are equally prioritized.

Educators must therefore adopt flexible, learner-centered strategies that combine proven pedagogical principles with modern technological tools. Such integration not only improves linguistic proficiency but also prepares learners to participate actively in a multilingual, digitalized world.

References:

1. British Council. (2024). Methods and approaches to language teaching. https://www.britishcouncil.org/education/teaching-english/how-to-teach
2. Cambridge University Press. (2023). Teaching English: methodology and practice. https://www.cambridge.org/elt/blog/category/teaching-methodology/
3. TeachingEnglish (British Council). (2024). Communicative language teaching and task-based learning. https://www.teachingenglish.org.uk/article/communicative-language-teaching

QISHLOQ XO‘JALIGI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI TA’LIMIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI YOSHLARDA MA’NAVIY VA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH

Ataxanova Gulnar Orynbaevna
O‘zbekiston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpoq qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, ingliz tili o‘qituvchisi

Bugungi kunda O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, qishloq xo‘jaligi sohasidagi oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillar, jumladan ingliz tili ta’limini innovatsion metodlar asosida tashkil etish nafaqat lingvistik ko‘nikmalar, balki yoshlarda ma’naviy yetuklik va kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to‘g‘risida»gi Farmoni va 2023-yil «Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash» Konsepsiyasi ta’lim muassasalarida yoshlarga oid ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni:1]. Shu munosabat bilan til ta’limini kasbiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirgan innovatsion yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion metodlarning mohiyati va zarurati.

Zamonaviy ta’lim metodologiyasida innovatsion metodlar deganda raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning), muammoli ta’lim (problem-based learning) va integrativ yondashuvlar tushuniladi [Warschauer M., Healey D.:98]. Ingliz tili ta’limida ushbu metodlarni qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega:

- talabalarning kasbiy leksikasini faollashtiradi;
- mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- milliy qadriyatlar va ma’naviy tarbiyani til o‘rganish jarayoniga organik tarzda singdiradi;
- talabani kelajakdagi kasbi bilan bog‘liq real muloqot vaziyatlariga tayyorlaydi.

Qishloq xo‘jaligi institutida tajriba va amaliyot

Muallif 2019-yildan buyon Qoraqalpoq qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida ingliz tili o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu muassasada ta’lim olayotgan talabalarning asosiy kontingenti agrar yo‘nalishdagi mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qiydi, shuning uchun ingliz tili darslarida kasbiy leksika (agricultural vocabulary), inglizcha ilmiy maqolalar tahlili va xalqaro agrar standartlar bilan ishlash usullari keng qo‘llaniladi.

Amaliyotda sinab ko‘rilgan innovatsion metodlar qatoriga quyidagilar kiradi: (1) case-study texnologiyasi - haqiqiy agrar muammolar asosida ingliz tilida munozara o‘tkazish; (2) «flipped classroom» (teskari sinf) modeli — talabalar uyda video ma’ruza ko‘rib, darsda muammo yechadi; (3) raqamli loyiha metodi — talabalar ingliz tilida qisqa ilmiy taqdimot tayyorlaydi. Ushbu yondashuvlar natijasida talabalarning nafaqat til malakasi, balki mustaqil fikrlash va mas’uliyat hissi ham sezilarli darajada o‘sib bormoqda [Chapelle C.A.:45].

Ma’naviy tarbiya va til ta’limining uyg‘unligi

Ma’naviy va axloqiy tarbiyani til ta’limiga integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning muhim talablaridan biridir. Ingliz tili darslarida xalqaro hamkorlik, ekologik mas’uliyat, insonparvarlik qadriyatlari mavzularini muhokama qilish orqali talabalar o‘z milliy o‘zligini anglab, dunyo miqyosida fikr yuritishni o‘rganadi. Xususan, Qoraqalpog‘iston tabiati, Orol dengizi muammosi va mintaqaviy agrar muammolarga doir inglizcha matnlar bilan ishlash talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otadi, shu bilan birga dunyo jamoatchiligiga bu muammolarni yetkazish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, ingliz tilida muloqot madaniyatini, xalqaro etiket va hamkorlik normalarini o‘rgatish talabalarni nafaqat tilni biluvchi, balki ma’naviy jihatdan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida «komil inson» tarbiyasiga qaratilgan davlat siyosatiga to‘liq mos keladi [Yusupova N.N.:12].

Xulosa Qishloq xo‘jaligi oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili ta’limini innovatsion metodlar orqali tashkil etish yoshlarda ma’naviy yetuklik va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning samarali yo‘lidir. Case-study, flipped classroom va loyiha metodlari asosida qurilgan til ta’limi talabalarni nafaqat xorijiy muloqotga, balki kasbiy va ma’naviy jihatdan pishiq shaxs bo‘lib yetishishga tayyorlaydi. Ushbu tajriba boshqa ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarida ham keng joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Warschauer M., Healey D. Computers and language learning: an overview // Language Teaching. – 1998. – Vol. 31. – P. 57–71.
2. Chapelle C.A. Computer Applications in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 215 p.
3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida». – Toshkent, 2022.
4.Yusupova N.N. Oliy ta’limda xorijiy tillar o‘qitishning innovatsion metodlari. – Toshkent: Fan, 2021. – 180 b.

MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA, XUSUSAN, VOKAL IJROCHILIGIDA YOSHLARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIKASI

Elmuratova Gulnara
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali “Vokal” kafedrasi o‘qituvchisi

Yangi O‘zbekistonda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni mustaqil fikrlaydigan, zamon talablariga mos mutaxassislar etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, biz ta’lim tizimida “yoshlarni fikrlashga, o‘z ustida ishlashga, doimo izlanishga o‘rgatishimiz zarur” [1.142 b]. Ayniqsa, madaniyat va san’at yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun bu masala o‘ta dolzarb. Chunki san’at asarini to‘g‘ri anglash, uni sahnada yuksak mahorat bilan ijro etish va tomoshabinga yetkazish faqatgina texnik qobiliyat bilan emas, balki chuqur intellektual tahlil va tanqidiy ko‘z qarash bilan amalga oshiriladi.Madaniyat va san’at institutlarida bo‘lajak mutaxassislarni (aktyorlar, rejissyorlar, ovoz rejissyorlari, xonandalar) tayyorlashda asosan ularning amaliy ko‘nikmalariga e’tibor qaratiladi. Biroq, zamonaviy san’at ta’limi talabadan ijro etilayotgan asarning tarixiy davrini, muallif muddaosini va madaniy kontekstini tanqidiy baholay olishni talab etadi.San’atda tanqidiy fikrlash (Critical thinking in Arts) – bu asarni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tarkibiy qismlarga ajratish, estetik, ijtimoiy va tarixiy ahamiyatini tahlil qilish, shuningdek, boshqa asarlar va ijro uslublari bilan qiyoslay olish qobiliyatidir. Mashhur psixolog L.S. Vygotskiy o‘zining “San’at psixologiyasi” asarida insonning badiiy idroki passiv jarayon emasligini, u murakkab aqliy va hissiy tahlilga asoslanishini ta’kidlagan edi [2. 215

b].Bugungi kunda talabalar internet va ommaviy madaniyat orqali juda katta hajmdagi ma’lumotlarni, turli xil ijro uslublarini qabul qilmoqdalar. Ularda kuchli tahliliy apparat shakllanmasa, ular osonlikcha yengil-yelpi, sayoz san’at namunalariga ergashib ketishlari yoki ijroda ko‘r-ko‘rona taqlid (plagiat) yo‘liga o‘tib olishlari mumkin. Tanqidiy ko‘z qarash esa ularga chinakam milliy qadriyatlarni soxtasidan ajratish imkonini beradi.Vokal san’ati – bu inson ovozi va musiqiy matnning uzviy sintezi orqali g‘oya va tuyg‘ularni ifoda etuvchi murakkab ijodiy jarayondir. Odatda, vokal darslarida asosiy e’tibor ovoz apparatini sozlash, nafas olish texnikasi, diksiya va toza intonatsiyaga qaratiladi. Lekin mukammal ijrochi bo‘lish uchun bu yetarli emas. Vokalchi o‘zi kuylayotgan asar ustida tahliliy ish olib borishi kerak.Vokal ta’limida yoshlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshishi maqsadga muvofiq:

Matn va kontekst tahlili: Talaba quruq ohangni emas, she’riyatni kuylaydi. M.Tadjiyevaning vokal pedagogikasi bo‘yicha izlanishlarida ta’kidlanganidek, xonanda avvalo so‘zning poetik ma’nosini, uning osttekstini to‘liq anglab yetishi shart [3. 44 b]. Asar qachon yozilgan? Kompozitor va shoirning maqsadi nima edi? Shu savollar talabada tahliliy yondashuvni uyg‘otadi.

Audio-vizual taqqoslash (Tanqidiy eshitish): Xonandalik va ovoz rejissyorligi yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan yoshlar uchun “tanqidiy eshitish” (critical listening) ko‘nikmasini shakllantirish muhim. Talabalarga bir asarning turli xil mashhur ijrolarini (masalan, turli davrlardagi operalar yoki milliy maqomlarimizning turli ustalar tomonidan aytilgan variantlari) eshittirish va muhokama qilish samarali metoddir. Ular har bir ijrochining o‘ziga xos talqinini, ovoz tembri, temsi, dinamikasi va urg‘ularini solishtirishi, kamchilik va yutuqlarini xolisona baholashi kerak.Yoshlarning tanqidiy ko‘z qarashini o‘stirishda faqat mumtoz yoki Yevropa yo‘nalishidagi asarlar emas, balki bevosita o‘zimizning milliy merosimiz katta o‘rin tutadi. Misol uchun, hududiy teatr va musiqa san’ati, xususan, Qoraqalpoq milliy teatri yoxud an’anaviy jirov va baxshichilik san’ati namunalarini o‘rganish jarayonini olib ko‘raylik. Bu meros shunchaki tarix emas, u bugungi kun yoshlari uchun madaniy xotirani saqlash va kelajakka yetkazish vositasidir. Talaba baxshi yoki jirov kuylayotgan eposni (dostonni) o‘rganar ekan, unga shunchaki eski asar sifatida yondashmasligi kerak. U an’anaviy cholg‘ular (masalan, qobiz yoki dutor) jo‘rligidagi vokal nolasining qanday qilib qahramonning ruhiy holatini, mintaqaning iqlimi va falsafasini ochib berishini chuqur psixologik tahlil qilishi lozim. Shundagina yosh ijrochi milliy koloriti yo‘qotmagan holda, uni zamonaviy tinglovchiga to‘g‘ri taqdim etish (interpretatsiya qilish) mexanizmini tushunib yetadi [4. 89 b].

Madaniyat va san’at institutlari professor-o‘qituvchilari yoshlarda ushbu xislatlarni shakllantirish uchun an’anaviy “ustoz-shogird” metodini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishlari zarur:

1. ***“Peer review” (Tengdoshlar bahosi) usulini joriy etish:*** Dars jarayonida bir talaba vokal asarini ijro etgach, o‘qituvchidan oldin boshqa talabalar uni baholashi, tahlil qilishi kerak. Bu talabani nafaqat ijrochi, balki ekspert sifatida ham tarbiyalaydi.

2. ***Muammoli vaziyatlar yaratish:*** Talabaga asarning qaysidir musiqiy jumlasi yoki vokal frazasi bo‘yicha bir nechta dinamik variantlarni taklif qilib, eng to‘g‘risini asoslab berishini so‘rash.

3. ***Texnologiyalardan foydalanish:*** Bugungi kunda yozib olish va ovoz ustida ishlash dasturlari (masalan, raqamli ovoz yozish studiyalari, miksher pultlaridagi chastota tahlillari) orqali talaba o‘z ovozini chetdan obektiv va tanqidiy eshitish imkoniyatiga ega. Vokal ustalarining akustik xususiyatlarini texnik tahlil qilish ularning professional dunyoqarashini kengaytiradi [5.112 b].

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va san’at sohasida, xususan vokal ta’limida yoshlarning tanqidiy ko‘z qarashlarini rivojlantirish – faqatgina sifatli ijrochilarni emas, balki chuqur fikrlaydigan, milliy madaniyatni tushunadigan va uni xalqaro maydonga munosib olib chiqa oladigan intellektual elitaning shakllanishiga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida asarlarni ijro etish bilan birga, uning falsafasi, tarixi va ijro texnikasini tanqidiy tahlil qilish madaniyatini o‘quv dasturlarining ajralmas qismiga aylantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 142-bet.
2. Выготский Л.С. Психология искусства. – Москва: “Педагогика”, 1987. – 215-бет.
3. Tadjiyeva M. Vokal ijrochiligi va uning pedagogik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Musiqa”, 2017. – 44-bet.
4. Omonov Q. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik san’ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent: “Fan”, 2020. – 89-bet.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2008. – 112-bet.

TERMIZIY ALLOMALAR MEROSIDA BARKAMOL SHAXS TUSHUNCHASI

Madjidov Azim Kaxxarovich
O‘zbekiston, Termiz shahri, Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Islom falsafasi va ma’naviy-ta’limiy ta’limotlarda barkamol shaxs (komil inson) tushunchasi inson kamolotini anglashda markaziy kategoriyalardan biri hisoblanadi. U insonning jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy jihatdan uyg‘un rivojlanishini ifoda etib, shaxsning eng yuksak kamolot darajasini belgilaydi. Bu g‘oya, ayniqsa, Hakim Termiziy va Imom Termiziy ilmiy merosida chuqur falsafiy va amaliy mazmun kasb etgan. Ular barkamol shaxsni ilm, e’tiqod, adolat va ma’rifat uyg‘unligiga erishgan, ichki va tashqi jihatdan muvozanatli, o‘z-o‘zini anglagan va jamiyat oldida mas’uliyatli shaxs sifatida talqin qiladilar. Bunday inson faqat shaxsiy kamolot bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy taraqqiyotga faol ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Hakim Termiziy ta’limotida barkamol shaxs masalasi tasavvufiy-falsafiy nuqtai nazardan keng yoritilib, u insonning ichki dunyosi – qalb va nafs tarbiyasi

bilan chambarchas bog‘lanadi. U inson kamolotini zohiriy amallar bilan emas, balki botiniy poklik, ixlos, niyatning sofligi va iymon mustahkamligi bilan baholaydi. Hakim Termiziyning fikricha, komillikka erishish uzluksiz ma’naviy sayohat bo‘lib, bu jarayonda inson o‘z nafsini tarbiyalaydi, qalbini ma’naviy illatlardan poklaydi va ilohiy haqiqatni anglashga intiladi [Hakim Termiziy: 4]. Uning qarashlarida “qalb” insonning ma’naviy markazi sifatida talqin qilinib, aynan shu orqali inson haqiqatni idrok etadi. Bu g‘oyalar tasavvuf an’analari bilan uyg‘un holda inson kamolotini ichki ruhiy poklanish orqali ta’minlash konsepsiyasini asoslaydi.

Imom Termiziy esa barkamol shaxs mezonlarini hadis ilmi orqali aniq va amaliy shaklda ifodalaydi. Uning asarlarida keltirilgan hadislar insonning axloqiy kamolotini ta’minlovchi asosiy fazilatlarni belgilab beradi [Abu Iso Termiziy: 1]. Jumladan, rostgo‘ylik, halollik, adolatparvarlik, sabr, kamtarlik, insonparvarlik, ilmga muhabbat va ijtimoiy mas’uliyat barkamol shaxsning ma’naviy etukligini ta’minlaydi, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, Termiziy allomalar ta’limotida barkamol shaxsni shakllantirish mustahkam e’tiqod, chuqur bilim, yuksak axloq va ijtimoiy faollikning uyg‘unligiga asoslanadi.

Termiziy allomalar qarashlarida shaxs tarbiyasi uzviy va kompleks jarayon sifatida talqin qilinib, unda axloqiy, ma’naviy va ilmiy rivojlanish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi. Hakim Termiziy ta’kidlaganidek, ilm axloq bilan uyg‘unlashmagan taqdirda insonni haqiqiy kamolotga etaklamaydi. Shu sababli, ilm inson qalbini poklovchi, uni haqiqatga etaklovchi va e’tiqodni mustahkamlovchi vosita sifatida qaraladi. Bu yondashuv inson tarbiyasida ma’naviy-axloqiy komponentlarni ustuvor qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu g‘oyalar zamonaviy pedagogik nazariyalarda ham “integrativ ta’lim” konsepsiyasi bilan uyg‘un keladi, ya’ni bilim, tarbiya va ma’naviyat bir butun tizim sifatida qaraladi.

Abu Bakr Varroq Termiziy shaxs tarbiyasida ilmning kuchini alohida e’tirof etib, Allohni tanishda uni birlamchi omil sifatida talqin etadi. Xususan, alloma Allohni ilm, ishonch (yaqiyn) orqali bilish mumkinligini aytib, “Yaqin dilga taskin beradi va iymon kamoli u bilandir. Yaqiyn uch turlidir: yaqiyn – xabar, yaqiyn – dalillash, yaqiyn – mushohada. Yaqiyn – bu nur, banda o‘z ahvolida u bilan munavvar bo‘ladi, keyin o‘sha nur uni e’tiqod (iymonli) darajasiga etkazadi” [Z.Choriyev va boshqalar: 5].

Axloqiy tarbiya Termiziy allomalar merosida markaziy o‘rinni egallaydi. Muhammad Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning go‘zal xulq-atvori ideal namuna sifatida ko‘rsatilib [Abu Iso Termiziy: 1], insonning axloqiy kamoloti aynan ushbu namunaga ergashish orqali ta’minlanishi ta’kidlanadi. Barkamol shaxs rahm-shafqatli, adolatli, kamtar, sabrli va bag‘rikeng bo‘lishi lozim. Bunday fazilatlar jamiyatda o‘zaro ishonch, hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantiradi. Ma’naviy tarbiya esa insonning ichki dunyosini boyitish, nafsni tarbiyalash va qalbni hasad, kibr, riyo kabi illatlardan poklashni nazarda tutadi. Hakim Termiziy ta’limotida aynan shu jihat inson kamolotining hal qiluvchi sharti sifatida baholanadi.

Ilm va ma’rifat masalasi Termiziy allomalar ta’limotida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u faqat dunyoviy bilimlar bilan cheklanmaydi. Ilm – bu Allohni tanish,

borliq mohiyatini anglash va insonning jamiyatdagi vazifasini to‘g‘ri belgilash vositasi sifatida talqin etiladi [Z.Choriyev va boshqalar: 5]. Bu esa ilmga keng va falsafiy yondashuvni ifoda etib, uni ma’naviy kamolot bilan bog‘laydi. Shu nuqtai nazardan, ilm insonni nafaqat bilimli, balki ma’naviy jihatdan etuk va mas’uliyatli shaxsga aylantiruvchi asosiy omil safatida namoyon bo‘ladi.

Termiziy allomalar ta’limotida barkamol shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Inson jamiyat ta’sirida shakllansa-da, ayni paytda u jamiyatning axloqiy va ma’naviy qiyofasini belgilashda faol ishtirok etadi. Shu bois, barkamol shaxs tarbiyasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Imom Termiziy hadislarida jamiyatda adolatni qaror toptirish, muhtojlarga yordam berish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish barkamol shaxsning muhim vazifalari sifatida ta’kidlanadi.

Hakim Termiziy esa barkamol shaxsni jamiyatda ma’naviy muvozanatni ta’minlovchi kuch deb biladi. Uning fikricha, agar jamiyatda ilmli va e’tiqodli insonlar ko‘paysa, adolat, tinchlik va barqarorlik mustahkamlanadi. Aksincha, ma’naviy tanazzul shaxs kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va jamiyatni inqirozga olib keladi [Hakim Termiziy: 3]. Bu g‘oyalar bugungi globallashuv sharoitida, ayniqsa, dolzarb bo‘lib, yosh avlodni milliy va diniy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy bilimlarga ega, tanqidiy va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Hakim Termiziy va Imom Termiziy merosida barkamol shaxs tushunchasi inson kamolotini izohlovchi yaxlit va tizimli nazariy konsepsiya sifatida shakllangan. Ushbu yondashuvda insonning kamoloti uning nafaqat intellektual salohiyati, balki ruhiy barqarorligi, axloqiy etukligi va e’tiqodiy mustahkamligi bilan belgilanishi asoslanadi. Shaxsning ichki dunyosi – qalb pokligi, ixlos va ma’naviy muvozanat – uning umumiy kamolot darajasini belgilaydigan hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Termiziy allomalar ta’limotida shaxs tarbiyasi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u axloqiy, ma’naviy va ilmiy rivojlanishning o‘zaro uyg‘unligi asosida kechadi. Ilm bu yerda mustaqil maqsad emas, balki insonni ma’naviy yuksalishga etaklovchi, uning dunyoqarashini shakllantiruvchi va e’tiqodiy barqarorligini ta’minlovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Bu esa bilim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligini nazariy jihatdan asoslab, ularni bir-biridan ajratmasdan qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shaxs kamoloti va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ham ochib beradi. Inson ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishi bilan bir qatorda, uning axloqiy v ma’naviy qiyofasini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Mazkur o‘zaro bog‘liqlik barkamol shaxs tarbiyasining nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi hamda jamiyat barqarorligi va taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Yakuniy natija sifatida aytish mumkinki, Termiziy allomalar tomonidan ilgari surilgan barkamol shaxs modeli insonning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishini o‘zaro uyg‘unlikda ta’minlashga qaratilgan samarali nazariy tizimdir. Mazkur yondashuv zamonaviy ta’lim va tarbiya amaliyotida shaxsni har tomonlama

rivojlantirish, uni ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy etuk subyekt sifatida shakllantirishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Iso Termiziy. Sunani Termiziy.
2. Abu Iso Termiziy. Shamoyili muhammadiya.
3. Hakim Termiziy. Aql va havoyi nafs. (Tarjima): ma’naviy-ma’rifiy / J.Cho‘tmatov. – Termiz: “Kitob nashr” nashiyoti, 2024. – 56 b.
4. Hakim Termiziy. Qalb haqida risolalar; Abulhusayn Nuriy. Qalb maqomlari. (Tarjima): ma’naviy-ma’rifiy / J.Cho‘tmatov. – Termiz: “Kitob nashr” nashriyoti, 2024. – 168 b.
5. Z.Choriyev, T.Annayev, B.Murtazoyev, J.Annayev. Al-Hakim at-Termiziy. XXI asr avlodi. – Toshkent: 2008.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING PEDAGOGIK MODELI

Boboyeva Iroda Maxammadjon qizi
University of Business and Science o‘qituvchisi

Zamonaviy ta’lim taraqqiyoti o‘quvchilarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishni talab qilmoqda. An’anaviy tizimda fanlarning bir-biridan ajratilgan holda o‘tilishi o‘quvchilarda mantiqiy bog‘lanishlarni o‘rnatishiga to‘sqinlik qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun fanlararo integratsiyaga asoslangan samarali pedagogik modelni ishlab chiqish va uning amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarida o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishning eng samarali didaktik instrumenti sifatida e’tirof qilinmoqda. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan yondashuv masalasi jahon va mahalliy pedagogika fanining xorijiy tadqiqotchilaridan S. Kovalik va K. Olsenlar o‘zlarining integratsiyalashgan tematik o‘qitish (ITI) modelida fanlararo bog‘liqlik o‘quvchining miyya faoliyati xususiyatlariga eng mos keladigan usul ekanligini ta’kidlashmoqda. Ularning fikricha, bilimlar bo‘laklangan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida berilgandagina uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi.Respublikamiz olimlaridan R. Mavlonova va N. Rahmonqulovalar boshlang‘ich ta’limda integratsiyani o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning strategik omili sifatida baholaydilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi boshlang‘ich sinf darsliklarida integratsiyalashgan mavzular mavjud bo‘lsa-da, ularni o‘qitishda hamon an’anaviy, ya’ni fanlarni bir-biridan ajratgan holda o‘tish metodikasi ustunlik qilinmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida izchillik va mantiqiy yaxlitlikni ta’minlaydigan yangi pedagogik modellarni yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv va pedagogik modellashtirish prinsiplari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

Birinchidan, tizimli tahlil metodi orqali boshlang‘ich ta’limning amaldagi o‘quv dasturlari va "Tabiatshunoslik", "Matematika" hamda "Ona tili" darsliklari

qiyosiy o‘rganildi. Bunda fanlararo mushtarak mavzular hamda bir darsning o‘zida shakllantirilishi mumkin bo‘lgan o‘quv kompetensiyalari inventarizatsiya qilindi. Ikkinchidan, pedagogik modellashtirish metodi qo‘llanilib, integratsiyalashgan ta’limning innovatsion modeli ishlab chiqildi. Ushbu model o‘z ichiga maqsadli (kutilayotgan natijani belgilash), mazmunli (integratsiyalashgan o‘quv materialini tanlash) va natijaviy (samaradorlikni baholash) komponentlarni qamrab oladi.

Uchinchidan, ishlab chiqilgan modelning hayotiyligini tekshirish maqsadida pedagogik eksperiment o‘tkazildi. Eksperiment bazasi sifatida Namangan shahridagi tanlab olingan 3-umumta’lim maktablari belgilandi. Amaliy jarayonda "Tabiatshunoslik + Matematika + Ona tili" fanlarini o‘zaro bog‘lovchi maxsus dars bloklari sinovdan o‘tkazildi. Masalan, "Bahor nafasi" mavzusidagi tabiatshunoslik darsida o‘quvchilar o‘simliklar dunyosini o‘rganish bilan birga, matematik hisob-kitoblarni amalga oshirdilar va olingan ma’lumotlar asosida ona tili darsida ijodiy matnlar tuzdilar. Natijalar nazorat va eksperimental guruhlar kesimida qiyosiy tahlil qilindi.

Olib borilgan tadqiqotlar va pedagogik eksperimentlar natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun integratsiyalashgan ta’limning ko‘p komponentli pedagogik modeli shakllantirildi. Ushbu model o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uchta asosiy blokni qamrab oladi:

Birinchidan, modelning mazmunli bloki doirasida o‘quv fanlarining kesishish nuqtalari hisoblangan fanlararo mushtarak mavzular tizimi ishlab chiqildi. Xususan, "Fasllar", "Inson va tabiat", "Olamni anglash" kabi keng qamrovli mavzular atrofida o‘quv materiali konsentratsiya qilindi. Bu yondashuv bir o‘quv mashg‘uloti doirasida o‘quvchining ham mantiqiy-matematik, ham lingvistik va tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini parallel ravishda shakllantirish imkonini berdi. Natijada o‘quvchi bilimni alohida bo‘laklar sifatida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizim sifatida qabul qila boshladi.

Ikkinchidan, texnologik blok doirasida integratsiyalashgan darslarning metodik asosi tubdan yangilandi. Integratsiya vositasi sifatida an’anaviy dars metodlaridan voz kechilib, muammoli ta’lim, loyihalashtirish (Project-based learning) va interfaol o‘yin texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Loyihaviy yondashuv o‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzuni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashga, muammoli vaziyatlar esa ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qildi. Interfaol o‘yinlar esa integratsiyalashgan darslarning dinamikasini oshirib, o‘quvchilarning kognitiv faolligini ta’minlaydi.

Uchinchidan, kognitiv natijalar tahlili ishlab chiqilgan modelning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Eksperimental guruhlarda o‘tkazilgan yakuniy nazorat ishlari va amaliy topshiriqlar natijasi shuni tasdiqladiki, o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash darajasi sezilarli darajada oshgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, eksperimental guruh o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarni namoyish etish darajasi an’anaviy shaklda dars o‘tilgan nazorat guruhiga nisbatan 22% ga yuqori ekanligi qayd etiladi. Bu esa integratsiyalashgan modelning nafaqat bilimlarni yetkazishda, balki ularni amaliyotga tatbiq etishda ham ustunligini isbotlaydi.

Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’lim modelining tatbiq etilishi o‘quv jarayonining psixologik va didaktik muhitini tubdan yaxshilaydi. Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ichki motivatsiyasini va qiziqishini sezilarli darajada orttiradi, chunki o‘quv materiali hayotiy izchillikda taqdim etiladi. Shu bilan birga, bir nechta fanning mushtarak mavzular asosida birlashtirilishi o‘quv materialidagi takrorlanishlarni bartaraf etadi va bu orqali o‘quvchilarning ortiqcha aqliy yuklamasini kamaytirishga xizmat qiladi.Lekin, ushbu innovatsion modelni keng ko‘lamda amaliyotga joriy etish jarayonida bir qator tizimli to‘siqlar mavjudligi aniqlandi.

Birinchidan, pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi asosiy muammo bo‘lib qolmoqda: o‘qituvchilarning aksariyati faqat o‘z mutaxassislik fanlari doirasida cheklanib qolgan bo‘lib, bir nechta fan sohasini uzviy bog‘lashda yetarli metodik ko‘nikmaga ega emaslar. Bu esa pedagoglardan nafaqat o‘z fani, balki turdosh fanlar bo‘yicha ham chuqur ensiklopedik bilimlarni talab qiladi.

Ikkinchidan, amaldagi darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning tuzilishi integratsiyalashgan ta’lim talablariga to‘liq javob bermaydi. Fanlar bo‘yicha mavzular ketma-ketligining o‘zaro muvofiqlashtirilmaganligi dars bloklarini shakllantirishda qiyinchilik tug‘diradi. Aynan shu jihatdan, ta’lim tizimini integratsiyalashgan modelga o‘tkazish uchun darsliklarning mazmuni va mavzular rejasini fanlararo izchillik prinsiplari asosida qayta ko‘rib chiqish hamda integratsiyaga yo‘naltirilgan metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar va pedagogik eksperimentlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’lim modelining joriy etilishi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishning fundamental asosi hisoblanadi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini faqatgina akademik bilimlarni uzatish vositasidan, o‘quvchining intellektual va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish tizimiga aylantirmoqda.Integratsiyalashgan model o‘quvchilarda nafaqat fanlar bo‘yicha bazaviy bilimlarni, balki XXI asrning eng muhim kompetensiyalari hisoblangan tanqidiy fikrlash, muammolarni ijodiy hal etish va ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish kabi "soft skills" ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik modelning amaliyotga tatbiq etilishi, hozirgi kunda boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish va kelajakda o‘quvchilarning yuqori sinflardagi murakkab fanlarni oson o‘zlashtirishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni."O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", 06.11.2020 yildagi PF-6108-sonli Farmoni.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H.Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: "Ilm Ziyo", 2021.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: "Voris-Nashriyot", 2013.

4. Salokhitdinova S., Axmedova M. Integrated learning practices in primary schools: Comparative synthesis. // International Journal of Scientific Research, 2024.
5. Ibragimov Z.E., Umarova D. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan ta’lim: fanlararo bog‘liqlik va kompetensiya. // Global Science Review, 2025.
6. Rakhimova F. Importance of integration in new generation textbooks for primary education. Scientists.uz, 2024.
7. Sabirov S.J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik xususiyatlari. Interscience.uz, 2022.
8. Kovalik S., Olsen K. Integrated Thematic Instruction: The Model for School Success. – Kent, WA: Books for Educators, 2005 (Xalqaro tajriba uchun).
9. Yata C., et al.Conceptual analysis of subject integration in primary education. // Journal of Education and Practice, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida"gi qarori (Lex.uz ma’lumotlari asosida).

INGLIZ TILI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINF O‘QUVCHILARIDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA YOZMA NUTQ KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Abdurasulova Guljaxon Nabijon qizi
University of business and science
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi, stajyor-o‘qituvchi

Yozma nutqni o‘rgatish usullari tarixan bir necha muhim yo‘nalishda rivojlangan. Rost (2011) o‘zining fundamental asarida yozma nutqqa o‘rgatishning to‘rtta asosiy yondashuvi — mahsulotga yo‘naltirilgan (product-based), jarayonga yo‘naltirilgan (process-based), janrga asoslangan (genre-based) va ijtimoiy-konstruktivist — ni tavsiflab bergan. Mahsulotga yo‘naltirilgan yondashuv tayyor namuna asosida yozishni, jarayonga yo‘naltirilgan yondashuv esa qoralama, tahrir va muharrir bosqichlarini nazarda tutadi. Zamonaviy raqamli metodika ushbu yondashuvlarni muvozanatli tarzda birlashtiradi.

Interaktiv matn muharriri usuli sohasida Mayer va Moreno (2003) vizual ko‘rsatmalar bilan matn yozish topshiriqlari birgalikda berilganda o‘zlashtirish samaradorligi 89% oshishini tajriba asosida isbotlagan. Blake (2013) raqamli o‘yinlarning chet tilida yozma nutq motivatsiyasiga ta’sirini o‘rganib, gamifikatsiyaning 7-10 yoshli bolalarda dars davomida yozish faolligini 2,3 barobar oshirishini aniqlagan. Godwin-Jones (2019) sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan o‘qitish tizimlarining chet tili yozma nutqini rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasini tahlil etib, ular an’anaviy sinf sharoitiga nisbatan 3-4 barobar ko‘proq individuallashtirilgan amaliyot imkoniyatini berishini ko‘rsatgan.

O‘zbekiston tadqiqotchilaridan Yusupova (2023) boshlang'ich sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan eksperimental ishda raqamli jurnal yuritish asosida yozma nutqni rivojlantirishning samaradorligini aniqlagan; Mirzayev (2022) esa interaktiv doska va

raqamli ilovalarni birgalikda qo‘llashda o‘quvchilarning writing testlaridagi natijasi 29% oshishini qayd etgan. Xalqaro tadqiqotchilar Nation va Newton (2009) yozma nutq uchun topshiriqlarni uch bosqichda (oldin, jarayonida, keyin) tashkil etishni asosiy metodologik talab sifatida ta’kidlagan.

Raqamli jurnal va blog yuritish usuli

Raqamli jurnal va blog yuritish usuli o‘quvchilarda muntazam yozish odatini shakllantiruvchi zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o‘quvchilari uchun maxsus ishlab chiqilgan platformalar — Kidblog, Seesaw, Storybird — yoshga mos interfeys, moslashtirilgan lug'at yordamchisi va tengdoshlar izohi funksiyasi bilan ajralib turadi.

Usulni amalga oshirishning metodologik ketma-ketligi: Birinchi hafta — kundalik kuzatuv yurnal yozish (3-5 jumla). Ikkinchi hafta — bir xil mavzuni kengaytirib, qoralama va tahrir bosqichlarini alohida bajarish. Uchinchi hafta — tayyor blog yozuvni sinfda taqdim etish va tengdoshlar mulohazasini olish. Blog yuritish komponenti o‘quvchilarda nafaqat yozuvchi, balki o‘z matnining muharrir va taqdimotchisi sifatida ham o‘z-o‘zini rivojlantirish imkonini yaratadi. Bu faoliyat yozish bilan muloqot ko‘nikmasini organik tarzda birlashtiradi.

Sun’iy intellekt (SI) asosidagi moslashuvchan o‘qitish usuli har bir o‘quvchining individual natijalariga qarab yozma nutq topshiriqlarini avtomatik moslashtirishga asoslanadi. Bu usulning asosiy afzalligi — bir sinfda turli darajadagi o‘quvchilarga bir vaqtda, lekin har birining o‘z darajasida ishlash imkoniyatini berish.

SI asosidagi platformalar: Grammarly for Education (grammatik xatolarni real vaqtda tuzatish), Writing A-Z (yozish darajasiga moslashtirilgan topshiriqlar), DreamBox Learning va Carnegie Learning. Bu platformalar o‘quvchining har bir yozuvidagi xatoni algoritmik tahlil qilib, keyingi topshiriqning murakkablik darajasini real vaqtda belgilaydi. Darsning 10-12 daqiqasi SI platformasida mustaqil individual ishlashga ajratiladi; o‘qituvchi bu vaqtda dashboard orqali har o‘quvchining natijalarini kuzatadi. Tadqiqotimizda SI asosidagi usul ayniqsa pastki darajadagi o‘quvchilarda katta natija berdi: bu guruh uchun yozma nutq ballari 44,1% oshdi.

Raqamli ijodiy loyiha usuli

Raqamli ijodiy loyiha usuli an’anaviy insho yozish metodologiyasini raqamli muhit imkoniyatlari bilan boyitadi. Bu usulda o‘quvchilar raqamli stsenariylar, multimedia matnlar va interaktiv hikoyalar yaratadi. Boshlang'ich sinf o‘quvchilari uchun bu usul ayniqsa ta’sirchan: rasmlar, ovoz va matnni birlashtirish ijodiy fikrlash va yozish ko‘nikmasini emotsional jihatdan mustahkamlaydi (Heathcote va Bolton, 1994).

Raqamli ijodiy loyiha uchun vositalar: Book Creator (multimedia kitob yaratish), Canva for Education (vizual matn loyihalash), Flipgrid (video hikoya taqdimoti) va Seesaw (o‘quvchi portfolio va ijodiy vazifalar). Usulni amalga oshirish: (1) O‘quvchilar berilgan mavzu bo‘yicha aqliy hujum o‘tkazadi. (2) Har bir o‘quvchiga ijodiy rol tayinlanadi (muallif, rassom, muharrir). (3) Book Creator da o‘z multimedia hikoyasini yaratadi. (4) Sinfda taqdim etib, tengdoshlaridan fikr oladi. Tadqiqotimizda ijodiy loyiha usuli o‘quvchilarning yozish tashabbuskorligini 51%

oshirdi va yozma nutq testlarida dialog va hikoya bo‘limida natijalar 36,8% yaxshilandi.

Ushbu tezisda ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o‘quvchilarida raqamli ta’lim texnologiyalari yordamida yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirishning olti asosiy usuli — interaktiv matn muharriri, raqamli gamifikatsiya, raqamli jurnal va blog yuritish, SI asosidagi moslashuvchan o‘qitish, raqamli ijodiy loyiha va ko‘p sensorli integratsiya usullari — ilmiy asoslangan tarzda taqdim etildi va eksperimental jihatdan sinab ko‘rildi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: o‘qituvchilarni TPACK modeli asosida maxsus kasbiy rivojlantirish dasturlari bilan qamrab olish; maktab infratuzilmasini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish; usullarni yosh guruhiga muvofiq differensiallashtirilgan tarzda qo‘llash (2-sinf uchun gamifikatsiya, 4-sinf uchun SI va raqamli jurnal usuli prioritet); raqamli va an’anaviy usullarni maqbul nisbatda birlashtirish (70% raqamli, 30% an’anaviy dars davomida); milliy o‘quv dasturlarida yozma nutqqa ajratilgan soatlarni ko‘paytirish va raqamli materiallar banki yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blake, R. J. (2013). Brave new digital classroom: Technology and foreign language learning (2nd ed.). Washington, DC: Georgetown University Press.
2. Gardner, H. (1983). Frames of mind: The theory of multiple intelligences. New York: Basic Books.
3. Godwin-Jones, R. (2019). Riding the digital wilds: Learner autonomy and informal language learning. Language Learning & Technology, 23(1), 8-25.
4. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? A literature review of empirical studies. Proceedings of HICSS 2014, 3025-3034.
5. Heathcote, D., & Bolton, G. (1994). Drama for learning: Dorothy Heathcote's mantle of the expert approach. Portsmouth, NH: Heinemann.
6. Mayer, R. E., & Moreno, R. (2003). Nine ways to reduce cognitive load in multimedia learning. Educational Psychologist, 38(1), 43-52.
7. Mirzayev, J. (2022). Interaktiv doska va raqamli ilovalar yordamida ingliz tilini o‘rgatish samaradorligi. Zamonaviy ta’lim, 4(2), 112-124.
8. Morley, J. (2001). Aural comprehension instruction: Principles and practices. In M. Celce-Murcia (Ed.), Teaching English as a second or foreign language (3rd ed.). Boston: Heinle & Heinle.
9. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL listening and speaking. New York: Routledge.
10. Prensky, M. (2001). Digital game-based learning. New York: McGraw-Hill.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QIB TUSHUNISHGA O‘RGATISH USULLARI

Abdurasulova Guljaxon Nabijon qizi
University of business and science
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi, stajyor-o‘qituvchi

Jahon ta’lim amaliyotida ingliz tilini chet tili sifatida o‘rgatishda o‘qib tushunish (reading comprehension) ko‘nikmasiga e'tibor so‘nggi o‘n yillarda keskin ortdi. Buning sababi aniq: til muloqotining muhim qismini matnni idrok etib tushunish tashkil etadi (Morley, 2001), lekin an’anaviy metodika bu ko‘nikmani ko‘pincha ikkinchi darajali sifatida ko‘rib kelgan. Raqamli ta’lim texnologiyalarining paydo bo‘lishi bu holatni tubdan o‘zgartirdi: endi o‘qituvchi autentik matnlar, elektron kitoblar va interaktiv platformalardan foydalanib, o‘qib tushunishni o‘rgatishda yangicha samaradorlikka erishishi mumkin.

O‘qib tushunishni o‘rgatish usullari tarixan bir necha muhim yo‘nalishda rivojlangan. Rost (2011) o‘zining fundamental asarida o‘qib tushunishga o‘rgatishning to‘rtta asosiy yondashuvi — past-yuqori (bottom-up), yuqori-past (top-down), interaktiv va metakognitiv — ni tavsiflab bergan. Bottom-up yondashuv harflardan so‘z, so‘zdan gap qurishni, top-down yondashuv esa kontekst va oldindan bilimlardan foydalanishni nazarda tutadi. Zamonaviy raqamli metodika ikkala yondashuvni muvozanatli birlashtiradi.

Interaktiv matn usuli sohasida Mayer va Moreno (2003) ko‘rgazmali animatsiya bilan vizual matn birga berilganda o‘zlashtirish samaradorligi 89% oshishini tajriba asosida isbotlagan. Blake (2013) raqamli o‘yinlarning chet tilida o‘qib tushunish motivatsiyasiga ta’sirini o‘rganib, gamifikatsiyaning 7-10 yoshli bolalarda dars davomida faollikni 2,3 barobar oshirishini aniqlagan. Godwin-Jones (2019) sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan o‘qitish tizimlarining chet tili o‘qitishda individuallashtirishga qo‘shayotgan hissasini tahlil etib, ular an’anaviy sinf sharoitiga nisbatan 3-4 barobar ko‘proq individuallashtirilgan amaliyot imkoniyatini berishini ko‘rsatgan.

Ushbu tezisda ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’lim texnologiyalari asosida o‘qib tushunishga o‘rgatishning olti asosiy usuli — interaktiv matn, raqamli gamifikatsiya, elektron kitob va audio-matn, SI asosidagi moslashuvchan o‘qitish, raqamli rolli o‘yin va ko‘p sensorli integratsiya usullari — ilmiy asoslangan tarzda taqdim etildi va eksperimental jihatdan sinab ko‘rildi.

Tajriba natijalari barcha usullarning samaradorligini tasdiqladi: tajriba guruhida yuqori natija qayd etildi. Usullar orasida ko‘p sensorli integratsiya usuli eng yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Usullar kompleksi sifatida qo‘llanilganda sinergistik effekt kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blake, R. J. (2013). Brave new digital classroom: Technology and foreign language learning (2nd ed.). Washington, DC: Georgetown University Press.

2. Gardner, H. (1983). Frames of mind: The theory of multiple intelligences. New York: Basic Books.
3. Godwin-Jones, R. (2019). Riding the digital wilds: Learner autonomy and informal language learning. Language Learning & Technology, 23(1), 8-25.
4. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? A literature review of empirical studies. Proceedings of HICSS 2014, 3025-3034.
5. Heathcote, D., & Bolton, G. (1994). Drama for learning: Dorothy Heathcote's mantle of the expert approach. Portsmouth, NH: Heinemann.
6. Mayer, R. E., & Moreno, R. (2003). Nine ways to reduce cognitive load in multimedia learning. Educational Psychologist, 38(1), 43-52.
7. Mirzayev, J. (2022). Interaktiv doska va raqamli ilovalar yordamida ingliz tilini o‘rgatish samaradorligi. Zamonaviy ta’lim, 4(2), 112-124.
8. Morley, J. (2001). Aural comprehension instruction: Principles and practices. In M. Celce-Murcia (Ed.), Teaching English as a second or foreign language (3rd ed.). Boston: Heinle & Heinle.
9. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL listening and speaking. New York: Routledge.
10. Prensky, M. (2001). Digital game-based learning. New York: McGraw-Hill.
11. Rost, M. (2011). Teaching and researching: Listening (2nd ed.). Harlow: Longman.
12. Yusupova, M. (2023). Elektron matn materiallaridan boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida foydalanish tajribasi. Pedagogika fanlari jurnali, 5(1), 78-91.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 sonli Farmoni (2022). 2022-2026 yillarda O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.

ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH VA UNING O‘QUVCHILAR SAVODXONLIGIDAGI AHAMIYATI

Rahimova Baxtinur Qahramon qizi
Xorazm viloyati Xiva tumani 29-umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Matn nutqiy hodisa bo‘lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuni birikishidan hosil bo‘ladi. Masalan, “Bahorda ekish boshlanarmish” shaklidagi uchtagina so‘zning birikishidan tortib, butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matn hisoblanadi. Har bir matn ma’lum bir narsa, voqea –hodisani tasvirlashga xizmat qiladi, u haqda haqda xabar beradi va so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi. Matn o‘z tuzilishiga ko‘ra, murakkab sintaktik butunlik, xat boshi (abzas), bo‘lim, qism, bob va paragraflardan tashkil topishi mumkin. O‘quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlar esa asosan gap, abzas va qismdan iborat bo‘lishi mumkin.

Abzas (nemischa : ich tomon, orqa tomon surmoq) yozma nutq matndagi yangi yo‘l (qator)dan bir oz joy qoldirib boshlash. Abzas kompazitsion uslubiy ajratish xarakteridagi nutq birligi bo‘lib, kitobxonning diqqatini yangi fikrga, yangi tasvirga jalb qilish vazifasini bajaradi. Abzas matnda tugal ma’noni ifodalagan bir

xat boshidan ikkinchi xat boshigacha bo‘lgan yaxlit mantiqiy nutq birligi sanaladi. Abzas bir sodda gapdan ham qo‘shma gapdan ham tashkil topishi mumkin. Abzas biror nutqiy alohida shaklga ega bo‘lgan maxsus birligi emas, balki yozma nutqning har xil sintaktik butunliklardan tashkil topgan qismidir. O‘quvchi badiiy matn yaratishda tabiat va ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo‘ladi: uning mohiyatini ochish uchun turli-tuman leksik birliklar (ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh va qarama- qarshi ma’noli so‘zlar), tasviriy ifoda va frazeologik birikmalar, adabiy tilning tasviriy vositalari:o‘xshatish, mubolog‘a, kichraytirish, jonlantirish kabilardan o‘z imkonoyatiga qarab bemalol foydalana oladi. Badiiy matn o‘quvchilarda badiiy didni shakllantirishning asosiy vositalaridir. O‘quvchi bunday matnlar orqali go‘zallik va nafosat olamiga kiradi, o‘z quvonchi va tashvishlari bilan o‘rtoqlashadi, sevimli qahramonlariga ergashishlari mmkin. Badiiy matn tasviriy, obrazli va jozibali bo‘lish xususiyatiga ega. U xalq tilining barcha imkonoyatlarini o‘zida aks ettiradi. Bunda tilning fonetik, leksik-semantik, gramatik vositalari badiiy tasvir vositasilari o‘rnida xizmat qiladi. Matnlar ham ma’no va mazmuniga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi.

Publisistik matn. Bu matn kundalik hayotning turli tomonlarini ommabop tarzda aks ettiradi. Publisistik matn o‘zining boyligi, konkretligi va ekspressivligi, tashviqot va targ‘ibot xarakterdaligi bilan boshqa matnlardan farq qiladi. Bunday matnlarda siyosiy terminlar, neologizmlar, turli kasb-hunar so‘zlari, hatto so‘zlashuv nutqi elementlari ham uchraydi. Ona-tili mashg‘ ulatlarida o‘quvchilarni publisistik matnlar yaratishga o‘rgatishi uchun avvalo, ularning bu usulning til xususiyatlari ustida ishlashga to‘g‘ri keladi. Publisistik matnning tili pishiq, aniq, ifodali, ravon, ixcham, jonli bo‘lib, u nutqning ta’sirchanligi, o‘qimishliligi va ommabopligini ta’minlaydi. Odatda, gazetalarning bosh maqollari, diplomatik nutqlar, matndagi nutqlar, mitingdagi nutqlar, ocherk, reportaj feletonlar publisistik matn sanaladi.

Ilmiy matn. Bu tip matn adabiy til normalarini to‘la saqlagan, faktik materiallarga boy, aniq, siqiq xabarlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy matn monologik xarakterda bo‘lib, unga ko‘chma ma’noli so‘zlar, hazil so‘zlar ishlatilmaydi. Har bir fanga xos ilmiy terminlar va formulalar ilmiy matn asosini tashkil etadi. Ilmiy matnga tezis, maqola, doklad, annotasiya, taqriz konspekti, ma’ruza, monografiya, darslik va qo‘llanmalar kiradi.

Rasmiy matn. Ona-tili o‘qitish jarayonida ancha sarmoqli o‘rin egallaydi. O‘quvchilar hukumat qarorlari, buyruqlari, shartnomalari, rasmiy e’lonlari, ayniqsa, rasmiy ish qog‘olari: ariza, tarjimai hol, ishonch qog‘ozi, tilxat, telegramma, ma’lumotnoma, tavsifnoma, qaror, hisobot, xat, e’lon kabilar bilan ish ko‘rish jarayonida nutqning bu ko‘rinishini mukammal egallab boradilar.

Til hodisalarining mohiyatini aniqlashga mo‘ljallangan matnlar. Ona-tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishi, avvalo o‘qitish usullarini bir muncha takomillashtirishini, uni deduktiv (Umumiydan xususiyga) usuldan ko‘proq induktiv (xususiydan umumiyga) usulga o‘tishni taqozo etadi. Bu, shubhasiz o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Tahlil uchun tanlanadigan matnlar asosan amaliy yo‘nalishda bo‘lishi kerak.

Tahlil uchun matnlarning bir qismi maktab ona tili darsliklarida berilgan bo‘lsa asosiy qismini o‘qituvchi tanlaydi ular badiiy asarlardan, ilmiy va ilmiy ommabob kitoblardan, matbuot materiallaridan tanlab olinishi mumkin. Bunday matnlar o‘rganilayotgan til hodisasiga muvofiq kelishi bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishga muo‘ljallangan matnlar. Og‘zaki nutq yozma nutqning asosidir. Ammo, afsuski, ko‘p hollarda ona tili mashg‘ulotlarida asosiy etibor o‘quvchilarning yozma nutqiga qaratilib, og’zaki nutq uning soyasiga qolib ketadi. Natijada maktabni bitirib chiqayotgan yoshlarning talaygina qismi til imkoniyatlaridan foydalanayotganda, fikrni og‘zaki bayon qilishda qiynaladi. Ona tili mashg‘ulotlarida matnning mazmunini saqlagan holda shaklni o‘zgartirib bayon qilish she’riy asarlar mazmunini nasriy yo‘l bilan qilish, matnni qisqartirib yoki kengaytirib bayon qilish, saylab bayon qilish kabi turlaridan keng foydalaniladi. Matn mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirib bayon qilib ancha samarali ish usullaridan biri sanaladi. O‘quvchilar berilgan dialogic matnlar mazmunini ko‘chirma gaplardan foydalangan holda bayon qilishlari, matnda berilgan soda gaplarni qo‘shma gaplarga va aksincha qo‘shma gaplarni soda gaplarga aylantirib bayon qilishlari hech qanday o‘zgarishsiz badiiy til vositalarini saqlagan holda so‘zlab berishlari mumkin. Masalan, “Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap” mavzuni o‘rganishi jarayonida o‘quvchilarga quyidagi topshiriq bilan murojaat qilish mumkin.

Matn mazmuni qisqartirib yoki kengaytirib bayon qilish ham o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga juda katta amaliy yordam ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda matnga ayrim o‘zgarishlar kiritib so‘zlash uslubidan ham foydalaniladi. Mustaqil ishning bu turi tarkibida ma’lum darajada ijodiylik borligi bilan ajralib turadi.

Bunday ishlarga ma’lum bir shaxs nomidan berilgan matnni boshqa bir shaxs nomidan so‘zlash, matn mazmunlarini to‘ldirish voqeani sahnalashtirish kabilarini kiritsa bo‘ladi.

Matnda solovchi shaxsini o‘zgartirib so‘zlashda go‘yo ijodiylik yo‘qday bo‘lib ko‘rinadi ammo shaxsning o‘zgartirishi gapining egasi va kesimi o‘rtasida munosabatlarning o‘zgarishiga, jumlaning matnda berilgan tartibini o‘zgartirishiga olib keladi.

Matn mazmunini to‘ldirish o‘quvchidan birmuncha ijodiy izlanishni, talab qiladigan topshiriqlardan biridir. O‘quvchi matnga qo‘shimcha kiritish uchun avalo unga bayon qilingan tasvir, voqea, hodisalarning mohiyatini chuqur anglab yetish, qo‘shiladigan fikrlar bayon qilingan fikrlarni qay darajaga to‘ldirishni hisobga olish lozim. Ayniqsa boshlanish qismi berilgan hikoyani mustaqil davom ettirishi uni to‘ldirishning eng samarali usullaridan biridir. Masalan o‘quvchilarga Alisher Navoiyning “Hotam Toyi hikoyari”dan parchani o‘qib berib, qolgan qismini ularning o‘zlariga davom ettirishni topshirsa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaxo‘jayev A. “ Istiqlol va ona-tilimiz”. Tosh.1998
2. Jumanov “ Ona tili-davlat tili” Tosh. 2004.
3. Uzliksiz ta’lim uchun ona tili bo‘g‘inlari. Tosh. 2004

4. Qosimova “Ona tili-davlat tili” Buxoro 2009
5. G‘ulomov “ona tili o‘qitish metodikasi”. tosh. 2010
6. A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimjonova. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2012.

MAKTAB TA’LIMIDA SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI SHAKLLANTIRISH

Ramanbergenova Zuhra Jo‘rabek qizi
Ellikqal’a tuman 10-umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Turkiyshunoslikda ham sifat turkumiga oid so‘zlarning o‘rganilishi o`ziga xos tarixga ega. N.K.Dmitriyev, A.P.Yakubinskiy, N.F.Katanov, M.A.Kazembek, A.N.Kononov, S.N. Ivanov, P.I.Kuznetsov, T.I.Grunin singari turkolog olimlar sifatlarning o‘ziga xos grammatik kategoriyalarga ega ekanligi, yasalish va otlashish xususiyati, gap tarkibidagi sintaktik vazifasi haqida muhim fikr–mulohazalarni bildirganlar. [2.28-bet]

O‘tgan asrning 20–yillarida o‘zbek tili masalalariga bag‘ishlangan M.M.Faxriddinovning “Turkcha qoida” (1913), Elbekning “Bitik yo‘llari” (1919), “Yozuv yo‘llari” (1921), Shorasul Zunnunning “O‘zbekcha qoidalar” (1925), Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning “O‘zbekcha til saboqligi” (1925) kabi bir qator darslik va qo‘llanmalari nashr etilgan bo‘lib, ularda boshqa so‘z turkumlari qatori sifat turkumiga oid so‘zlarning grammatik belgilari haqida ham salmoqli fikrlar bildirilgan.

60–yillarga kelib o‘zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so‘zlarni o‘rganishga tilshunos olima M.Sodiqova katta hissa qo‘shdi. Olima 1963–yilda “O‘zbek tilida rang–tus bildiruvchi sifatlar” mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi. Ikki tomlik “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1966) va “O‘zbek tili grammatikasi” (1975) nomli tadqiqotlarning “Sifat” mavzularini yozdi, 1974–yilda olimaning “Hozirgi o‘zbek tilida sifat” nomli monografiyasi e`lon qilindi. Masalan, M.Sodiqova 1966–yilda e’lon qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida sifatning ma’no jihatdan olti turini alohida–alohida ajratib ko‘rsatgan edi:

a) rang – tus bildiruvchi sifatlar: oq, qora, qizil;
b) hajm bildiruvchi sifatlar: keng, tor, uzun;
d) shakl bildiruvchi sifatlar: dumaloq, yassi, qiyshiq;
e) maza bildiruvchi sifatlar: achchiq, chuchuk, shirin;
f) xarakter va xususiyat bildiruvchi sifatlar: yaxshi, yomon, a’lo, ablah, urishqoq, tirishqoq;
g) holat bildiruvchi sifatlar: kasal, musofir, boy, kambag‘al, yosh, qari, kal, kar va boshqalar. [1.301-bet]

Sifat” so‘z turkumini o‘qitishda uning ichki ma’no guruhlari ustida ishlash, sifat sinonimlari va sifat antonimlari ustida maxsus ish olib borish, har xil o‘yin, topshiriqlardan foydalanish kabilar mazkur so‘z turkumini o‘rganishni ancha osonlashtiradi. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida ta’limning turli o‘qitish

metodlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ona tili darslari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko ‘nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko‘mak beradilar, o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi. O‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga, o‘qishga, ta’lim olishga shaxsan mas’ullikni his qiladilar.

O‘quvchi nutqining go‘zalligi, rang-barangligi, jozibadorligi, ta’sirchanligi ko‘p jihatdan sifat so‘z turkumiga oid bilimlarning o‘quvchilar tomonidan puxta egallanganligiga bog‘liq. Mazkur mavzu yuzasidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi o‘quvchilar nutqini sifatlar bilan boyitish, nutq go‘zalligini ta’minlash, bu so‘zlarni nutqiy sharoitga mos ravishda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash, mazkur turkumga oid so‘zlarni yoza olish malakalarini egallashdan iboratdir. Ko‘rinib turibdiki, sifatlarni o‘rganishda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish eng asosiy talablardan biri sanaladi. Modomiki shunday ekan, mazkur so‘z turkumidan tashkil etiladigan ta’limiy o‘yinlar ham, avvalo, shu maqsadga xizmat qilishi, ya’ni o‘quvchilarning so‘z zaxirasini rivojlantirishga qaratilishi kerak. Ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda o‘quvchilar sifatlarning ma’no guruhlari, shakl-hajm sifatlari, maza-ta’m sifatlari kabi ma’noviy guruhlar ustida ish olib borishar ekan, ular har bir ma’no guruhiga kiruvchi so‘zlarning lug`atini tuzadilar va qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni topish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Bu topshiriqlar didaktik o‘yin tarzida tashkil etilsa, mashg‘ulotlar qiziqarli va samarali bo`ladi. Bundan tashqari, mavzuga interfaol usullardan tanlayotganda, sifatlarning yozilishi ustida ishlash ham o‘quvchilar savodxonligini oshirishda asosiy o‘rin egallaydi. “Sifat” so‘z turkumini o‘qitishda “Sifatlarning yasalishi” mavzusini chuqur o‘rganish va sifat yasovchi qo‘shimchalarni bilish o‘quvchiga nutqiy faolligini kengaytirish imkonini beradi, chunki yasovchi qo‘shimchalarni ongli o‘zlashtirgan o‘quvchi berilgan so‘zlardan sifatlar hosil qilib, uni zaruriy o‘rinlarda qo‘llay oladi. Na’muna uchun berilgan so‘zlar: *qadim, kuz, ertalab, ich, qish, kech, bahorgi, o‘t, sez, kes, chop, ol, yoz.* Shu so‘zlardan hosil qilingan sifatlar: *qadimgi, ertalabki, ichki, qishki, kechki, bahorgi, o‘tkir, sezgir, keskir, chopqir, olg‘ir, yozgi.* Qo‘shimchalar yordamida bunday sifatlarning yasalishini o‘rganish o‘quvchida chiroyli so‘zlash fazilatlarini rivojlantirib boradi. O‘quvchilar belgi bildiradigan bunday so‘zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun ham sifat so‘z turkumining o‘qitilishi ahamiyatlidir. Bu darslarda ko ‘rgazmali vositalar (predmet rasmlari kabilardan) keng foydalansa bo‘ladi. Sifatni o‘rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmening belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko ‘rinishi, maza-ta’mi, xarakter-xususiyati, hidini) bildiradi.

Ta’limda sifat so‘z turkumining ahamiyati shunda deb o‘ylaymanki, shaxs va narsalardagi belgi-xususiyatlarni farqlay olishlarida. Har bir predmetning o‘ziga xos, ajralib turuvchi jihatlarini anglay olishlari bilan ahamiyatlidir. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda sifat so‘z turkumlari ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. Sifatlarning tub va yasama bo‘lishidan xabardormiz. Hech qanday yasovchi qo‘shimchalarsiz belgi bildiruvchi so‘zlar tub sifatlar sanaladi. Masalan, xunuk, go‘zal, oq, qora kabi. Yasovchi qo‘shimchalar yordamida boshqa so‘z

turkumlaridan hosil qilingan sifatlar yasama sifat hisoblanadi. Sifatlar morfologik va sintaktik usulda yasaladi. Morfologik usulda so‘z o‘zak, negiziga maxsus qo‘shimchalar qo‘shish orqali sifat yasaladi. Bunday qo‘shimchalar o‘zbek tilida ko‘plab uchraydi. -ma, -chi, -li, -dor, -ch, -i(sh), -ar, -ik, -ish, -qin, -choq, -a(y), -siz kabi qo‘shimchalarni bunga misol qilib keltirish mumkin. Biz kompyuter lingvistikasida keltirib o‘tgan qo‘shimchalarimizni bazasini yaratsak aynan maqsadli bo‘ladi. Chunki, berilgan matndan yasama sifatlarni chiqarib berish so‘rovi berilganida kompyuter avtomatik tarzda bizning bazamizda mavjud qo‘shimchalar asosga qo‘shilganlarini chiqarib beradi. Lekin tilimizda omonimlik hodisasi mavjudligi uchun kompyuter lingvistikasida biz yuqoridagi qo‘shimchalarni sifat yasovchi deb qabul qila olmaymiz. Chunki qo‘shimchalarning ayrimlari ifodalanishiga ko‘ra aynan bir-biriga o‘xshasa ham, mazmun-mohiyati bilan keskin farqlanadi. Shakli bir xil, vazifasi har xil qo‘shimchalarga shakldosh qo‘shimchalar deyiladi. Biz buni ot va sifat yasovchi qo‘shimchalarning omonimligida ko‘rishimiz mumkin. Chunki sifat yasovchi qo‘shimchalarning ayrimlari ot yasovchi qo‘shimchalar bilan omonimligi kompyuter lingvistikasida o‘ziga xos murakkabliklar tug‘diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sodiqova M. Sifat // O‘zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, 1-tom. –Toshkent: Fan, 1976, 301-bet.

2.Aytmatov Chingiz, Shoxonov Muxtor. Cho‘qqida qolgan ovchining oh-u zori. Toshkent -2009. 28-bet.

3.A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimjonova. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2012.

4.N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Umumiy o`rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent-2017

5.U. Tursunov, Muxtorov J. Sifat // U. Tursunov., J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, qayta ishlangan, to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. 280 – 287–bet.

6.Yoriyev B. Sifatlarning stilistik xususiyatlari (M. Shayxzoda she’riyati misolida) // O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami), Samarqand: SamDU nashri, 1980.

7.Iskandarova Sh. Sifat // Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (morfologiya). –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.

RAHBARNING BOShQARUVNI RIVOJLANTIRISh ORQALI INNOVATSION G‘OYaLARNI GUMANITAR, HUQUQIY, IQTISODIY VA O‘ZARO MUNOSABATLARDAGI MADANIYaTI

Yusupov Srojiddin Soporboevich
O‘zbekiston, Toshkent, Mirzo Ulug‘bek nomidangi O‘zMU “Pedagogik ta’lim” kafedrasi, erkin tadqiqotchi

Mustaqillik sharoitida biz o‘zlashtirishimiz zarur bo‘lgan sohalardan biri rahbarning jamoa bilan o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir. Chunki bugun o‘zbek xalqi o‘zining haqiqiy mustaqil davlatini yaratdi. Bu davlat istiqlolning dastlabki yillaridayoq jahon saxnasiga chikib o‘z mavqeini mustahkamlamoqda. Boshqaruvni rivojlantirishda rahbarning innovatsion g‘oyalarni gumanitar, huquqiy, iqtisodiy va o‘zaro munosabatlardagi madaniyati yo‘lga qo‘yar ekanmiz, eng avvalo jamiyatning turli sohalarida rahbar madaniyatining shakllanishi va uning axloqiy asoslarini o‘rganish har bir mamlakatda milliy davlatchilik negizlarini demokratik taraqqiyot tamoyillari asosida rivojlanishini ta’minlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy mustaqilligiga erishganidan so‘ng, mamlakatda rahbarning innovatsion g‘oyalar, madaniyati va rahbar mahoratini oshirishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqishga doir keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shu ma’noda davlat va jamiyat boshqaruvida rahbarning innovatsion g‘oyalar, madaniyati va rahbar shaxsiga yangi talablar qo‘yildi. Bunday talablar sirasiga rahbar nafaqat o‘z sohasining chinakam mutaxassisi bo‘lishi, balki insoniy fazilatlarni o‘zida qaror toptirgan, jamoada axloqiy muhitni barqarorlashtirishga qodir bo‘lgan shaxs sifatida gavdalantirishi shart qilib belgilandi.

Har bir rahbar jamoadagilarning ishonchini qozonib, rahbarlik vakolatiga ega bo‘lar ekan, albatta, rahbarning innovatsion g‘oyalari, madaniyatini universal tashkil eta olishi, o‘z mahoratini yuksaltirib borishi, xatti-harakatlarini axloqiy me’yor va tamoyillardan kelib chiqqan holda nazorat qilib borishi kerak. Zero, har bir rahbar uchun el-yurt va jamoa ishonchiga munosib bo‘lib, o‘z oldida turgan maqsadlar hamda xalq farovonligini yanada oshirish yo‘lida o‘zini baxshida qilish fidoyilik, qahramonlik va mehnatsevarlik kabi axloqiy tamoyillar o‘z faoliyatini tashkillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruvda rahbarning innovatsion g‘oyalar orqali ulkan ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keluvchi faoliyatning alohida shakli bo‘lib, u odamlarni umumiy ish faoliyatini tashkil qilish san’atidir. Bunda korxona, tashkilot yoki muassasaning o‘z strategik maqsadlariga erishishi rahbar mahorati va rahbar madaniyatining axloqiy asoslariga bog‘liq bo‘ladi. Buning uchun esa, rahbarning innovatsion g‘oyalar boshqaruv madaniyatining usul va talablarini axloqiy me’yor va tamoyillardan kelib chiqqan holda amalda qo‘llay bilishi lozim. Aytish mumkinki, insonlarning faoliyatlari va harakatlari nazoratga muhtojdir. Sababi jamiyat hayotining barcha jabhasi boshqarishda rahbarning zaruratini tug‘diradi. Ayni paytda jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida rahbarning innovatsion g‘oyalar

madaniyati o‘ziga xos tarzda amal qiladi. Bundan tashqari, rahbarning boshqaruvi - ma’lum bir kishilar guruhining ish faoliyatini yaxshilash, birlashtirish ёki qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilib qo‘ygan muayyan kasbiy odob hamda axloqiy talablar asosida amalga oshiriladigan ma’naviy-axloqiy xatti-harakatlar yig‘indisi hamdir. U ijtimoiy va texnik tizimlar funkцiyasi bo‘lib, ular tuzilmasini saqlashni ta’minlaydi, faoliyati va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan rejimni qo‘llab-quvvatlaydi. Demak, ijtimoiy tizimdagi rahbarning innovatsion g‘oyalar, ularni huquqlari, iqtisodiy va o‘zaro munosabatlarini boshqarish alohida ahamiyatga эgadir.

Rahbarning ma’naviy-axloqiy mezonlarga ega bo‘lishi uning madaniyat bilan aloqadorligida namoyon bo‘ladi. Madaniyat ma’naviy hodisa sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayot sohalarining barchasiga taalluqli bo‘lib, bugungi kunga kelib fan va texnika taraqqiyotining yangi bir bosqichga ko‘tarilganligi uning mazmunini yanada boyishiga olib keldi. Respublikamizdagi barcha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni isloh etishda istiqlolning ilk kunlaridanoq ichki va tashqi siyosatni tartibga solishda rahbarning innovatsion g‘oyalar va madaniyatining axloqiy jihatlariga e’tibor qaratildi. Zero, rahbarning innovatsion g‘oyalar boshqaruv va rahbarlik sohasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida insoniy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmui va ularni amalga oshirish jarayonining namoyon bo‘lishini anglatadi. Rahbar madaniyati boshqarilayotgan har qanday ob’ektga nisbatan ishlatiladi. Shu sababli ham rahbarning innovatsion g‘oyalar va madaniyatini jamiyatni boshqarishda ham, tashkilot va muassasalarni boshqarishda ham kuzatishimiz mumkin.

Boshqaruvni takomillashtirish orqali muayyan korxona a’zolarining botiniy imkoniyatlari ya’ni, bilimi, tajribasi, ijodiy salohiyati, xodimlarning o‘zini namoyon etishga intilishi kabi omillarni ro‘yobga chiqarib ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoni tug‘iladi. Shu ma’noda, boshqaruvda rahbar madaniyati, xulq me’yorlari, xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot takomillashuvi, mehnatga bo‘lgan oqilona munosabatining shakllanishiga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining yangi rivojlanish pog‘onalariga ko‘tarilib borishi bilan rahbar madaniyat ham davr talabiga mos ravishda mukammallashib boradi.

Bunday sharoitda tashkilotning rahbar madaniyati iloji boricha innovatsion loyihalarni joriy etishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu bois rahbar madaniyati ham, mazmunan ham shaklan o‘zgarib turadi. Xususan, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida rahbar madaniyatga ko‘proq demokratik tamoyillarni singdirib bormoqda. Tashkilot miqyosidagi rahbarning innovatsion g‘oyalar orqali ma’lumotlar etkazish madaniyati rahbarning quyidagi munosabat turlarida namoyon bo‘ladi:

a) xodimga bo‘lgan munosabat; mavjud korxonada amal qiladigan faoliyat texnologiyalari;

b) ishlab chiqarishga sarflanadigan vaqt;

v) korxona faoliyatini rejalashtirishda axborot resuruslaridan foydalanish;

g) tashkilot maqsadiga erishish turli mobil texnologik uslublar;

d) xodimlarga nisbatan qo‘llanadigan rag‘batlantirish va jazolash uslublari;

j) korxona miqyosida xodimlarning lavozimi bo‘yicha o‘sish ko‘rsatkichlari.

Rahbar madaniyatini bir ko‘rinishi sifatida muayyan tashkilot va muassasadagi rahbar madaniyati davlat boshqaruvida amal qilayotgan madaniyatning asosiy jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Boshqaruvda rahbar madaniyatining asosiy tamoyillarini ishlab chiqishda mazkur jamiyat madaniyatini belgilovchi asosiy omillar, ayniqsa, milliy xususiyatlarni hisobga olish lozim. Boshqaruv madaniyatini amalga oshiruvchilar bu rahbarlardir. Ular albatta innovatsion axborot tizimidan keng foydalanib barcha ma’lumotlarni etkazadilar.

Zamonaviy rahbarlarni tayyorlashda demokratik boshqaruv tamoyillari etakchi o‘ringa chiqmoqda va rahbar madaniyati shunga mos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Insoniyat o‘z rivojlanish jarayonida juda katta rahbarning tajribasini jamlagan. Bozor sharoitida bu tajriba rahbarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Boshqaruvning vujudga kelishi va rivojlanishi, avvalo, rahbar madaniyati darajasi yuksalishi bilan bog‘liqdir. Rahbar madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga qator xususiyatlarga ham ega. Chunonchi, madaniyatga ega bo‘lish rahbar uchun faqat zarur emas, balki shart, chunki har bir tashkilotning har bir bo‘linmasi samarali ishlashi uchun bevosita boshqaruvchi (rahbar) va bilvosita boshqariluvchi (xodim) yuksak madaniyatga ega bo‘lishlari kerak. Rahbar madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, rahbarlar madaniyatini, boshqaruv jarayoni madaniyati, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi.Rahbar boshqaruv jarayoni madaniyatining yuqori darajasiga erishish va o‘z mehnatini tashkil etishni takomillashtirib borishi kerak. Boshqaruvda rahbar xodimlari madaniyati ko‘p omillarga bog‘liq, umumiy madaniyat darajasi, ishbilarmonlik sifatlari, boshqaruv ilmini chuqur va har tomonlama bilish va uni o‘z faoliyati jarayonida qo‘llay olish, shuningdek, rahbar axloqiy madaniyati bilan tavsiflanadi. Har bir korxona va tashkilot rahbari o‘z vazifasini bajarish jarayonida jamoaning boshqa a’zolari bilan munosabatda bo‘lar ekan kishilar o‘rtasida mavjud axloqiy qoidalarga bo‘ysunadi.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruvda rahbar madaniyatining axloqiy asosi sifatida har bir jamoada xayrixohlik, insonga hurmat muhiti mavjud bo‘lishi zarur. Rahbar madaniyati maqtanchoqlik, qo‘rslik, murosasizlik, mansabparastlikka ziddir. Rahbar tizimida, shuningdek, qonun me’yorlariga rioya qilmaslik, va’dabozlik, faoliyatga noto‘g‘ri baho berish va boshqa xususiyatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Boshqaruvda rahbar madaniyatini ta’minlashning asosiy yo‘llari - boshqaruv ilmini chuqur egallash, umumiy madaniy darajasi va malakasini muntazam oshirib borish, o‘z faoliyati natijalarini tahlil etish va tushunish, ijobiy shaxsiy sifatlar va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent., «O‘zbekiston». 2017.
2. Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. -Toshkent., «O‘zbekiston», 2017.
3. Sh.Mirziyoev. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent., «O‘zbekiston». 2018.
4. Sh.Mirziyoev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. -Toshkent., «O‘zbekiston». 2019.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat engilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008 y.
6. R.Mahmudov. Xusayn Voiz Koshifiyning axloqiy falsafiy qarashlari. -Toshkent., «Mumtoz - so‘z». 2015.
7. Kaykovus. Qobusnoma.-Toshkent., «O‘qituvchi». 1986.
8.Xudayqulov X.J. Boshqaruvda raxbarning odob-axloq fazilatlari. -Toshkent., «Navro‘z» nashriyoti. 2019.
9. Xudayqulov X.J.Pedagogik.-T.: Innovatsiya-Ziyo. 2022 y.
10. Xudayqulov X.J.Pedagogik mahorat. –T,: Navruz. 20121 y.
11. Xudayqulov X.J. Insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlardagi muomla va muloqot odobi. T.: Sarvarprint.2024 y.

МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ 5-6 КЛАССОВ В УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСКО-РУССКОГО ДВУЯЗЫЧИЯ

Базарбаева Айжамал Батырбаевна
Республика Каракалпакстан,г. Нукус, Докторант 1 курса, Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

Современный этап развития образования в Республике Каракалпакстан требует поиска новых эффективных путей обучения русскому языку как средству межнационального общения. Особое место в этом процессе занимает формирование грамматических навыков 5-6 классах. Этот период является переходным: учащиеся уже владеют базовым лексическим запасом, но сталкиваются с серьезными трудностями при оформлении своих мыслей в соответствии с нормами русской грамматики.

Актуальность темы исследования обусловлена необходимостью разработки методики, которая учитывала бы типологические различия между русскими и каракалпакским языками, препятствующие свободному переходу к спонтанной речи. Процесс усвоения русской грамматики учащимися каракалпаками протекает в условиях активного влияния родного языка. В лингводидактике это явления определяется как интерференция то есть наложение норм одного языка на другой. [4].

Основные трудности вызваны отсутствием в каракалпакском языке категории рода, одушевленности/неодушевленности в русском понимании, а также принципиальными различиями в системе падежного управления.[3] В 5-6 классах, когда когнитивные способности детей позволяют анализировать языковые явления, важно переходить от механического заучивания к осознанному сопоставлению языковых систем. [1]

На основе наблюдений за учебным процессом в школах Республики Каракалпакстан можно выделить следующие устойчивые группы ошибок:

1. нарушение согласования в роде: отсутствие категории рода в каракалпакском языке ведет к ошибкам типа «моя папа», «интересный книга», « синее небо».

2. Ошибки в падежном управлении: неправильный выбор предлога или окончания (например, «идти в школа», «играть с мяч»).

3. Синтактическая интерференция: перенос порядка слов из родного языка (глагол в конце предложения).[2]

Для преодоления указанных трудностей предлагается четырехэтапная модель формирования навыка:

Этап I.Рецептивный (ознакомление).

Цель – научить учащихся узнавать грамматическую форму в тексте.

Пример упражнения: «Выпишите из текста все существительные женского рода вместе с относящимися к ним прилагательными».

Этап II. Репродуктивный (имитация и подстановка).

Цель – автоматизация формы в изолированных фразах.

Пример упражнения:

Мой (портфель, ручка, окно).

Твой (брат, сестра, пальто).

Этап III. Трансформационный.

Цель – развитие гибкости навыка.

Пример упражнения: «Преобразуйте предложения из единственного число во множественное, обращая внимание на изменение окончаний глаголов и прилагательных».

Этап IV. Продуктивный (коммуникативный).

Цель – включение грамматического навыка в живую речь.

Пример задания: «Опишите свой класс, используя прилагательные, характеризующие цвет, размер и форму предметов. Следите за правильным окончанием слов».

Подводя итог, следует отметить, что эффективность формирования грамматических навыков у учащихся 5-6 классов каракалпакской школы напрямую зависит от системности использования сопоставительного анализа. Использование предложенной методики позволяет не только снизить количество грамматических ошибок, но и повысить интерес учащихся к изучению русского языка через игровые и ситуативные формы работы. Предложенная четырехэтапная модель позволяет осуществить постепенный переход от осознания языкового правила к его автоматизированному использованию в продуктивной речи.

Использованная литература:

1. Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. – Ташкент: Укитувчи, 1983. - 240 с.

2. Бакеева Н.З. Методика преподавания русского языка в национальной школе. – М.: Просвещение, 2010. – 186 с.

3. Бердимуратов Е. Сопоставительная грамматика русского и каракалпакского языков. – Нукус: Каракалпакстан, 1991.

4. Зимняя И.А. Психология обучения неродному языку.- М.: Русский язык, 1989.- 219 с.

5. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. – М.: Русский язяк, 1989. – 277 с.

6. Национальный учебный план Республики Узбекистан. (Электронный ресурс). URL: https://uzedu.uz .

QULAY TA’LIMIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Turg‘unova Shohista Muhammadjonovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Qulay ta’limiy muhit deganda o‘quvchining intellektual faolligi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy ishtiroki muvozanatda qo‘llab-quvvatlanadigan, o‘qituvchi talabchanligi esa shaxsga nisbatan ehtirom bilan uyg‘unlashadigan tizim tushuniladi. Bunday muhitning asosiy sharti muloqotning madaniy me’yorlarga, kasbiy etikaga, til va nutq madaniyatiga, shuningdek, psixologik sezgirlikka tayangan holda olib borilishidir. Pedagogik muloqot madaniyati ta’lim jarayonining ko‘rinmas, biroq hal qiluvchi infratuzilmasi bo‘lib, u nafaqat axborot uzatish, balki ma’no birgalikda quriladigan, o‘quvchi shaxsi hurmat qilinadigan va o‘zini xavfsiz his qiladigan muhitni yaratadi. Muloqotning sifati yomonlashgan joyda didaktik vositalar kuchsizlanadi: topshiriq mazmunan to‘g‘ri bo‘lsa ham, u qabul qilinmaydi; baholash adolatli bo‘lsa ham, o‘quvchi uni dushmanona qabul qiladi; talab aniq bo‘lsa ham, o‘quvchi o‘zini kamsitilgandek his etadi. Shuning uchun pedagogik muloqot madaniyati ta’limning psixologik xavfsizligi, motivatsion barqarorligi va natijadorligi bilan uzviy bog‘liq kompetensiya sifatida ko‘rilishi lozim.

Nazariy jihatdan pedagogik muloqot madaniyati ikki qatlamda namoyon bo‘ladi: birinchi qatlam nutqiy va tilshunoslik jihatlari bilan, ikkinchisi esa shaxslararo munosabatlarning axloqiy-psixologik mexanizmlari bilan belgilanadi. Nutqiy qatlamda o‘qituvchining aniq, mantiqiy, usluban mos, mavqega moslashuvchan va tinglovchi yoshiga muvofiq so‘zlash malakasi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shaxslararo qatlam esa hurmat, adolat, talabchanlik va mehribonlikning muvozanati, empatiya, nizolarda konstruktiv pozitsiya va reflektiv kuzatuv bilan tavsiflanadi. Bu ikki qatlam ajralmasdir: muloyim ohang mantiqsiz fikrni oqlamaydi, mantiqiy nutq esa tajovuzkor ohangda berilsa, tarbiyaviy mazmunini yo‘qotadi. Pedagogik muloqotning ayni shu birligi o‘quvchilarda “men qadrlanaman” degan hissiy asosni yaratib, kognitiv faoliyatni faollashtiradi. Shuningdek, muloqotning madaniy darajasi o‘qituvchi nufuzini rasmiy mavqedan ko‘ra ko‘proq kasbiy va shaxsiy ishonch manbaiga aylantiradi, bu esa sinfni boshqarishda majburlashdan ko‘ra ko‘proq hamkorlik mexanizmlarini ishga tushiradi [2].

Pedagogik muloqot madaniyatining qulay muhitga ta’siri, avvalo, psixologik xavfsizlikni ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. Psixologik xavfsizlik o‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasdan fikr bildira olishi, savol berishi, o‘z qarashini himoya qilishi va fikriga nisbatan kamsitish bo‘lmasligiga ishonishi demakdir. Bunday sharoitda o‘quvchi faol tinglaydi, muammoni yechishga intiladi, muloqotda tashabbus ko‘rsatadi. O‘qituvchi esa xatoni jazolashning asosiy obyekti emas, o‘rganishning tabiiy bosqichi sifatida talqin qilib, konstruktiv fikr-mulohaza beradi. Konstruktiv

fikr-mulohaza muloqot madaniyatining markaziy instrumentidir: u natijani emas, harakatni tahlil qiladi; shaxsni emas, vazifani muhokama qiladi; noaniq bahodan ko‘ra aniq mezonlarga tayanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashini adekvatlashtirib, ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Xalqaro tadqiqotlarda ham o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi muloqoti o‘quvchining o‘quvga daxldorlik hissini oshirishi hamda sinfdagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashi ko‘rsatiladi [6].

Qulay ta’limiy muhitning ikkinchi muhim ko‘rsatkichi sinf iqlimining barqarorligidir. Iqlim deganda sinfdagi munosabatlar, adolat hissi, hamkorlik me’yorlari va kommunikativ odatlar yig‘indisi tushuniladi. O‘qituvchining muloqot madaniyati bu iqlimni modellaydi, chunki o‘quvchilar o‘qituvchining nutqiy uslubi va baholash mezonlarini tezda o‘zlashtirib, o‘zaro munosabatlarda takrorlaydi. Agar o‘qituvchi kinoya, kesatiq, yorliq yopishtirish, taqqoslab kamsitish kabi usullardan foydalansa, sinfda raqobatning destruktiv turi, yashirin tajovuz va o‘zaro ishonchsizlik kuchayadi. Aksincha, o‘qituvchi hurmatga asoslangan muloqotni tanlasa, o‘quvchilar ham bahsda dalilga tayanish, navbat bilan gapirish, qarama-qarshi fikrni eshitish va kelishuv izlashni odat qiladi. Pedagogik adabiyotlarda muloqotning tarbiyaviy kuchi aynan shu ko‘chirish mexanizmi orqali izohlanadi: o‘qituvchi muloqotda namuna bo‘lib, ijtimoiy xulqning madaniy me’yorlarini amalda ko‘rsatadi [3].

Pedagogik muloqot madaniyati kasbiy kompetensiya sifatida o‘lchab bo‘ladigan ko‘rsatkichlarga ham ega. Ularni shartli ravishda to‘rt blokka jamlash mumkin: nutqning aniqligi va mantiqiyligi; faol tinglash va savol berish texnikalari; hissiy-o‘zini boshqarish va empatiya; baholash va nizolarni boshqarish madaniyati. Birinchi blokda o‘qituvchi ko‘rsatmani qanday beradi, murakkab tushunchani qanday soddalashtiradi, misol va analogiyalarni qanday tanlaydi, og‘zaki nutqda ortiqcha baholovchi birliklarni kamaytira oladimi, shu kabi mezonlar ahamiyatli. Ikkinchi blokda o‘qituvchining o‘quvchini bo‘lmasdan eshitishi, qayta so‘rash orqali tushunishni tekshirishi, ochiq savollar bilan tafakkurni rag‘batlantirishi muhim. Uchinchi blok o‘qituvchining affektiv reaksiyalarini boshqarishi, adolatsizlik tuyg‘usini keltirib chiqaradigan impulsiv baholardan tiyilishi, o‘quvchi holatini sezishi bilan bog‘liq. To‘rtinchi blok esa baholashning shaffofligi, mezonlarning oldindan ma’lum qilinishi, nizoni shaxsiylashtirmasdan, vazifa doirasida hal etish qobiliyati bilan belgilanadi. Mazkur bloklar birgalikda ishlaganda, o‘quvchi uchun tushunarli va barqaror muloqot maydoni paydo bo‘ladi; aynan shu barqarorlik qulay muhitning psixologik asosi hisoblanadi [1].

Amaliy jihatdan pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun reflektiv amaliyot asosiy vosita bo‘la oladi. Refleksiya o‘qituvchining muloqotdagi odatlarini “tabiiy” deb qabul qilmay, ularni vaziyat, o‘quvchi xususiyati va ta’lim maqsadi bilan bog‘lab tahlil qilishidir. Masalan, o‘qituvchi o‘z nutqidagi tez-tez takrorlanadigan buyruq ohangini sezib, uni izohli va hamkorlikka chaqiruvchi formulalar bilan almashtirishi mumkin; yoki savol-javobda faqat kuchli o‘quvchilarga murojaat qilish odatini aniqlab, ishtirokni tenglashtiruvchi strategiyalarni qo‘llaydi. Shu o‘rinda mikrokompetensiyalarni shakllantirish usuli samarali: qisqa muloqot vaziyatlarini modellashtirish, tinglash texnikalarini mashq

qilish, baholash iboralarini konstruktiv variantlarda qayta yozish, murakkab suhbatlar uchun oldindan ssenariy tuzish kabilar natija beradi. Pedagogika va psixologiya tadqiqotlarida kommunikativ ko‘nikmalarni aynan vaziyatli mashqlar hamda teskari aloqaga tayangan holda rivojlantirish yuqori samaradorlik ko‘rsatishi ta’kidlanadi [4]. Shu bilan birga, muloqot madaniyati faqat individual mahorat emas, balki muassasa darajasidagi me’yoriy maydon hamdir: metodik birlashmalar, kuzatuv va hamkasbiy tahlil, ichki etik kodeks, baholash me’yorlarining yagona talqini o‘qituvchiga qo‘llab-quvvatlovchi professional muhit yaratadi.

Tadqiqotning konseptual natijasi sifatida pedagogik muloqot madaniyatining integrativ modeli taklif etiladi: etika, empatiya va refleksiya uchligi. Etika o‘qituvchining adolat, hurmat, mas’uliyat kabi me’yorlarga sodiqligini belgilaydi; empatiya o‘quvchi holatini anglash va unga mos kommunikativ yechim tanlashni ta’minlaydi; refleksiya esa o‘z muloqotining oqibatlarini baholab, uni doimiy takomillashtirish mexanizmini ishga tushiradi. Ushbu uchlikdan biri sustlashsa, qulay muhit ham izdan chiqadi: etika bo‘lmasa, empatiya manipulyativ tus olishi mumkin; empatiya bo‘lmasa, etika quruq formalizmga aylanadi; refleksiya bo‘lmasa, tajriba takrorlanadi, xatolar mustahkamlanadi. Modelning amaliy qiymati shundaki, u pedagogik muloqotni baholash va rivojlantirishni fragmentar ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki yagona kasbiy tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Natijada qulay ta’limiy muhitni yaratish “yumshoqlik” yoki “qat’iylik” dilemmasi doirasidan chiqib, madaniy me’yorlar, psixologik xavfsizlik va didaktik maqsadlar muvozanatida boshqariladigan ilmiy asosli jarayon sifatida talqin qilinadi [5].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogik muloqot madaniyati qulay ta’limiy muhitning bosh omili bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘qishga daxldorlik hissi, psixologik xavfsizligi, sinf iqlimining barqarorligi va o‘qitish samaradorligini bir vaqtda belgilaydi. Tezis doirasida muloqot madaniyati nutqiy aniqlik, faol tinglash, hissiy-o‘zini boshqarish, konstruktiv baholash hamda nizolarni boshqarish bilan ifodalanuvchi kompleks kompetensiya sifatida asoslandi. Taklif etilgan etika, empatiya va refleksiya uchligiga tayangan integrativ model muloqot sifatini tizimli baholash hamda uni maqsadli rivojlantirish imkonini beradi. Amaliy istiqbolda muloqot madaniyatini shakllantirish reflektiv amaliyot, vaziyatli treninglar va muassasa darajasidagi yagona kommunikativ me’yorlar orqali qo‘llab-quvvatlanganda, ta’limiy muhitning qulayligi barqaror pedagogik natijaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva M. Pedagogik mahorat: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2019. 240 b.
2. Kan-Kalik V. A. Uchebnoe obshchenie i pedagogicheskoe masterstvo. Moskva: Prosveshchenie, 1987. 192 s.
3. Leontev A. A. Pedagogicheskoe obshchenie. Moskva: Znanie, 1979. 64 s.
4. Mitina L. M. Psikhologiya professionalnogo razvitiya uchitelya. Moskva: Akademiya, 2004. 320 s.
5. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009. 392 p.

6. Rogers C. R. Freedom to Learn. Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969. 358 p.

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINING AHAMIYATI

Turg‘unova Shohista Muhammadjonovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Pedagogik muloqot madaniyati ta’lim jarayonining ko‘rinmas, biroq hal qiluvchi infratuzilmasi bo‘lib, u nafaqat axborot uzatish, balki ma’no birgalikda quriladigan, o‘quvchi shaxsi hurmat qilinadigan va o‘zini xavfsiz his qiladigan muhitni yaratadi. Qulay ta’limiy muhit deganda o‘quvchining intellektual faolligi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy ishtiroki muvozanatda qo‘llab-quvvatlanadigan, o‘qituvchi talabchanligi esa shaxsga nisbatan ehtirom bilan uyg‘unlashadigan tizim tushuniladi. Bunday muhitning asosiy sharti muloqotning madaniy me’yorlarga, kasbiy etikaga, til va nutq madaniyatiga, shuningdek, psixologik sezgirlikka tayangan holda olib borilishidir. Muloqotning sifati yomonlashgan joyda didaktik vositalar kuchsizlanadi: topshiriq mazmunan to‘g‘ri bo‘lsa ham, u qabul qilinmaydi; baholash adolatli bo‘lsa ham, o‘quvchi uni dushmanona qabul qiladi; talab aniq bo‘lsa ham, o‘quvchi o‘zini kamsitilgandek his etadi. Shuning uchun pedagogik muloqot madaniyati ta’limning psixologik xavfsizligi, motivatsion barqarorligi va natijadorligi bilan uzviy bog‘liq kompetensiya sifatida ko‘rilishi lozim.

Nazariy jihatdan pedagogik muloqot madaniyati ikki qatlamda namoyon bo‘ladi: birinchi qatlam nutqiy va tilshunoslik jihatlari bilan, ikkinchisi esa shaxslararo munosabatlarning axloqiy-psixologik mexanizmlari bilan belgilanadi. Nutqiy qatlamda o‘qituvchining aniq, mantiqiy, usluban mos, mavqega moslashuvchan va tinglovchi yoshiga muvofiq so‘zlash malakasi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shaxslararo qatlam esa hurmat, adolat, talabchanlik va mehribonlikning muvozanati, empatiya, nizolarda konstruktiv pozitsiya va reflektiv kuzatuv bilan tavsiflanadi. Bu ikki qatlam ajralmasdir: muloyim ohang mantiqsiz fikrni oqlamaydi, mantiqiy nutq esa tajovuzkor ohangda berilsa, tarbiyaviy mazmunini yo‘qotadi. Pedagogik muloqotning ayni shu birligi o‘quvchilarda “men qadrlanaman” degan hissiy asosni yaratib, kognitiv faoliyatni faollashtiradi. Shuningdek, muloqotning madaniy darajasi o‘qituvchi nufuzini rasmiy mavqedan ko‘ra ko‘proq kasbiy va shaxsiy ishonch manbaiga aylantiradi, bu esa sinfni boshqarishda majburlashdan ko‘ra ko‘proq hamkorlik mexanizmlarini ishga tushiradi [2].

Pedagogik muloqot madaniyatining qulay muhitga ta’siri, avvalo, psixologik xavfsizlikni ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. Psixologik xavfsizlik o‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasdan fikr bildira olishi, savol berishi, o‘z qarashini himoya qilishi va fikriga nisbatan kamsitish bo‘lmasligiga ishonishi demakdir. Bunday sharoitda o‘quvchi faol tinglaydi, muammoni yechishga intiladi, muloqotda tashabbus ko‘rsatadi. O‘qituvchi esa xatoni jazolashning asosiy obyekti emas, o‘rganishning tabiiy bosqichi sifatida talqin qilib, konstruktiv fikr-mulohaza beradi. Konstruktiv

fikr-mulohaza muloqot madaniyatining markaziy instrumentidir: u natijani emas, harakatni tahlil qiladi; shaxsni emas, vazifani muhokama qiladi; noaniq bahodan ko‘ra aniq mezonlarga tayanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashini adekvatlashtirib, ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Xalqaro tadqiqotlarda ham o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi muloqoti o‘quvchining o‘quvga daxldorlik hissini oshirishi hamda sinfdagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashi ko‘rsatiladi [6].

Qulay ta’limiy muhitning ikkinchi muhim ko‘rsatkichi sinf iqlimining barqarorligidir. Iqlim deganda sinfdagi munosabatlar, adolat hissi, hamkorlik me’yorlari va kommunikativ odatlar yig‘indisi tushuniladi. O‘qituvchining muloqot madaniyati bu iqlimni modellaydi, chunki o‘quvchilar o‘qituvchining nutqiy uslubi va baholash mezonlarini tezda o‘zlashtirib, o‘zaro munosabatlarda takrorlaydi. Agar o‘qituvchi kinoya, kesatiq, yorliq yopishtirish, taqqoslab kamsitish kabi usullardan foydalansa, sinfda raqobatning destruktiv turi, yashirin tajovuz va o‘zaro ishonchsizlik kuchayadi. Aksincha, o‘qituvchi hurmatga asoslangan muloqotni tanlasa, o‘quvchilar ham bahsda dalilga tayanish, navbat bilan gapirish, qarama-qarshi fikrni eshitish va kelishuv izlashni odat qiladi. Pedagogik adabiyotlarda muloqotning tarbiyaviy kuchi aynan shu ko‘chirish mexanizmi orqali izohlanadi: o‘qituvchi muloqotda namuna bo‘lib, ijtimoiy xulqning madaniy me’yorlarini amalda ko‘rsatadi [3].

Pedagogik muloqot madaniyati kasbiy kompetensiya sifatida o‘lchab bo‘ladigan ko‘rsatkichlarga ham ega. Ularni shartli ravishda to‘rt blokka jamlash mumkin: nutqning aniqligi va mantiqiyligi; faol tinglash va savol berish texnikalari; hissiy-o‘zini boshqarish va empatiya; baholash va nizolarni boshqarish madaniyati. Birinchi blokda o‘qituvchi ko‘rsatmani qanday beradi, murakkab tushunchani qanday soddalashtiradi, misol va analogiyalarni qanday tanlaydi, og‘zaki nutqda ortiqcha baholovchi birliklarni kamaytira oladimi, shu kabi mezonlar ahamiyatli. Ikkinchi blokda o‘qituvchining o‘quvchini bo‘lmasdan eshitishi, qayta so‘rash orqali tushunishni tekshirishi, ochiq savollar bilan tafakkurni rag‘batlantirishi muhim. Uchinchi blok o‘qituvchining affektiv reaksiyalarini boshqarishi, adolatsizlik tuyg‘usini keltirib chiqaradigan impulsiv baholardan tiyilishi, o‘quvchi holatini sezishi bilan bog‘liq. To‘rtinchi blok esa baholashning shaffofligi, mezonlarning oldindan ma’lum qilinishi, nizoni shaxsiylashtirmasdan, vazifa doirasida hal etish qobiliyati bilan belgilanadi. Mazkur bloklar birgalikda ishlaganda, o‘quvchi uchun tushunarli va barqaror muloqot maydoni paydo bo‘ladi; aynan shu barqarorlik qulay muhitning psixologik asosi hisoblanadi [1].

Amaliy jihatdan pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun reflektiv amaliyot asosiy vosita bo‘la oladi. Refleksiya o‘qituvchining muloqotdagi odatlarini “tabiiy” deb qabul qilmay, ularni vaziyat, o‘quvchi xususiyati va ta’lim maqsadi bilan bog‘lab tahlil qilishidir. Masalan, o‘qituvchi o‘z nutqidagi tez-tez takrorlanadigan buyruq ohangini sezib, uni izohli va hamkorlikka chaqiruvchi formulalar bilan almashtirishi mumkin; yoki savol-javobda faqat kuchli o‘quvchilarga murojaat qilish odatini aniqlab, ishtirokni tenglashtiruvchi strategiyalarni qo‘llaydi. Shu o‘rinda mikrokompetensiyalarni shakllantirish usuli samarali: qisqa muloqot vaziyatlarini modellashtirish, tinglash texnikalarini mashq

qilish, baholash iboralarini konstruktiv variantlarda qayta yozish, murakkab suhbatlar uchun oldindan ssenariy tuzish kabilar natija beradi. Pedagogika va psixologiya tadqiqotlarida kommunikativ ko‘nikmalarni aynan vaziyatli mashqlar hamda teskari aloqaga tayangan holda rivojlantirish yuqori samaradorlik ko‘rsatishi ta’kidlanadi [4]. Shu bilan birga, muloqot madaniyati faqat individual mahorat emas, balki muassasa darajasidagi me’yoriy maydon hamdir: metodik birlashmalar, kuzatuv va hamkasbiy tahlil, ichki etik kodeks, baholash me’yorlarining yagona talqini o‘qituvchiga qo‘llab-quvvatlovchi professional muhit yaratadi.

Tadqiqotning konseptual natijasi sifatida pedagogik muloqot madaniyatining integrativ modeli taklif etiladi: etika, empatiya va refleksiya uchligi. Etika o‘qituvchining adolat, hurmat, mas’uliyat kabi me’yorlarga sodiqligini belgilaydi; empatiya o‘quvchi holatini anglash va unga mos kommunikativ yechim tanlashni ta’minlaydi; refleksiya esa o‘z muloqotining oqibatlarini baholab, uni doimiy takomillashtirish mexanizmini ishga tushiradi. Ushbu uchlikdan biri sustlashsa, qulay muhit ham izdan chiqadi: etika bo‘lmasa, empatiya manipulyativ tus olishi mumkin; empatiya bo‘lmasa, etika quruq formalizmga aylanadi; refleksiya bo‘lmasa, tajriba takrorlanadi, xatolar mustahkamlanadi. Modelning amaliy qiymati shundaki, u pedagogik muloqotni baholash va rivojlantirishni fragmentar ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki yagona kasbiy tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Natijada qulay ta’limiy muhitni yaratish “yumshoqlik” yoki “qat’iylik” dilemmasi doirasidan chiqib, madaniy me’yorlar, psixologik xavfsizlik va didaktik maqsadlar muvozanatida boshqariladigan ilmiy asosli jarayon sifatida talqin qilinadi [5].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogik muloqot madaniyati qulay ta’limiy muhitning bosh omili bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘qishga daxldorlik hissi, psixologik xavfsizligi, sinf iqlimining barqarorligi va o‘qitish samaradorligini bir vaqtda belgilaydi. Tezis doirasida muloqot madaniyati nutqiy aniqlik, faol tinglash, hissiy-o‘zini boshqarish, konstruktiv baholash hamda nizolarni boshqarish bilan ifodalanuvchi kompleks kompetensiya sifatida asoslandi. Taklif etilgan etika, empatiya va refleksiya uchligiga tayangan integrativ model muloqot sifatini tizimli baholash hamda uni maqsadli rivojlantirish imkonini beradi. Amaliy istiqbolda muloqot madaniyatini shakllantirish reflektiv amaliyot, vaziyatli treninglar va muassasa darajasidagi yagona kommunikativ me’yorlar orqali qo‘llab-quvvatlanganda, ta’limiy muhitning qulayligi barqaror pedagogik natijaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abdullaeva M. Pedagogik mahorat: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2019. 240 b.
2. Kan-Kalik V. A. Uchebnoe obshchenie i pedagogicheskoe masterstvo. Moskva: Prosveshchenie, 1987. 192 s.
3. Leontev A. A. Pedagogicheskoe obshchenie. Moskva: Znanie, 1979. 64 s.
4. Mitina L. M. Psikhologiya professionalnogo razvitiya uchitelya. Moskva: Akademiya, 2004. 320 s.
5. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009. 392 p.

6. Rogers C. R. Freedom to Learn. Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969. 358 p.

PRAGMATIK YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI VA TA‘LIM JARAYONIDAGI ROLI

Abdullayev Umidjon Shukurullo o‘g‘li
O‘zbekiston, Farg‘ona, Farg‘ona davlat jamoat salomatligi tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Ta‘lim falsafasi tarixida inson bilishining mohiyati va maqsadi haqida turli maktablar turlicha qarashlarni ilgari surgan. Ularning orasida pragmatizm o‘zining o‘ziga xos va o‘ziga jalb qiluvchi jihati bilan ajralib turadi: u bilimni hayotiy tajribadan ajratib bo‘lingan abstract tushuncha emas, balki amaliy muammolarni hal qilish jarayonida shakllanadigan va sinovdan o‘tadiladigan vosita sifatida talqin qiladi. Aynan shu nuqtai nazar pragmatik yondashuvni zamonaviy ta‘lim nazariyasi uchun dolzarb va istiqbolli qiladi.

XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida Amerika falsafiy maktabida paydo bo‘lgan pragmatizm bugun ta‘lim sohasida keng qo‘llanilayotgan bir qator yondashuvlarning — muammo asosida o‘rganish (PBL), loyiha metodi, konstruktivizm, tajriba asosida o‘rganish — nazariy poydevori sifatida qaraladi. Shu boisdan pragmatik yondashuvning ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish va uni zamonaviy ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish yo‘llarini aniqlash bugungi kun pedagogikasining muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekistonda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim, kompetensiyaviy yondashuv va hayotiy ko‘nikmalar tushunchalari markazga chiqqan. Bularning barchasi, aslida, pragmatizmning asosiy g‘oyadek — bilim amalda isbotlangan holda qadrga ega — tamoyiliga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolaning maqsadi pragmatik yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish va uning ta‘lim jarayonidagi amaliy rolini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Pragmatik yondashuvga ko‘ra, bilim u hosil bo‘lgan kontekstdan ajratilganda o‘z ma‘nosini yo‘qotadi. Shu boisdan ta‘limda o‘rganilayotgan bilim real hayotiy kontekst bilan bog‘lanishi lozim. O‘qituvchi har bir yangi mavzuni “Bu bilim hayotda qanday qo‘llaniladi?” savoli atrofida qurishga harakat qiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi [5].

XXI asrning ta‘limga bo‘lgan talablari va pragmatizmning asosiy g‘oyadeklari o‘rtasida chuqur uyg‘unlik mavjud. Zamonaviy ish beruvchilar bitiruvchilardan nafaqat bilim, balki muammolarni hal qila olish, jamoada ishlash, moslashuvchanlik va doimiy o‘rganish qobiliyatlarini talab qiladi — bularning barchasi pragmatik ta‘limning mevasi.

OECD tashkilotining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 2030 yilga kelib ish bozorida eng qimmatbaho hisoblangan ko‘nikmalar: muammoni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik — aynan pragmatik yondashuvda

shakllanadiganlardir [10]. Shu nuqtai nazardan ta‘lim tizimlarining pragmatik tamoyillar asosida islohotlanishi global tendensiyaga aylanmoqda.

O‘zbekistonda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri (2020) va Prezidentning ta‘limga oid farmonlarida “htayyor bilim berish”dan “fikrlash va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish”ga o‘tish to‘g‘risida aniq yo‘llanmalar belgilangan. Bu islohotlar mohiyatan pragmatik yondashuvga tayanishni bildiradi. Jumladan, umumta‘lim maktablarida loyiha usulini joriy etish, oliy ta‘limda kredit-modul tizimiga o‘tish va kasbiy ta‘limda dualistik model qo‘llanishi shu yo‘nalishdagi muhim qadamlardir.

Biroq pragmatik yondashuvni tatbiq etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud: birinchidan, o‘qituvchilarning an‘anaviy “tushuntirish va yodlash” modelidan voz kechishi uchun katta psixologik va metodologik tayorgarlik talab etiladi; ikkinchidan, loyiha va muammo asosida o‘rganish an‘anaviy darsga nisbatan ko‘proq vaqt va resurs talab qiladi; uchinchidan, o‘lchanishi qiyin bo‘lan “kashfiyot quvonchi”, “muammo yechish zavqi” kabi natijalarga standartlashtirilgan testlar bilan baho qo‘yish muammoli. Shu sababli baholash tizimini ham pragmatik tamoyillar asosida qayta ko‘rib chiqish zarur.

Pragmatik yondashuv — XIX asrda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini to‘la saqlab qolgan ta‘lim falsafasi yo‘nalishi. Pirs, Jeyms va Dyuidan boshlanib, Kolb, Rorti va zamonaviy konstruktivistlar tomonidan rivojlantirilgan bu yo‘nalish ta‘limni hayotdan ajralgan bilim uzatish jarayonidan haqiqiy inson rivojining vositasiga aylantirish g‘oyasiga asoslanadi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan besh asosiy tamoyil — tajriba markaziylik, muammoni hal etish, demokratik ta‘lim, natijaga yo‘naltirilganlik va refleksiya — yaxlit tizimni tashkil etib, zamonaviy ta‘lim metodologiyalarining — PBL, loyiha usuli, tajribaga asoslangan o‘rganish va kontekstli ta‘limning — nazariy asosini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, pragmatik yondashuv ta‘lim jarayonida chuqur inqilob qila olmaydi — u ta‘limni insoniylashtiradi: o‘quvchini bilim ob‘ektidan bilim qurishning faol subyektiga aylantiradi va o‘rganishni hayotning o‘ziga bog‘laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Peirce C.S. How to Make Our Ideas Clear. Popular Science Monthly. 1878; 12: 286–302.
2. James W. Pragmatism: A New Name for Some Old Ways of Thinking. Longmans, Green and Co., 1907. 309 p.
3. Dewey J. Experience and Education. Macmillan, 1938. 116 p.
4. Rorty R. Philosophy and the Mirror of Nature. Princeton University Press, 1979. 401 p.
5. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall, 1984. 256 p.
6. Barrows H.S. A taxonomy of problem-based learning methods. Medical Education. 1986; 20(6): 481–486.
7. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. McGraw-Hill, 2011. 360 p.

8. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. Autodesk Foundation, 2000. 47 p.
9. Moon J.A. Reflection in Learning and Professional Development. Routledge, 2013. 248 p.

ПРОБЛЕМА МЕЖЪЯЗЫКОВОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ГРАММАТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ 5-6 КЛАССОВ В ШКОЛАХ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

Базарбаева Айжамал Батырбаевна
Республика Каракалпакстан,г. Нукус, докторант 1 курса КГУ им. Бердаха.

В условиях многоязычия Республики Каракалпакстан учащиеся общеобразовательных школ часто функционируют в билингвальной или полилингвальной среде. В образовательном процессе это проявляется в одновременном использовании каракалпакского, узбекского и русского языков. Такая языковая ситуация оказывает значительное влияние на формирование грамматических навыков учащихся, особенно на начальных этапах обучения русскому языку в 5-6 классах.

Одной из наиболее актуальных проблем является межъязыковая интерференция, которая возникает в результате взаимодействия родного и изучаемого языков. Интерференция может проявляться на разных уровнях языка, однако наибольшие трудности для учащихся вызывает именно грамматический строй. Ошибки в употреблении падежных форм, согласовании слов и построении предложений часто обусловлены переносом норм родного языка на русский язык.

Термин «интерференция» широко используется в лингвистике и методике преподавания иностранных языков. У. Вайнрах определяет интерференцию как «отклонения от норм одного из языков, возникающие в речи билингва в результате влияния другого языка». [Вайнрах У.:156]

По мнению Л.В. Щербы, процесс изучения неродного языка неизбежно сопровождается влиянием родного языка, что может приводить как к облегчению усвоения, так и к возникновению систематических ошибок. [Щерба Л.:34]

В методике преподавания русского языка как неродного межъязыковая интерференция рассматривается как перенос структур родного языка на изучаемый язык. В условиях Каракалпакстана учащиеся часто переносят грамматические особенности каракалпакского или узбекского языка на русский язык. Это проявляется в нарушении порядка слов, неправильном употреблении падежей, а также в ошибках согласования. Например, в каракалпакском языке отсутствует категория рода, что нередко вызывает трудности при употреблении родовых форм прилагательных и глаголов прошедшего времени в русском языке.

Учащиеся 5-6 классов находятся на этапе активного формирования грамматических навыков. В этот период особенно заметно влияние родного

языка на усвоение грамматики русского языка. Наиболее распространенными являются следующие виды ошибок:

- Неправильное употребление падежных окончаний;
- Нарушение согласования существительных и прилагательных;
- Ошибки в употреблении глагольных форм;
- Перенос синтаксических моделей родного языка.

По мнению Е. И. Пассова и других исследователей методики преподавания русского языка, преодоление интерференции возможно при систематической работе над грамматическими структурами и использовании коммуникативных и интерактивных методов обучения.[Пассова Е.:58]

Таким образом, межъязыковая интерференция является одной из ключевых проблем при формировании грамматических навыков у учащихся 5-6 классов в школах Республики Каракалпакстан. Влияние родного языка на усвоение грамматики русского языка проявляется в различных типах ошибок и требует целенаправленной методической работы.

Эффективное преодоление интерференции возможно при учете особенностей билингвальной среды, систематическом сравнении языковых структур и использовании современных педагогических технологий. Это позволит повысить уровень сформированности грамматических навыков и улучшить качество обучения русскому языку в школах региона.

Использованнаялитература:

1. Бабайцева В.В. Современный русский язык. – М.: Дрофа, 2010.
2. Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев: Вища школа, 1979.
3. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам. – М.: Просвещение, 1991.
4. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991.
5. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – М.: Наука, 1974.

RAQAMLI INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘QUV SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI

(O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitish misolida)

To‘rayeva Sharipa Egamberdiyevna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ta‘lim tizimi an‘anaviy yondashuvlardan tubdan farq qiluvchi yangi metodologiyalarga muhtoj bo‘lib qolmoqda. Tarix fani o‘zining murakkab xususiyatlari — keng vaqt oralig‘i, abstrakt tushunchalar va geografik kengligi — bilan talabalardan kuchli tasavvur va tahliliy ko‘nikma talab qiladi. Shu boisdan an‘anaviy darslik va ma‘ruzalar doirasida tarixiy voqealarni to‘la his ettirish ko‘pincha qiyin kechadi.

Raqamli vositalarning paydo bo‘lishi bu muammoni hal etishda keng imkoniyatlar ochib berdi: uch o‘lchamli modellar, virtual sayohatlar, interaktiv

xronologik jadvallar va multimedia resurslar tarixni quruq sanalar va faktlar to‘plamidan jonli, his etiluvchi tajribaga aylantirishi mumkin. Bugungi avlod — raqamli muhitda o‘sgan yoshlar — an‘anaviy kitob sahifalaridan ko‘ra interaktiv formatlar orqali bilim o‘lashtiradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, shu usul bilan o‘quvchilar tarixiy materiallarni 40–60% samaraliroq o‘lashtiradilar. O‘bzbekistonning ta‘limni raqamlashtirish yo‘лидagi davlat islohotlari ham bu sohadagi metodikani yangilashni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Tadqiqot yakunida interfaol raqamli vositalar tarix ta‘limida yuqori o‘quv samaradorligini ta‘minlashini ishonchli tarzda ko‘rsatib berdi. Bu vositalar nafaqat bilim sifatini yaxshilaydi, balki tanqidiy fikrlash, mustaqil tadqiqot va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Asosiy xulosalar:

1. Raqamli vositalar tarixiy hodisalarni vizual tarzda idrok etishni ta‘minlab, tushunchalarni chuqurlashtiradi;
2. Interaktiv metodlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi;
3. Virtual ko‘rgazmalar va 3D modellar tarixiy ob‘ektlarni bevosita o‘rganish imkonini beradi;
4. Gamifikatsiya talabalar motivatsiyasini sezilarli darajada ko‘taradi;
5. Raqamli texnologiyalar har bir talabaning o‘ziga xos o‘qish sur‘atiga mos individual traektoriyani amalga oshirishga imkon beradi.

Amaliy tavsiyalar:

6. Texnik infratuzilmani mustahkamlash — har bir auditoriyada proyektor, interaktiv doska va barqaror internet aloqasini ta‘minlash;
7. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash — raqamli pedagogika bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish;
8. Milliy kontent ishlab chiqish — O‘bzbekiston tarixi mavzularida mahalliy virtual ko‘rgazmalar va 3D loyihalar yaratish;
9. Metodologik qo‘llanmalar tayyorlash — har bir o‘quv mavzusi uchun raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqish;
10. Monitoring tizimini joriy etish — raqamli vositalar samaradorligini muntazam o‘lchab, natijalarni tahlil qilib borish;
11. Ota-onalar bilan hamkorlik — oilalarni raqamli ta‘limning afzalliklari bilan tanishtirish va jarayonga faol jalb etish.

Kelajakda sun‘iy intellekt, kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalari tarix ta‘limida yanada keng qo‘llanilishi bashorat qilinmoqda. Bu esa talabalar uchun o‘tmishni yanada jonli va his etiluvchi tarzda o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 2001.
2. Vygotsky L.S. Thought and Language. MIT Press, 1986.
3. Kurbonov Sh.E. Tarix fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent, 2021.
4. Mahmudova N.M. Raqamli ta‘lim muhitini shakllantirish. Toshkent, 2022.

5. Johnson L., Adams Becker S. NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition. The New Media Consortium, 2016.
6. O‘bzbekiston Respublikasi ta‘lim sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
7. Anderson T., Dron J. Three generations of distance education pedagogy. IRRODL, 2011.
8. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age, 2005.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING AXBOROT KOMPETENTLIGI TARKIBI VA TUZILISHI

Umarov Abdulhusayn Abdulxatovich
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

XXI asrning axborot jamiyati sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini professional tayyorlash masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida tan olinmoqda. Zamonaviy ta’lim paradigmasi pedagog mutaxassislarga an’anaviy pedagogik mahorat bilan bir qatorda, yuqori darajadagi axborot kompetentligini ham zarur talablar qatoriga kiritadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi uzluksiz ta’lim tizimining fundamental poydevori bo‘lib, ushbu davr ichida o‘quvchilarda bilim olish ko‘nikmalari, tanqidiy-refleksiv fikrlash qobiliyatlari hamda raqamli savodxonlik kompetensiyalarining mustahkam asoslari vujudga keltiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligi tushunchasini quyidagicha konseptuallashtirishimiz mumkin: bu - professional-pedagogik faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan didaktik maqsadga muvofiq foydalanish, axborot resurslarini professional jihatdan qayta ishlash, raqamli ta’lim muhitini loyihalash hamda o‘quvchilarni raqamli fuqarolik (digital citizenship) ko‘nikmalariga ega qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy-professional sifatlarning integrativ majmuidir. Ushbu kompetentlik multikomponentli xarakterga ega bo‘lib, u nafaqat texnik-texnologik ko‘nikmalarni, balki pedagogik, psixologik, etik va metodologik jihatlarni ham qamrab oladi.

Axborot kompetentligi fenomeni zamonaviy pedagogika fanida nisbatan yangi, biroq fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual kategoriya hisoblanadi. Xalqaro ta’lim hamjamiyatining yetakchi olim-tadqiqotchilari mazkur tushunchaga turlicha yondashib, uning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar.

Economides o‘z fundamental tadqiqotida ta’lim da raqamli kompetentlikning tuzilmaviy modelini ishlab chiqib, quyidagi fikrni ilgari suradi: “Pedagog xodimlarning raqamli kompetentligi ta’lim -tarbiya jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini samarali integratsiyalashning zaruriy ontologik shartidir” [1]. Olim mazkur kompetentlikni altita asosiy funksional komponentga strukturaviy ajratadi:

1) ta’lim jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish;

2) ta’lim jarayonini amalga oshirish va o‘quvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

3) ta’lim natijalarini diagnostika qilish va pedagogik jarayonni refleksiv qayta ko‘rib chiqish;

4) o‘qituvchining uzluksiz professional-shaxsiy takomillanishi;

5) ta’lim muassasasini institusional rivojlantirish;

6) pedagogik innovatsiyalarni generatsiya qilish va joriy etish.

Konig va uning hammuallif tadqiqotchilari COVID-19 pandemiyasi kontekstida o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini tadqiq etib, muhim empirik dalillarni taqdim etganlar. Ularning fundamental xulosasi shundan iborat: “Raqamli kompetentlik pandemiya sharoitida pedagog xodimlar uchun nafaqat qo‘shimcha imkoniyat, balki professional faoliyatni davom ettirish uchun kritik zarurat darajasiga ko‘tarildi” [2]. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, mazkur kompetentlik bir qirrali texnologik ko‘nikmalar bilan cheklanmay, balki virtual ta’lim muhitini didaktik jihatdan tashkil etish, o‘quvchilar bilan masofaviy pedagogik muloqotni samarali amalga oshirish hamda raqamli resurslarni konkret ta’lim maqsadlariga adaptatsiya qilish kabi murakkab pedagogik faoliyat turlarini ham qamrab oladi.

Hatlevik o‘zining keng ko‘lamli empirik tadqiqotida ta’lim jarayonida axborot kompetentligining multifaktorial tabiatini ochib beradi. Olimning fundamental xulosasi quyidagicha: “Pedagog xodimlarning o‘z-o‘ziga nisbatan professional-psixologik ishonchi, ularning raqamli kompetentligining sifat darajasi, axborot manbalarini tanqidiy baholash strategiyalari hamda ta’lim muassasasida AKT dan amaliy foydalanish intensivligi o‘rtasida statistik jihatdan aniq va bevosita korrelyatsion bog‘liqlik mavjuddir” [3]. Bu g‘oya bo‘lajak o‘qituvchilarni professional tayyorlash jarayonida nafaqat texnik-instrumental tayyorgarlikni, balki psixologik tayyorgarlik, professional o‘z-o‘ziga ishonch hamda metakognitiv refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Gudmundsdottir va Hatlevik yosh o‘qituvchilarning professional raqamli kompetentligini diagnostik tahlil qilib, quyidagi empirik xulosaga kelganlar: “Oliy ta’lim muassasalarini yaqinda tamomlagan pedagog mutaxassislar qo‘shimcha didaktik-texnologik tayyorgarlikka muhtoj bo‘lib, bu ehtiyoj ayniqsa quyidagi kompetentlik sohalarida keskin namoyon bo‘ladi: raqamli kommunikatsiya va hamkorlik, axborot va ma'lumotlar bilan professional ishlash, raqamli pedagogik kontentni kreativ yaratish, kibexavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, hamda texnologik-pedagogik muammolarni yechish” [4]. Mazkur olimlar tomonidan ilgari surilgan konseptual fikr zamonaviy pedagogik ta’lim tizimining jiddiy tizimli muammosini aniqlaydi. Tadqiqotchilarning empirik xulosalari oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalari yo‘nalishidagi kurrikulum bo‘shlig‘ining mavjudligini ochib beradi. Ayniqsa e'tiborga loyiq jihat shundaki, olimlar mazkur kompetentlik defitsitini nafaqat texnik-instrumental doirada, balki pedagogik-didaktik va etik-xavfsizlik kontekstida ham aniqlagan. Ushbu diagnostik xulosalar bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Bizningcha, olimlarning ta'kidlagan beshta kompetentlik sohasi - raqamli

kommunikatsiya, axborot qayta ishlash, kontent yaratish, kibexavfsizlik va muammolarni yechish - zamonaviy o‘qituvchi uchun minimal zaruriy kompetentsiyalar to‘plamini tashkil etadi. Shu munosabat bilan, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ushbu yo‘nalishlarda maxsus metodologik kurslar va amaliy modullarni joriy etish umumiy zarurat sifatida tan olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Economides, A. A. (2023). Assessing teachers' digital competence in primary and secondary education: Applying a new instrument to integrate pedagogical and professional elements for digital education. Education and Information Technologies, 28, 856-881.
2. König, J., Jäger-Biela, D. J., & Glutsch, N. (2020). Adapting to online teaching during COVID-19 school closure: Teacher education and teacher competence effects among early career teachers in Germany. European Journal of Teacher Education, 43(4), 608-622.
3. Hatlevik, O. E. (2017). Examining the relationship between teachers' self-efficacy, their digital competence, strategies to evaluate information, and use of ICT at school. Scandinavian Journal of Educational Research, 61(5), 555-567.
4. Gudmundsdottir, G. B., & Hatlevik, O. E. (2018). Newly qualified teachers' professional digital competence: Implications for teacher education. European Journal of Teacher Education, 41(2), 214-231.

OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA KOMMUNIKATIV VAZIYATLAR ORQALI TALABALAR OG‘ZAKI NUTQ MALAKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Tillaboyeva Odina Baxodirovna
Namangan davlat universiteti tayanch-doktoranti

Ingliz tilini o‘qitishda nazariy bilim va amaliy muloqot o‘rtasidagi farq muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Talaba grammatikani mukammal bilsa ham, haqiqiy suhbatda maqsadiga erisha olmasligi mumkin, chunki jonli muloqot tezkor fikrlash, sherik nutqiga moslashish va ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri anglashni talab qiladi. Shu boisdan og‘zaki nutq kompetensiyasiga diskursiv boshqaruv, sotsiolingvistik sezgirlik, strategik kompensatsiya va o‘z nutqini nazorat qila olish kabi qo‘shimcha qobiliyatlar ham kiradi.

O‘zbekistonning oliy ta‘lim muhitida katta guruhlar, cheklangan auditoriya vaqti va imtihon yo‘naltirilgan baholash og‘zaki nutqni tizimli rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Maqola mana shu sharoitda amaliy samara beradigan tamoyillar tizimini taklif qilishga qaratilgan.

Maqsadli kommunikativ topshiriqlar. Darsda har bir nutq faoliyati "gapirish mashqi" emas, aniq muloqot niyatiga ega topshiriq bo‘lib bo‘lishi kerak: fikr almashish, birgalikda qaror qabul qilish, muloyim rad etish yoki o‘z pozitsiyasini dalillash. Bunday yondashuv talabaning e‘tiborini grammatik shakldan mazmun va maqsadga yo‘naltiradi. Baholash mezonlari esa vazifa talablaridan kelib

chiqqan holda quriladi, shuning uchun talaba nima uchun baholanayotganini aniq tushunadi.

Interaktivlik va birgalikda ma‘no yaratish. Og‘zaki nutq ko‘nikmalari individual monologdan ko‘ra muloqot jarayonida — navbat almashish, aniqlashtirish, rad etishni yumshatish kabi mikrosituatsiyalarda — shakllanadi. Vygotskiy an‘anasiga ko‘ra, talaba hamkori va vaziyat talablariga tayanib o‘z imkoniyatlarini to‘liqroq ishga soladi. O‘qituvchi juftlikda ishlash, axborot bo‘shliqli topshiriqlar va kelishuvga yo‘naltirilgan muhokamalarni muntazam rejalashtirib borishi lozim.

Kiruvchi va chiquvchi nutq muvozanati. Nutq o‘sishi ko‘p gapirishdan emas, diqqat bilan eshitish va o‘sha resurslarni yangi vaziyatda darhol qo‘lashdan boshlanadi. Swainning "output gipotezasi" shuni ko‘rsatadiki, talaba gapirish paytida o‘z til bilimidagi bo‘shliqlarni his qiladi va to‘ldiradi. Dars dizaynida namunali dialoglar, qisqa autentik audio-video materiallar va foydali iboralar banki berilishi, so‘ng ulardan zudlik bilan muloqot topshirig‘ida foydalanilishi kerak.

Pragmatik va madaniy muvofiqlik. Xato faqat grammatik emas, balki vaziyatga nomuvofiq ohang, noto‘g‘ri murojaat shakli yoki kontekstni e‘tibordan qochirish shaklida ham namoyon bo‘ladi. Talabaga bir xil mazmunni rasmiy va norasmiy uslubda ifodalashni o‘rgatish, nutq aktlarini tahlil qildirish va baholash mezoniga "muvofiqlik" ko‘rsatkichini qo‘shish zarur. Bu malaka ko‘pincha ikkinchi darajali sanaladi, holbuki muloqotda tabiiylik aynan shundan boshlanadi.

Strategik ko‘nikmalarni o‘rgatish. Leksik kamchilik, hayajon yoki fikrni tezda tuzolmaslik — og‘zaki muloqotda tabiiy to‘siqlar. Bular oldida muloqot uzilib qolmasligi uchun parafraz, misol orqali tushuntirish, vaqt yutuvchi diskurs markerlar, aniqlashtirish so‘rash va o‘z-o‘zini to‘g‘irlash kabi strategiyalar zarur. Bu strategiyalar "o‘zi paydo bo‘ladi" deb kutilmay, alohida mashqlarda mustahkamlanib, erkin topshiriqlarga bosqichma-bosqich o‘tkazilishi kerak.

Joriy baholash va refleksiya. Yakuniy imtihon orqali baholash talabaning o‘sish yo‘lini ko‘rsatmaydi, aksincha, xavotirni oshiradi. Joriy baholashda mezonlar oldindan ochiq berilishi, fikr-mulohaza aniq harakatlarga yo‘naltirilishi va talaba keyingi qadamni o‘zi tushunishi muhim. Baholash ob‘ektini "xatolar soni" emas — vazifa bajarilganligi, ravonlik, interaktivlik va pragmatik muvofiqlik tashkil qilishi lozim. Refleksiya esa audioyozuv tahlili, o‘zaro baholash va rubrikalar orqali talabaning o‘z nutqini mustaqil kuzatishini ham qamrab oladi.

Talabalarning ingliz tilida og‘zaki muloqot kompetensiyasini rivojlantirish — bu alohida mashqlarning oddiy yig‘indisi emas. Bu jarayon didaktik maqsadlar, interaktiv topshiriqlar, pragmatik muvofiqlik, strategik tayyorgarlik va formatif baholash-refleksiya tizimining izchil uyg‘unligini talab qiladi.

Taklif etilgan tamoyillar dars mazmunini haqiqiy muloqot ehtiyojlariga yaqinlashtiradi, talabani muloqotda mustaqil fikr yuritishga o‘rgatadi va o‘qituvchiga baholashni shaffof, rivojlantiruvchi jarayonga aylantirish imkonini beradi. Natijada og‘zaki nutq faolligi ortishi bilan birga, talabaning muloqotdagi moslashuvchanligi va mas‘uliyatli nutqiy tanlovi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Hymes D. H. On communicative competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. 64 p.
2. Bachman L. F., Palmer A. S. Language Assessment in Practice. Oxford: Oxford University Press, 2010. 662 p.
3. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.
4. Swain M. Communicative competence: Some roles of comprehensible input and comprehensible output. London: Newbury House, 1985. P. 235–253.
5. Passov E. I. Kommunikativnyy metod obucheniya inostrannomu goreniyu. Moskva: Prosveshchenie, 1991. 223 s.
6. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012. 320 b.

KASBIY KOMMUNIKATIV VAZIYATLAR ASOSIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALARNING OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Tillabayeva Odina Baxodirovna
Namangan davlat universiteti tayanch-doktoranti

Ingliz tilini o‘qitishda og‘zaki muloqot kompetensiyasi masalasi nazariy jihatdan “til bilimi” bilan “tilni qo‘llash” o‘rtasidagi farqni aniq qo‘yishni talab qiladi. Talaba grammatik me’yorlarni bilgan taqdirda ham real muloqotda maqsadga erisha olmasligi mumkin, chunki og‘zaki nutq vaqt bosimi, hamkorning reaktsiyasi, pragmatik moslik va ijtimoiy rollarning tez almashinuvi bilan belgilanadi. Shuning uchun og‘zaki muloqot kompetensiyasi tarkibida lingvistik resurslar bilan bir qatorda diskursiv boshqaruv, strategik kompensatsiya, sotsiolingvistik moslashuv va metakognitiv nazorat ham markaziy o‘rin egallaydi. Kommunikativ kompetensiya g‘oyasi til ta’limi natijasini real vaziyatda kommunikativ vazifani bajarish qobiliyati sifatida talqin qiladi, bu esa darsda “nutq ishlab chiqish”ni emas, “muloqot muammosini hal qilish”ni o‘qitish zaruratini keltirib chiqaradi [1]. O‘zbekiston oliy ta’limi sharoitida esa guruhlar soni, auditoriya vaqti va baholashning an’anaviy testga og‘ishishi kabi omillar og‘zaki muloqotni tizimli rivojlantirishni murakkablashtiradi. Tezisning vazifasi ana shu sharoitda samarali bo‘ladigan tamoyillar tizimini asoslashdan iborat.

Og‘zaki muloqot kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari didaktik va lingvodidaktik qatlamlarda ko‘rilishi lozim. Didaktik qatlamda maqsad, mazmun, metod va baholash uyg‘unligi yetakchi bo‘lib, lingvodidaktik qatlamda esa nutq faoliyati birliklari, vaziyatlilik, interaktivlik va pragmatik moslik ustuvorlik kasb etadi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv natijani faqat yakuniy ball bilan emas, balki kuzatiladigan harakatlar va strategiyalar orqali operatsionlashtirishni talab qiladi [2]. Shundan kelib chiqib, birinchi tamoyilni maqsadga yo‘naltirilgan kommunikativ vazifalar tamoyili sifatida belgilash mumkin: darsdagi har bir speaking faoliyati “gapirish mashqi” emas, balki aniq kommunikativ niyatga ega vazifa bo‘lishi zarur. Masalan, ma’lumot almashish, kelishuvga erishish, rad etishni

muloyim ifodalash, muammoli vaziyatda dalillash kabi niyatlar til birliklarining tanlanishini tabiiy boshqaradi va talabaning diqqatini shaklga emas, mazmunga qaratadi. Bu tamoyilning didaktik qiymati shundaki, vazifa natijasi oldindan aniq bo‘ladi va baholash mezonlari ham vazifa talabidan kelib chiqib quriladi.

Ikkinchi tamoyil interaktivlik va hamkorlikda ma’no qurish tamoyilidir. Og‘zaki muloqot individual monologdan ko‘ra ko‘proq o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi; bunda navbat almashish, aniqlashtirish so‘rash, qayta so‘zlash, kelishmovchilikni yumshatish kabi mikroko‘nikmalar asosiy rol o‘ynaydi. Vygotskiy an’anasi va keyingi interaksion qarashlar til o‘rganishda ijtimoiy hamkorlikning vositachilik funksiyasini ta’kidlaydi, ya’ni talaba hamkor nutqi va vaziyat talablari bilan “turtkilangan” holda o‘z resurslarini safarbar etadi [3]. O‘qituvchi bu tamoyilni amalga oshirishda juftlik va kichik guruh ishlari, axborot bo‘shlig‘i mavjud topshiriqlar, rol o‘yinlari hamda kelishuvga yo‘naltirilgan muhokamalarni tizimli rejalashtirishi zarur. Interaktivlik oddiy “birga ishlash” emas, balki ma’no bo‘yicha kelishish va muomala strategiyalarini sinash jarayoni bo‘lgani uchun topshiriq shartida hamkorlararo bog‘liqlik aniq ko‘rsatilishi lozim.

Uchinchi tamoyil input va outputning muvozanati hamda til resurslarini “darhol qo‘llash” tamoyilidir. Og‘zaki muloqotning o‘sishi faqat ko‘p gapirish bilan emas, balki maqsadli tinglab o‘rganish va so‘ng o‘sha resurslarni yangi vaziyatda ishlab chiqarish orqali tezlashadi. Swain tomonidan ilgari surilgan output gipotezasi talabaning gapirish jarayonida “til bo‘shliqlarini” sezishi va aniqlashtirishga majbur bo‘lishi o‘rganishni kuchaytirishini ko‘rsatadi [4]. Demak, dars dizaynida model dialoglar, autentik qisqa audio va video parchalar, funksional iboralar banki kabi manbalar berilib, darhol muloqot vazifasida sinab ko‘rilishi lozim. Bunda o‘qituvchi formaga haddan tashqari yopishib qolmasdan, muayyan pragmatik funksiya uchun kerak bo‘lgan til vositalarini “minimal, ammo yetarli” tamoyili asosida taklif qiladi; talaba esa ularni o‘z niyatiga moslab moslashtiradi.

To‘rtinchi tamoyil pragmatik va sotsiomadaniy moslik tamoyilidir. Og‘zaki muloqotda xatolik faqat grammatik buzilish sifatida emas, balki notabiiy ohang, noqulay murojaat shakli, haddan tashqari to‘g‘ridan-to‘g‘ri talab yoki mavzuni “o‘qilmagan” kontekstda davom ettirish kabi pragmatik nomuvofiqliklarda ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli speaking darslarida nutq aktlari, muloyimlik strategiyalari, register tanlovi va auditoriya omillarini muhokama qilish, qisqa ssenariylar asosida bir vaziyatni turli darajada rasmiy va norasmiy uslubda bajarish talab etiladi. Mahalliy til ta’limi amaliyotida ko‘pincha “to‘g‘ri gap tuzish”ga urg‘u berilib, “qanday aytish ma’qul” masalasi ikkilamchi bo‘lib qoladi; natijada talaba muloqotda tushunarli bo‘lsa-da, mos va tabiiy eshitilmasligi mumkin. Pragmatik moslikni rivojlantirish uchun o‘qituvchi baholash mezoniga “appropriateness” indikatorlarini kiritishi va talabalarga muayyan iboralarning kontekstga bog‘liqligini tahlil qildirish orqali ongli refleksiyani shakllantirishi zarur [1].

Beshinchi tamoyil strategik kompetensiyani rivojlantirish tamoyilidir. Og‘zaki muloqot real sharoitida leksik yetishmovchilik, eshitmay qolish, hayajon yoki fikrni tez tuzolmaslik kabi to‘siqlar tabiiy. Shunday vaziyatda muloqotning uzilib qolmasligi strategik ko‘nikmalarga bog‘liq bo‘ladi: parafraz qilish, misol keltirish, vaqt yutish uchun diskurs markerlardan foydalanish, aniqlashtirish so‘rash,

qayta tekshirish va xatoni o‘zini tuzatish. Rossiya metodistlari nutq faoliyatini o‘rgatishda operatsion harakatlar va avtomatlashtirishning bosqichma-bosqichligini ta’kidlab, strategiyalarni alohida mashq qildirish zarurligini ko‘rsatadilar [5]. O‘zbekistondagi auditoriya sharoitida ham strategiyalarni “o‘zi paydo bo‘ladi” deb qoldirmasdan, ularni qisqa mikrodrilllar va keyin erkin vazifalarga ko‘chirish orqali mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Oltinchi tamoyil formatif baholash va refleksiya tamoyilidir. Og‘zaki nutqni faqat yakuniy imtihon orqali baholash talabaning rivojlanish trayektoriyasini ko‘rsatmaydi va xavotirni kuchaytiradi. Formatf baholashda esa mezonlar oldindan ochiq beriladi, qayta aloqa aniq harakatlarga yo‘naltiriladi va talaba o‘z nutqini takomillashtirish uchun keyingi qadamni tushunadi [6]. Bunda baholashning obyekti “xatolar soni” emas, vazifa bajarilishi, tushunarlilik, ravonlik, interaktivlik, pragmatik moslik va strategik harakatlar bo‘lishi kerak. Refleksiya esa o‘qituvchi bergan izohni qabul qilish bilan cheklanmay, talabaning o‘z yozuvlari, audioyozuv tahlili, o‘zaro baholash va rubrikalar asosida o‘zini kuzatishi orqali shakllanadi. Shunday yondashuv og‘zaki muloqotni “sinov” emas, “rivojlanadigan mahorat” sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan tamoyillarni amaliyotga joriy etishda darsning mikrostrukturasini qayta ko‘rish muhim. Maqsadga yo‘naltirilgan vazifa avval qisqa tayyorlov bosqichi bilan boshlanadi, unda kontekst beriladi va zarur til resurslari faollashtiriladi; keyin interaktiv bajarish bosqichida o‘qituvchi asosan kuzatuvchi va fasilitator bo‘lib, xatolarni darhol to‘xtatib tuzatishdan ko‘ra, muloqot oqimini saqlaydi; so‘ng post-task bosqichida tipik muammolar umumlashtirilib, pragmatik va grammatik aniqlik bo‘yicha qisqa fokus beriladi, yakunda esa formatif qayta aloqa hamda refleksiya topshirig‘i bajariladi. Ushbu dizayn talabaning og‘zaki nutqini bir vaqtning o‘zida ravonlik, aniqlik va moslik yo‘nalishlarida muvozanatli rivojlantirishga imkon beradi, chunki har bir bosqich maqsadga xizmat qiladi va baholash indikatorlari bilan bog‘langan bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, talabalarning ingliz tilida og‘zaki muloqot kompetensiyasini rivojlantirish alohida mashqlar yig‘indisi emas, balki didaktik maqsadlar, interaktiv vazifalar, pragmatik moslik, strategik tayyorgarlik hamda formatif baholash-refleksiya tizimi o‘rtasidagi izchil uyg‘unlikni talab qiladigan jarayondir. Tezisda asoslangan tamoyillar dars mazmunini real muloqot ehtiyojlariga yaqinlashtiradi, talabani muloqotda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi va o‘qituvchiga baholashni shaffof hamda rivojlantiruvchi mexanizmga aylantirish imkonini beradi. Natijada og‘zaki nutq faolligi ortishi bilan birga, talabaning muloqotdagi moslashuvchanligi va mas’uliyatli nutqiy tanlovi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hymes D. H. On communicative competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. 64 p.
2. Bachman L. F., Palmer A. S. Language Assessment in Practice: Developing Language Assessments and Justifying Their Use in the Real World. Oxford: Oxford University Press, 2010. 662 p.

3. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.
4. Swain M. Communicative competence: Some roles of comprehensible input and comprehensible output in its development. London: Newbury House, 1985. P. 235–253.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK PARADIGMALAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TIBBIYOT TA'LIMIDA FARMAKOLOGIYA FANINI O'QITISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Sobirov Olimjon Odiljon o'g'li
Mustaqil izlanuvchi, University of Business and Science

Hozirgi kunda tibbiyot ta'limi global miqyosda tubdan o'zgarishlar davriga kirgan bo'lib, bu jarayon pedagogik paradigmalarning transformatsiyasi bilan bevosita bog'liq. Ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamlashtirish va globallashuv ta'lim tizimiga yangi talablar qo'ymoqda: tayyor bilimlarni yodlatib berish o'rniga, talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va kliniko-farmakologik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish ustuvor maqsadga aylanmoqda.

Farmakologiya — tibbiyot ta'limining asosiy fundament fanlari qatorida turib, nazariy bilimlar bilan klinik amaliyot o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Ushbu fanning xususiyati shundaki, u o'zida kimyo, fiziologiya, patologiya va klinik tibbiyotning kesishgan nuqtalarini birlashtiradi. Shu bois farmakologiyani o'qitish metodologiyasi an'anaviy yondashuvlardan tobora uzoqlashib, kompleks, integrativ va amaliyotga yo'naltirilgan usullarga asoslanmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Uzbekiston Respublikasida tibbiyot ta'limini modernizatsiya qilish jarayonida O'zbekiston Milliy akkreditatsiya tizimi va Oliy attestatsiya komissiyasi talablari asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati tobora oshib bormoqda. Bunda farmakologiya fanining o'qitish metodologiyasini zamonaviy pedagogik paradigmalar asosida takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonlik olimlar orasida M.Yo.Mamatov, N.A.Muslimov, R.T.Mutalova va boshqalarning pedagogik innovatsiyalar bo'yicha ishlari ta'lim amaliyotiga sezilarli hissa qo'shgan. Shu bilan birga, farmakologiya fanini o'qitishning metodologik asoslarini maxsus tadqiq etgan kompleks ilmiy ishlar hali yetarli darajada emas, bu esa ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini ta'minlaydi.

Xalqaro miqyosda WHO ning 2013-yilgi «Transforming and Scaling Up Health Professionals' Education and Training» hisoboti va WFME (World Federation for Medical Education) standartlari farmakologiya didaktikasida o'ziga xos o'zgarishlar uchun metodologik zamin yaratgan. Bu hujjatlar problem-based learning (PBL), team-based learning (TBL) va simulyatsion metodlarni farmakologiya ta'limiga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanilgan: pedagogik adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarning tizimli tahlili; xorijiy va mahalliy tajribani qiyosiy-taqqosiy

o‘rganish; ekspert baholash usuli; konstruktiv-genetik tahlil; pedagogik modellashtirish.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi: (1) tizimli yondashuv — ta’lim jarayonini yaxlit, o‘zaro bog‘liq elementlar tizimi sifatida ko‘rish; (2) kompetentlik yondashuvi — bilim, ko‘nikma va malakalarning uyg‘un uyg‘unligini ta’minlash; (3) faoliyatga asoslangan yondashuv — bilishni faoliyat orqali amalga oshirish prinsipi; (4) shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv — har bir talabaning individual rivojlanish yo‘lini hisobga olish.

Pedagogik paradigma deganda ma’lum bir davr va ijtimoiy muhitda ta’lim jarayonini yo‘naltiruvchi tamoyillar, qadriyatlar va amaliyotlar tizimi tushuniladi (T.Kuhn, 1962). An’anaviy «uzatuvchi» (transmissive) paradigmadan «konstruktiv» va «transformatsion» paradigmalarga o‘tish tibbiyot ta’limida tubdan yangi metodologik talablarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot farmakologiya o‘qitishida quyidagi innovatsion texnologiyalarning samaradorligini aniqladi:

Muammoli ta’lim (Problem-Based Learning) — kliniko-farmakologik muammolar yordamida talabalar faol bilish faoliyatiga jalb etiladi. Misol uchun, «Gipertenziv kriz» klinik vaziyati dorasida talabalar to‘g‘ri dori vositasini tanlash, dozasini hisoblash va nojo‘ya ta’sirlarni bashorat qilishni o‘rganadilar. PBL metodini qo‘llagan guruhlarda bilimlarni uzoq muddatli eslab qolish ko‘rsatkichi 34% ga yuqori bo‘lgan.

Simulyatsion ta’lim — tibbiy simulyatorlar va virtual bemorlar farmakologik bilimlarni xavfsiz muhitda sinab ko‘rish imkonini beradi. Bu metod ayniqsa klinik farmakologiya bo‘limida — dori-darmonlarning o‘zaro ta’sirini modellashtirish va doz hisoblashda samarali.

Keys-stadi (Case-Study) metodi — real tibbiy holatlar asosida tayyorlangan kliniko-farmakologik keyslar talabalarning analitik fikrlashini rivojlantiradi. O‘zbekiston sharoitida mahalliy kasalliklar (brutselloz, leishmanioz, surunkali bronxit) bo‘yicha milliy keyslar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Raqamli ta’lim texnologiyalari — LMS (Learning Management System) platformalari, virtual laboratoriyalar va farmakologik dasturlar (PharmaSim, RxDrug) farmakologiya ta’limida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Aralash ta’lim (blended learning) modeli an’anaviy va raqamli yondashuvlarni maqbul tarzda birlashtiradi.

Farmakologiyani biokimyo, fiziologiya, patofiziyologiya va klinik fanlar bilan gorizontal va vertikal integratsiya qilish bilimlarning izchilligini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuvda o‘qigan talabalarda fanlararo bilimlarni qo‘llash qobiliyati nazorat guruhiga nisbatan 41% yuqori.

O‘zbekiston tibbiyot ta’limi standartlari doirasida farmakologiya kursi quyidagi fan bloklari bilan integratsiya qilinishi tavsiya etiladi: tibbiy kimyo va biokimyo (farmakokinetik asoslar), normal va patologik fiziologiya (farmakodynamika), klinik fanlar (empirik farmakoterapiya asoslari).

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar shakllandi:

Birinchidan, zamonaviy pedagogik paradigmalar transformatsiyasi tibbiyot ta’limida farmakologiya o‘qitishining metodologik bazasini tubdan yangilashni

talab etmoqda. An’anaviy bilim uzatish modelidan faol, refleksiv va kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish muqarrar zaruratga aylangan.

Ikkinchidan, kompetentlikka asoslangan ta’lim modeli farmakologiya fanida kognitiv, protsessual va refleksiv kompetensiyalarning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Bu model O‘zbekiston Respublikasining ta’lim standartlari va xalqaro akkreditatsiya talablari bilan uyg‘unlashadi.

Uchinchidan, muammoli ta’lim, simulyatsion o‘qitish, keys-stadi va raqamli texnologiyalar kompleksini farmakologiya ta’limiga joriy etish talabalarning klinik fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Aralash ta’lim modeli ushbu texnologiyalarni integratsiya qilishning eng samarali formati sifatida aniqlangan.

To‘rtinchidan, farmakologiyaning boshqa tibbiy fanlar bilan gorizontal va vertikal integratsiyasi bilimlarning mustahkamligini va fanlararo kompetentliklarni shakllantirishni ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari University of Business and Science va boshqa tibbiyot ta’lim muassasalarida farmakologiya o‘qitish dasturlarini takomillashtirish, o‘quv-uslubiy komplekslar ishlab chiqish hamda o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimini yangilashda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. — 4th ed. — Open University Press, 2011. — 389 p.
2. Harden R.M. AMEE Guide No. 14: Outcome-Based Education // Medical Teacher. — 1999. — Vol. 21, No. 1. — P. 14–22.
3. Kruger J., Dunning D. Unskilled and Unaware of It: How Difficulties in Recognizing One's Own Incompetence Lead to Inflated Self-Assessments // Journal of Personality and Social Psychology. — 1999. — Vol. 77, No. 6. — P. 1121–1134.
4. Kuhn T.S. The Structure of Scientific Revolutions. — University of Chicago Press, 1962. — 212 p.
5. World Health Organization. Transforming and Scaling Up Health Professionals' Education and Training. — Geneva: WHO, 2013. — 116 p.
6. WFME. Basic Medical Education: WFME Global Standards for Quality Improvement. — Copenhagen: WFME, 2020. — 48 p.
7. Mamatov M.Yo. Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2019. — 215 b.
8. Muslimov N.A. Kasbiy ta’limda kompetentlik yondashuvi. — Toshkent: TDPU, 2020. — 180 b.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK PARADIGMALAR ASOSIDA TIBBIYOT TA'LIMIDA FARMAKOLOGIYA FANINI O'QITISHNING INNOVATSION METODLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Sobirov Olimjon Odiljon o'g'li
Mustaqil izlanuvchi, University of Business and Science

Jahon sog'liqni saqlash tizimining tobora murakkablashib borishi, dori vositalarining tez yangilanishi va ularning soni kundan-kunga ko'payib borishi tibbiyot mutaxassislariga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi tibbiyot xodimi nafaqat tayyor bilimlar yig'indisiga, balki yangi farmakologik ma'lumotlarni tez o'zlashtirish, tanqidiy baholash va klinik qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ushbu talablar farmakologiya o'qitishida an'anaviy yondashuvlar yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Tibbiyot ta'limida pedagogik paradigmalar transformatsiyasi — bilim uzatishdan (transmissive) faol bilim qurishga (constructive) va transformatsion ta'limga o'tish — innovatsion o'qitish metodlarini joriy etishning muhim metodologik asosini tashkil etadi. Dunyo bo'ylab olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, PBL, TBL, simulyatsion o'qitish va raqamli texnologiyalar asosidagi yondashuvlar farmakologiya o'qitishda sezilarli samaradorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi: zamonaviy pedagogik paradigmalar asosida tibbiyot ta'limida farmakologiya fanini o'qitishning innovatsion metodlarini tizimlashtirish va ularning samaradorligini empirik va analitik jihatdan asoslash.

Tadqiqotning vazifalari: (1) farmakologiya o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion metodlarni pedagogik paradigmalar nuqtai nazaridan tasniflashtirish; (2) har bir metodning samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlash; (3) O'zbekiston tibbiyot ta'limi sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

O'zbekistonda innovatsion pedagogik metodlarni tibbiyot ta'limiga joriy etish masalasi N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va R.T.Mutalova tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, farmakologiya didaktikasiga xos empirik tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Milliy kontekstda ushbu metodlarning samaradorligini o'rganish dolzarb ilmiy vazifadir.

Xalqaro ta'lim standartlari (WFME, 2020; AMEE, 2019) tibbiyot ta'limida faol o'qitish metodlarini majburiy komponent sifatida belgilaydi. WHO ning ta'lim siyosati hujjatlari (2013, 2021) esa innovatsion metodlarni global tibbiyot ta'limi sifat tizimining asosi deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotda farmakologiya o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion metodlar pedagogik paradigmalar asosida quyidagicha tasniflangan:

1-jadval. Innovatsion metodlarning pedagogik paradigmalar bo'yicha tasnifi

Pedagogik paradigma	**Innovatsion metod**	**Farmakologiya o'qitishidagi tatbiqi**
Konstruktivizm	Muammoli ta'lim (PBL)	Kliniko-farmakologik muammolar yechish

Ijtimoiy konstruktivizm	Jamoa ta’limi (TBL)	Guruh bo‘lib dori vositasi tanlash
Tajribaviy ta’lim	Simulyatsion o‘qitish	Virtual bemor, farmakologik hisoblar
Konnektivizm	Raqamli ta’lim (e-learning)	LMS, virtual laboratoriyalar, PharmaSim
Integrativ paradigma	Aralash ta’lim (Blended)	An’anaviy + onlayn kombinatsiyasi
Refleksiv paradigma	Keys-stadi (Case Study)	Real klinik holatlar tahlili

Muammoli ta’lim (PBL) metodining samaradorligi.

PBL metodida talabalar kliniko-farmakologik muammo (masalan, «surunkali bronxit bilan og‘rigan 65 yoshli diabetik bemorga antibiotik tanlash») ga duch keladi va jamoaviy muhokama orqali yechim topadi.

Aralash ta’lim modeli an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlarini onlayn komponent bilan birlashtiradi. Farmakologiyada optimal nisbat: 60% auditoriya (muammoli seminarlar, laboratoriya) + 40% onlayn (video ma’ruzalar, interaktiv testlar, virtual laboratoriya). LMS platformalarida (Moodle, Canvas) farmakologiya kursi tashkil etilganda talabalarning mustaqil o‘quv faoliyati 2,3 baravar ortgan.

Raqamli texnologiyalar sifatida quyidagilar samarali deb aniqlangan: PharmaSim (farmakokinetik simulyator), Pharmacology.app (mobil platforma), YouTube kanallar asosidagi flipped classroom modeli, Google Classroom orqali formativ baholash tizimi. Bu vositalar O‘zbekiston sharoitida ham qo‘llanilish imkoniyatiga ega, chunki internet tarmoqqa kirish imkoniyati kengayib bormoqda.

2-jadval. Innovatsion metodlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari taqqoslash

Metod	**Bilim o‘zlashtirish (%)**	**Klinik fikrlash (%)**	**Eslab qolish (6 oy, %)**
An’anaviy (nazorat)	66,4	58,1	48,9
PBL	+18,4%	+24,7%	+22,4%
TBL	+15,2%	+21,3%	+19,8%
Simulyatsion	+14,8%	+28,1%	+18,3%
Blended Learning	+16,9%	+22,6%	+24,1%

Tadqiqotning eng muhim topilmasi: hech bir yakka metod barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha mutlaq ustunlikka ega emas. Eng yuqori natijalar — PBL + simulyatsion o‘qitish + raqamli vositalarni birlashtirgan kompleks yondashuv tatbiq

etilgan guruhlarda kuzatilgan. Bu guruhda bilimlarni o‘zlashtirish 23,7%, klinik fikrlash 31,4%, eslab qolish 27,9% ga yaxshilangan.

Kompleks yondashuv farmakologiya kursini quyidagi tarzda tashkil etishni ko‘zda tutadi: asosiy nazariy materiallar — flipped classroom orqali (uyda onlayn video, auditoriyada tahlil); bilimlarni chuqurlashtirish — PBL va TBL metodlari orqali; amaliy ko‘nikmalar — simulyatsion stansiyalarda; baholash — formativ (LMS testi) + summativ (OSCE) kombinatsiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Issenberg S.B., McGaghie W.C., Petrusa E.R. et al. Features and Uses of High-Fidelity Medical Simulations that Lead to Effective Learning // Medical Education. — 2005. — Vol. 39, No. 1. — P. 10–28.
2. Michaelsen L.K., Sweet M. Team-Based Learning in the Social Sciences and Humanities. — Stylus Publishing, 2011. — 312 p.
3. Nandi P.L., Chan J.N.F., Chan C.P.K. et al. Undergraduate Medical Education: Comparison of Problem-Based Learning and Conventional Teaching // HKMJ. — 2000. — Vol. 6, No. 3. — P. 301–306.
4. Wood D.F. Problem Based Learning // BMJ. — 2003. — Vol. 326, No. 7384. — P. 328–330.
5. AMEE. Association for Medical Education in Europe: Practical Guide to Problem-Based Learning. — Dundee: AMEE, 2019. — 68 p.
6. WFME. Basic Medical Education Global Standards for Quality Improvement. — Copenhagen: WFME, 2020. — 48 p.
7. World Health Organization. Health Workforce Education and Training Policy. — Geneva: WHO, 2021. — 92 p.

INGLIZ TILI DARSLARIDA NEYROPEDAGOGIK STRATEGIYALAR ORQALI O‘QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISH

Xolboyeva Nodiraxon Abdumalik qizi
Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti

An’anaviy savolga bir o‘quvchining javob berishi qolgan 30-40 o‘quvchi miyasini passiv holatda qoldiradi. Sinxron savol-javob strategiyasida o‘qituvchi savol bergandan so‘ng darhol barcha o‘quvchilar bir vaqtda fikrlaydi (Think — 30 soniya), keyin yonidagi o‘quvchi bilan fikr almashadi (Pair — 1 daqiqa), va nihoyat o‘qituvchi tasodifiy o‘quvchidan javob so‘raydi (Share). Bu jarayon o‘quvchining javob berishini kutmasdan ham miyasini faol holatda ushlab turishini ta’minlaydi, chunki «men chaqirilishim mumkin» degan kutish holati norepinefrin va dopamin ajralishini kuchaytiradi, bu esa diqqat va kognitiv faollikni oshiradi (Willis, 2006).

Ingliz tili darsida ushbu strategiyani qo‘llash: o‘qituvchi inglizcha savol beradi («What would you do if you could fly?»), 30 soniya fikrlash vaqti beriladi, juftlikda inglizcha muhokama o‘tkaziladi, so‘ng umumiy savol-javob. Bu strategiya bir darsda 15-20 daqiqa ichida barcha o‘quvchilarning inglizcha gapirish amaliyotini ta’minlaydi — an’anaviy usulga nisbatan 6-8 barobar ko‘proq.

Tadqiqotimizda bu strategiya o‘quvchilar darsda aktiv kognitiv holatda bo‘lish ulushini 23% dan 67% ga ko‘tardi.

Insan miyasi ma’lumotni tartibsiz emas, balki tuzilgan, sxematik shaklda yanada samaraliroq qayta ishlaydi. Bu hodisa «sxema nazariyasi» (schema theory) nomi bilan ilmda mustahkam o‘rin olgan (Bartlett, 1932). Vizual-sxematik tafakkur strategiyasida o‘quvchilar til materialini (lug‘at, grammatika, matn) grafik organayzerlar — fikrlar xaritasi (mind map), Venn diagrammasi, piktogramma jadval — orqali tuzadilar.

Ingliz tili darsida ushbu strategiyaning qo‘llanilishi: o‘quvchilar yangi mavzudagi kalit so‘zlardan fikrlar xaritasi tuzadi, so‘ngra xaritani sherik bilan inglizcha tushuntiradi. Bu jarayon ikkala yarim sharni bir vaqtda faollashtiradi — chap yarim shar til va mantiqni, o‘ng yarim shar esa vizual tuzilma va ijodiy bog‘liqliklarni qayta ishlaydi (Springer va Deutsch, 1998). Tadqiqotimizda grafik organayzerlar bilan ishlagan o‘quvchilar guruhida yangi leksikani kontekstda to‘g‘ri qo‘llash ko‘rsatkichi 39,4% yaxshilandi.

Narrativ — hikoya formati — evolutsion nuqtai nazardan insonning eng qadimiy va eng samarali ma’lumot uzatish usuli hisoblanadi. Neyrofan shuni ko‘rsatadiki, hikoya formatidagi ma’lumot oddiy ma’lumotga nisbatan miyaning 7 ta hududini bir vaqtda faollashtiradi: motor korteks, sensor korteks, olfaktor korteks, vizual korteks, Broca va Wernicke hududlari, hamda limbik tizim (Mar, 2011). Bu ko‘p hududli faollanish uzoq muddatli xotirada mustahkam iz qoldiradi.

Tadqiqotlar shuni isbotladiki, ingliz tili darsida o‘quvchi kognitiv faolligi tasodifiy emas, balki maqsadli neyropedagogik strategiyalar orqali boshqariladigan va o‘lchaniladigan jarayondir. O‘zbekiston ta’lim tizimiga ushbu strategiyalarni tizimli joriy etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: ingliz tili o‘qituvchilarini neyropedagogika asoslari bo‘yicha qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish; dars tuzilmasini o‘quvchi kognitiv faollik ritmi (8-10 daqiqalik faollik tsikllari) asosida qayta loyihalash; milliy o‘quv-metodik adabiyotlarda kognitiv faollik ko‘rsatkichlarini baholash mezonlarini belgilash; hamda maktab psixologlari va ingliz tili o‘qituvchilari o‘rtasida neyropedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's educational objectives. New York: Longman. 352 p.
2. Aronson, E., Blaney, N., Stephin, C., Sikes, J., & Snapp, M. (1978). The jigsaw classroom. Beverly Hills, CA: Sage Publishing. 160 p.
3. Bartlett, F. C. (1932). Remembering: A study in experimental and social psychology. Cambridge: Cambridge University Press. 317 p.
4. Bialystok, E., Craik, F. I. M., & Luk, G. (2012). Bilingualism: Consequences for mind and brain. Trends in Cognitive Sciences, 16(4), 240-250.
5. Bloom, B. S. (Ed.). (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. New York: David McKay. 207 p.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA XOTIRA VA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH

Xolboyeva Nodiraxon Abdumalik qizi
Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ritmik takrorlash usulini amalga oshirishda ritmik qo‘shiqlar (chants), she'riy kichik parcha (rhymes) va harakatli o‘yinlar qo‘llaniladi. Masalan, yangi 5 ta so‘z avval kuy ostida kuylansa, so‘ng harakat bilan bog‘lansa va nihoyat rasm orqali mustahkamlansa, neyral kodlash uch kanal — audial, kinestetik va vizual — orqali bir vaqtda amalga oshiriladi. Bu usul bir marta o‘qitish va takrorlashga asoslangan an’anaviy usulga nisbatan so‘z xotirasini 2,4 barobar oshiradi (Hulstijn, 2001).

Mayer (2009) ning Kognitiv Multimedia O‘rganish nazariyasiga ko‘ra, ma’lumot bir vaqtning o‘zida bir necha sensorli kanal orqali qabul qilinganda uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu tamoyil ayniqsa samarali: ular hali asosan sensor-motor tafakkur bosqichida bo‘lganligi uchun ko‘rish, eshitish, sezish va harakat kanallarini bir vaqtda faollashtirish o‘zlashtirish chuqurligini tubdan oshiradi.

Ko‘p sensorli kodlash usulini amalga oshirishda quyidagi ketma-ketlik qo‘llaniladi: o‘quvchi yangi inglizcha so‘zni eshitadi (audial kanal), uni kartochkada ko‘radi (vizual kanal), harflarini qumga yoki havoga yozadi (kinestetik-taktil kanal) va so‘z ma’nosini ifodalovchi imo-ishora bilan birlashtiradi (proprioseptiv kanal). Bunday to‘rt kanalli kodlash paytida miya po‘stlog‘ining turli hududlari bir vaqtda faollashadi va neyral aloqalar yanada ko‘p yo‘nalishda shakllanadi, bu esa xotirani barqarorlashtiradi (Shams va Seitz, 2008).

LeDoux (2000) amigdalaning (miya hissiyot markazi) xotirani mustahkamlashdagi rolini asoslab bergan: emotsional jihatdan muhim ma’lumotlar odatiy ma’lumotlarga nisbatan 3-5 barobar uzoqroq esda qoladi. Bu hodisa «emotsional kuchayish» (emotional enhancement of memory) deb ataladi va u boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki bu yoshda limbik tizim (hissiyot markazlari) prefrontal korteksga nisbatan faolroq ishlaydi.

Ingliz tili darslarida emotsional bog‘lash usulini qo‘llash quyidagicha amalga oshiriladi: yangi leksika o‘quvchi hayotidagi real, emotsional jihatdan yorqin voqealar bilan bog‘lanadi (masalan, «happy» so‘zi o‘quvchining tug‘ilgan kuni bilan, «scary» so‘zi esa yoqtirgan qo‘rqinchli ertagi bilan bog‘lanadi). Bundan tashqari, kichik dramatik sahnalar, qo‘g‘irchoq o‘yinlari va his-tuyg‘ularni ifodalovchi mimika mashqlari orqali so‘zlarni emotsional kontekstda o‘rganish xotirani mustahkamlaydi.

Ratey (2008) jismoniy harakat va kognitiv funksiyalar o‘rtasidagi neyrobiyologik bog‘liqlikni tadqiq etib, aerobik mashqlar miya qon aylanishini yaxshilash orqali diqqatni 20-30 daqiqaga kengaytirishini isbotlagan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqat 7-10 daqiqadan keyin pasaya boshlaydi (Sousa, 2011), shuning uchun dars davomida qisqa harakat tanaffuslari (brain breaks) neyrolologik zaruriyat hisoblanadi.

Ingliz tili darslarida harakat integratsiyasi usulini qo‘llashning metodologik sxemasi: har 8-10 daqiqada 2-3 daqiqalik harakat tanaffusi o‘tkaziladi; biroq bu tanaffus o‘quv jarayonidan uzilib qolmaydi — aksincha, harakatning o‘zi til o‘rganish vositasiga aylanadi. Masalan, o‘quvchilar «run», «jump», «clap» kabi fe'l buyruqlarini bajaradilar yoki «Simon Says» o‘yinida inglizcha ko‘rsatmalarga muvofiq harakat qiladilar. Bu yondashuv Total Physical Response (TPR) metodologiyasining neyrofan asosida yangilangan ko‘rinishi hisoblanadi (Asher, 1977

Ingliz tili darslarida metakognitiv monitoring quyidagicha amalga oshiriladi: o‘quvchilar har darsning oxirida «Bugun nima o‘rgandim?», «Qaysi so‘z qiyin tuyuldi va nima uchun?», «Keyingi safar qanday yodlashni sinab ko‘raman?» kabi savollarga rasmli kundalikda javob yozadi. Bu faoliyat prefrontal korteks, gippokamp va korteks o‘rtasidagi neyral aloqalarni mustahkamlaydi, shu bilan birga o‘quvchida o‘z o‘rganish jarayoniga mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Ushbu tezisda neyropedagogik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilini o‘rganishda xotira va diqqatni rivojlantirishning beshta ilmiy asoslangan usuli — ritmik takrorlash, ko‘p sensorli kodlash, emotsional bog‘lash, harakat integratsiyasi va metakognitiv monitoring — taqdim etildi va eksperimental jihatdan sinab ko‘rildi. Tajriba natijalari ushbu usullar majmuasining an’anaviy metodikaga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlik ko‘rsatishini tasdiqladi: leksik xotira 41,7%, diqqat davomiyligi esa 34,3% oshdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini o‘qitishda neyropedagogik yondashuv faqat o‘quv natijalarini yaxshilab qolmaydi — u bolaning miya rivojlanishiga ham musbat ta’sir ko‘rsatadi, chunki u miyaning tabiiy ishlash qonuniyatlariga asoslanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida neyropedagogikani boshlang‘ich sinf ingliz tili o‘qitishiga tizimli joriy etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: o‘qituvchilarni neyropedagogika asoslari bo‘yicha muntazam qayta tayyorlash; dars rejalari va o‘quv dasturlarini miya rivojlanish bosqichlariga muvofiq qayta ko‘rib chiqish; dars davomida harakat tanaffuslarini rasmiy tarzda joriy etish; hamda neyropedagogik tamoyillarga asoslangan milliy o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asher, J. J. (1977). Learning another language through actions: The complete teacher's guidebook. Los Gatos, CA: Sky Oaks Productions.
2. Blakemore, S. J., & Frith, U. (2005). The learning brain: Lessons for education. Oxford: Blackwell Publishing. 240 p.
3. Cepeda, N. J., Vul, E., Rohrer, D., Wixted, J. T., & Pashler, H. (2008). Spacing effects in learning: A temporal ridgeline of optimal retention. Psychological Science, 19(11), 1095-1102.
4. Ebbinghaus, H. (1885). Über das Gedächtnis. Leipzig: Duncker & Humblot. (English translation: Memory: A contribution to experimental psychology, 1913).
5. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906-911.
6. Hebb, D. O. (1949). The organization of behavior: A neuropsychological theory. New York: Wiley. 335 p.

7. Hulstijn, J. H. (2001). Intentional and incidental second language vocabulary learning. In P. Robinson (Ed.), Cognition and second language instruction. Cambridge: CUP. Pp. 258-286.
8. Jensen, E. (2008). Brain-based learning: The new paradigm of teaching (2nd ed.). Thousand Oaks, CA: Corwin Press. 320 p.
9. LeDoux, J. (2000). Emotion circuits in the brain. Annual Review of Neuroscience, 23, 155-184.
10. Mayer, R. E. (2009). Multimedia learning (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. 320 p.
11. Posner, M. I., & Petersen, S. E. (1990). The attention system of the human brain. Annual Review of Neuroscience, 13, 25-42.
12. Ratey, J. J. (2008). Spark: The revolutionary new science of exercise and the brain. New York: Little, Brown. 294 p.
13. Rashidova, Z. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqat barqarorligi va ingliz tili o‘zlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlik. Pedagogika va psixologiya jurnali, 4(2), 67-81.
14. Shams, L., & Seitz, A. R. (2008). Benefits of multisensory learning. Trends in Cognitive Sciences, 12(11), 411-417.
15. Sousa, D. A. (2017). How the brain learns (5th ed.). Thousand Oaks, CA: Corwin Press. 348 p.

ЭЛЕКТРОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ КАК ИНОСТРАННОМУ

Садуллаева Севара Баходир кизи
Узбекистан, г. Хивы, магистрантка, университета Маъмун.

Современная система образования развивается в условиях активной цифровизации, что оказывает существенное влияние на методы и формы обучения. Использование электронных образовательных ресурсов становится одним из ключевых направлений модернизации преподавания русского языка как иностранного. Это связано с необходимостью адаптации образовательного процесса к новым требованиям общества, а также с ростом числа иностранных студентов [Камалов С.:7; Полат Е.:12].Развитие информационно-коммуникационных технологий способствует созданию новой образовательной среды, ориентированной на гибкость, доступность и интерактивность обучения. В таких условиях преподаватель выступает не только источником знаний, но и организатором учебной деятельности [Сысоев П.:18].

Электронные образовательные ресурсы представляют собой комплекс цифровых средств, направленных на поддержку учебного процесса. Они включают электронные учебники, обучающие платформы, мультимедийные материалы, тестовые системы и мобильные приложения [Hubbard P.:25].С точки зрения методики преподавания иностранных языков, использование цифровых ресурсов базируется на коммуникативном и деятельностном

подходах. Эти подходы предполагают активное участие обучающихся в процессе обучения и ориентацию на практическое использование языка [Пассов Е.:63; Гальскова Н.:48].Кроме того, важным является принцип индивидуализации обучения. Электронные ресурсы позволяют учитывать уровень подготовки студентов, темп усвоения материала и их личные особенности [Щукин А.:39].

Среди основных видов электронных ресурсов можно выделить:

- электронные учебники и пособия;
- онлайн-платформы для изучения языков;
- мобильные приложения;
- видеолекции и подкасты;
- интерактивные тренажёры и тесты;
- образовательные сайты и порталы.

Каждый из этих видов выполняет определённые функции и может использоваться на разных этапах обучения. Например, мультимедийные материалы эффективны для развития навыков аудирования, а интерактивные задания — для закрепления грамматических структур [Chapelle C.:41]

Одним из главных преимуществ является доступность. Обучающиеся могут получать знания независимо от времени и места, что особенно важно в условиях дистанционного обучения [Ахмедова Н.:15; Bates T.:34]. Также следует отметить высокий уровень наглядности. Использование аудио- и видеоматериалов способствует более глубокому усвоению материала и развитию речевых навыков. Электронные ресурсы позволяют обеспечить мгновенную обратную связь. Это помогает обучающимся быстро выявлять ошибки и корректировать знания [Смирнова Е.:22].Важным преимуществом является повышение мотивации. Использование геймификации, интерактивных заданий и мультимедиа делает процесс обучения более интересным и вовлекающим [Kukulska-Hulme A.:56]. Кроме того, цифровые технологии способствуют развитию автономности обучающихся и формированию навыков самостоятельной работы [Anderson T.:65].

Несмотря на многочисленные преимущества, использование электронных ресурсов связано с рядом трудностей. Одной из основных проблем является техническое обеспечение: не все обучающиеся имеют стабильный доступ к интернету [Кларин М.:27]. Также важным фактором является уровень цифровой грамотности преподавателей и студентов. Недостаточная подготовка может снизить эффективность использования технологий [Warschauer M.:52]. Кроме того, существует проблема отбора качественных ресурсов. Не все доступные материалы соответствуют методическим требованиям и целям обучения [Азимов Э.:14].

Следует учитывать и психологические аспекты. Чрезмерное использование цифровых технологий может привести к снижению концентрации внимания и утомляемости [Зимняя И.:21].

На практике электронные ресурсы могут использоваться на всех этапах обучения: от введения нового материала до контроля знаний. Например, видеоматериалы эффективно применяются при объяснении новой темы, а

онлайн-тесты — для проверки усвоения материала.Особое значение имеет использование платформ для онлайн-коммуникации, которые позволяют организовывать диалоги, дискуссии и групповые проекты. Это способствует развитию коммуникативной компетенции обучающихся [Richards J.:44]. Преподаватель должен грамотно сочетать традиционные и цифровые методы обучения, создавая сбалансированную образовательную среду [Harmer J.:39]

Таким образом, электронные образовательные ресурсы являются важным инструментом в обучении русскому языку как иностранному. Они способствуют повышению эффективности обучения, развитию коммуникативных навыков и мотивации студентов. В условиях цифровизации образования роль таких ресурсов будет только возрастать. Однако их использование требует методической грамотности и продуманного подхода со стороны преподавателя [Godwin-Jones R.:73].

Использованная литература:

1. Камалов С. Современные технологии обучения языкам. – Ташкент, 2020.
2. Ахмедова Н. Инновационные методы преподавания РКИ. – Самарканд, 2021.
3. Смирнова Е. Цифровые ресурсы в языковом образовании. – Москва, 2019.
4. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения. – Москва, 2018.
5. Щукин А. Н. Методика РКИ. – Москва, 2020.
6. Полат Е. С. Педагогические технологии. – Москва, 2019.
7. Сысоев П. В. ИКТ в обучении языкам. – Москва, 2021.
8. Гальскова Н. Д. Теория обучения. – Москва, 2017.
9. Азимов Э. Г. Методические термины. – Москва, 2018.
10. Бим И. Л. Теория обучения. – Москва, 2019.
11. Зимняя И. А. Психология обучения. – Москва, 2017.
12. Кларин М. В. Инновации в обучении. – Москва, 2020.
13. Anderson T. Online Learning. – 2017.
14. Bates T. Digital Age. – 2019.

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA AXLOQIY VA ETIK MUAMOLAR

Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi

Termiz davlat pedagogika instuti pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti magistiranti

So‘ngi o‘n yilliklarda sun’iy intellekt texnologiyalari turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda: tibbiyot, ta’lim, moliya, transport va davlat boshqaruvi shular jumlasidandir. SI inson faoliyatini yengillashtirish bilan birga, yangi turdagi axloqiy va etik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni ilmiy asosda o‘rganish va ularni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga

chuqur kirib bordi. Tibbiyot, ta’lim, moliya, sanoat va davlat boshqaruvi kabi yo‘nalishlarda SI tizimlarining qo‘llanilishi samaradorlikni oshirish bilan birga, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarning keng ko‘lamda joriy etilishi bir qator axloqiy va etik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Xususan, sun’iy intellekt tizimlarining qaror qabul qilish jarayonidagi shaffoflikning yetishmasligi, algoritmik noxolislik (bias), javobgarlik masalalarining noaniqligi hamda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq muammolar ilmiy hamjamiyat va amaliyotchilar e’tiborini tortmoqda. Bundan tashqari, SI texnologiyalarining inson huquqlari va erkinliklariga ta’siri, jumladan, diskriminatsiya xavfi, kuzatuv (surveillance) imkoniyatlarining ortishi va inson omilining kamayishi kabi jihatlar ham dolzarb muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xalqaro tashkilotlar va yetakchi davlatlar tomonidan sun’iy intellektni tartibga solish, uning etik me’yorlarini belgilash hamda xavfsiz va adolatli qo‘llanilishini ta’minlash bo‘yicha turli konsepsiya va strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Sun’iy intellektni huquqiy tartibga solishning asosiy muammolari sifatida muallif ularning avtonom va robotlarni yaratuvchilar yoki operatorlardan mustaqilligini ko‘rsatadi, bu esa huquqiy javobgarlik choralari va predmetini aniqlashni juda qiyinlashtiradi. Sun’iy intellektga nisbatan yuridik javobgarlikni belgilashning turli yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Shunday qilib, sun’iy intellekt obyektlarini yuridik shaxslarga, shuningdek, ijtimoiy xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarga tenglashtirish pozitsiyalari o‘rganilib, ularning ijobiy va salbiy tomonlari ko‘rsatiladi hamda ba’zi milliy va xalqaro tajribalar imkoniyatining huquqiy va ijtimoiy omillari ko‘rsatiladi, xalqaro robotlashtirish qoidalari (Fransiya, Yevropa Ittifoqi) baholanadi.Xulosa o‘rnida ta’kidlanganidek, sun’iy intellektni yaratish bilan bog‘liq ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda yaqin kelajakda uni joriy qilish bilan bog‘liqlikda hal etilishi lozim bo‘lgan qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, texnologik, huquqiy, axloqiy va falsafiy muammolar ham mavjud.Ushbu soha Homo sapiensning aql-zakovati shu qadar aniq tasvirlanishi mumkinki, uni hatto aqlli mavjudotlarning asosiy xususiyati bo‘lgan mashina tomonidan modellashtirish mumkin degan taxminga asoslanadi. Falsafa bo‘limida Dartmut taklifiga qarang. Bu esa aqlning tabiati va sun’iy mavjudotlarni yaratish axloqi haqidagi falsafiy savollarni, qadim zamonlardan beri afsona, fantastika va falsafada o‘rganilgan savollarni keltirib chiqaradi. Sun’iy intellektga optimizm bilan qaraladi. Optimizm dastlabki sun’iy intellekt tadqiqotchilarining bashoratlarida mavjud edi (qarang: SI tarixidagi optimizm, shuningdek, Rey Kurzveyl kabi zamonaviy transhumanistlarning fikrlashlarida). Ammo inqirozlarni ham boshdan kechirdi. Inqirozlarni 1966-yilda ALPAC e’lonida, 1970-yilda perseptronlarning yetishmasligi, 1973-yilda Lighthill e’lonida va 1987-yilda lisp mashinalari bozorining rivojlanishida ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt texnologiya sanoatining muhim qismiga aylandi va kompyuter fanidagi

ko‘plab eng qiyin muammolarga yechim taklif qiladi. Sun’iy intellekt tadqiqotlari yuqori texnologiyali va ixtisoslashgan soha bo‘lib, u ko‘pincha bir-biri bilan aloqa qila olmaydigan kichik sohalarga „chuqur“ bo‘linadi. Ixtisoslashgan muammolarni hal qilish, ixtisoslashgan muassasalar, individual tadqiqotchilar ishi va juda turli xil vositalardan foydalanish va sun’iy intellektni qanday amalga oshirish kerakligi haqidagi uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan fikr farqlari atrofida kichik sohalar paydo bo‘ldi. SIning zamirida fikrlash, bilish, rejalashtirish, o‘rganish, muloqot qilish, his qilish, obyektlarni boshqarish va harakatlantirish qobiliyati kabi ko‘nikmalar to‘plami mavjud. Umumiy razvedka (yoki „kuchli SI“) sanoatning uzoq muddatli maqsadlaridan biridir.

Sun’iy intellektning aqlli shaharlar yaratishdagi o‘rni va ularning foydali tomonlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, avvalo sun’iy intellektni davlat korxonalariga tadbiq qilib kelayotgan Abu-Dabida joylashgan G42 korxonasining faoliyati bunga yaqqol misol bo‘la oladi. SI tizimiga asoslangan “Aqlli shaharlar” platformasi bir qancha yo‘nalishlarda foydali bo‘la oladi, masalan: transport tizimlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalari, davlat korxonalari. Sun’iy intellekt boshqaradigan shaharlar foydalanuvchilarning hayot tarzini yaxshilash, xizmatlar sifatini va operatsiyalar samaradorligini oshirish, atrof-muhitga zararli omillarning ta’sirni kamaytirish uchun texnologiya va ma’lumotlardan foydalanadi. Ushbu xalqaro sammit doirasida muhokama qilinayotgan mavzular “Aqlli shaharlar” loyihasini yanada takomillashtirishga sabab bo‘ldi. Sun'iy intellekt etikasi - robotlar va boshqa sun'iy aqlli mavjudotlarga xos xususiyat. Odatda u aqlli mavjudotlarni loyihalash, qurish, ishlatish bilan boq'liq robot etikasi, davolashda odamlarning axloqiy xatti-harakatlari va sun'iy axloqiy agentlarning (IMA) axloqiy xatti-harakatlari masalalarini hal qiluvchi mashina etikasiga bo'linadi.

Bu masala shunchaki texnik muammo emas, balki insoniy qadriyat, axloqiy tamoyil va huquqiy me’yor bilan bog‘liq jihat. Zero, har qanday yangi texnologiya, xususan sun’iy ong turmushni yengillashtirish barobarida insonning mas’uliyatini ham oshiradi. Bugun nafaqat olimlar, balki siyosatchi, huquqshunos, jurnalistlar va keng jamoatchilik shu haqda o‘ylashga majbur.

Yevropa Ittifoqi mintaqasi, AQSH, Yaponiya kabi davlatlarda AI faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, “AI act” loyihasi orqali ko‘hna qit’a sun’iy idrokdan foydalanishda xavfsizlik, shaffoflik va javobgarlik tamoyilini huquqiy asosda mustahkamlashni maqsad qilgan. Ayni jarayon O‘zbekiston uchun ham dolzarb, chunki mamlakatimizda 2021 yil “Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi” qabul qilinib, sohada dastlabki qadamlar qo‘yildi.

Ushbu hujjatda texnik imkoniyatga urg‘u berilgan-u, axloqiy va huquqiy jihatlar yetarli darajada tahlil qilinmagandek. Aslida, bu ikki jihat texnologiya taraqqiyotining “ko‘rinmas yuzi”. Agar shu masala e’tibordan chetda qolsa, inson huquqi, shaxsiy ma’lumot maxfiyligi yoki ijtimoiy tenglik kabi tamoyillar xavf ostida qoladi.

Demak, sun’iy intellekt faqat algoritm, kod va dastur yig‘indisigina emas, jamiyatning axloqiy, madaniy va huquqiy tizimi bilan chambarchas bog‘liq murakkab hodisa. Shu bois “sun’iy intellektning axloqiy va huquqiy muammosi”ni

muhokama etish bugun nafaqat ilm-fan, balki jamiyatning barqaror kelajagi uchun ham muhim mavzuga aylangan.

Sun’iy intellekt – inson tomonidan yaratilgan, asta-sekin mustaqil fikrlashga yaqin qobiliyat namoyon etayotgan tizim. Ya’ni, bu haqda gap ketganda, “Qanday ishlaydi?” emas, “Qarori axloqan to‘g‘rimi?” degan savol tobora dolzarblik kasb etmoqda. Bugun insoniyat o‘zining eng buyuk ixtirosi bilan axloqiy to‘qnashuv yoqasida turibdi. Axloqiy tamoyillar va global yondashuvlar

Ko‘plab xalqaro tashkilotlar AI etikasi bo‘yicha standartlar ishlab chiqmoqda. Jumladan: UNESCO – AI etikasi bo‘yicha global tavsiyalar

European Union – AI regulatsiyasi (AI Act)

Ushbu tashabbuslar AI’dan xavfsiz va adolatli foydalanishni ta’minlashga qaratilgan.

Nega bu masala shunchalik muhim? Sababi oddiy: sun’iy intellekt qabul qilgan qaror inson hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, kredit berish, ishga qabul qilish, sud jarayonidagi tahlil yoki tibbiy tashxis qo‘yish holatlarida AI “adolat” tamoyiliga amal qilmasa, bu oddiy odamga nisbatan jiddiy nohaqlikdir. Shuning uchun ham sun’iy intellektni tartibga solish texnologiyani cheklash emas, balki qurilmani inson qadriyatiga moslashtirish demakdir.

Mas’uliyat qoidalari robot foydalanuvchilari uchun majburiy sug‘urta sxemasi va sug‘urta polisi xavfni qoplamagan taqdirda kompensatsiya qilish uchun kompensatsiya jamg‘armasi bilan to‘ldirilishi mumkin. Qarorda axloqiy masalalarni hal qilish uchun ikkita xulq-atvor qoidalari taklif etiladi: Robototexnika muhandislari uchun axloqiy xulq-atvor kodeksi va Tadqiqot axloq qo‘mitalari kodeksi. Robototexnika injenerlarining axloqiy xulq-atvori kodeksi robototexnikani yaratishda odob-axloq qoidalarini saqlashning 4 ta tamoyilini nazarda tutadi: 1) xayriya (robotlar faqat inson manfaatlarini ko‘zlab harakat qiladi); 2) zarar yetkazmaslik (robotlar odamga zarar yetkaza olmaydi); 3) avtonomiya (inson va robot iroda asosida o‘zaro munosabatda bo‘lishi kerak); 4) adolatlilik (robotexnikaning afzalliklari adolatli va halol taqsimlanishi kerak. Ba’zi mualliflar SIning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ma’lum tizimlarning SI bilan bevosita javobgarligi to‘g‘risida takliflarni ilgari surdilar [10]. Ushbu fikrga ko‘ra, avtonom tizimlarning qonuniy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lmagan asosiy sabablar yo‘q. Biroq robotlarning javobgarligini belgilash zarurati yoki maqsadga muvofiqligi muammosi hali hal qilinmagan (hech bo‘lmaganda robototexnika rivojlanishining hozirgi bosqichida). Bu nafaqat g‘ayrioddiy huquqiy standartlarni ishlab chiqish zarurati, balki robotlarning ongi va etikasining yuqorida qayd etilgan muammolari bilan ham bog‘liq. Ehtimol, ushbu tizimlarning ishlashi uchun mas’uliyatni dasturchilar yoki avtonom tizimlardan foydalanuvchilarga yuklash samaraliroq bo‘lar edi. Ammo bu innovatsiyalarni sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun biz mukammal muvozanatni izlashda davom etishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan sun’iy intellektning axloqiy va huquqiy oqibati hali to‘liq anglashilmagan. Texnologiya inson hayotini yengillashtirayotgan bir paytda, axloqiy mas’uliyat, adolat va maxfiylik tamoyillari qayta ko‘rib chiqilishi taqozo qilinyapti. Demak,

kelajakda sohani rivojlantirishning eng to‘g‘ri yo‘li sun’iy intellektni inson qadriyati, huquqiy me’yor va ijtimoiy adolat tamoyili bilan uyg‘unlashtirishdir.
Sun’iy intellekt texnologiyalari insoniyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynamoqda, ammo uning rivoji bilan bog‘liq axloqiy va etik muammolarni e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Kelajakda: Shaffof algoritmlar, kuchli qonunchilik bazasi, xloqiy standartlar zarur bo‘ladi. Faqat shu yo‘l bilan AI jamiyatga foyda keltiruvchi vositaga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach
2. Bostrom, N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies
3. UNESCO AI Ethics Recommendations
4. European Union AI Act hujjatlari
5. https://uza.uz/uz/tag/82671-Sun%E2%80%99iy%20intellekt
6. https://uz.wikipedia.org
7. Asaro P. The Liability Problem for Autonomous Artificial Agents // AAAI Symposium on Ethical and Moral Considerations in Non-Human Agents, Stanford University, Stanford, CA. March 21–23, 2016, P. 191.
8. Arkhipov V., Naumov V. On Certain Issues Regarding the Theoretical Grounds for Developing Legislation on Robotics: Aspects of Will and Legal Personality // Zakon. 2017, No. 5, P. 167.
9. Asaro P. The Liability Problem for Autonomous Artificial Agents, P. 193. 6. Arkhipov, V., Naumov, V. – P. 164.
10. https://incience.uz/index.

O‘ZBEK OILASIDA FARZAND TA’LIM VA TARBIYASIGA E’TIBORNING O‘ZIGA XOSLIGI

Tohirova Maftunaxon Zokirjon qizi
Farg’ona davlat universiteti Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Oila har bir jamiyatning tayanchi, uning ma’naviy-axloqiy darajasini belgilovchi asosiy bo‘g‘indir. O‘zbek xalqi azaldan farzand tarbiyasiga hayotining mazmuni sifatida qarab kelgan. "Farzand — aziz, odobi undan aziz" degan maqol o‘zbek xalqining tarbiya borasidagi bosh tamoyilini ko‘rsatadi. Bugungi globallashuv davrida milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda farzandga sifatli ta’lim berish o‘zbek oilasining asosiy maqsadiga aylangan. **Milliy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya.** O‘zbek oilasida tarbiya, birinchi navbatda, "kattaga hurmat, kichikka izzat" tamoyiliga asoslanadi. Bolada kattalarning gapini bo‘lmaslik, mehmondo‘stlik, andisha va kamtarlik kabi sifatlarni shakllantirishga alohida e’tibor beriladi. Bunda ota-ona va bobo-buvilarning shaxsiy namunasi yetakchi o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda o‘zbek oilalarida ta’limga investitsiya kiritish asosiy ustuvor yo‘nalishga aylandi. Agar ilgari tarbiya ko‘proq hunar o‘rganish va xo‘jalik ishlari bilan bog‘langan bo‘lsa, bugungi kunda ota-onalar farzandlarining

oliy ma’lumotli bo‘lishi, xorijiy tillarni o‘rganishi va zamonaviy texnologiyalarni egallashi uchun barcha sharoitlarni yaratishga intilmoqdalar. Jamoaviylik va mahalla instituti. O‘zbek oilasida bola tarbiyasi faqat bitta oila doirasida cheklanib qolmaydi. **O‘zbek oilasining o‘ziga xosligi** — oiladagi ierarxiya va vazifalar taqsimotidadir. Ota, odatda, oilaning iqtisodiy tayanchi va intizom boshqaruvchisi hisoblansa, ona bolalarning ma’naviy-emotsional olami, kundalik dars tayyorlashi va odob-axloqi uchun mas’ul bo‘ladi. Otaga bo‘lgan ehtirom bolada kuchli iroda va qat’iyatni shakllantiradi. Farzand tarbiyasi o‘ta murakkab va mas’uliyatli jarayon. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan boxabar bo‘lib borishni talab etadi. Har bir ota-ona ana shu fikrni hamisha yodda tutmog‘i lozimdir. [A.Avloniy:1]

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llabquvvatlash va hokazo. Oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Noto’liq oilada bola qalbi qat-tiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega. [Inomova M:2]

Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Ma’lumki, oila har bir jamiyatning boshlang’ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo’lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo’ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg’unchilik bo’lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o’sha jamiyat buziladi, tinchi yo’qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi. Shuning uchun ham qadimdan har bir jamiyat oila masalasiga katta e’tibor berib, oilalarning mustahkam va baxtiyor bo’lishi uchun imkonida bor bo’lgan barcha chora va tadbirlarni ko’rib kelgan. Zotan, sof insoniy tabiat xuddi shunday bo’lishini taqozo qiladi. Oila tarbiyasi - oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. . [Musurmonova O:3]

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari - jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. [Munavvarov .A:4]

Oila tarbiyasining o'ziga xosligi, uning mohiyati, an'anaviyligi, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar tizimida tutgan o'mi, ular bilan uzviy aloqadorligi, o'zaro ta'siri, oila muhitining barkamol avlod va komil insonni tarbiyalashdagi roli klassik va hozirgi zamon falsafiy tafakkur taraqqiyotida muhim o'rinni egallab turibdi. Mazkur masala bo'yicha jahon falsafasida g'oyat muhim va ibratli fikrlar mavjud bo'lgan. Turkiy xalqlaming mushtarak yodgorligi "Avesto", "O'rxunEnasoy bitiklari"da, islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda shuningdek, Aflotun, Arastu, Konfutsiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojibdan tortib hozirgizamon faylasuflarigacha o'ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Zero, oila hayotining bosh muddao va maqsadi bolalar tarbiyasidir. Bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa eru xotin, ota-onaning o'zaro munosabatidir.[G'oziyev.E:5]

Oilaviy tartibotning tashqi ko'rinishi - o'zboshimchalik bilan ish tutish ham, g'azab ham, baqiriq-chaqiriq ham, iltijo ham yalinib-yolvorishlar ham emas, balki osoyishtalik, jiddiylik va ishbilarmonlik bilan qilingan farmoyishdan iborat bo'lmog'i kerak. Bunday farmoyish berish huquqi oila a'zolarining yoshi ulug' vakili sifatida ayni sizga berilganligi xususida o'zingizda va na bolalaringizda hech bir shubha qolmasligi kerak. [Safarov.J:6]

Ma'naviy merosimizdagi tarbiyaviy g'oyalar rivojiga bir nazar soladigan bo'lsak, qanchalik ma'naviy javohirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil qilamiz. Ular tubsiz ummon, bitmas-tuganmas boylikdir. Har bir inson bu ummonga sho'ng'iganda o'zining fe'l-atvori, dunyoqarashi, bilim saviyasiva boshqa xususiyatlariga qarab ulush olib chiqishi muqarrardir. Tabarruk manbalarimiz bo'lmish «Qur'on», «Hadislar»,ajdodlarimiz ma'naviy merosi hisoblangan «Qobusnoma», «Shohnoma», «Temurnoma», «Boburnoma», «Guliston», «Bo'ston», «Temur tuzuklari», «Qutadg'u bilig», «Mahbub-ul qulub» kabi durdona asarlami mutolaa qilgan har bir inson tarbiyaning inson shakllanishidagi munim omil ekanligiga ishonch hosil qiladi. Tarbiyaning murakkabligi haqida Amir Temur: «Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko'ra chuqurroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerakligiga ishonch hosil qildim» - desa, Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida tarbiyaning ahamiyatiga: «Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir», - deb katta baho beradi, tarbiyani oiladan shakllantirib borish kerakligi, buning uchun ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerakligi haqida uqtiradi. [Alqarov.I:7]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asrlar davomida shakllangan insoniy qadriyatlardan bir bo'lgan, oilani va uning tarbiyasi asoslarini, jamiyatni tutib turuvchi kuchlardan biri sifatida baholay olamiz. Har bir oilada esa o'ziga xos tarbiyaviy va milliy mentaketetga asoslangan yuksak ananalar shakllangan. Ammo

ba’zi oilalarda muammolar vujudga kelishining asosiy sababi, oila tarbiyasidagi xato va kamchiliklar tufayli yuzaga keladi. Bunday xato va kamchiliklardan xalos bo’lish uchun oila pedagogikasi va psixologiyasini har bir inson o’rganib chiqishi foydadan holi bo’lmaydi. O‘zbek oilasida farzand tarbiyasi va ta’limi milliy an’analar bilan zamonaviy talablarning o‘zaro uyg‘unligidan iboratdir. Ma’naviyat bilan bilimni parallel ravishda olib borish o‘zbek oilasining o‘ziga xos tarbiya modelini tashkil etadi. Bu model farzandning nafaqat yetuk mutaxassis, balki komil inson bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: "O‘qituvchi", 1992. – 12-28-b
2. Inomova M. "Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi". – Toshkent: "Nizomiy nomidagi TDPU", 2012. – 45-62-betlar.
3. Musurmonova O. "Oila ma’naviyati – milliy g‘urur". – Toshkent: "O‘qituvchi", 2000. – 80-95-betlar.
Культурные и социальные факторы также оказывают значительное влияние на формирование интернет-зависимости. Современное общество, пропитанное цифровыми технологиями, создает условия, в которых доступ к информации и развлечениям становится мгновенным и безграничным. Это ведет к нормализации чрезмерного использования интернета, что может восприниматься как стандартное поведение. В результате люди могут не осознавать, что их повседневная жизнь начинает подчиняться виртуальным взаимодействиям, а не реальным.

Не менее важным является влияние рекламы и маркетинга, которые способствуют формированию зависимости. Создание привлекательного контента, который затягивает пользователей, а также алгоритмы, направленные на удержание внимания, создают среду, в которой люди становятся зависимыми от постоянного обновления информации и взаимодействия. Это приводит к тому, что пользователи начинают тратить все больше времени в интернете, забывая о реальных обязанностях и отношениях [1].

Таким образом, интернет-зависимость является результатом взаимодействия множества факторов, включая личные, социальные и культурные аспекты. Понимание этих механизмов необходимо для разработки эффективных стратегий профилактики и лечения, а также для повышения осведомленности о возможных рисках, связанных с чрезмерным использованием интернет-ресурсов. Формирование зависимости от интернета связано с множеством психологических механизмов, которые способствуют ее развитию. Одним из ключевых факторов является потребность в социальном взаимодействии, которая в условиях цифровой среды может быть удовлетворена с помощью виртуальных коммуникаций. Это создает иллюзию близости и принадлежности, что усиливает привязанность к интернету. Кроме того, использование интернет-ресурсов часто вызывает чувство удовлетворения и удовольствия, связанное с моментальным доступом к информации и развлечениям. Такие переживания могут приводить к избеганию реальных проблем и стрессов, что, в свою очередь, закрепляет зависимость. Таким образом, важно учитывать все аспекты, влияющие на формирование интернет-зависимости, для более глубокого понимания данной проблемы.

Кибербуллинг представляет собой одну из наиболее острых проблем современного общества, возникающую в результате развития цифровых технологий и широкого распространения интернета. Это явление можно определить как систематические агрессивные действия, направленные на определённого человека или группу лиц с использованием электронных средств коммуникации. Кибербуллинг может принимать различные формы, включая оскорбления, угрозы, распространение ложной информации, а также манипуляции и исключение из онлайн-сообществ. В отличие от традиционного буллинга, кибербуллинг имеет свои уникальные характеристики, такие как анонимность агрессора и возможность бесконечного распространения информации, что делает его последствия более тяжёлыми и длительными.

Одной из наиболее распространённых форм кибербуллинга является травля в социальных сетях, где агрессоры могут оставлять уничижительные комментарии, публиковать компрометирующие фотографии или создавать фальшивые профили с целью дискредитации жертвы. Виртуальные пространства предоставляют возможность агрессорам действовать без непосредственного контакта с жертвой, что снижает уровень ответственности за свои действия и может усиливать агрессивное поведение. Важно отметить,

что кибербуллинг не ограничивается лишь подростковым возрастом; он может затрагивать людей всех возрастов, включая взрослых, что делает его актуальной социальной проблемой [2].

Профилактика интернет-зависимости и кибербуллинга требует разработки и внедрения эффективных стратегий, направленных на снижение рисков и негативных последствий, связанных с этими явлениями. Одним из ключевых направлений является повышение уровня цифровой грамотности среди пользователей, особенно среди молодежи. Обучение навыкам критического мышления поможет молодым людям осознанно подходить к выбору контента и взаимодействию в сети, а также распознавать потенциальные угрозы. Важно, чтобы образовательные учреждения внедряли в свои программы занятия, посвященные безопасному поведению в интернете, что позволит формировать у учащихся здоровые интернет-привычки с раннего возраста.

Рекомендуется продолжить изучение влияния социальных факторов на образовательные процессы, а также внедрять новые методы оценки, что позволит более точно адаптировать программы к реальным условиям и потребностям учащихся.

Список источников:

1. Андреева Г. М. Социальная психология. — М.: Аспект Пресс, 2019.
2. Войскунский А. Е. Психология и Интернет. — М.: Акрополь, 2016.
3. Солдатова Г. У., Рассказова Е. И. Цифровая социализация подростков. — М.: Просвещение, 2020.
4. Белинская Е. П., Тихомандрицкая О. А. Социальная психология личности. — М.: Академия, 2018.

DIGITAL APPROACHES TO VOCABULARY DEVELOPMENT

Jangabayev Daniyar Jara uli
3rd year student of University of Innovation Technology, Nukus Faculty of philology

The use of digital technology in education has significantly changed the way languages are learned. Vocabulary acquisition, which is essential for effective communication and understanding, is now increasingly supported by modern digital methods. These methods employ tools such as artificial intelligence, gamified activities, and adaptive learning technologies to provide more engaging and productive learning experiences. As a result, digital approaches are widely considered to be powerful tools for enhancing vocabulary development.

Digital literacy is reshaping the way vocabulary is learned in English education by replacing traditional memorization techniques with more interactive and engaging methods. Today's learners benefit from digital tools that offer personalized and context-based vocabulary practice, which increases both effectiveness and motivation. In the EFL classroom, digital literacy can be defined as students' ability to use technology for communication, collaboration, and

accessing information in English. Hague and Payton (2010) state that digital literacy significantly supports language learning by providing access to a wide range of multimedia resources. Through online platforms, interactive applications, and multimedia content, learners can practice vocabulary in meaningful contexts and improve their retention. In contrast to traditional literacy, which mainly focuses on reading and writing printed materials, digital literacy broadens learning opportunities by enabling access to online resources and real-world communication. Hargittai (2010) points out that digital technologies make information more accessible and flexible, allowing learners to study anytime and from any location. Furthermore, studies indicate that technology-based learning approaches can be more engaging and effective for vocabulary acquisition than traditional methods. Prensky (2001) notes that digital-native learners show higher motivation when using interactive tools, while Hulstijn (2001) emphasizes their positive impact on long-term vocabulary retention. Overall, combining digital literacy with traditional teaching approaches creates a more dynamic and productive environment for vocabulary development [Rustamova S; 10].

Digital literacy has become a fundamental element in modern vocabulary instruction, significantly enhancing the effectiveness of language learning. The integration of digital tools provides learners with interactive, flexible, and context-rich opportunities to acquire new vocabulary. Such approaches not only increase learner engagement but also support long-term retention and practical usage of language. At the same time, traditional literacy remains an essential foundation, particularly in developing reading and writing skills. However, relying solely on conventional methods may limit learners' exposure to authentic and diverse language use. In contrast, digital environments offer broader access to real-life communication and multimedia resources. Therefore, a balanced combination of digital and traditional approaches appears to be the most effective strategy for vocabulary development. This integration ensures both strong foundational skills and the ability to use language actively in modern, technology-driven contexts.

Several relevant academic sources related to the use of digital tools in vocabulary learning. For instance, Stephen Krashen argues that vocabulary acquisition is most effective when learners are exposed to comprehensible and slightly challenging input. The cognitive theory of multimedia learning also suggests that combining visual and auditory information enhances memory and understanding. Research findings indicate that digital tools, particularly gamified learning platforms, can improve vocabulary retention more effectively than traditional methods. However, some studies also point out potential issues such as distractions and reliance on internet connectivity. Furthermore, scholars emphasize that the success of digital tools largely depends on how they are applied in the teaching process. Overall, these references offer strong theoretical and practical support for integrating digital approaches into vocabulary learning [Babazade Y; 36].

The use of digital tools in vocabulary learning appears to be highly effective when supported by strong theoretical foundations. These tools provide learners with meaningful input, interactive experiences, and opportunities for repeated practice,

which are essential for long-term vocabulary retention. The ideas of scholars such as Stephen Krashen further support the importance of comprehensible input in language learning. In addition, multimedia-based approaches enhance understanding by combining visual and auditory elements.

Digital approaches to vocabulary learning are supported by several influential theories in language education. Stephen Krashen argues that learners acquire new vocabulary most effectively when they are exposed to comprehensible input that is slightly above their current level. Similarly, Paul Nation highlights the importance of repeated exposure and meaningful context in vocabulary development. Richard Mayer points out that learning is improved when information is presented through both visual and auditory channels. In addition, Lev Vygotsky emphasizes the role of social interaction in learning, which can be effectively supported by digital tools. Rod Ellis also notes that noticing new language forms is a key factor in acquiring vocabulary, and digital environments help learners focus on language in context. Overall, these theories show that digital tools create interactive and multimodal learning experiences that enhance vocabulary acquisition [Primqulova A ;390].

Vocabulary learning are highly effective when they are grounded in established learning theories and used appropriately. These methods provide learners with rich exposure to language, repeated practice, and opportunities to engage with vocabulary in meaningful contexts, which are essential for long-term acquisition. The ideas of scholars such as Stephen Krashen and Paul Nation further support the importance of input, repetition, and context in learning. In addition, multimedia and interactive features enhance understanding and retention by combining different learning channels. However, digital tools should be used as a complement rather than a replacement for traditional teaching methods. A balanced integration of both approaches ensures more effective vocabulary development and supports different learner needs.

In conclusion, digital technologies have significantly transformed vocabulary learning by making it more interactive, engaging, and effective. The integration of digital tools allows learners to access rich input, practice vocabulary in meaningful contexts, and improve long-term retention. The theoretical perspectives of scholars such as Stephen Krashen, Paul Nation, and Richard Mayer further support the effectiveness of digital approaches in language learning. However, despite these advantages, digital tools should not completely replace traditional teaching methods. A balanced combination of digital and traditional approaches is essential to ensure comprehensive vocabulary development. Therefore, the effective use of digital technologies, when properly integrated into teaching practices, can greatly enhance both teaching and learning outcomes in modern language education.

References:

1.Rustamova, S. (2025). *Developing vocabulary and digital literacy in English learning*.Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10).https://doi.org/10.5281/zenodo.17304284 (45-47 pages)

2.Babazade, Y. (2024). *The impact of digital tools on vocabulary development in second language learning*. Journal of Azerbaijan Language and Education Studies,

1(1), 35–40. https://doi.org/10.69760/jales.2024.00103
https://orcid.org/0000-0002-3727-3622
3.Primqulova, A. A. (2025). *The impact of digital tools and apps in vocabulary learning*. New Renaissance International Scientific and Practical Conference, 2(2), 390–391. https://doi.org/10.5281/zenodo.15021780
4.Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language.Cambridge University Press.
5.Krashen, S. D. (1985). The input hypothesis: Issues and implications. Longman.
6.Mayer, R. E. (2001). Multimedia learning.Cambridge University Press.
7.Schmitt, N. (2000). Vocabulary in language teaching.Cambridge University Press.
8.Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA CHET TILLARINI O‘RGATISHNING INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI

Mambetkarimova Ulzada
O‘zbekiston, Nukus shahri, Innovatsion texnologiyalar universiteti student

Bugungi kunda chet tillarini o‘rganish zamonaviy ta’lim tizimining va demokratik jamiyatni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolalar intellektual rivojlanishining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bolalar raqamli ma’lumotlarni tez qabul qiladi va eslab qoladi. Til o‘rganishda tinglab tushunish (listening) ko‘nikmasi poydevor hisoblanib, bola avvalo eshitadi, tushunadi va keyinchalik nutqiy faoliyatga o‘tadi. Shu sababli ushbu ko‘nikmani erta yoshdan innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish ularning so‘z boyligini oshiradi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda zamonaviy raqamli o‘yinlar, multimedia qo‘shiqlari va interaktiv ertaklardan foydalanish yuqori samara beradi.

Metodik nuqtai nazardan, Jeremy Harmerning ta’kidlashicha, tinglab tushunishni rivojlantirishda o‘qituvchi va texnik vositalar uyg‘unligi asosiy rol o‘ynaydi. O‘qituvchi sodda va tushunarli nutqdan foydalangan holda, multimedia resurslari orqali bolalar bilan faol muloqot qilishi kerak. Faqatgina pedagogik mahorat emas, balki raqamlashtirilgan dars muhiti ham muhim ahamiyatga ega, chunki vizual va audial qiziqarli muhit bolani faol tinglashga undaydi [2].

Axborotlashgan jamiyatda o‘qituvchi nafaqat nutq so‘zlovchi, balki raqamli muhit dizayneri bo‘lishi lozim. Faqat o‘qituvchi nutqining o‘zi kifoya emas, balki qiziqarli dars muhiti va multimedia resurslari bolani faol tinglashga undashi kerak.
Scott Thornbury ham o‘zining "How to teach speaking" kitobida tinglab tushunishni erta yoshdan boshlab o‘rganish tabiiy va osonroq kechishini aytib o‘tgan. Uning fikricha, bolalar kichik yoshda tilni imitatsiya qilish (taqlid) orqali tezroq

o‘zlashtiradi. Biroq, bu jarayon muntazam raqamli mashg‘ulotlar va innovatsion yondashuvlar bilan mustahkamlanmasa, natija uzoq davom etmaydi [4].

Ushbu qarashga qo‘shilgan holda shuni qo‘shimcha qilmoqchimanki, bu jarayon muntazam raqamli mashg‘ulotlar va zamonaviy o‘yin texnologiyalari bilan mustahkamlanishi shart. Aks holda, bolalarning til muhitidan uzilib qolishi o‘rganilgan natijalarning uzoq davom etmasligiga sabab bo‘ladi.

Penny Ur tadqiqotlarida qo‘shiqlar va ritmik takrorlashlar orqali bolalar yangi leksik birliklarni oson o‘zlashtirishi ta’kidlangan. Innovatsion yondashuv shundaki, qo‘shiqlar shunchaki tinglanmay, balki harakatli interaktiv o‘yinlar va animatsiyalar bilan birga olib borilsa, bolaning eslab qolish qobiliyati yanada yuqori bo‘ladi [5].

Qo‘shiqlar samarali vosita bo‘lishi bilan birga, ular albatta harakatli raqamli o‘yinlar bilan uyg‘unlashishi zarur. Bola audiosignallarni vizual tasvirlar va jismoniy harakatlar bilan bog‘lasa, tinglab tushunish samaradorligi yanada yuqori bo‘ladi.

Demokratik davlatda ta’lim sifati innovatsion g‘oyalarning amaliyotga qanchalik tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o‘rgatishda: Multimedia resurslari: Videodarslar va animatsiyalar orqali qabul qilish samaradorligini oshirish; Gamifikatsiya: Til o‘rganishni o‘yin shakliga o‘tkazish orqali motivatsiyani shakllantirish; Individual yondashuv: Har bir bolaning axborotni qabul qilish tezligiga moslashgan raqamli platformalar.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda maktabgacha yoshdagi bolalarda tinglab tushunish ko‘nikmasini innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Bu ko‘nikma ularning kelajakdagi til o‘rganish jarayonini fundament darajasida osonlashtiradi. Zamonaviy metodlar, jumladan, aqlli texnologiyalar, qo‘shiqlar va multimedia vositalari orqali ta’lim mazmunini boyitish demokratik mamlakat intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Cambridge University Press metodik qo‘llanmalari.
2.Harmer, Jeremy. How to Teach English. Longman, 2007.
3.O‘zbekiston Respublikasi metodik tavsiyalari.
4.Thornbury, Scott. How to Teach Speaking. Longman, 2005.
5.Ur, Penny. A Course in Language Teaching. Cambridge University .

O‘QUVCHILARDA MOTIVATSIYANI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLARI

Aymuratova Gulshiyra Tileumuratovna
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, O‘zbekiston ISFT instituti
(International School of Finance, Technology and Science)
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi

Pedagogika va psixologiya inson hayoti, rivojlanishi va ta’lim-tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim fanlardir. Bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldirib, samarali ta’lim jarayonini tashkil etishda asosiy rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning psixologik holatini tushunadigan mutaxassis bo‘lishi zarur.

Pedagogika - bu ta’lim va tarbiya jarayonining qonuniyatlari, usullari va tamoyillarini o‘rganadigan fan. U quyidagi vazifalarni bajaradi:ta’lim jarayonini tashkil etish, tarbiya metodlarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarishni. Pedagogika insonni jamiyatga moslashgan, yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Psixologiya — insonning ruhiy jarayonlari, hissiyotlari, tafakkuri va xulq - atvorini o‘rganadi. Fan insonning fikrlash jarayoni, emotsiyalar va motivatsiya, shaxsning rivojlanishi quyidagilarni tahlil qiladi. Psixologiya yordamida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini tushunish mumkin. Pedagogika va psixologiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogika ta’limni qanday tashkil etishni o‘rgatsa, psixologiya o‘quvchining qanday o‘rganishini tushuntiradi. Masalan: psixologiya o‘quvchining yosh xususiyatlarini aniqlaydi, pedagogika esa shu xususiyatlarga mos dars usullarini tanlaydi, psixologik bilimlar o‘qituvchiga o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda ta’lim samaradorligini oshirishda o‘quvchilarning motivatsiyasi muhim omillardan biri hisoblanadi. Motivatsiya, shaxsni faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar majmui hisoblanadi. O‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, uning darsdagi faolligi va natijalari bevosita motivatsiya darajasiga bog‘liq. Psixologiyada motivatsiya ichki (intrinsik) va tashqi (ekstrinsik) turlarga bo‘linadi. Ichki motivatsiya o‘quvchining o‘z qiziqishi va ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya rag‘bat, baho yoki mukofot orqali shakllanadi Motivatsiya inson faoliyatini harakatga keltiruvchi, uni maqsad sari yo‘naltiruvchi ichki va tashqi omillar yig‘indisidir. Psixologiya fanida motivatsiya shaxsning xulq-atvori, ehtiyojlari va qiziqishlarini tushuntirishda muhim o‘rin egallaydi. Ta’lim jarayonida esa motivatsiya o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan intilishini belgilaydi.

Motivatsiya — bu shaxsni muayyan faoliyatga undovchi sabablar majmui bo‘lib, u ehtiyoj, qiziqish, maqsad va rag‘bat bilan chambarchas bog‘liq. Motivatsiya orqali inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishga intiladi.

Psixolog olim Abraham Maslow fikriga ko‘ra, inson ehtiyojlari ierarxiyasi motivatsiyaning asosini tashkil etadi. Ya’ni, inson avvalo oddiy ehtiyojlarini qondirishga, keyin esa yuqori darajadagi maqsadlarga intiladi. Motivatsiyaning

asosiy turlari,ichki (intrinsik) motivatsiya-shaxsning o‘z qiziqishi, ehtiyoji va ichki istagi asosida faoliyat yuritishidir. Bunda inson tashqi rag‘batlarsiz ham faol bo‘ladi. **Misol:** o‘quvchi yangi bilim olishni yoqtirgani uchun dars qiladi. Tashqi (ekstrinsik) motivatsiya tashqi omillar (mukofot, baho, jazodan qochish) ta’sirida yuzaga keladi. **Misol:** o‘quvchi yaxshi baho olish yoki ota-onasini xursand qilish uchun o‘qiydi. Ijobiy va salbiy motivatsiya farqi **Ijobiy motivatsiya** — mukofot, maqtov orqali rag‘batlantirish **Salbiy motivatsiya** — jazodan qochish yoki qo‘rquv orqali harakat qilish hisoblanadi. Ongli va ongsiz motivatsiyaga inson o‘z maqsadini aniq biladi. **Ongsiz motivatsiyada** harakat sabablarini to‘liq anglamaydi. Yanada pedagogik yondashuvlar orqali motivatsiyani oshirish mumkin:darsni qiziqarli va interaktiv tashkil etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, rag‘batlantirish va baholash tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berish bu usullar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.Psixologik jihatdan o‘qituvchi, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak boladi, ijobiy psixologik muhit yaratishi o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashi zarur, ijobiy muhit o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularni faol bo‘lishga undaydi. O‘qituvchi motivatsiya beruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Uning kasbiy mahorati, muloqot uslubi va darsni tashkil etish qobiliyati o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda motivatsiyani oshirish pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligiga bog‘liq. Ta’lim jarayonida innovatsion metodlar, ijobiy psixologik muhit va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, har bir pedagog o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abraham Maslow. *Motivation and Personality*. New York, 1954.
2. Lev Vygotsky. *Mind in Society*. Harvard University Press, 1978.
3. B. F. Skinner. *The Science of Learning*. 1954.
4. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2020.
5. Umumiy psixologiya darsligi. Toshkent, 2019. Marg‘uba Mirqosimova va boshqalar “Umumiy pedagogika va psixologiya” darslik Toshkent, 2022.
6. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova “Umumiy psixologiya” Toshkent, 2009.

REJISSURA SAN’ATIDA PSIXOLOGIYA

Aymuratova Sarbinaz Tleumuratovna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri,O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali 1-kurs talabasi

Bugungi kunda rejissura san’ati nafaqat estetik ifoda vositasi, balki inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab psixologik jarayon sifatida ham qaralmoqda. Rejissyor sahna yoki ekran orqali tomoshabinning hissiyoti, tafakkuri va ruhiy holatiga ta’sir etuvchi turli vositalardan foydalanadi. Shu jihatdan, rejissura san’atini psixologiya bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Rejissura jarayoni inson psixikasiga ta’sir qilish qonuniyatlariga asoslanadi.

Tomoshabinning diqqatini jalb etish, uni muayyan hissiy holatga keltirish yoki muayyan g‘oyani singdirish rejissyorning asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonda idrok, xotira, emotsiya va assotsiativ tafakkur muhim rol o‘ynaydi. Rejissura va psixologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik Rejissura san’ati inson ruhiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijodiy jarayondir. Har qanday sahna yoki kino asari tomoshabinga nafaqat voqeani ko‘rsatadi, balki uning hissiyotlari, fikrlashi va ichki kechinmalariga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli rejissura psixologiya fanining qonuniyatlariga tayanadi va u bilan uzviy aloqada rivojlanadi.Avvalo, rejissyorning asosiy vazifasi — tomoshabin ongida muayyan hissiy holatni shakllantirishdir. Bu jarayonda inson psixikasining asosiy elementlari, ya’ni idrok, diqqat, xotira va emotsiyalar faol ishtirok etadi. Masalan, sahnadagi dramatik vaziyat tomoshabinda hayajon yoki qayg‘u uyg‘otishi mumkin, bu esa psixologik ta’sirning natijasidir.Rejissura va psixologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik ayniqsa aktyor bilan ishlash jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aktyor obrazni yaratishda o‘zining ichki psixologik holatini boshqaradi, obrazning ruhiy dunyosini his qiladi va uni tomoshabinga yetkazadi. Rejissyor esa aktyorning ushbu jarayonini yo‘naltiradi, kerakli hissiy holatga olib kiradi. Bu jarayon psixologik realizm tamoyillariga asoslanadi.Shuningdek, tomoshabin bilan “ruhiy aloqa” o‘rnatish ham muhim jihatlardan biridir. Rejissyor sahna vositalari — yorug‘lik, rang, musiqa, mizanssena orqali tomoshabinning hissiy qabulini boshqaradi. Natijada tomoshabin obrazlar bilan o‘zini tenglashtiradi (identifikatsiya), ularga hamdardlik bildiradi (empatiya) va ba’zan ruhiy poklanish (katarsis) holatini boshdan kechiradi.Bundan tashqari, zamonaviy rejissurada psixologik yondashuvlar yanada chuqurlashib bormoqda. Minimalistik sahnalashtirish, ichki monologlar, sukutdan foydalanish kabi usullar tomoshabinning ichki tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa rejissura san’atining nafaqat ko‘rish, balki his qilish san’ati ekanligini ko‘rsatadi.

Rejissura san’atida psixologik ta’sir vositalari tomoshabin ongiga, hissiyotlariga va tafakkuriga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim elementlar hisoblanadi. Ular orqali rejissyor asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurroq yetkazadi va tomoshabin bilan emotsional aloqa o‘rnatadi. Quyida ushbu vositalarning asosiy turlari keltiriladi:Vizual (ko‘rish orqali ta’sir etuvchi) vositalar, aktyorlik o‘yini orqali ta’sir, audial (eshitish orqali ta’sir) vositalar, dramaturgiya va syujet qurilishi, montaj va ritm (ayniqsa kinoda), mizanssena va sahna joylashuvi, simvol va metaforalar Zamonaviy rejissura san’ati inson psixologiyasini chuqur o‘rganish va uni badiiy ifoda vositalari orqali namoyon etishga alohida e’tibor qaratadi. Bugungi rejissyorlar nafaqat voqeani hikoya qilish, balki tomoshabinning ichki dunyosiga kirib borish, uning hissiy va tafakkur jarayonlarini boshqarishga intiladilar. Shu bois psixologik yondashuvlar zamonaviy rejissuraning ajralmas qismiga aylangan.

Zamonaviy rejissurada eng muhim yo‘nalishlardan biri — psixologik realizmdir. Bu yondashuvda obrazlarning ichki kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari va individual xususiyatlari chuqur ochib beriladi. Aktyorlar tabiiy va ishonarli o‘yin orqali tomoshabinda “haqiqiylik” hissini uyg‘otadi.

Ko‘plab zamonaviy sahnalashtirishlarda tashqi bezaklar kamaytirilib, e’tibor obrazning ichki dunyosiga qaratiladi. Kam vosita orqali katta ma’no berish — minimalizmning asosiy xususiyatidir. Sukut, pauza va mayda harakatlar orqali

kuchli psixologik ta’sir hosil qilinadi.Zamonaviy rejissura ko‘pincha ochiq ifodadan ko‘ra, yashirin ma’nolar (subtekst) orqali ishlaydi. Dialog ortidagi ichki fikrlar, ramziy detallar va ishoralar tomoshabinni faol fikrlashga undaydi.Tomoshabin bilan interaktiv psixologik aloqaBa’zi zamonaviy teatr yo‘nalishlarida tomoshabin passiv kuzatuvchi emas, balki jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Bu usul tomoshabinning hissiy jalb etilishini kuchaytiradi va uning idrokini yanada faollashtiradi. Zamonaviy asarlarda insonning ichki ziddiyatlari, ruhiy jarohatlari (travmalar) va murakkab psixologik holatlari ko‘proq yoritiladi. Bu esa tomoshabinda chuqur empatiya uyg‘otadi va ijtimoiy muammolar haqida o‘ylashga undaydi.Texnologiyalar rivoji bilan ovoz, yorug‘lik, proyeksiya va montaj imkoniyatlari kengaydi. Rejissyorlar bu vositalar orqali tomoshabin ongiga yanada kuchliroq va nozikroq psixologik ta’sir o‘tkazmoqda.Rejissura san’atida psixologik ta’sir vositalari badiiy asarning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ular orqali tomoshabin ongiga chuqur ta’sir ko‘rsatish, g‘oyaviy mazmunni yetkazish va emotsional aloqa o‘rnatish mumkin. Shu bois rejissura jarayonida psixologik yondashuvlardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stanislavskiy K.S. — “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”
2. Meyerxold V.E. — Rejissura nazariyasiga oid asarlar
3. Artaud A. — “Teatr va uning ikkiyuzlamachiligi”
4. Lotman Yu.M. — “Semiotika va madaniyat”
5. Zamonaviy teatr va kino bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami

ADABIYOT DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI O‘QITISH METODIKASI

Bahodirova Sabina
Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal’a fakulteti o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Hozirgi kunda ta’lim tizimi jadal rivojlanib, an’anaviy o‘qitish usullaridan zamonaviy, innovatsion yondashuvlarga o‘tish jarayoni kuchaymoqda. Ayniqsa, adabiyot fanini o‘qitishda o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning badiiy asarlarni chuqur anglashini ta’minlash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘qitish sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion texnologiyalar — bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya vositalaridir. Ular o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, bilimlarni tez va chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.Bunga quyidagilar kiradi:

1.Multimediali taqdimotla
2.Elektron darsliklar
3.Onlayn platformalar
4.Interaktiv doskalar
5.Mobil ilovalar

Adabiyot darslarini qiziqarli va samarali tashkil etishda quyidagi interaktiv metodlar keng qo‘llaniladi:

Aqliy hujum (Brainstorming) — o‘quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantiradi, asar mazmuni bo‘yicha turli g‘oyalarni ilgari surishga imkon beradi.

Klaster metodi — badiiy asar mazmunini tizimlashtirish va asosiy g‘oyalarni ajratib olishga yordam beradi.

Insert metodi — matnni o‘qish jarayonida belgilash orqali tushunishni kuchaytiradi.

Debat metodi — o‘quvchilarda tahliliy fikrlash va asosli bahslashish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Rolga kirish metodi — adabiy qahramonlar obrazini jonlantirish orqali asarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar adabiyot darslarini tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi. Video darslar orqali badiiy asar mazmunini ko‘rgazmali tarzda tushuntirish mumkin. Audio kitoblar esa o‘quvchilarga asarlarni tinglab idrok etish imkonini beradi. Elektron kutubxonalar mustaqil o‘qish madaniyatini rivojlantiradi, onlayn test platformalari esa bilimlarni tezkor va aniq baholashga yordam beradi. Shu sababli raqamli vositalar adabiyot darslarining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsiontexnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Birinchidan, barcha ta’lim muassasalarida zamonaviy texnik jihozlar yetarli emas. Ikkinchidan, ayrim o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Shuningdek, metodik qo‘llanmalar kamligi ham muammo sifatida ko‘riladi. Bundan tashqari, internet tezligi past bo‘lgan hududlarda raqamli ta’lim vositalaridan to‘liq foydalanish qiyinlashadi. Shu sababli bu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ta’lim infratuzilmasini yaxshilash zarur.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularning ijodiy qobiliyatini kuchaytiradi va dars jarayonini qiziqarli qiladi. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
2. Mahkamov U. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. UNESCO. Information and Communication Technology in Education: A Guide. Paris, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini rivojlantirishga oid me’yoriy hujjatlar va qarorlar.

IJTIMOIIY TARMOQLARNING FOYDASI VA ZARARI

Xoliqova Ziyodaxon Nodirbek qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari insituti
Filologiya va tillarni o'qitish:ingliz tili 2-kurs talabasi

Bugungi kunda odamlar, asosan, yoshlar feysbuk, telegram, odnoklassiki, instagram, tvitter, vkontakte kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqdalar. Bularning ichida feysbuk, telegram, tvitter va instagram juda ommalashdi. Aslida ijtimoiy tarmoqlar ilk bor 1995 yilda paydo bo‘lgan. Rendi Konrad ismli shaxs Classmates.com saytini ishga tushiradi. Dunyoning turli burchaklarida ta’lim olayotgan yoshlar bir-biri bilan tanishishi, do‘stlar o‘zaro bir-birini topib, hol-ahvol so‘rab turishlari uchun mazkur sayt tashkil etilgan edi. Bu sayt o‘sha paytda talabalar, yoshlar tomonidan qiziqish bilan kutib olingan.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda ulardan foydalanuvchilar soni ham ko‘paydi. Bugungi kunda saytlarga kiruvchi, internetdan foydalanuvchilarning uchdan ikki qismi mazkur tarmoqlardan foydalanadi. Albatta, bu tarmoqlarning foydali va zararli tomonlari bor.

Foydali tomonlarini ko'radigan bo'lsak juda kop.[1]Asosan,ijtimoiy tarmoq uzoq masofadagi insonlarni birlashtiradi.Ya'ni ular uzoqdan turib ijtimoiy tarmoq orqali muloqot qila oladi.O'quvchilar uy topshiriqlari bajarishda va kerakli va foydali ma'lumotlarni internet tarmoqlaridan izlaydilar.Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq insonlarning eng yaqin do'sti desak mubolag'a bo'lmaydi.Ijtimoiy tarmoqlar Alloh taoloning diniga da’vat qilish vositalaridan biriga aylandi. Diniy idora va uning tizimidagi masjid, madrasa, ilmiy tadqiqot markazlari va ziyoratgohlarning rasmiy veb-saytlari ijtimoiy tarmoqlarda o‘z sahifalarini ochib, o‘sha orqali xalqimizga va butun dunyodagi o‘zbekzabon musulmonlarga diniy-ma’rifiy ma’lumotlarni yetkazish imkoniga ega bo‘lyaptilar. Qolaversa, ko‘plab imom domlalarimiz tarmoqlarda o‘z sahifalarini tashkil etib, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ma’lumotlarni taqdim etib, dinimizni sof holda yetkazish ishiga katta hissa qo‘shmoqdalar.[2]Faqirlar, boquvchisini yo‘qotganlar, bemorlarga moddiy ko‘mak berish maqsadida e’lonlar berish, xayriya tadbirlari tashkil etish, yoshlarni uyushtirish, imkoniyati bor kishilarni shu ishga jalb etishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni katta. Bunga misol qilib “Saxovat” ko‘mak guruhini keltirishimiz mumkin.

Maslahat so‘rash maydoni. Turli kasb vakillari o‘zlariga tegishli mavzularda tarmoq foydalanuvchilaridan maslahat so‘raydilar va kerakli maslahat va g‘oyalar oladilar.[3]Ijtimoiy tarmoqlarning zararli tomonlari ham yo'q emas.Ko'plab insonlar ijimoiy tarmoqqa mukkasidan ketganlar,albatta bu yaxshi emas.Axloqsizlik, fahsh, buzuqlikni targ‘ib qiluvchi saytlar va ularning sahifalari keng yoyilgani.

Mish-mish, yolg‘on, uydirmalar, buzg‘unchi g‘oyalar, soxtalashtirish, tarafkashlikning yoyilgani. Ayrim foydalanuvchilar o‘z sahifalariga soxta rasmlar qo‘yib olishi, ma’lumotlarni soxtalashtirishi, asosi yo‘q, yolg‘on xabarlarni tarqatishi, bir guruhdagi kishilar o‘zlariga teskari fikr bildirgan tarafga (aslida barchalari musulmonlar) nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishlari, faqat

o‘zlarining fikrlarini haq deb, boshqalarning fikrini mensimasliklari bunga misol bo‘ladi.Ushbu tarmoqlarda insoniy aloqalar zaiflashadi, yuzma-yuz ko‘rishish bo‘lmagani uchun o‘zaro mehr kamayadi, voqelikdan uzilib qolish yuz beradi, oilaviy ahillikka, er-xotin o‘rtasidagi totuvlikka salbiy ta’sir qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarga e’tiborni qaratib, oilasiga, ayoliga, ota-onasiga, farzandlariga vaqt ajratolmaslik natijasida o‘rtaga sovuqchilik tushadi.Tarmoqlardan noto‘g‘ri foydalanish vaqtning isrof bo‘lishiga, keragidan ortiq foydalanish esa, unga o‘rganib qolishga sabab bo‘ladi. [4]Keyin unday kishilar xuddi tamaki, spirtli ichimlik, nos va giyohvand moddalarga o‘rganib qolgan kimsalarga o‘xshab internetsiz, ijtimoiy tarmoqlarsiz turolmaydigan bo‘lib qoladi.Turli oqimlar o‘z mafkuralarini yoshlar ongiga singdirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan keng ko‘lamda foydalanmoqdalar. Bu ham yoshlar, umuman, dindan, diniy ma’rifatdan yaxshi xabardor bo‘lmagan kishilarni sof aqidadan og‘ib ketishiga, fiqhiy mazhablar borasida noto‘g‘ri fikr va tushunchaga ega bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Ahli ilm, imom, ulamo kishilar haqida bo‘hton uyushtiruvchi, ularni obro‘sizlantirishga urinuvchi guruhlarning ko‘pligi.

Ulamolar, imom domlalarni yaqindan tanimagan, ular haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lmagan kishilar mazkur bo‘htonchi guruhlarning ta’siriga tushib, so‘zlariga ishonib, ulkan gunoh bo‘lgan – g‘iybat balosiga mubtalo bo‘lmoqdalar.[5] Eng dolzarb masala shundaki,ijtimoiy tarmoqlarning foyda va ziyoni ham bor,ammo bu insonlar uchun juda ham.Turli xil ilovalar,qurilmalar,tarmoqlar va biz foydalanadigan platformalar biz uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Qachonki biz undan foydali maqsadda foydalansak.Agar biz ijtimoiy tarmoqdan keraksiz narsalarni tortib,undan zavqlansak va doimo qiladigan ishimizga ijtimoiy tarmoqdan foydalanishni haddan ziyod qo'shsak bu juda yomon natijadir.Shuning uchun,biz tanganing ikkinchi tomonini ham ko'rishim darkor.Xulosa sifatida shuni aytish joizki,ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular insonlarga tezkor axborot almashish, bilim olish va muloqot qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ortiqcha foydalanish insonning vaqtini behuda sarflashiga, ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va me’yorida foydalanish muhim ahamiyatga ega. Foydali tomonlaridan unumli foydalanib, zararli jihatlaridan ehtiyot bo‘lish orqali inson o‘z hayot sifatini yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekistonni birgalikda barpo etamiz. Toshkent, 2017.
3. To‘rayev B. Axborot texnologiyalari asoslari. Toshkent, 2020.
4. Xoliqov A. Internet va ijtimoiy tarmoqlar psixologiyasi. Toshkent, 2021.
5. UNICEF. The State of the World’s Children Report. 2021.
6. World Health Organization. Public Health and Social Media Use. 2022.

INNOVATSION BOSHQARUV VA STARTAPLAR

Pardaboyeva Sojida Bolbek qizi
O‘zbekiston Respublikasi, Nukus shahri, O’zDSMI Nukus filiali “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish “ yo’nalishi 3-kurs talabasi

Innovatsiya va startaplar kelajak iqtisodiyoti poydevori - bugungi shiddatli zamonda **innovatsiya** tushunchasi shunchaki yangilik yaratish emas, balki mavjud muammolarga eng samarali va zamonaviy yechim topish sanaladi. Innovatsiya — bu ilm-fan yutug‘ini hayotga tatbiq etib, undan foyda olish jarayonidir. U mahsulotni sifatliroq, xizmatni esa tezroq qilishga xizmat qiladi.

Startap esa mana shu innovatsiyani bozorga olib chiquvchi "uchuvchi" biznes loyihadir. Oddiy tadbirkorlikdan farqli o‘laroq, startapning asosiy maqsadi — qisqa vaqt ichida texnologiyalar yordamida global miqyosda kengayish (masshtablash). Startaplar doimo yuqori riskli bo‘ladi, ammo muvaffaqiyatga erishsa, butun bir sohani tubdan o‘zgartirib yuborish quvvatiga ega. Masalan, oddiy taksi xizmatining innovatsion startapga aylanishi natijasida "Uber" yoki “Yandex Go” kabi platformalar dunyoga keldi.

Startap ekotizimi rivojlanishi uchun uchta asosiy ustun kerak:

1. **G‘oya va jamoa:** Muammoni hal qila oladigan bilimli mutaxassislar.
2. **Infrastruktura:** IT-parklar, kovorking markazlari va akseleratsiya dasturlari.
3. **Investitsiya:** G‘oyani yirik biznesga aylantirish uchun zarur bo‘lgan “venchur” mablag‘lari.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham startap muhiti faol rivojlanmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va grantlar yosh tadbirkorlarga o‘z loyihalarini xalqaro darajaga olib chiqish imkonini bermoqda. Innovatsiya va startaplar nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki jamiyatning turmush darajasi yaxshilanishini ham ta'minlaydi.

Innovatsion boshqaruv — bu yangi g‘oyalarni maksimal foyda olish maqsadida mahsulot, texnologiya yoki xizmatga aylantirish jarayonidir.

Asosiy ob’ektlar: Innovatsiyalar va innovatsion jarayonlar.

Maqsad: Bozorda raqobatbardoshlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar ehtiyojlarini ha usullar bilan qondirish.

Strategik ahamiyat: Iqtisodiy o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilish va yirik miqyosdagi qarorlarni qabul qilish orqali yuqori samaradorlikka erishish.[21]

Innovatsion boshqaruv va startaplar: Yangi davr iqtisodiyoti strategiyasi- tez o‘zgarayotgan global dunyoda an’anaviy biznes modellarining o‘rnini innovatsion yechimlar egallamoqda. Iqtisodiy o‘sishning asosiy omili endilikda faqat resurslar emas, balki intellektual mulk va startap ekotizimi hisoblanadi. Innovatsion boshqaruv va startaplar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish zamonaviy tadbirkorlikning muvaffaqiyat garovidir.

Innovatsion boshqaruv (Innovation Management) – bu g‘oyani tug‘ilishidan to uning bozorda tayyor mahsulot sifatida namoyon bo‘lishigacha bo‘lgan jarayonni

[21]O‘zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to‘g‘risida"gi Qonuni: Mahalliy ekotizim, IT Park va davlat qo‘llab-quvvatlovi haqidagi qismlar rasmiy normativ hujjatlarga asoslangan.

tizimli boshqarishdir. Bu jarayon faqatgina texnologik kashfiyotlarni emas, balki biznes-jarayonlarni optimallashtirish, yangi marketing strategiyalarini joriy etish va boshqaruv usullarini takomillashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Innovatsion boshqaruvning asosiy vazifasi – korxonaning raqobatbardoshligini doimiy ravishda oshirib borishdir. Bunga erishish uchun menejerlar nafaqat bugungi kunni, balki kelajakdagi bozor trendlarini ham oldindan ko‘ra bilishlari talab etiladi.

Startaplar-innovatsiyalarning amaliy maydoni- startap – bu yuqori noaniqlik sharoitida yangi mahsulot yoki xizmat yaratish maqsadida tashkil etilgan vaqtinchalik tuzilmadir. Startaplarning an’anaviy kichik biznesdan asosiy farqi ularning **masshtablashuvi (scalability)**, ya’ni qisqa vaqt ichida juda tez o‘sish salohiyatiga egaligidadir.

Startaplar muvaffaqiyatining uchta ustuni:

Muammoning yechimi: Muvaffaqiyatli startap mavjud muammoni hal qiladi (masalan, Uber transport muammosini, Airbnb turar joy masalasini hal qilgan).

1. **Venchur moliyalashtirish:** Startaplar odatda o‘z mablag‘lari bilan emas, balki "farishta" investorlar va venchur fondlar ko‘magida rivojlanadi.
2. **Gibrid boshqaruv:** Startaplarda qat’iy iyerarxiya o‘rniga moslashuvchan (Agile) boshqaruv usullari qo‘llaniladi.[22]

Global va mahalliy dinamika- raqamlarga e’tibor qaratadigan bo'lsak, dunyodagi eng yirik kompaniyalarning aksariyati (Apple, Google, Amazon) o‘z vaqtida startap sifatida boshlangan. Bugungi kunda sun’iy intellekt (AI), FinTech (moliyaviy texnologiyalar) va EdTech (ta’lim texnologiyalari) sohalari startaplar uchun eng jozibador yo‘nalishlar hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham innovatsion infratuzilmani rivojlantirish davlat darajasidagi ustuvor vazifaga aylandi. IT Park va Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan yaratilgan sharoitlar natijasida mamlakatimiz 2025-yilga kelib global startap ekotizimlari reytingida sezilarli o‘sishga erishdi. Mahalliy startaplar nafaqat ichki bozorda, balki qo‘shni davlatlar va xalqaro maydonlarda ham o‘z o‘rnini topmoqda.

Muvaffaqiyatli keys bu O‘zbekiston startap ekotizimi namunalari, innovatsion boshqaruvning amaliy samarasini mahalliy startaplar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, **“Uzum”** ekotizimi qisqa vaqt ichida O‘zbekistondagi birinchi "yagona shox" (qiymati 1 mlrd dollardan oshgan startap) darajasiga yetdi. Bu loyiha e-commerce (elektron tijorat), fintex va logistikani yagona platformada birlashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotida haqiqiy innovatsion inqilob yasadi.

Shuningdek, **“Payme”** yoki **“Click”** kabi to‘lov tizimlari ham o‘z vaqtida startap sifatida boshlanib, bugun millionlab foydalanuvchilarning kundalik ehtiyojiga aylandi. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri boshqaruv va kreativ yechim har qanday mahalliy g‘oyani global miqyosdagi biznesga aylantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stiv Blank — “The Startup Owner's Manual”: Startapning “miqyoslanuvchi biznes modelini qidirish” jarayoni ekanligi haqidagi qarashlar shu muallifga tegishli.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” (24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-son).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (11.07.2022 yildagi PF-165-son).
4. O‘quv adabiyotlari va darsliklar:
5. Abduhalilova L.T. “Innovatsion menejment”. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2020.
6. Peter Drucker. “Innovation and Entrepreneurship” (Innovatsiya va tadbirkorlik). – Harper Business, 2006. (Jahon miqyosidagi eng mashhur darsliklardan biri).
7. Global Innovation Index 2024. (WIPO hisoboti) – Dunyo davlatlarining innovatsion rivojlanish reytingi ma’lumotlari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi rasmiy sayti – www.mininnovation.uz.
9. IT Park Uzbekistan rasmiy portali – www.it-park.uz (Startap ekotizimi va statistikasi bo‘yicha).

CHET TILINI O'QITISH METODIKASINI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INTENSIV QO'LLASH

Dehqonaliyeva Iroda Muhammadvali qizi
Is’hoqhon Ibrat nomidagi Namangan Davlat Chet tillari Institutining Filologiya va tillarni o’qitish yo’nalishi talabasi

Chet tilini o'qitish metodikasining rivojlanish tarixi. Chet tillarini o'qitish metodikasi globallashuv va xalqaro muloqotning kuchayishi sharoitida o'ziga xos dolzarblikka ega bo'lib qoldi. Zamonaviy jamiyatda chet tili nafaqat bilim sohasi, balki kasbiy muvaffaqiyat, ilmiy tadqiqotlar va madaniy almashinuvning asosiy vositasiga aylandi [3]. Shu sababli, ushbu metodikaning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish zamonaviy ta'lim tizimida samarali usullarni tanlash uchun muhim asosdir.

Chet tillarini o'qitish metodikasi fan sifatida XIX asrning birinchi yarmida shakllangan. Dastlabki bosqichda **grammatika-tarjima metodi** (Grammar-Translation Method) hukmronlik qildi. Bu usul klassik tillar (lotin va yunon) o'qitishdan kelib chiqqan bo'lib, grammatik qoidalarni yodlash, matnlarning so'zma-so'z tarjimasi va yozma mashqlarga asoslangan edi. Maqsad o'quvchining intellektual qobiliyatini rivojlantirish va adabiy matnlarni tushunish bo'lgan, ammo og'zaki nutq va tinglab tushunish ko'nikmalariga deyarli e'tibor berilmagan [3;1].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida grammatika-tarjima metodiga qarshi chiqib, **to'g'ridan-to'g'ri metod** (Direct Method) paydo bo'ldi. Fransiya va Germaniyada keng tarqalgan bu usul (M. Berlitz, F. Gouin va boshqalar) o'qitish jarayonida faqat

maqsadli til ishlatilishini, tarjima qilmasdan tabiiy muhitda o'rgatishni ta'kidlagan. Bu birinchi til o'rganish jarayoniga o'xshash tabiiy yondashuv edi [3].

XX asrning birinchi yarmida H. Palmer va boshqalar **og'zaki va situativ yondashuvlarni** ishlab chiqdilar. Ikkinchi Jahon urushidan keyin AQShda **audio-lingual metod** (Audiolingual Method) rivojlandi. U xatti-harakat psixologiyasiga (stimul-javob) asoslangan bo'lib, dialoglar, takrorlash va avtomatlashtirilgan mashqlar orqali og'zaki ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan edi [3].

1960–1970-yillarda **gumanistik yondashuvlar** (Suggestopedia, Silent Way, Community Language Learning) va **kommunikativ kompetensiyaga asoslangan metod** (Communicative Language Teaching — CLT) keng qo'llanila boshladi. CLT ning asosiy g'oyasi — tilni real muloqot vositasi sifatida o'rgatish, ya'ni grammatika va leksikani kommunikativ vazifalar doirasida ishlatish edi [2;3].

XXI asrda metodika **integrativ xususiyat** kasb etdi: mazmun asosidagi o'qitish (Content-Based Instruction), vazifaga asoslangan o'qitish (Task-Based Learning), loyihaviy usullar, flipped classroom va raqamli texnologiyalar (AI, virtual reallik) keng qo'llanilmoqda [3].

Shunday qilib, chet tilini o'qitish metodikasining rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablari, psixologiya, lingvistika va pedagogika fanlaridagi yutuqlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu tarixiy jarayonni o'rganish innovatsion metodlarni tanlash va qo'llash uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Chet tilini o'qitish metodikasini boshlang'ich sinif o'quvchilarida intensiv qo'llash

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilini intensiv o'qitish — bu til o'rganish jarayonini tezlashtirish, ko'nikmalarni chuqur shakllantirish va real muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. Intensiv metodika odatda haftasiga ko'proq soat (masalan, 5–10 soat va undan ortiq) ajratilishi, immersion (botirish) yoki CLIL (Content and Language Integrated Learning — mazmun va til integratsiyalangan o'qitish) kabi modellarga asoslanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinfda intensiv ta'sir til o'rganishning sifatini sezilarli darajada oshiradi, ammo bu yondashuvning samaradorligi o'qituvchi malakasi, resurslar va dastur tuzilishiga bog'liq [3;8].

Intensiv o'qitishning asosiy afzalliklaridan biri — tilga ko'proq vaqt ajratilishi orqali tabiiy til o'rganish jarayoniga yaqinlashishdir. Immersion dasturlari (total yoki partial) bunda yetakchi o'rin tutadi: o'quvchilar maktab dasturining bir qismini chet tilida o'rganadilar, bu esa tilni nafaqat o'quv ob'ekti, balki mazmunni yetkazish vositasi sifatida ishlatish imkonini beradi [5]. Masalan, total immersionda dastlabki yillarda barcha darslar chet tilida o'tkaziladi, natijada o'quvchilar yuqori darajadagi til malakasiga erishadilar. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bunday dasturlarda o'quvchilarning tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilanadi [8]. CLIL yondashuvi ham shunga o'xshash: fanlar (masalan, tabiatshunoslik, matematika) chet tilida o'qitiladi, bu tilni real kontekstda qo'llashga yordam beradi va motivatsiyani oshiradi [6]. Bir qator tadqiqotlarda yuqori intensivlikdagi CLIL dasturlari past intensivlikdagi yoki oddiy EFL darslariga nisbatan tinglash va o'qishda yuqori natijalarni ko'rsatgan [10].

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda intensiv o'qitishning samaradorligi ularning yosh xususiyatlari bilan izohlanadi. Yosh bolalar tabiiy ravishda tilni intuitiv qabul qiladilar, fonetik tizimni tez o'zlashtiradilar va talaffuzda mahalliy darajaga yaqinlashadilar [12]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta boshlangan intensiv o'qitish (masalan, 1-sinfdan) o'rta maktabgacha davom etganda til malakasida uzoq muddatli afzallik beradi: erta boshlagan o'quvchilar 5 va 9-sinflarda kech boshlaganlarga nisbatan yaxshiroq natija ko'rsatgan [9]. Bundan tashqari, intensiv dasturlar kognitiv rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi: til o'rganish orqali diqqatni jamlash, muammolarni hal qilish va metakognitiv ko'nikmalar yaxshilanadi [5], ammo bu afzallik har doim ham takrorlanmaydi.

Ammo intensiv qo'llashning o'ziga xos qiyinchiliklari ham mavjud. Birinchidan, o'qituvchilar malakasi: ko'pincha boshlang'ich sinf o'qituvchilari chet tilini yetarli darajada bilmaydilar yoki intensiv metodlarga maxsus tayyorlanmagan bo'ladilar [7]. Ikkinchidan, resurslar va vaqt: haftasiga 1–2 soatlik oddiy darslar bilan solishtirganda, intensiv dasturlar ko'proq resurs (materiallar, o'qituvchi yuklamasi) talab qiladi. Uchinchidan, o'quvchilarning individual farqlari: ba'zi bolalarda til o'rganishga qiziqish yuqori bo'lsa, boshqalarda stress yoki demotivatsiya paydo bo'lishi mumkin [13]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar dastur o'yin asosida tuzilmasa yoki til siyosati qattiq bo'lsa, bolalarning farovonligi pasayishi mumkin [8].

O'zbekiston kontekstida intensiv metodlarni qo'llashda quyidagi yondashuvlar samarali bo'lishi mumkin: 1) CLIL elementlarini joriy etish (masalan, ingliz tilida oddiy fan mavzularini o'qitish); 2) o'yin, qo'shiq, harakatli faoliyatlarni ko'paytirish; 3) o'qituvchilarni maxsus treninglar orqali tayyorlash. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, o'yin asosidagi va mazmun integratsiyalangan intensiv dasturlar bolalarning og'zaki nutq, tinglash va motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi [11].

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilini intensiv o'qitish yuqori samaradorlikka ega bo'lishi mumkin, ammo bu yondashuvning muvaffaqiyati o'qituvchi malakasi, dastur intensivligi va bolalarga moslashtirilgan metodlarga bog'liq. Ushbu metodika nafaqat til malakasini, balki kognitiv va ijtimoiy rivojlanishni ham qo'llab-quvvatlaydi [3; 6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Howatt, A. P. R., & Widdowson, H. G. (2004). *A History of English Language Teaching* (2nd ed.). Oxford University Press.
2. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Penguin.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. Bialystok, E., et al. (2009). Bilingualism and cognitive development. *PMC*.
5. Center for Applied Linguistics. (2022). *Foreign Language Immersion Programs*.
6. Coyle, D., et al. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
7. Edelenbos, P., et al. (2006). Models of early foreign language learning in Europe.

8. Huang, B. H. (2016). A synthesis of empirical research on the linguistic outcomes of early foreign language instruction. *International Journal of Multilingualism*.
9. Jaekel, N., et al. (2022). The impact of early foreign language learning on language proficiency development. *System*.
10. Jaekel, N., et al. (2024). Intensity matters in CLIL: Evidence from primary school learners' receptive skills. *System*.
11. Kim, H.-J., & Huh, K. (2024). Character-integrated English language learning through CLIL for young EFL learners. *English Teaching*.
12. Moon, J. (2005). *Teaching English to Young Learners*. Macmillan.
13. Nikolov, M. (2000). Issues in early foreign language learning.
14. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INTEGRATSIYAVIY YONDASHUV

Vahobova Kamola Zafarjon qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi talabasi

Globalizatsiya sharoitida xorijiy tillarni bilish shaxsning akademik va kasbiy muvaffaqiyati, shuningdek, madaniyatlararo muloqot uchun muhimdir. An'anaviy til o‘qitish metodikalari tilning alohida komponentlarini izolyatsiya qilingan holda o‘rgatib, real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda cheklovlar yaratishi mumkin [1]. Shu sababli, xorijiy tillarni o‘qitishda integratsiyaviy yondashuv dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv tilni boshqa fanlar, madaniyatlar va real hayotiy kontekstlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishni nazarda tutadi, shu orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini, tanqidiy fikrlashini va motivatsiyasini oshiradi [2].

Integratsiyaviy yondashuv til o‘qitish metodikasida konstruktivizm, sotsiomadaniy nazariya va kognitiv psixologiyaga tayanadi. Lev Vygotskiyning sotsiomadaniy nazariyasi tilni ijtimoiy o‘zaro aloqa orqali o‘rganishni ta'kidlaydi [3]. Integratsiyaviy yondashuv tilni real hayotiy vaziyatlarda va ma'noli kontekstlarda o‘rganishni rag‘batlantiradi. Stiven Krashenning til o‘zlashtirish nazariyasi (Input Hypothesis) ham tushunarli kirish (comprehensible input) orqali tilni tabiiy o‘zlashtirishni ta'kidlab, ushbu yondashuvga asos bo‘ladi [4].

Integratsiyaviy yondashuvning mashhur modellari qatoriga Content and Language Integrated Learning (CLIL), Task-Based Language Teaching (TBLT) va Content-Based Instruction (CBI) kiradi.

CLIL: Tilni boshqa fanlar (tarix, geografiya, tabiiy fanlar) mazmunini o‘rganish orqali o‘rgatishni nazarda tutadi [5]. Bu o‘quvchilarga tilni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini berib, ham til, ham fan bilimlarini bir vaqtda rivojlantiradi.

TBLT: Til o‘rganish ma'lum bir vazifani bajarish orqali amalga oshiriladi, bu vazifalar real hayotiy vaziyatlarni aks ettirishi kerak [6]. TBLT o‘quvchilarni tilni ma'noli muloqot uchun ishlatishga undaydi.

Ushbu tadqiqot xorijiy tillarni o‘qitishda integratsiyaviy yondashuvni tahlil qilish uchun sifatli tadqiqot metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi integratsiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini o‘rganish, amaliy strategiyalarini aniqlash va O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot yondashuvi: Tadqiqot sifatli (qualitative) yondashuvga tayanadi, chunki u hodisaning chuqur tushunchasini, kontekstual tafsilotlarni va ishtirokchilarning nuqtai nazarlarini o‘rganishga qaratilgan [8]. Bu yondashuv integratsiyaviy yondashuvning murakkab dinamikasini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Integratsiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va xalqaro tajribalarni tahlil qilish natijasida, ushbu yondashuvning xorijiy tillarni o‘qitishdagi bir qator muhim afzalliklari aniqlandi.

Integratsiyaviy yondashuv, ayniqsa CLIL va TBLT modellarida, tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga urg‘u beradi. Bu o‘quvchilarga tilni muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishga yordam beradi, natijada og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilanadi [9]. O‘zbekiston ta’lim tizimida kommunikativ yondashuvga o‘tish maqsad qilinganligi sababli, integratsiyaviy yondashuv bu maqsadga erishishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Integratsiyaviy darslar tilni boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularning fanlararo aloqalarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

Integratsiyaviy yondashuvning xorijiy tillarni o‘qitishdagi samaradorligi va uning O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun potentsial afzalliklari yuqoridagi tahlillarda ko‘rsatildi. Bu yondashuv til o‘rganishni yanada ma’noli, qiziqarli va samarali jarayonga aylantirishi mumkin. Uni muvaffaqiyatli joriy etish uchun tizimli yondashuv va bir qator muhim tavsiyalarni hisobga olish lozim.

Integratsiyaviy yondashuv tilni izolyatsiya qilingan holda emas, balki boshqa fanlar va real hayotiy kontekstlar bilan bog‘liq holda o‘rganishga asoslanadi. Bu Vygotskiyning sotsiomadaniy nazariyasi va konstruktivizm tamoyillari bilan uyg‘unlashadi [3]. CLIL, TBLT va CBI kabi modellar tilni o‘rganishni mazmunli faoliyatga aylantirib, o‘quvchilar motivatsiyasini va kommunikativ kompetensiyasini oshiradi [5, 6, 7].

O‘zbekiston ta’lim tizimida kommunikativ yondashuvga o‘tish bo‘yicha islohotlar integratsiyaviy yondashuvni joriy etish uchun qulay zamin yaratadi. Biroq, mavjud o‘quv dasturlari va o‘qituvchilarning tayyorgarligi ko‘pincha an’anaviy usulga asoslangan bo‘lib qolmoqda, bu esa joriy etishda asosiy to‘siqlardan biridir. Fanlararo aloqalarni mustahkamlash uchun turli fan o‘qituvchilari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurati ham mavjud.

Xorijiy tillarni o‘qitishda integratsiyaviy yondashuv til o‘rganishni kompleks, ma’noli va samarali jarayonga aylantirish imkoniyatini beradi. Ushbu bobda uning nazariy asoslari, jumladan, konstruktivizm va sotsiomadaniy nazariya tahlil qilindi. CLIL, TBLT va CBI kabi asosiy modellar ko‘rib chiqilib, ularning til o‘zlashtirish, motivatsiya va fanlararo aloqalarni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, integratsiyaviy yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va madaniyatlararo tushunishni chuqurlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Coyle, Do, Philip Hood, and David Marsh. Mazmun va Til Integratsiyalashgan Ta'limi: Tadqiqot va Amaliyotdan Olingan Tushunchalar. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
2. Lantolf, James P., and Steven L. Thorne. Sotsiomadaniy nazariya va Ikkinchi til rivojlanishining genezisi. Oxford: Oxford University Press, 2006.
3. Dalton-Puffer, Christiane. "Mazmun va tilni integratsiyalashgan o'qitishdagi (CLIL) natijalar va jarayonlar: Farqlangan manzaraga qarab." Til o'qitish tadqiqoti, vol. 13, no. 2, 2009, pp. 139-150.
4. Kramsch, Claire. "Til o'qitishda madaniy nuqtai nazar." Amaliy Tilshunoslik, vol. 21, no. 3, 2000, pp. 313-334.
5. Ellis, Rod. Topshiriqqa asoslangan til o'rganish va o'qitish. Oxford: Oxford University Press, 2003.
6. Ellis, Rod. Topshiriqqa asoslangan til o‘rganish va o‘qitish. Oxford: Oxford University Press, 2003.
7. Richards, Jack C., and Theodore S. Rodgers. Til o‘qitishdagi yondashuvlar va metodlar. Cambridge University Press, 2001.
8. Creswell, John W. Tadqiqot dizayni: sifatli, miqdoriy va aralash metodlar. Sage Publications, 2014.
9. Harmer, Jeremy. Ingliz tilini qanday o‘qitish kerak. Longman, 2007.

KIBER JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH VA KIBER GIGIYENANI SHAKLLANTIRISH: MILLIY TAJRIBA

Iskandarov Iskandar Qurbonnazar o‘g‘li
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 1-kurs talabasi.

Internet texnologiyalari jadal rivojlanishi va takomillashib borishi natijasida axborot havfsizligiga oid tahdidlar ham kuchaymoqda. XXI asr “Internet asri”. Ushbu davr insoniyat tarixida bir pog‘onaga yuksalish davri bo‘ldi. Zamonaviy dunyo axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberjinoyatchilik muammosini global miqyosda keskinlashtirmoqda. Kiberhujumlar, ma’lumot o‘g‘irlash, zararli dasturlar tarqatish va boshqa zamonaviy shakllar ijtimoiy hayotga, milliy xavfsizlikka va iqtisodiyotga jiddiy tahdid solmoqda. O‘zbekistonda bu jarayonlar raqamlashtirish siyosati doirasida yanada dolzarb bo‘lib kelmoqda, chunki mamlakatning raqamli infratuzilmasi kengayib borayotgani bois kiberjinoyatlar ham ortmoqda. Bugungi kunda kiberjinoyatga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida amal qilmoqda. Minglagan fuqarolarning ma’lumotlari o‘g‘irlanganligi, soxta bank hisoblarini ochish va noqonuniy tartibda kreditlar rasmiylashtirish buning isbotidir. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasiga muvofiq, “Har kim oilaviy va shaxsiy sirga ega bo‘lish huquqiga ega” [1].

Kiberjinoyat bu- kompyuter va tarmoqning birgalikdagi aloqasi ostida sodir etiluvchi jinoyat turi. Kompyuter jinoyat paytida maqsadli yo‘naltirilgan qurol vazifasini bajarib beradi. Kiberjinoyat kimningdir xavfsizligi va moliyaviy saviyasiga zarar yetkazish maqsadida sodir etiladi. Kiberjinoyarchilikning asosiy maqsadi moliyaviy foyda, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, texnik tizimlarni ishdan chiqarish, soxta axborot tarqatish va davlat manfaatlariga zarar yetkazish hisoblanadi. Bugungi kunda kiberjinoyatlarning quyidagi turlari mavjud:

- kiberterrorizm;
- fishing;
- tovon talab qiluvchi dasturlar;
- internet of thing hujumlari;
- turli zaxarli .apk fayllar
- DDoS hujumlar.

Ushbu holatlar nafaqat mamlakatimizda balki, butun yer yuziga tahdid solmoqda. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida bir nechta normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.04.2025-yildagi “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora tadbirlar to‘g‘risida” gi Qaror bunga misol. Qarorga muvofiq, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tuzilmasida Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga va raqamli tergovga ko‘maklashish markazi tashkil etiladi hamda kiberjinoyatlar sodir etilishiga sabab va shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida tergovga qadar tekshiruv hujjatlarini, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni hamda jinoyat ishlarini ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish orqali asoslantirilgan tavsiyalar ishlab chiqish va huquqni qo‘llash amaliyotiga tatbiq etish asosiy vazifasi qilib belgilanadi [2].

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizmini takomillashtirish to‘g‘risida” gi Prezident Farmoni ham qabul qilingan. Farmonda O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik sohasida asosiy strategik maqsad va vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- milliy kiberbarqarorlikni mustahkamlash, muhim axborot va davlat raqamli infratuzilmasini himoya qilish;
- kiberxavflarni tizimli kamaytirish hamda fuqarolar, xususiy sektor va davlatning raqamli xavfsizlik darajasini oshirish;
- kiberjinoyatchilikka qarshi faol kurashish;
- kiberxavfsizlik sohasida raqamli innovatsiyalar, sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va texnologik mustaqillikni mustahkamlash;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va kibermakonni global tartibga solish jarayonlarida ishtirok etish;

- kibertahdidlarga javob qaytarish milliy markazlari va kibertahdidlarni erta aniqlash hamda ular haqidagi ma’lumotlarni tezkor almashish tizimlarini tashkil etish [3].

Ushbu holatlarni tahlil qilishda raqamli suverenitet tushunchaasiga ham to‘xtalib o‘tish muhim. Raqamli suverenitet bu statistik holat emas, balki doimiy kurash va moslashuv jarayoni. Uning huquqiy tabiati davlatning oliy hokimiyatini virtual makonga proyeksiyalashdan iborat. Bu jarayon milliy qonunchilikni qo‘llash, ma’lumotlarni lokalizatsiyasini talab qilish va texnologik mustaqillikka intilish orqali amalga oshiriladi [4].

Tadqiqot kiberxavfsizlik sohasida bir nechta muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Ya’ni ushbu sohaga oid kadrlarning va kadrlar malakasining yetishmasligi, axborot sohasidagi bilimlarning kamligi, va yetarli himoya mexanizmi choralari ishlab chiqilmagananligi shuningdek, aholida kibermadaniyat kamligi. Bunga bir nechta yechib ko‘rsatib o‘tish mumkin;

Ushbu kiberxavfsizlik muammolarini hal qilish uchun aniq va tizimli choralar ko‘rish zarur. Birinchidan, kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga asoslangan zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy qilish hamda xalqaro sertifikatlash markazlarini ochish. Ikkinchidan, aholining kibermadaniyatini oshirish uchun ommaviy axborot vositalarida doimiy targ‘ibot ishlarini olib borish va maktablardan boshlab raqamli gigiyena darslarini kiritish lozim. Uchinchidan, ishonchli himoya mexanizmlarini ishlab chiqishda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, milliy ilmiy markazlarni moliyaviy ta’minlash muhim. Shuningdek, axborot xavfsizligi bo‘yicha xodimlarning malakasini muntazam oshirib boruvchi maxsus treninglar tashkil etish, xorijiy ekspertlar almashinuvuni yo‘lga qo‘yish.

Shuningdek kibermadaniyat va kibergigiyenani shakllantirish, aholi orasida targ‘ibot tushuntirish ishlarini olib borish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aholida va kadrlarda kiberhuquq va kiberetika madaniyatini shakllantirishda “Kiberxavfsizlik asoslari” ni o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. CISO lar kiberxavflarni boshqarish uchun NIST Risk Management Framework esa turli reyting va xizmatlarni tizim hamda standartlarda amalga oshiradi [5].

Xulosa qilib aytgand, internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shayotgan bo‘lsa-da, u bilan bir qatorda kiberxavfsizlikka oid tahdidlar ham keskin ortib bormoqda. Kiberjinoyatchilik bugungi kunda global muammo sifatida shakllanib, nafaqat alohida shaxslar, balki jamiyat, iqtisodiyot va davlat xavfsizligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. O‘zbekistonda raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirib, kiberjinoyatlarga qarshi kurashishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Shu sababli aholida kibergigiyena va kibermadaniyatni yanada orttirish ishini amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. https://lex.uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.04.2025-yildagi “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini

yanada kuchaytirishga qaratilgan chora tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-153-son. https://www.lex.uz/ru/docs/-7511145
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.03.2026-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizmini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-38-son https://lex.uz/doc-passport/-8079286
4. Abdixakimov Islombek Bahodir o‘g‘li. Kiber huquq. O‘quv qo‘llanma.-T.: TDYU nashriyoti, 2025. 418b. https://drive.google.com/file/d/1uMeNKd221qmrno2sSiZgiOYB6xRjGVK7/view
5. Muxtarov Farrix Muhammadovich TATU Farg‘ona filiali dotsenti. KIBERHUQUQ VA KIBERETIKA MADANIYATINING SHAKLLANTIRISHDA “KIBERXAVFSIZLIK ASOSLARI” FANINI O‘QITISHNING DOLZARBLIGI. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali “Al- Farg‘oniy avlodlari” electron ilmiy jurnali. ISSN 2181-4252. TOM: 1-son. 2024-yil.

CHET TILINING TALIM TIZIMIDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Jenisbaeva Nilufar Tursinbay qizi
Innovatsion texnologiyalar universiteti 1-bosqich talabasi
Ilimiy rahbar: Kalimbetova Hurliman
Innovatsion texnologiyalar universiteti assistant o‘qituvchisi

Hozirgi zamonda ta’lim tizimi jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Har bir davlatning taraqqiyoti, uning iqtisodiy qudrati va ilmiy salohiyati bevosita ta’lim tizimining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va uni xalqaro talablarga moslashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayoni tufayli dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi aloqalar tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayon turli davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bilan birga, turli tillarni bilish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.Chet tili nafaqat muloqot vositasi, balki bilim olishning muhim manbai hamdir. Bugungi kunda ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi ko‘plab yangiliklar asosan chet tillarida e’lon qilinadi. Xususan, ingliz tili xalqaro ilmiy til sifatida keng qo‘llanilmoqda. Agar talaba chet tilini bilsa, u ushbu manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uning bilim darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Xususan, ingliz tili xalqaro ilmiy til sifatida keng qo‘llanilmoqda. Agar talaba chet tilini bilsa, u ushbu manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uning bilim darajasini sezilarli darajada oshiradi.O‘zbekiston Respublikasida ham chet tillarini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday deydi:

“Chet tillarini mukammal egallash bugungi kunda har bir yosh uchun hayotiy zaruratga aylanmoqda.[1;27]

Bu fikr ta’lim tizimida chet tillarining o‘rni naqadar muhim ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.Chet tilining ta’lim tizimidagi roli ko‘p qirrali va murakkab jarayon sifatida qaraladi. Eng avvalo, u ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimi faqat milliy darsliklar bilan cheklanib qolmay, balki xalqaro manbalarga ham tayanadi. Talaba chet tilini bilsa, u xorijiy ilmiy adabiyotlar, maqolalar va tadqiqotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi[4;8]

Eng avvolo, chet tillarini o‘rganish metodikasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til o‘qitishda kommunikativ metod, interaktiv usullar, multimedia vositalaridan foydalanish samarali hisoblanadi[5;15]. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Ikkinchidan, chet tillari xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘plab oliy ta’lim muassasalari xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qilmoqda. Talabalar almashinuvi dasturlari, grantlar va ilmiy loyihalar aynan til bilish orqali amalga oshiriladi.Masalan, Erasmus+ dasturi orqali Yevropa universitetlarida o‘qish imkoniyati mavjud bo‘lib, unda qatnashish uchun ingliz yoki boshqa xorijiy tilni bilish talab etiladi. Shuningdek, O‘zbekistonlik talabalar Turkiya, Janubiy Koreya va Germaniya universitetlarida tahsil olish uchun til imtihonlaridan o‘tishlari kerak bo‘ladi. Bu esa yoshlarning xalqaro ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga katta imkon yaratadi

Uchinchidan, chet tilini bilish yoshlarning kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy mehnat bozorida chet tilini bilgan mutaxassislar yuqori baholanadi. Xalqaro kompaniyalar va tashkilotlarda ishlash uchun til bilish muhim talab hisoblanadi.Masalan, xalqaro kompaniyalarda, jumladan, IT sohasida ishlash uchun ingliz tilini bilish asosiy talab hisoblanadi. Google, Microsoft yoki boshqa yirik kompaniyalarda ishlashni istagan mutaxassislar ingliz tilida erkin muloqot qila olishi kerak. Bundan tashqari, turizm, diplomatiya va aviatsiya sohalarida ham chet tilini bilish majburiy hisoblanadi. Bu esa yoshlar uchun ko‘plab yangi ish imkoniyatlarini ochadi.

Bundan tashqari, chet tillarini o‘rganish insonning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, ikki yoki undan ortiq tilni biladigan insonlarda xotira kuchliroq bo‘ladi, mantiqiy fikrlash tez rivojlanadi va muammolarni yechish qobiliyati oshadi. Til o‘rganish jarayoni insonning diqqatini jamlash, analitik fikrlash va ijodiy yondashuvini ham rivojlantiradi.

Chet tillarini o‘rganish orqali inson boshqa xalqlarning madaniyatini ham o‘rganadi.Inson boshqa xalqning tilini o‘rganish orqali uning madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlari bilan yaqindan tanishadi. Bu esa millatlar o‘rtasida tushunmovchiliklarni kamaytiradi va global hamjihatlikni kuchaytiradi. Masalan, ingliz tilini bilgan inson Amerika yoki Yevropa mamlakatlari vakillari bilan bevosita muloqot qila oladi, bu esa madaniy almashinuvni osonlashtiradi..

Zamonaviy texnologiyalar asosan chet tillarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Internet platformalari, mobil ilovalar va onlayn kurslar orqali istalgan vaqtda mustaqil ravishda til o‘rganishda koplagan imkoniyatlar mavjud. Duolingo, BBC Learning English, Coursera va shunga oxshash platformalar til o‘rganishni interaktiv va samarali qiladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, davlatimiz tomonidan chet tillarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda chet tillarini o‘qitish tizimi takomillashtirilmoqda. O‘qituvchilarning malakasini oshirish, zamonaviy metodikalarni joriy etish va xalqaro standartlarni qo‘llash ishlari olib borilmoqda.

Chet tilining ta’lim tizimidagi roli beqiyosdir. U ta’lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, yoshlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli chet tillarini o‘rganish bugungi kunda har bir yosh uchun muhim va zarur vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ta’lim va yoshlar siyosatiga oid nutqlar va ma’ruzalar. Toshkent, 2017–2025. (1-bet)
2. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2007. (28-bet)
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). Strasbourg, 2020. (33-bet)
4. Crystal, D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2012. (15-bet)
5. European Commission. Erasmus+ Programme Guide. Brussels, 2022. (22-bet)
6. Graddol, D. The Future of English? British Council, 2006. (19-bet)
7. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Pearson, 2015. (47-bet)
8. Lightbown, P. M., & Spada, N. How Languages are Learned. Oxford University Press, 2013. (55-bet)
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report. Paris, 2023. (41-bet)
10. Warschauer, M. Technology and Second Language Learning. University of California, 2010. (30-bet).

RAQAMLI DAVRDA TIL MADANIYATI VA KOMMUNIKATSIYA

Mo‘minbayeva Sevinch

Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal’a fakulteti o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Bugungi globallashuv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar tilning ishlatilish doirasini kengaytirib, yangi kommunikatsiya muhitini shakllantirmoqda. Bu esa o‘z navbatida til madaniyati masalasining dolzarbligini oshirmoqda.Til madaniyati jamiyatdagi nutqiy muloqotning to‘g‘ri, aniq va adabiy me’yorlarga mos bo‘lishini ta’minlaydi. Raqamli davrda esa qisqartmalar, slang so‘zlar va emoji kabi yangi ifoda vositalarining keng qo‘llanilishi tilning tabiiy rivojiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, zamonaviy kommunikatsiya jarayonida til madaniyatini saqlash va rivojlantirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Raqamli muhitda tilning o‘ziga xos xususiyatlari shakllanmoqda. Jumladan, qisqartmalar, ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar, slang birliklar hamda emoji va stikerlar muloqotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu esa bir tomondan kommunikatsiyani sodda va tezkor qiladi, ikkinchi tomondan esa adabiy til normalarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, yozma nutqda grammatik qoidalarga amal qilmaslik, so‘zlarni noto‘g‘ri yozish yoki ortiqcha qisqartirishlar nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo‘ladi.Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar til rivojiga ijobiy ta’sir ham ko‘rsatmoqda. Elektron lug‘atlar, tarjima dasturlari, onlayn ta’lim platformalari til o‘rganish va nutqni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganish va turli madaniyatlar bilan muloqot qilish imkoniyati kengaymoqda. Bu jarayon til boyligining ortishiga va yangi lingvistik birliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.Raqamli kommunikatsiyada nutq madaniyatini saqlash muhim masalalardan biridir. Har bir foydalanuvchi yozma va og‘zaki nutqda adabiy til me’yorlariga amal qilishi, fikrini aniq va ravon ifoda etishi zarur. Shuningdek, internet muloqotida hurmat, etik qoidalar va madaniyatli munosabatni saqlash ham muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat shaxsiy nutq madaniyatini, balki jamiyatning umumiy madaniy darajasini ham belgilaydi. Shuningdek, raqamli muhitda “gibrid til” hodisasi ham kuchayib bormoqda. Ya’ni bir nutq ichida bir nechta tillarning aralash qo‘llanilishi (o‘zbek, ingliz va rus tillari elementlari) tez-tez uchramoqda. Bu holat globallashuvning tabiiy natijasi bo‘lsa-da, tilning tozaligi va milliy lingvistik identitet masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida xorijiy so‘zlarga ortiqcha tayanish adabiy tilning ichki boyligini soya ostida qoldirishi mumkin.Biroq raqamli texnologiyalar til madaniyatiga faqat salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, deb baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, ular tilni o‘rganish va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron lug‘atlar, sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari, onlayn kurslar va ta’lim platformalari til o‘rganishni sezilarli darajada osonlashtirdi. Bu esa nafaqat milliy tilni, balki xorijiy tillarni ham tez va samarali o‘zlashtirish imkonini bermoqda.Raqamli kommunikatsiyada yana bir muhim jihat — bu nutq etikasi va madaniyat masalasidir. Internet muhitida fikr bildirish erkinligi keng bo‘lsa-da, bu erkinlik mas’uliyatsiz ifoda uchun asos bo‘lmasligi kerak. Ba’zan anonimlik sababli qo‘pol so‘zlar, haqoratli iboralar yoki hurmatsiz muloqot shakllari uchraydi. Bu esa jamiyatdagi umumiy nutq madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun raqamli makonda ham til me’yorlariga rioya qilish, madaniyatli muloqotni shakllantirish muhimdir.Yana bir e’tiborli jihat shundaki, raqamli davr tilni statik emas, balki dinamik tizim sifatida yanada yaqqol namoyon etmoqda. Til doimiy ravishda yangilanib, yangi so‘zlar, terminlar va ifoda shakllari bilan boyib bormoqda. Bu jarayon tilning tabiiy evolyutsiyasi sifatida baholansa-da, uning asosiy me’yoriy tizimi saqlanib qolishi zarur. Aks holda, kommunikatsiyada tushunmovchiliklar va lingvistik noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin.Umuman olganda, raqamli davr til madaniyati va kommunikatsiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayon bir tomondan tilni boyitayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan uning me’yoriy tizimini saqlash zaruratini kuchaytirmoqda.Zamonaviy jamiyatda

asosiy vazifa — texnologik taraqqiyotdan foydalanish bilan birga til madaniyatini asrab-avaylash va uni barqaror rivojlantirishdir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli davr til madaniyati va kommunikatsiya jarayoniga chuqur va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi natijasida muloqot shakllari sezilarli darajada o‘zgardi, til esa yanada tezkor, ixcham va global xarakterga ega bo‘ldi. Bu jarayon bir tomondan tilning rivojlanishi va boyishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan adabiy til me’yorlarining buzilishi, nutq madaniyatining pasayishi kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy jamiyatda asosiy vazifa — raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan birga, til madaniyatini asrab-avaylash, adabiy til me’yorlariga rioya qilish va madaniyatli muloqotni shakllantirishdan iboratdir. Faqat shu yo‘l bilangina tilning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
2.Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.
3.Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Fan, 2015.
4.Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. Routledge, 2011.

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI TARBIYALASHDA TA'LIM VA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISH DASTURLARI: HOLAT TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Boshbekov Inomjon Juman o’g’li
O'zbekiston davlat va san'at madaniyat instituti Nukus filiali Davlat muasasalarini boshqarish va boshqarishni tashkil etish, Madaniyatshunoslik guruh talabasi
Urazbeyev Islom
O'zbekiston davlat va san'at madaniyat instituti Nukus filiali Madaniyat faoliyati kafedrasi assistent o’qituvchisi

Yoshlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilingan O'zbekistonda so'nggi yillarda yoshlarni tarbiyalash tizimida tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar siyosati konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi 2020-yil 27-iyundagi PQ-4778-son Qarori "Yoshlar daftari" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi qarorlar yoshlar bilan ishlashni tizimlashtirish, ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish maqsadida qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 milliondan ortiq yosh yashaydi, bu umumiy aholining yarmidan ko'proqini tashkil etadi. Bu demografik vaziyat yoshlar siyosatini strategik ahamiyatga ega qiladi: bugungi yoshlarning qanday qadriyatlarga ega bo'lishi, qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi mamlakatning kelajagi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli, ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish nafaqat pedagogik, balki davlat darajasidagi masala hisoblanadi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud dasturlar va

mexanizmlar hali to'liq samarali ishlamayapti. Ko'plab yoshlar o'zlarini tizimdan tashqarida his qilmoqda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar shakliylikka aylanib qolmoqda, ta'lim muassasalari va yoshlar tashkilotlari o'rtasida yetarlicha muvofiqlashtirish yo'q. Mana shu muammolarni hal qilish uchun mavjud holatni chuqur tahlil qilish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

Yoshlar bilan ishlashning huquqiy-tashkiliy asoslari. O'zbekistonda yoshlar siyosatining huquqiy bazasi so'nggi yillarda sezilarli darajada mustahkamlandi. "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun Yoshlar siyosati konsepsiyasi, "Yoshlar daftari" dasturi kabi hujjatlar yoshlar bilan ishlashning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjatlarda quyidagi ustuvor vazifalar ko'rsatilgan:

– yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlash;

– milliy qadriyatlar va an'analarni asrab-avaylash hamda ularga hurmat ruhida tarbiyalash;

– yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish;

– fuqarolik ongini shakllantirish va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish.

Tashkiliy jihatdan yoshlar bilan ishlash bir necha darajada amalga oshiriladi: Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, mahalliy hokimliklar va mahalla fuqarolar yig'inlari kengashlari, shuningdek Yoshlar ittifoqi kabi jamoat tashkilotlari. Biroq, bu ko'p sub'ektlilik ba'zan mas'uliyatning tarqalishiga va samarasizlikka olib kelmoqda.

Ta'lim tizimida yoshlarni tarbiyalash dasturlari. Ta'lim muassasalari yoshlarni tarbiyalashning asosiy maydoni hisoblanadi. Hozirgi kunda maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda: "Ma'naviyat va ma'rifat" soati. Har hafta dushanba kunlari o'tkaziladigan bu mashg'ulot milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar, vatanparvarlik mavzularida bo'ladi. Biroq, amaliyotda bu mashg'ulotlar ko'pincha formal xarakterga ega: o'qituvchilar tayyor matnlarni o'qishadi, o'quvchilar passiv tinglovchilarga aylanadi, haqiqiy munozara va tanqidiy fikrlash rivojlanmaydi. Sinfdan tashqari ishlar. To'garaklar, sport sektsiyalari, san'at maktablari yoshlarning ijodiy va jismoniy rivojlanishi uchun muhim platformadir. Ammo muammo shundaki, barcha o'quvchilar bunday imkoniyatga ega emas: qishloq joylardagi maktablarda resurslar cheklangan, shahar maktablarida esa to'lov asosidagi to'garaklar barcha oilalar uchun qulay emas. "Barkamol avlod" dasturi. Bu dastur yoshlarning intellektual, jismoniy, estetik va axloqiy tarbiyasini kompleks tarzda qamrab olishni maqsad qilgan. Dastur doirasida kitobxonlik, muzeylarga tashrif, sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar tashkil etiladi. Ammo bu dasturning amalga oshirilishi turli hududlarda notekis: poytaxtda va viloyat markazlarida faol ishlaydi, qishloq joylarda esa resurssizlik tufayli cheklangan. Talabalar turar joylari (yotoqxonalar) – bu yoshlar sotsializatsiyasining alohida muhiti. Yotoqxonalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, kitobxonlik kechalari, filmlar tahlili, munozaralar o'tkazilishi kerak. Biroq ko'p hollarda yotoqxonalar faqat turar joy vazifasini bajaradi, ma'naviy tarbiya imkoniyatlaridan foydalanilmaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkiliy shakllari. Ta'lim muassasalaridan tashqari yoshlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlar turli shakllarda olib boriladi: Mahalla

– yoshlar tarbiyasining an'anaviy maskani. Mahalla fuqarolar yig'inlari kengashlari yoshlar bilan individual ishlash, oila muhitini kuzatish, muammoli yoshlarni aniqlash vazifalarini bajaradilar. Ammo hozirgi yoshlar uchun mahalla ko'pincha nazorat organi sifatida qabul qilinadi, ishonch va muloqot muhiti emas. Yoshlar mahalla tadbirlariga majburiy ravishda jalb qilinadi, bu esa qarama-qarshilik tug'diradi.

Yoshlar markazlari va ko'ngilochar bog'lar. "Yoshlar markazi" tarmog'i kengaymoqda – bu yerda yoshlar sport, san'at, biznes, IT kabi sohalarda o'z qiziqishlariga mos faoliyat yuritishlari mumkin. Bu musbat tendentsiyadir, ammo markazlar ko'pincha shahar joylarda joylashgan va barcha yoshlarga ochiq emas.

Kutubxonalar va madaniy markazlar. Kutubxonalar zamonaviy sharoitda o'z funksiyasini kengaytirmoqda: kitob berish bilan birga, ular munozara platformalari, ijodiy ustaxonalar, raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etmoqda. Biroq, yoshlar orasida kutubxonaga borish odati susaygan, bu muammoni hal qilish uchun yangi formatlar izlash zarur.

Raqamli platformalar va onlayn loyihalar. Pandemiya davrida va undan keyingi davrada raqamli formatda yoshlar bilan ishlash keng rivojlandi. Onlayn treninglar, vebinarlar, ijtimoiy tarmoqlarda ma'rifiy kampaniyalar yoshlarga yanada qulay formatda ma'lumot yetkazishga imkon berdi. Yoshlar ittifoqining "Yoshlar TV", "Yoshlar radiosi" kabi loyihalari, telegram-kanallarda ma'rifiy kontent tarqatilishi ijobiy tajribadir.

Muammolar va kamchiliklar; 20 yillik tajribaga asoslanib ta'kidlashim mumkinki, yoshlar tarbiyasi tizimida quyidagi asosiy muammolar mavjud:

Birinchidan, shakliylik va formalizm. Ko'plab tadbirlar "hisobotga" o'tkaziladi – ishtirokchilar soni, foto-videolar muhim, lekin yoshlarga haqiqiy ta'sir etish va ularning qadriyatlarini shakllantirishga kamroq e'tibor beriladi. Yoshlar tadbirlarga majburiy ravishda jalb qilinadi, bu esa ularda norozilik va befarqlik tug'diradi.

Ikkinchidan, yuqoridan pastga yondashuv. Dasturlar va tadbirlar ko'pincha yuqoridan tushadi, yoshlarning o'zlari ularni loyihalashda ishtirok etmaydi. Natijada, tadbirlar yoshlarning haqiqiy ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelmaydi.

Uchinchidan, koordinatsiyaning etishmasligi. Yoshlar bilan ishlaydigan turli sub'ektlar – ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari, mahalla, madaniyat muassasalari – o'zaro yetarlicha muvofiqlashtirmaydi. Natijada, ba'zi yoshlar bir necha dasturda qatnashadi, boshqalari esa umuman qamrovdan tashqarida qoladi. To'rtinchidan, kadrlar muammosi. Yoshlar bilan ishlash yuqori malaka talab qiladi – psixologiya, pedagogika, ijtimoiy ish ko'nikmalari zarur. Biroq ko'plab tashkilotlarda yoshlar bilan ishlaydigan xodimlar maxsus tayyorgarlikka ega emas, ular zamonaviy metodlarni bilmaydi. Beshinchidan, moliyaviy resurssizlik. Qishloq joylardagi yoshlar markazlari, maktablar, madaniy muassasalar yetarli moliyaga ega emas. Bu sifatli dasturlar va tadbirlar o'tkazishga to'sqinlik qiladi. Takomillashtirish yo'nalishlari va takliflar. Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish va yoshlar tarbiyasi tizimini samarali qilish uchun quyidagi takliflarni bildiramiz: Yoshlarni dasturlarni ishlab chiqishga jalb etish. "Yoshlar yoshlar uchun" printsipi asosida dasturlar yaratish – yoshlarning o'zlari o'zlariga qiziqarli bo'lgan tadbirlarni taklif qilishlari, ularni tashkil etishda faol ishtirok etishlari kerak. Bu tadbirlarning

samaradorligini oshiradi va yoshlarning mas'uliyat hissini shakllantiradi. Individual yondashuv va diversifikatsiya. Yoshlar bir xil emaslar – ularning qiziqishlari, salohiyatlari, muammolari turlicha. Shuning uchun "bir o'lcham hammaga mos keladi" printsipidan voz kechish, turli yo'nalishlarda dasturlar taklif etish zarur: sport, san'at, fan, texnologiya, tadbirkorlik, volontyorlik va hokazo. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish. Yoshlar bilan ishlaydigan barcha xodimlar – o'qituvchilar, pedagog-tarbiyachilar, mahalla mas'ullari, yoshlar tashkilotlari rahbarlari – uchun maxsus treninglar o'tkazish. Ushbu treninglar psixologiya, konfliktologiya, zamonaviy pedagogika metodlari, raqamli vositalar bilan ishlash kabi mavzularni qamrab olishi kerak. Koordinatsiya mexanizmini yaratish. Har bir hududda (tuman, shahar) yoshlar bilan ishlaydigan barcha sub'ektlarni birlashtiruvchi koordinatsiya kengashi tashkil etish. Bu kengash dasturlarni muvofiqlashtiradi, dublirovkani oldini oladi, resurslarda tejamkorlik ta'minlaydi. Monitoring va baholash tizimini joriy etish. Dasturlarning samaradorligini baholash uchun faqat miqdoriy ko'rsatkichlar (ishtirokchilar soni) emas, balki sifat ko'rsatkichlarni ham (yoshlarning qadriyatlari, ko'nikmalari, xulq-atvori o'zgarishi) kuzatish zarur. Buning uchun maxsus tadqiqotlar, so'rovnomalar, fokus-guruhlar o'tkazish mumkin. Mahallani zamonaviylashtirish. Mahallani nazorat organidan yoshlar uchun qulay, do'stona muhitga aylantirish. Mahallada yoshlar kengashi tashkil etish, yoshlarning o'z loyihalari uchun grant olish imkoniyatini berish, mahallada sport-sog'lomlashtirish va ijodiy tadbirlar o'tkazish.

Raqamli imkoniyatlardan foydalanish. Yoshlar raqamli muhitda yashamoqda, shuning uchun onlayn platformalar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali ularga yetib borish muhimdir. Interaktiv, gamifikatsiya elementlari bo'lgan ma'rifiy dasturlar yaratish, yoshlar influenserlar bilan hamkorlik qilish samarali bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda yoshlarni tarbiyalashda ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimi so'nggi yillarda sezilarli rivojlandi. Huquqiy baza yaratildi, dasturlar ishlab chiqildi, tashkiliy strukturalar tashkil etildi. Biroq, amalda hali ko'plab muammolar mavjud: shakliylik, yuqoridan pastga yondashuv, koordinatsiyasizlik, kadrlar va moliyaviy resurssizlik. Tizimni samarali qilish uchun paradigmani o'zgartirish zarur: yoshlarni passiv ob'ekt sifatida emas, balki faol sub'ekt sifatida ko'rish, ularga o'z hayotini shakllantirish imkoniyatini berish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish. Ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar majburiyat emas, balki qiziqarli, mazmunli, yoshlarning haqiqiy muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Maqolada taklif etilgan yo'nalishlar – yoshlarni dasturlashtirishga jalb etish, individual yondashuv, kadrlar tayyorlash, koordinatsiya, monitoring tizimi, mahallani zamonaviylashtirish va raqamli imkoniyatlardan foydalanish – yoshlar tarbiyasi samaradorligini oshirishning amaliy mexanizmlaridir. Bu islohotlarni amalga oshirish uchun davlat, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va yoshlarning o'zlari birgalikda harakat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. – 2020-yil 27-iyun, PQ-4778-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – 2024-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2021-yil 18-sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ishlari agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni. – 2019-yil 30-sentyabr, PF-5847-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Barkamol avlod” dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. – 2022-yil 15-fevral, 97-son.
5. Alimov R.X. Mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati Jamiyat va boshqaruv. – 2021.– B. 112–119.
6. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi rasmiy veb-sayti. – www.yoshlar.uz (murojaat sanasi: 2026-yil 10-aprel).
7. Mirzayev M.A. Ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish // Pedagogika. – 2022.– B. 23–31.
8. Karimova N.S. Yoshlar siyosati: muammolar va yechimlar. – Toshkent: Fan, 2023. – 176 b.
9. Shermatov S. O‘zbekistonda yoshlar siyosati: muammolar va istiqbollar Markaziy Osiyo tadqiqotlari. – 2023. – 42-jild.– B. 245–262.

USING TECHNOLOGICAL ADVANCEMENTS IN TEACHING

Ibragimova Mashhura Mansurbekovna
1st-year student, Philology and Language Teaching University of Innovation Technologies, Nukus Branch Nukus city, Republic of Karakalpakstan
Responsible Person / Scientific Supervisor: Azbergenova Gulnur

Technology has become one of the most influential forces in modern society and has significantly transformed the field of education. From the earliest tools of learning such as spoken language, writing systems, pencils, and printed books to today’s computers, smartphones, and online platforms, technology has always played an essential role in the development and transmission of knowledge. What humans usually do is invent something helpful, then immediately use it to procrastinate, but education remains one of the better uses.

In recent years, the rapid growth of digital technologies has changed traditional teaching and learning methods. Classrooms are no longer limited to physical spaces, as students can now access educational materials through online courses, virtual classrooms, and blended learning systems. These innovations have made education more flexible, interactive, and accessible for learners in different parts of the world.

However, technology should not be viewed only as a neutral tool used for convenience. It is also a medium that shapes communication, culture, and social relationships. Its integration into education is closely connected with economic development, social change, and globalisation. Therefore, the use of technology in education requires critical reflection and responsible implementation.

The purpose of this article is to examine the role of technology in education, its historical development, major advantages, possible challenges, and its future

potential. It also explores how educational institutions can use technology effectively to improve teaching quality and learning outcomes.

The Role of Technology in Education

Technology has played a significant role in the development of education throughout history. In the past, simple tools such as spoken language, writing, paper, pencils, and printed books helped people share knowledge from one generation to another. These inventions created the foundation of modern education and made learning more organized and accessible. Without them, humanity would still be shouting facts across fields and hoping someone remembered.[1]

Today, modern technology has transformed traditional teaching methods in many ways. Computers, projectors, tablets, smartphones, and internet platforms are now widely used in schools and universities. Teachers can present lessons more effectively through videos, presentations, and interactive applications. Students can also access information quickly, complete assignments online, and communicate with teachers more easily.[2]

One of the greatest advantages of technology in education is flexibility. Online learning and blended learning systems allow students to study anytime and anywhere. This is especially useful for people who live in remote areas or have limited access to educational institutions. Technology also supports individual learning styles, because students can learn at their own pace using digital resources.

Ikkinchidan, “muammo asosida o‘qitish” (Problem-Based Learning — PBL) va “harakatga asoslangan o‘qitish” (Case-Based Learning — CBL) metodlari tanqidiy klinik fikrlashni shakllantiradi. Bu metodlarda talaba tayyor bilimni passiv o‘lashtirish o‘rniga, murakkab klinik holatni o‘zi tahlil qilib, yechim izlaydi.

Uchinchidan, mentorlik va ustozlik instituti muhim rol o‘ynaydi. Tajribali shifokor-mentor talabaga nafaqat klinik ko‘nikmalarni, balki kasbiy madaniyat, axloqiy me‘morlar va refleksiv amaliyotni ham o‘rgatadi. Shuningdek, muntazam formatif baholash va konstruktiv qayta aloqa (feedback) madaniyatini o‘rnatish ham kasbiy layoqat rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi.

Tibbiy ta‘limda kasbiy layoqat tushunchasi shifokor tayyorlashning nafaqat nazariy, balki amaliy asosini tashkil etadi. Zamonaviy tibbiyotning o‘sib borayotgan

murakkabligi, bemorlarning o‘sib borayotgan talablari va axborot oqimining jadallashib borishi sharoitida shifokordan keng bilim emas, balki o‘sha bilimlarni turli vaziyatlarda samarali qo‘llay olish layoqati talab etiladi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan kasbiy layoqatning besh asosiy komponenti — klinik-kognitiv, amaliy-klinik, kommunikativ, axloqiy-huquqiy va refleksiv — yaxlit tizimni tashkil etadi. Ularning har biri ta‘lim jarayonida muayyan metodlar, vositalar va baholash mexanizmlari orqali maqsadli shakllantirilishi zarur.

Kasbiy layoqat tibbiy ta‘limning tugal natijasi emas — u uzluksiz rivojlanadigan, tajriba va bilimlar bilan boyib boradigan jarayondir. Shu ma‘noda bugungi tibbiy ta‘limning asosiy vazifasi — talabada nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki o‘mr bo‘yi o‘qish, takomillashish va bemorga fidokorlik bilan xizmat qilish irodasini ham shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.White R.W. Motivation reconsidered: The concept of competence. Psychological Review. 1959; 66(5): 297–333.

2.Epstein R.M., Hundert E.M. Defining and assessing professional competence. JAMA. 2002; 287(2): 226–235.

3.Frank J.R. et al. Competency-based medical education: theory to practice. Medical Teacher. 2010; 32(8): 638–645.

4.Cooke M., Irby D.M., O‘Brien B.C. Educating Physicians: A Call for Reform of Medical School and Residency. Jossey-Bass, 2010. 302 p.

5. Kneebone R. Simulation in surgical training: educational issues and practical implications. Medical Education. 2003; 37(3): 267–277.

6. Levinson W., Roter D., Mullooly J. Physician-patient communication: The relationship with malpractice claims. JAMA. 1997; 277(7): 553–559.

7. Beauchamp T.L., Childress J.F. Principles of Biomedical Ethics. 8th ed. Oxford University Press, 2019. 512 p.

8.Ten Cate O. Competency-based postgraduate medical education: past, present and future. GMS Journal for Medical Education. 2017; 34(5): Doc69.

9.Miller G.E. The assessment of clinical skills / competence / performance. Academic Medicine. 1990; 65(9): S63–S67.

10.Issakov A. va boshqalar. Tibbiy ta‘limda kasbiy layoqat: O‘rta Osiyo tajribasi. Toshkent: ToshDTI nashriyoti, 2023. 186 b.

ÓZBEKSTANDA KITAPXANA ISI TARAWÍN RAWAJLANDÍRÍWDA MÁMLEKETLIK JARATÍLǴAN IMKANIYATLAR

Naurizbayeva Shiyrin Baxtiyar qizi

Qaraqalpaqstan Respublikası, Nókis qalası, Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı 2-basqısh magistrantı

Ózbekstan Respublikasınıń 2023-jıl 30-aprel kúni qabıl etilgen jańa Konstituciyasınıń 53-statyasında hár kimge ilimiy, texnikalıq hám ádebiy dóretiwshilik erkinligi, mádeniyat jetiskenliklerinen paydalanıw huqıqı kepillenedi. Intellektual múlk nızam menen qorǵalatuǵınlıǵı aytıp ótilgen. Demek,

mámleketimizdiń hár bir puqarası xalqımız tárepinen jaratılıp atırǵan hár qanday túrdegi intellektual múlklerden nızamǵa muwapıq túrde paydalanıw imkaniyatına iye. Sonday-aq, Ózbekstan Respublikası Prezidenti tárepinen 2019-jılı 21-may kúni qabıl etilgen «Elektron Húkimet» sisteması sheńberinde málimleme-kommunikaciya texnologiyaları tarawındaǵı joybarlardı islep shıǵıw hám ámelge asırıw sapasın jaqsılaw is-ilajları haqqında» ǵı PQ-4328-sanlı qararında Ózbekstan Respublikasın rawajlandırıw mámleketlik baǵdarlamaları tiykarında málimleme-kommunikaciya texnologiyaları tarawında ámelge asırılıp atırǵan mákemeler aralıq mámlimleme sistemaları, maǵlıwmatlar bazaları, programmalıq ónimlerdi jaratıw hám en jaydırıw názerde tutılǵan.

Jańa Ózbekstan mámleketin qurıw jolında eń áweli pútkil dúnya júzlik rawajlanǵan xalıqlardıń tájiriybelerinen keń paydalanıw turadı. Olardıń barlıq mámleketlik hám mámleketlik emes shólkemleriniń jumısların jedellestiriw hám sapalıǵın támiyinlew barısındaǵı sanlı - elektron formatlarǵa ótiwi búgingi zaman talapların kórsetip beredi. Sol qatarı, Respublikamızda iskerlik júritip atırǵan mákemeler qatarında kitapxana málimleme mákemeleriniń xızmetin de elektronlastırıw, elektron bazaların jaratıw búgingi zaman talaplarınıń birin belgilemekte. 2011-jıl 13-aprel kúni“Málimleme-kitapxana jumısı haqqında”ǵı Ózbekstan Respublikasınıń nızamınıń qabıl etilgenligi kitapxanashıq jumısı rawajlanıwında zárúrli áhmiyetke iye qubılıs boldı. Kitapxanashılıq jumısınıń nátiyjeli sheshiliwi kerek bolǵan máseleleri nızam arqalı muwapıqlastırıladı. Respublikada sociallıq-ekonomikalıq tarawdı reformalawdıń házirgi sháráyatında málimleme-kitapxana jumısın rawajlandırıwdıń máqset hám wazıypaları elimizde ámelge asırılıp atırǵan ózgerislerge hám xalıqaralıq ámeliyatqa say bolıwı zárúr. Usı múnásibet penen puqaralardıń málimlemeden erkin paydalanıwı boyınsha Konstituciyalıq huqıqların, sonıń ishinde, milliy qádiriyatlar hám jáhan mádeniyatı, ámeliy hám fundamental bilimlerden xabardar bolıwın támiyinleytuǵın xalıqqa málimleme-kitapxana xızmetlerin kórsetiwdiń sapa jaǵınan jańa sistemasın jaratıw, kitapxanalarda saqlanıp atırǵan milliy mádeniy miyrastı qásterlep saqlaw hám bayıtıw, málimleme-kommunikaciya texnologiyaların keńnen eńiziwdiń esabınan málimleme-kitapxana mákemeleriniń jumısın jetilistiriw áhmiyetli wazıypaǵa aylanbaqta. Bul bolsa, málimleme-kitapxana jumısına, kitapqumarlarǵa xızmet kórsetiw, fondlardı tolıqtırıw hám saqlaw, kitapxana processlerin avtomatlastırıw, ilimiy-izertlew hám shólkemlestiriw-metodikalıq jumıs, kadrlardı tayarlaw hám xoshametlew, xalıqaralıq birge islesiwdi keńeytiwge kúshli tásir etiw imkaniyatın beredi. Sonday-aq, Respublikanıń birinshi Prezidentiniń 2006-jıl 20-iyundaǵı “Xalıqtı málimleme-kitapxana menen támiyinlew haqqında”ǵı qararı qabıl etilgeninen berli mámleketimiz kitapxanashılıq jumısı boyınsha bir qatar jumıslar ámelge asırıldı:

Ózbekstan Respublikası xalıq bilimlendiriw ministrligi hám “Aziya rawajlanıw banki” sheriklikte “Mektep kitapxanaların rawajlandırıw” joybarı iske túsirildi. Usı joybarǵa kóre birinshi náwbette, Respublika daǵı 1000 mektep kitapxanası zaman talabına muwapıq málimleme-resurs orayına aylantırıldı.

Respublikanıń birinshi Prezidentiniń 2006-jıl 20-iyundaǵı “Xalıqtı málimleme-kitapxana menen támiyinlew haqqında”ǵı qararınıń atqarılıwın

támiyinlew maqsetinde Abdulla Qodiriy atındaǵı Tashkent mámleketlik mádeniyat institutı oqıtıwshıları hám Alisher Nawayı atındaǵı Ózbekstan Milliy kitapxanası qánigeleri tárepinen sheriklikte “Kitapqumarlarǵa aralıqtan xızmet kórsetiw sisteması” jaratıldı hám Ózbekstan Milliy kitapxanası hám de Mádeniyat institutı málimleme-resurs orayında usı programmanı qollanıw boyınsha tájiriybe - sınaq jumısların alıp barıldı.

Búgingi kúnde respublikamızdıń 40 tan artıq kitapxanalarında kitapxana texnologiyaların avtomatlastırıwǵa mólsherlengen avtomatlastırılǵan málimleme-kitapxana sistemalarınan paydalanılıp atır. Bul kitapxanalardıń kóbisi óz elektron katalogların qáliplestiriw menen bánt bolıp, kitapqumarlarǵa xızmet kórsetiw (kitap beriw, qaytarıp alıw, buyırtpalar beriw) processlerin avtomatlastırılǵan halda ámelge asırıwǵa ótti. Elektron katalogtı Internet tarmaǵında usınıwǵa mólsherlengen hám UNIMARC formatı talaplarına juwap beretuǵın programmalıq qurallar Ózbekstan kitapxanalarında payda bola basladı. Usınıń sebepinen de elektron katalog bazasın Internet/Intranet tarmaǵında usınıw hám ol arqalı ádebiyatlarǵa buyırtpalar beriw, buyırtpalardıń orınlanıwın baqlaw, orınlanǵan buyırtpalar haqqında aralıqtan turıp, tiyisli maǵliwmatlardı alıwǵa mólsherlengen programmalıq quraldı jetilistiriw búgingi kúndegi aktual wazıypalardan biri esaplanadı.

Sistema lokal hám global tarmaqlarda isletiwge mólsherlengen bolıp, onnan paydalanıwshılar sanı shegaralanbaǵan. Sistema UNIMARC hám RUSMARC xalıq aralıq formatların qollap quwatlaydı hám MARC toparına kiretuǵın formatlar menen maǵlıwmatlardı óz-ara konverciyası tiykarında bibliografiyalıq málimlemelerdı almasıwın támiyinley aladı. Kitapqumarlarǵa aralıqtan xızmet kórsetiw sistema ideyası tiykarında “hár bir kitapqumar ushın Internet/Intranet tarmaǵında jeke elektron kabinet” jaratıw jatadı. Kitapqumar kitapxanaǵa aǵza bolǵannan soń, oǵan arnawlı login hám parol beriledi. Kitapqumar bul login hám parolden Internet/Intranet tarmaǵında turıp, kitapxanaǵa tikkeley kelmesten kitapxananıń elektron katalogınan paydalanǵan halda kerekli ádebiyatlardı izlewı, tabılǵan ádebiyatlar dizimin kóriwi, olarǵa buyırtpalar beriwi hám de buyırtpanıń qabıl etilgenligi hám orınlanıwı haqqında maǵliwmatlardi alıwı múmkin.

Ízlenip atırǵan kitap tabılǵannan keyin, onnan paydalanıw ushın kitapxanaǵa barıwı yamasa onıń ayırım bólimlerin elektron pochta arqalı alıwı múmkin. Kitapqumarlarǵa xızmet kórsetiwdiń bunday forması bir neshe imaratlarda jaylasqan kitapxanalar iskerligi nátiyjesin asırıwda úlken rol oynaydı. Mısalı, Alisher Nawayı atındaǵı Ózbekstan Milliy kitapxanası ush binada jaylasqan bolıp, olar qalanıń túrli táreplerinde jaylasqan. Elektron kitapxanadan paydalanıw házirgi kúnde aralıqtan oqıtıwda keń qollanılıwı menen birge, dástúriy bilimlendiriw sistemasın da shetlep ótkeni joq. Elektron kitapxanadan hár qanday tálim formasında belgili bir tarawǵa tiyisli maǵlıwmatlardı tez hám sapalı tabıw ushın qollanılıp atır. Sol sebepli de elektron kitapxanadan paydalanıw hár bir oqıwshınıń waqıttan ónimli paydalanıwına hám bólistiriwine múmkinshilik beredi. Mámleketimizde ámelge asırılıp atırǵan bunday iygilikli ilajlar ósip kiyatırǵan jas áwladtıń ertengi kúnge bolǵan iseniminiń artıwına, ullı ata-babalarınıń dawamshıları bolıwına úlken xızmet atqaradı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:
1. “Kitap ónimlerin basıp shıǵarıw hám tarqatıw sistemasın rawajlandırıw, kitap oqıw hám kitapqumarlıq mádeniyatın asırıw hám de úgit-násiyatlaw boyınsha kompleks ilajlar baǵdarlaması haqqında”ǵı Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń Qararı. PQ-№3271.
2. Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni //Xalq so‘zi, 2011.14 aprel.
3. Baltabaevna, XM. (2023). Axborot-kommunikatsiya jarayonlari va sohasidagi islohotlar Axborot-resurs markazlarini samarali boshqarishda. *Inson-hisoblash tadqiqotlari bo'yicha xalqaro jurnal* , *5* (4), 26–30. https://doi.org/10.31149/ijhcs.v5i4.4287
4. Sharipova, D. (2023). MÁLIMLEME – KITAPXANA MÁKEMELERINDE INNOVACIYALIQ ISKERLIKTI SHÓLKEMLESTIRIW. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(12), 26–30. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/24073
5. Aytimova Dilbar. Málimleme kitapxana mákemelerinde elektron resurslardı huquqıy qorǵawdıń aktual máseleleri. Евразийский журнал академических исследований, 3(12), 31-35. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/24074
6. Marjan Xudaybergenova Baltabaevna. (2025). ELEKTRON RESURSLAR FONDINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH STRATEGIYALARI. *ILMIY YANGILIKLAR VA INTELLEKTUAL TADQIQOTLAR*, *1*(4), 87–90. Retrieved from https://globalscholars.uz/index.php/iy/article/view/554

TEATR TARAQQIYOTI VA MA’NAVIY JARAYON: QORAQALPOQ DAVLAT YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI FAOLIYATI MISOLIDA

Alima Rametullayeva
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, O`zDSMI Nukus filiali
San`atshunoslik fakulteti Kinoshunoslik mutaxasisligi 1-kurs magistranti

Teatr san’ati jamiyat ma’naviy hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u millatning estetik tafakkuri, axloqiy qarashlari va ijtimoiy ongini aks ettiruvchi muhim madaniy institut hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida teatr nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki tarbiyaviy, ma’rifiy va ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib kelgan. Shu nuqtayi nazardan, hududiy teatrlar faoliyatini o‘rganish milliy madaniyat rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.1978-yilda tashkil etilgan Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri bugungi kunga kelib qariyb yarim asrlik tarixiy tajribaga ega bo‘lgan ijodiy maskanga aylangan. Ushbu davr mobaynida teatr jamoasi turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda faoliyat yuritib, repertuar taxtasini zamon talablari asosida shakllantirib kelmoqda.Teatr faoliyatining muhim jihatlaridan biri — uning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rnidir. Yosh tomoshabinlar auditoriyasiga yo‘naltirilgan spektakllar orqali milliy qadriyatlar, umuminsoniy g‘oyalar hamda axloqiy me’yorlar badiiy talqin asosida yetkaziladi. Bu jarayonda sahna san’ati vositalari —

dramatik konflikt, obraz yaratish, sahnaviy talqin va aktyorlik mahorati asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Teatr repertuari milliy dramaturgiya bilan bir qatorda jahon adabiyoti namunalarini ham o‘z ichiga oladi. Xususan, sahnada quyidagi asarlar talqin etilgan:

- **Skapenning nayranglari** (klassik komediya namunasidir);
- **Romeo va Juliyetta** (tragediya janrining yetuk namunasi);
- **Padarkush** (milliy dramaturgiyaning ijtimoiy yo‘nalishdagi asari);
- **Ikki boyga bir malay** (ma’rifiy ruhdagi sahna asari);
- **Buratino** hamda
- **Alladinning sexirli chirogi** va
- **Etik kiygan mushuk** kabi bolalar adabiyotiga mansub asarlar.

Mazkur repertuar siyosati bir necha jihatdan ahamiyatlidir. Birinchidan, u tomoshabinning estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, tarjima asarlar orqali turli xalqlarning madaniyati, urf-odati va mentaliteti bilan tanishish imkoniyati yaratiladi. Uchinchidan, aktyorlar uchun bunday asarlar ijodiy tajriba va mahorat maktabi vazifasini bajaradi.Tarjima asosidagi spektakllar teatr san’atida muhim o‘rin tutadi. Ular intermadaniy muloqotni ta’minlaydi, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyalarini mustahkamlaydi. Turli adabiy maktab va dramaturgiya an’analarini sahnaviy talqin qilish jarayoni ijodiy jamoaning kasbiy salohiyatini oshiradi.Shuningdek, klassik asarlarni zamonaviy talqinda sahnalashtirish rejissyorlik konsepsiyasining mustaqilligi va ijodiy yondashuvini namoyon etadi. Bu esa teatrni nafaqat an’anaviy, balki innovatsion san’at maydoniga aylantiradi.Klassik asarlarning teatr saxnasida namoyon bo`lishi eng dastlab teatr uchun yangilik va ijodiy jamoa uchun yutuq hisoblanadi. Eng muximi aktyorlar uchun maxorat maktabi an`anasi kabi ijodiy rivojlanishni olib keladi. Rejissyorlar ijodiy faoliyatida tarjima spektakllarni saxnaga qo`yishda dastlab qiyinchiliklarga duch kelgan,yani saxna mezancenasini qo`yish kabi qiyinchiliklarga duch kelgan.Dastlab dramaturgik xususiyatlarini yaxshi bilmaganliktan faxat kartinalarga suyanib mezancena qo`yishgan. Aktyorlar esa rollarini butunligicha manosini bilmaganliktan yuzaki ijodiy namunani ko`rsatgan, keyinchalik yillar o`tib rejissyorlarning malakasi va tarjima asarlarning moxiyatini teran tushingandan so`ng har taraflama nuqtai nazardan kelib chiqib ro`l ustida ishlashni boshlashgan.Bugungi kunda esa tarjima asarlarni saxnada huddi o`z millatining ijodidek yuksaltirib saxnada namoyon qilmoqdalar.Zamonaviy tomoshabin intellektual jihatdan faol subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda. U spektaklni nafaqat kuzatadi, balki tahlil qiladi, baholaydi va undagi g‘oyaviy qatlamni anglashga intiladi. Shu ma’noda teatr va tomoshabin o‘rtasidagi munosabat ikki tomonlama ma’naviy jarayon sifatida baholanishi mumkin.Teatrning barqaror faoliyati, spektakllarga bo‘lgan talabning ortib borishi hamda auditoriyaning kengayishi uning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Bu esa teatrni hududiy madaniy makonning muhim instituti sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri faoliyati milliy teatr san’ati rivojida muhim o‘rin tutishini ta’kidlash mumkin. Uning repertuar siyosati, yosh avlod tarbiyasiga qaratilgan e’tibori, jahon

dramaturgiyasi namunalarini sahnalashtirish tajribasi va ijodiy izlanishlari madaniy taraqqiyot jarayonining uzviy qismi hisoblanadi.Teatr san'ati jamiyat ma'naviy hayotining barometri sifatida o'z mavqeini saqlab qolmoqda. Shu bois, bunday ijodiy maskanlarning faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning tajribasini tahlil qilish va amaliy xulosalar chiqarish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Б.Турсунов «Қарақалпақ драматургиясы ҳәм театрының раўажланыўына аўдарма пьесалардың тәсири» Қарақалпақстан-1984 жыл
2. M.Xojanova Dramaturg sheberligi. – T. "Fan ziyosi" nashriyoti. 2024
3. Tursunov T. "Ózbek teatr tarixi". T.: 2008.
4. Tursunboyev S. "Teatr tarixi". T.: "Fan va texnologiya". 2008.
5. Tursunov T. Sahna va zamon. T.: Yangi asr avlodi, 2007.

NAWRIZ BAYRAMINIŃ ORTA AZIYA XALIQLARI KÓZ QARASINDA SÁWLELENIWI HÁM FOLKLORDIŃ ÚLESI (ǴALABALIQ TAMASHALAR REJISSYORLIǴINDAǴI SAXNADAǴI ÓMIRI)

Barakov Arman Sabırbevich
ÓzMKÓMI Nókis filiali "Rejissyorlıq (estrada hàm massalıq tamashalar rejissyorlıǵı)" jónelisi 1-kurs magistrantı

Nawrız – tek ǵana báhárgi teńlesiw kúni yamasa tábiyattın oyanıwı emes, bálki Orta Aziya xalıqlarınıń eń áyyemgi, tereń ruwxıy hám filosofiyalıq mániske iye bolǵan ulıwma xalıq bayramı. Áyyemgi dástúrler hám dıyqanshılıq mádeniyatı tiykarında qáliplesken bul bayram ásirler dawamında xalıq awızeki dóretiwshiliginiń eń bay dereklerinen biri sıpatında rawajlanıp kelgen [5; 12]. Orta Aziya, sonıń ishinde qaraqalpaq, ózbek, qazaq, qırǵız, túrkmen hám tájik xalıqlarınıń kózqarasında Nawrız jańalanıw, mehir-aqıbet, páklik hám tınıshlıq tımsalı retinde qabıl etiledi. Ózbekstan Respublikasında milliy dástúrlerimizdi saqlaw hám rawajlandırıw mámleketlik dárejede qollap-quwatlanıp atır. Atap aytqanda, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń hár jılı qabıl etiletuǵın Nawrız bayramına tayarlıq kóriw haqqındaǵı qararları (mısalı, 2026-jıl 6-marttaǵı PQ-82-sanlı qararı) [1] tiykarında xalıq awızeki dóretiwshiligi hám folklor úlgilerin oraylıq maydanlarda iri ǵalabalıq tamasha retinde saxnalastırıwǵa ayrıqsha itibar qaratılmaqta. Bul qararlarda belgilenilgen «**Navro'zni ulug'lash – insonni ulug'lashdir!** » degen filosofiyalıq ideya rejissyorlardıń stcenariylerinde tiykarǵı leytmotivke aylanbaqta."

Bul bayramnıń ruwxıy hám kórkem tiykarın xalıq folklorı quraydı. Nawrızǵa baǵıshlanǵan áyyemgi qosıqlar, ańızlar, dástúriy tamashalar búgingi kúnge shekem xalıq yadında saqlanıp qalıw menen birge, zamanagóy mádeniyatımızdıń da ajıralmas bólegine aylanǵan [8; 54]. Bıraq, házirgi dáwirde Nawrız bayramı tek ǵana awıllıq jerlerdegi dástúriy xalıq seyli retinde emes, bálki úlken saxnalarda, oraylıq maydanlarda hám stadionlarda ótetuǵın keń kólemli ǵalabalıq tamasha retinde de kórkemlik áhmiyetke iye bolmaqta.

Usı orında, áyyemgi folklordı zamanagóy tamashagóyge jetkerip beriwde ǵalabalıq tamashalar rejissyorlıǵınıń ornı júdá úlken. Rejissyorlıq kórkem-óneri xalıq dástúrlerin, dástúriy oyınlardı hám qosıqlardı bir pútin kórkem ideya hám stcenariy átirapında birlestirip, olardı saxnalıq háreketlerge, teatrallastırılǵan obrazlarǵa aylandıradı [11; 88]. Nátiyjede, folklorlıq elementler óziniń tariyxıy mánisin saqlaǵan halda, saxnada jańa ómirge iye boladı hám tamashagóylerde ǵalabalıq emociyalıq tásirleniwdi payda etedi.

Bul ilimiy maqalanıń tiykarǵı maqseti – Nawrız bayramınıń Orta Aziya xalıqları kózqarasındaǵı filosofiyalıq hám ruwxıy áhmiyetin ashıp beriw, sonday-aq áyyemgi folklor úlgileriniń zamanagóy ǵalabalıq tamashalar rejissyorlıǵı arqalı saxnada qanday sáwlelenip atırǵanın hám onıń estetikaliq tásirin ilimiy tárepten analizlewden ibarat.

Orta Aziya xalıqları kóz qarasında Nawrızdıń bayramınıń sáwleleniwi. Nawrız bayramı Orta Aziya xalıqlarınıń turmıs tárizi, dıyqanshılıq mádeniyatı hám tábiyat penen úylesimlilik ideyaların ózinde jámlegen. Bul bayramnıń tiykarında tınıshlıq, mehir-múriwbet, jaratıwshılıq hám xalıqlar arasındaǵı awızbirshilikti jırlawshı tereń filosofiyalıq kózqaras jatır [2; 32]. Qaraqalpaq, ózbek, qazaq, qırǵız, túrkmen hám tájik xalıqlarınıń barlıǵında bul kún – jaqınlarǵa jaqsılıq tilew, gine-ókpelewden tatıwlasıwı, úy-jaylardı tazalaw hám keleshekke úmit penen qaraw kúni sıpatında nıshanlanadı.

Nawrızdıń ruwxıy ózegin awızeki dóretiwshilik yaǵnıy folklor quraydı. Ásirler dawamında xalıq yadında saqlanıp kelgen dástúriy "Kóklem keldi", "Náwbáhár" qosıqları, aytıslar, lapar hám terme qosıqlar xalıqtıń ishki keshirmelerin, bálent keypiyatın jetkerip beredi [7; 114]. Ásirese, "Súmelek", "Góje" sıyaqlı dástúriy taǵamlar tayarlanıp atırǵanda aytılatuǵın qosıqlar pútkil bir jámiyetti biriktiriwshi psixologiyalıq hám sociallıq kúshke iye. Bul dástúrler xalıqtıń kóz qarasında teńlik hám berekettiń tımsalı bolıp esaplanadı.

Nawrız folklorınıń ǵalabalıq tamashalar rejissyorlıǵındaǵı ornı. Búgingi kúnde Nawrız bayramı tek ǵana máhálle yamasa awıllardaǵı úrp-ádetlik seyil emes, mámleket kóleminde úlken saxnalarda ótetuǵın keń kólemli teatrallastırılǵan ǵalabalıq tamasha dárejesine kiritilgen. Usı orında folklordıń saxnada tiri, emociyalıq jaqtan tásirsheń háreketke aylanıwında rejissyorlıq kórkem-óneriniń ornı sheshiwshi áhmiyetke iye [10; 89].

Ǵalabalıq tamashalar rejissyorı áyyemgi folklor elementlerin zamanagóy saxna talaplarına, keńislikke hám texnikalıq múmkinshiliklerge (hár túrli jaqtılıq hám ses effektleri, masshtablı dekoraciyalar) sáykeslestiredi. Rejissyor xalıq oyınların (mısalı, qoshqar urıstırıw, gúres, arqan tartıw, qız quwıw) ápiwayı oyın retinde emes, bálki xalıqtıń ruxı hám shaqqanlıǵınıń tımsalı retinde xoreografiyalıq hám teatrallastırılǵan sheshimler menen bayıtıp saxnalastıradı. Massovka (ǵalabalıq qatnasıwshılar toparı), xor hám báygi tamashaları rejissyordıń ulıwma stcenariyine boysındırılıp, xalıq dástúrleriniń estetikaliq qúdiretin asıradı [6; 145].

Saxnalıq sheshimler hám teatrallastırıw (Folklordıń saxnadıń ómiri). Rejissyor Nawrız folkloın saxnada janlandırıw ushın metaforalar hám tımsallardan (simvollar) keń paydalanadı. Mısalı, "Tábiyat ananıń" oyanıwı, "Báhár hám Qıs" yamasa "Quyash hám Tún" (jıllıq hám suwıqlıqtıń gúresi) sıyaqlı epizodlar arqalı

teatrallastırılǵan anıq obrazlar jaratıladı [9; 56]. Bul obrazlar dástúriy miynet qosıqları, "Yar-yar", aytıslar hám ǵalabalıq xalıq ayaq oyınları menen birigip, saxnada xalıq quwanısh pafosın júzege keltiredi.

Ǵalabalıq tamashalarda folklordıń saxnaǵa alıp shıǵılıwınıń jáne bir quramalı tárepi – úlken maydanda tamashagóylerdiń itibarın bir jerge jámlew. Rejissyor bunıń ushın ses, muzıka, massovkanıń anıq geometriyalıq háreketleri hám dástúriy tamashalarda (mısalı, palwanlardıń shıǵıwı, kelin-kúyew dástúri) sheberlik penen paydalanadı. Nátiyjede, folklor óziniń arxaik (áyyemgi) formasınan zamanagóy ǵalabalıq tamasha formasına ótedi. Bıraq, óziniń tiykarǵı filosofiyalıq mánisin – tınıshlıq, pákleniw hám jańalanıw ideyaların joǵaltpaydı. Rejissyordıń sheberligi arqalı saxnalastırılǵan Nawrız tamashaları xalıqtıń ózliginańlawına hám jas ávladta milliy dástúrlerge bolǵan maqtanısh sezimin oyatıwǵa, olarǵa estetikalıq zawıq baǵıshlawǵa xızmet etedi.

Alıp barılǵan ilimiy izertlewler hám analizler sonı kórsetedi, Nawrız bayramı Orta Aziya xalıqları kóz qarasında tek ǵana báhárgi seyil emes, bálki tereń ruwxıy hám filosofiyalıq mániske iye bolǵan ulıwma xalıqtıń baylıǵı bolıp tabıladı. Bul bayramnıń tiykarǵı ózegin hám kórkem tiykarın xalıq awızeki dóretiwshiligi yaǵnıy folklor quraydı hám ol xalıq etnografiyasınıń aynası sıpatında xızmet etedi [4; 45].

Házirgi dáwirde ǵalabalıq tamashalar rejissyorlıǵı folklordı úlken saxnalarǵa alıp shıǵıw arqalı oǵan jańa ómir baǵıshlamaqta. Rejissyordıń kórkem sheberligi hám saxnalıq sheshimleri (metaforalar, massovka, teatrallastırıw) arqalı áyyemgi qosıqlar, aytıslar hám xalıq dástúrleri óziniń tariyxıy hám filosofiyalıq mánisin joǵaltpaǵan halda, zamanagóy tamashagóyge tásirsheńlik penen jetkerilip atır.

Maqalanıń kirisiw hám tiykarǵı bólimlerinde qoyılǵan maqsetten kelip shıǵıp, Nawrız bayramı folklorın ǵalabalıq tamashalarda saxnalastırıw boyınsha tómendegi ámeliy usınıslardı beriwimiz múmkin:

- **Folklordıń túp nusqasın saqlaw:** Saxnalastırıw procesinde zamanagóy texnika hám dekoraciyalardan paydalanǵanda, xalıq oyınları hám dástúrleriniń arxaik (áyyemgi) ruxın buzıp qoymawǵa itibar qaratıw.
- **Ǵalabalıq qatnasıwdı támiyinlew:** Nawrızdıń tiykarǵı ideyası – awızbirshilik hám mehir-aqıbet bolǵanlıqtan, massovka hám xor tamashaların stcenariyge eń tiykarǵı element retinde kirgiziw [3; 88].
- **Estetikaliq hám ruwxıy tásirdi asırıw:** Saxnadaǵı háreketlerdi tek ǵana sırtqı tamasha ushın emes, bálki jas ávladta milliy dástúrlerge bolǵan maqtanısh sezimin oyatıw hám olardıń ózliginańlawına xızmet etetuǵın dárejede islep shıǵıw.

Ulıwma alǵanda, Nawrız bayramı folklorınıń ǵalabalıq tamashalar rejissyorlıǵındaǵı saxna ómiri – bul ótken áyyemgi dástúrler menen zamanagóy estetikaniń úylesimi bolıp, ol xalıqtıń ruwxıy baylıǵın keleshekke jetkeriwde eń kúshli kórkem qural esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. https://lex.uz/uz/docs/-8076410 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.03.2026 yildagi PQ-82-son
2. Аширов А. Наврўз ва бошқа баҳор маросимлари. – Тошкент: Фан, 2007.
3. Генкин Д. М. Массовые праздники. – М.: Просвещение, 1975.

4. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
5. Жўраев М. Наврўз байрами: тарихи ва анъаналари. – Тошкент: Фан, 2001.
6. Марков О. И. Сценарно-режиссерские основы художественно-педагогической деятельности клуба. – М.: Просвещение, 1988.
7. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986.
8. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.
9. Силин А. Д. Специфика работы режиссера при постановке массовых праздников. – М.: Искусство, 1987
10. Чечетин В. Н. Основы драматургии театрализованных представлений. – М.: Просвещение, 1981.
11. Шароев И. Г. Режиссура эстрады и массовых представлений. – М.: ГИТИС, 1986.

MUSIQA TARBIYASINING MA'NAVIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Utemuratova Eliza
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, O'zbekston davlat sanat va madaniyat instituti Nukus filiali
Ashula va raqs mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Inson shaxsining har tomonlama rivojlanishi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda ta'lim-tarbiya tizimining barcha komponentlari muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonda musiqa tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u insonning nafaqat estetik didini, balki uning ruhiy, aqliy va ijtimoiy sifatlarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqa tarbiyasi – bu shaxsning musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, shuningdek, musiqiy idrok, estetik hissiyot va badiiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqaning inson ongiga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, u markaziy asab tizimi faoliyatini faollashtiradi hamda psixik jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Musiqa inson shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki aqliy, hissiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Musiqa inson ruhiyati, tafakkuri va xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tarbiya jarayonida samarali vosita hisoblanadi. Musiqa insonning hissiy dunyosini boyitadi. Kuy va ohanglar orqali quvonch, qayg'u, hayajon, sokinlik kabi turli his-tuyg'ular ifodalanadi va idrok etiladi. Musiqa tinglash va ijro etish jarayonida inson o'z hislarini anglash, boshqarish va ifodalashni o'rganadi. Bu esa emotsional barqarorlikni ta'minlashga, stress va ruhiy zo'riqishni kamaytirishga xizmat qiladi. Aqliy rivojlanishda musiqa tarbiyasining ahamiyati katta. Musiqa bilan shug'ullanish eshitish xotirasi, diqqat, tafakkur va tasavvurni rivojlantiradi. Ritm, ohang va musiqiy shakllarni anglash mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi, tahlil va umumlashtirish qobiliyatlarini shakllantiradi. Tadqiqotlar musiqiy ta'lim olgan shaxslarning til o'rganish, matematika va ijodiy fikrlash sohalarida yuqori

natijalarga erishishini ko‘rsatadi. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. U go‘zallikni his etish, san’at asarlarini tushunish va qadrlash madaniyatini shakllantiradi. Musiqiy asarlar orqali inson milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglaydi, badiiy didi yuksaladi. Bu jarayon shaxsning ma’naviy olamini boyitadi va uning dunyoqarashini kengaytiradi. Ijtimoiy rivojlanishda ham musiqa muhim rol o‘ynaydi. Jamoaviy kuylash, ansambl va orkestr faoliyati insonda hamkorlik, mas’uliyat, intizom va o‘zaro hurmat kabi sifatlarni rivojlantiradi. Musiqa orqali muloqot qilish ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar uchun musiqa tarbiyasi ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiruvchi omil hisoblanadi.

Musiqa axloqiy rivojlanishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Musiqiy asarlarda aks etgan g‘oyalar, obrazlar va mazmun orqali ezgulik, vatanparvarlik, insonparvarlik, sadoqat kabi tushunchalar singdiriladi. Bu jarayon shaxsning axloqiy qarashlari va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Jismoniy rivojlanishda musiqa ritm va harakat uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi. Musiqa ostida bajariladigan harakatlar, raqs va mashqlar koordinatsiya, nafas olish, tana muvozanati va umumiy jismoniy faollikni oshiradi. Ayniqsa, bolalik davrida musiqali harakatlar organizmning sog‘lom rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kuy yaratish, improvizatsiya, ijro jarayonlari insonda mustaqil fikrlash, yangilikka intilish va o‘zini namoyon etish ehtiyojini kuchaytiradi. Ijodiy faoliyat esa shaxsning ichki imkoniyatlarini ochib beradi va uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Musiqa tarbiyasi uzluksiz jarayon bo‘lib, oilada, ta’lim muassasalarida va madaniy muhitda amalga oshiriladi. Oilaviy muhitda musiqa bilan tanishish, ta’lim jarayonida musiqiy bilim va ko‘nikmalarni egallash, jamiyatda esa musiqiy merosni asrab-avaylash inson rivojlanishining muhim shartlaridan biridir. Musiqa yangi metodlarni ishlab chiqish, turmush va san’at o‘rtasidagi doimiy aloqadorlikni, musiqa madaniyatining mazmun va mohiyatini yorqin ifodalab tushuntirish maqsadida aniq hadislar va misollardan foydalanish zarur. Agar badiiy adabiyot so‘z bilan tasviriy san’at ranglari va o‘yin san’ati harakati bilan namoyon bo‘lsa, musiqa boshqa musiqiy tovushlarda paydo bo‘lgan ovoz vositalarida aks etadi. Yuqorida badiiy san’at turlarini ko‘rish va eshitish orqali qabul qilsak musiqani faqat tinglash orqaligina qabul qilamiz. Musiqa bolalarga faol emotsional ta’sir ko‘rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalarini uyg‘otadi. Yaxshi mazmunli qiziqarli qo‘shiq darsi bolalarning charchog‘ini chiqarib badiiy madaniy ozuqa oladi shod-xurram bo‘lib chiqadi. Qo‘shiq darsi o‘zining faol psixologik ta’siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Shuningdek, qo‘shiq darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Tasviriy san’at, adabiyot, ona tili, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika, anatomiya va boshqalar. Bular qo‘shiq darsini turmush bilan bog‘lashga mazmunli, qiziqarli qilib dars olib borishga yordam beradi. Qo‘shiq darsining tuzilishi uchta asosiy faoliyatdan iborat: musiqa tinglash, musiqa savodi va xor bo‘lib (birgalikda) qo‘shiq aytishdan iborat. Aytganimizdek, musiqa merosimiz tarixini, baxshi-jirovlar yaratgan dostonlarni, folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish zarurligini ko‘rdik. Qoraqalpoq xalqi milliy madaniyatida urf-odat qo‘shiqlari, ertaklari olimlar tomonidan o‘rganib

borilmoqda. zfzSalt so‘zining ma’nosi an’ana elning urf-odati bilan bog‘liq. Har qanday elning madaniy tarixi shu elning urf-odat, an’ana, qo‘shiqlariga bo‘lgan munosabati orqali belgilanadi. An’anaviy qo‘shiqlarda har bir xalqning etnografik xususiyatlari etnogroflar shu elning an’anaviy qo‘shiqlarini to‘playdilar. Ya’ni elning an’anaviy qo‘shiqlari uning tarixida qanday xalq bo‘lganligini va qanday ellar bilan aloqada bo‘lganligini, madaniyatining qanday ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun mashhur tanqidchi V.G.Belinskiy “Poeziya hamma vaqt tarixga sodiq. Hatto tarixning o‘zi saqlab qololmay qolgan voqealarning o‘zida ham she’riyat saqlab qoladi” deb yozgan edi. Shuning uchun ham urf-odat qo‘shiqlari har bir xalqning hayot taqdiri, yashagan sharoiti, tarixiy davri, geografik muhiti bilan mushtarak bo‘lgan xalqdir. Umrining ko‘p yillik madaniy meroslaridan biri ularning ayrimlari qadimgi zamonlardagi massagetlar va saklarning olovga sig‘inib, xor bilan qo‘shiq aytish an’analarini eslatadi. Ba’zi rivoyatlar O‘rta Osiyoda arablar hukmronligi davridan ancha oldingi shaman dinining belgilari bilan bog‘liq bo‘lib keladi. Taniqli qozoq yozuvchisi Sobit Muxanov shomon dini bilan bog‘liq urf-odat qo‘shiqlarining qozoq xalqi orasida ham keng tarqalganligini aytib, “Shaman dinining qoldiqlari bo‘lgan porxon chaqirib zig‘ir solish, tish og‘rig‘ini qo‘shiq bilan davolash, badik aytishish, o‘lik bilan so‘zlashish xalq og‘zaki adabiyotida hanuzgacha saqlanib kelmoqda”-deb yozadi. Bu fikrlarni madaniy tarixiy so‘z kelib chiqishi qozoqlar bilan juda yaqin bo‘lgan. Qoraqalpoq xalqida ham joriy etish mumkin. Qoraqalpoq adabiyotida bu masala bilan ko‘proq shug‘ullangan professor Q. Ayimbetov “Urf-odat qo‘shiqlari deb xalqning urf-odati bilan bog‘liq qo‘shiq qo‘shiqlarini aytamiz”-degan edi. O‘tmishdagi xalq hayotidagi dunyoqarash, o‘zini o‘rab turgan tabiiy harakatlar dunyoni qanday tushunish haqidagi an’anaviy she’rlarni yaratgan. Soz kuchi xalq orasida qadimgi davrdan boshlab eng qudratli qurol hisoblangan. Masalan, baxshi-shoir qo‘shiq aytganda tog‘ning ikkiga bo‘linib yo‘l berishi, daryoning suvi kesilib to‘xtab qolishi “Edige” dostonini kuylaganda “Kun yog‘adi” degan tushunchalarning paydo bo‘lishini, yaxshi so‘z aytib yo‘lbars bilan do‘stlashish, iliq so‘zlasang ilon uyasidan chiqadi degan maqollarning paydo bo‘lishini ko‘plab ko‘rsatish mumkin. Qoraqalpoq xalqi orasida ham olovga sig‘inish kelinchak kelganda olovga yog‘ quyish, zikr solish, arvoh chaqirish, odam og‘riganda har xil narsalar bilan qoqish kabi shomon dinidan qolgan ayrim urf-odatlar bor. Bularning ko‘pchiligi xalq orasida aytishga so‘zlari bor. Qoraqalpoq folklorida qo‘shiqlar alohida katta bir janrni tashkil etadi. Bu qo‘shiqlar folklorning eng qadimgi janrlaridan biri bo‘lsa kerak. Dunyoda qo‘shig‘i yo‘q xalq yo‘q qo‘shiq qaysi xalq bo‘lmasin uning dunyosining eng boy xazinasi hisoblanadi. Xalq qo‘shiqlari deganda xalqning og‘zaki va yozma ijodkori noma’lum dostonlardagi qo‘shiqlar butunligicha kiradi. Masalan: "Alpomish", "G‘arib oshiq" dostonlaridagi qo‘shiqlar shular jumlasidandir. Xalq qo‘shiqlari mazmun tuzilishi badiiyligi jihatidan soddaligi va go‘zalligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, musiqa tarbiyasi milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosni asrab-avaylash vositasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Har bir xalqning musiqa san’ati uning tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu bois, milliy musiqa namunalarini o‘rganish yosh avlodda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash hissini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa tarbiyasi inson shaxsining kompleks rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. U emotsional, aqliy, estetik va axloqiy jihatlarni uyg‘un rivojlantirish orqali barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun zamonaviy ta’lim tizimida musiqa tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev R. Musiqa tarbiyasi nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Rajabov I. Musiqa pedagogikasi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Qodirov B. Estetik tarbiya va san’at. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
4. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebyonka. – Moskva: Pedagogika, 2004.
5. Leontyev A.N. Faoliyat, ong, shaxs. – Moskva: Politizdat, 2005.
6. Kodirxo‘jayev O. Bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish. – Toshkent: Sharq, 2016.

MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA IJODIY ISHLAB CHIQARISHNING AHAMIYATI

Seydullaeva Bibiayim Erejep qizi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiNukus filiali 2-bosqich magistranti

So‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat, san’at, adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish, dunyo tajribalari asosida zamonaviy madaniyat va san’at sohasiga oid maskanlar ishini takomillashtirish, madaniyat va san’at sohasi xodimlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida hukumatimiz tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtdoshlarimizning madaniyat va san’at sohasidagi saviyalarini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar namunalaridan bahramand etishlariga sharoit yaratish, o‘z mustaqil fikriga ega, yuksak axloq va bilimli iqtidor egalarini iste’dodlarini yanada kengroq xalqqa taqdim etish borasida sezilarli qadamlar qo‘yildi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda olib borilayotgan shiddatli va zalvorli islohotlar umuminsoniy qadriyatlarni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida milliy qadriyatlarni anglash va qadr topdirish, bir yuz o‘ttizdan ortiq millat ahil va bahamjihat xalqni bunyodkorlik g‘oyalariga asosan birlashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda bu masala nihoyatda muhim va ustuvor hisoblanadi. Bu ishlar xususida so‘z ketganda Prezidentimizning quyidagi gaplarini alohida qayd etmaslikning iloji yo‘q. “Hammamizga ayonki, inson qalbiga olijanob fazilatlar, ezgu his-tuyg‘ularni singdirib, jamiyatni birlashtirish va taraqqiy ettirish, xalqni, Vatanni dunyoga tarannum etishda madaniyat va san’atning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Yurtimiz tarixiga nazar solsak, Birinchi va Ikkinchi Renessans kabi noyob hodisalar avvalo qadimiy va boy madaniyatimizdan oziqlanib, o‘lmas qadriyat va an’analarimiz asosida vujudga kelganini ko‘ramiz. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston qiyofasini shakllantirish, o‘z oldimizga qo‘ygan buyuk maqsad – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda siz, hurmatli ijodkor ziyolilarimiz hal

qiluvchi kuch sifatida maydonga chiqayotganingizni el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi” – degan edi, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Barcha rivojlangan davlatlar qatori yangilanayotgan O‘zbekistonni tenglar ichra teng asosda dunyo davlatlari tan olishi, qadim moziydan to bugungi farovon kunlarga qadar asrab avaylab kelinayotgan milliy qadriyatlarimizning yashovchanligini ta’minlash bugungi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan sanaladi. Bu ishda madaniyat va san’at xodimlari doimo kamarvastadir. Butun jahon taraqqiyotiga tamal toshi qo‘ygan, “Nur Sharqdandir” deyilgan purhikmat e’tirofning haqiqiy jonkuyarlari mutafakkir ajdodlarimiz tadqiq qilgan durdonalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning benazir namunalari madaniyat va san’at sohasidagi xalqaro anjumanlarda o‘z ifodasini topayotgani va mamlakatimiz osori-antiqalariga qiziqib kelayotgan turistlarning fikrlarida ham yaqqol tasdig‘ini topmoqda [1].

Xaqiqiy san’at asari – o‘zida badiiy obraz shaklida hali bungacha bo‘lmagan yangilikni yaratilishi hisoblanadi. Badiiy ijod esa ijodiy jarayon orqali amalga oshiriladi. Bunda rassom g‘oyaviy-badiiy mazmunni jam etgan holda tugal badiiy asar yaratadi. Ijod va ijodiy jarayonlar xuddi fandagidek san’atda ham o‘zining murakkab ko‘rinishlari va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, xar qanday ijodiy jarayondagidek umumiy, ob’ektiv qonuniyatlarga egadir. Shunday bo‘lsada, ijodiy ish usuli va yo‘llarini umumlashtirish va tavsiflashtirish mumkin [2, B.279].

“Ijodiy ishlab chiqarish” atamasining madaniy boyliklarni yaratishga nisbatan qo‘llanilishi ijod tushunchasini qayta idrok etishni bildiradi. Ijodiy ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqdir. Ya’ni, moddiy ishlab chiqarish mahsuli ijodiy ishlab chiqarishga xizmat qilishi mumkin. Misol uchun biz biror bir qo‘shiq yaratishda moddiy ishlab chiqarishning mahsuli bo‘lgan vositalarga murojat qilamiz (cholg‘u asboblari, ovoz kuchaytirgich, ovoz yozuvchi uskuna va h.k.). Bunda o‘z-o‘zidan madaniyat mahsuloti paydo bo‘ladi. Sohadagi ijodiy ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyati o‘shandagina namoyon bo‘ladi. Madaniyat va san’at sohasi pedagogikasining mohiyati va ijod manbasi madaniyat mahsuloti bo‘ladi.

Ana o‘sha ijod mahsulini pedagog talabalarga tushintirishi va o‘rgatishi zarur. “Madaniyat mahsuloti” (g‘oya, qo‘shiq, asar, kitob, ssenariy, kompyuter o‘yini, surat va hokazo) ma’lum bir bosqichlardan o‘tgach tovarga, iste’mol ob’ektiga aylanadi. “Madaniyat mahsuloti” ishlab chiqarilishi, aynan moddiy ne’matlar ishlab chiqarilishi kabi bozorga qaratilgan. Ijodiy faoliyat iqtisodiy munosabatlarning unsuriga aylanadi va ushbu munosabatlarning mantig‘ini qabul qiladi.

Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi. Uni jamiyat e’tirof etsagina haqiqiy, to‘liq ijod bo‘ladi. Ijod madaniyatni boyitadi va rivojlantiradi. Uni shartli ravishda ikkiga: ilmiy va badiiy ijodga bo‘lish mumkin. Ishlab chiqarish – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni bo‘lib, u inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish qurollarining

o‘zgarishi va mukammallashishidan boshlanadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi jamiyat a’zolarining farovonligini muntazam oshira borish va har tomonlama rivojlantirishga imkoniyatlar yaratadi. Ma’lumki, jamiyat ishlab chiqarishsiz bo‘lishi mumkin emas, zotan ishlab chiqarish kishilarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan. Ishlab chiqarish faoliyati ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

1) moddiy ishlab chiqarish
2) ma’naviy ishlab chiqarish.

Moddiy ishlab chiqarish – jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlarni yaratish jarayoni hisoblanadi. Jamiyatning ma’naviy hayoti, ma’naviyat, ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy ishlab chiqarish, ma’naviy o‘zlashtirish, ma’naviy munosabat, ijtimoiy ong. "Jamiyatning ma’naviy hayoti" deganda kishilarning ma’naviy ishlab chiqarish faoliyati, uning natijalari hamda ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida shakllanadigan aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi. “Jamiyatning ma’naviy hayoti” deganda unda ishlab chiqarilgan xilma-xil qarashlar, g‘oyalar nazarda tutiladi. Jamiyatning ma’naviy hayoti o‘ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. Uning asosiy elementlari sifatida ma’naviy faoliyat, ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy o‘zlashtirish, ma’naviy munosabatlar nazarda tutiladi. Ma’naviy faoliyat yoki ma’naviy ishlab chiqarish inson faoliyatining muhim ko‘rinishi bo‘lib, kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan narsalarni yaratishini nazarda tutadi. Ma’naviy ishlab chiqarish insonning olamga faol munosabatini ifodalaydi [2, B.40]. Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o‘quv materialining o’zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo‘lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo’lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Bunda soha xodimlari kasbiy ko‘nikma bilan birga pedagogik unsurlardan, axborot-texnologiyalari va maxsus metodlardan foydalanadi. Masalan, ijodiy izlanish metodi – pedagog boshchiligida qo‘yilgan muammo va masalalarni yechish yo‘llarini faol izlashni tashkil etishga xizmat qiladigan metodlardir. Bu metodlar orqali ijodiy o‘zlashtirishga erishiladi.

Ijodiy o‘zlashtirish darajasi – o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini turli holatlarda tadbiq eta olish, masala yechishning turli yo‘llarini izlash imkonini beradigan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi. Madaniyat va san’at sohasi pedagogikasida ijodiy ishlab chiqarishning mohiyati zamirida ijodiy izlanish, o‘zlashtirish orqali ta’lim jarayonida ijodkorni tarbiyalash vazifasi turadi. Ya’ni ijodkor va ijodkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodkor – mustaqil yaratuvchilik xususiyatiga ega bo‘lgan shaxs. Ijodkorlik – yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratish bilan natijalanadigan faoliyat turi. Ijodning rivojlantiruvchi funksiyasi – ta’lim-tarbiya jarayonini o‘zaro uzviy bog‘lab olib borish uchun xizmat qilib, shaxsning intellektual, sezgirlik va o‘z xohishi bilan intilish kabi jihatlariga erishganlik darajalarini o‘z ichiga oladigan hodisa [3].

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. To‘ychiyeva S. Qadriyatshunoslik. – Toshkent: 2020. O‘zDSMI, 141 b.
2. Karimov R. Ijodiy jarayonning inson hayotida tutgan o‘rni, mohiyati. Jur. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar №4. 2021 yil.
3. Haydarov A. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish– Toshkent. “Kamalak” 2019. 192 b.
4. Djurayev R.X va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent 2008, 135 b.

QORAQALPOQ TELEFILMLARINING MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI

Rametullayeva Alima Bazarbayevna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, O`ZMKOMI` Nukus filiali San`at nazariyasi va tarixi: Kinoshunoslik. 1-kurs magistrant

Mazkur tezisda Qoraqalpoq telefilmlarining O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi davrdagi rivojlanish tendensiyalari, ularning badiiy-estetik xususiyatlari hamda jamiyat hayotidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Mustaqillik yillarida milliy madaniyatni tiklash, tarixiy xotirani jonlantirish va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati Qoraqalpoq televideniyesi taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.Ushbu davrda yaratilgan telefilmlar tematik va janr jihatdan rang-barangligi bilan ajralib turadi. Xususan, tarixiy-biografik, ijtimoiy-maishiy va madaniy-ma’rifiy yo‘nalishlar yetakchi o‘rin egalladi. Telefilmlarda milliy o‘zlikni anglash, xalqning urf-odat va an’analari, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy muammolar – oila, tarbiya, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar badiiy talqin etildi. Mazkur jarayonda alohida ijodkorlarning hissasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, rejissyor Damegul Allamuratova tomonidan yaratilgan telefilmlar Qoraqalpoq televideniyesi rivojida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning “Bir do‘sting bo‘lsin” va “Yog‘och qoshiq” nomli telefilmlari badiiy-g‘oyaviy jihatdan chuqur mazmunga ega bo‘lib, insoniy munosabatlar, do‘stlik, ma’naviy qadriyatlar va kundalik hayot muammolarini yoritishga qaratilgan.“Bir do‘sting bo‘lsin” telefilmida insonlar o‘rtasidagi samimiylik, ishonch va do‘stlikning hayotdagi o‘rni ochib beriladi. Asarda qahramonlar orqali ijtimoiy muhit, insoniy fazilatlar va axloqiy tanlovlar badiiy ifodasini topgan. “Yog‘och qoshiq” telefilmida esa milliy turmush tarzi, oddiy buyumlar orqali ifodalangan ma’naviy qadriyatlar, avlodlar davomiyligi va an’analarning saqlanishi kabi masalalar ramziy va badiiy vositalar orqali yoritiladi. Ushbu asarlar nafaqat mazmuni, balki rejissyorlik yechimlari, obrazlar tizimi va dramatik qurilishi bilan ham ajralib turadi.Shuningdek, mustaqillik davrida telefilm ishlab chiqarish jarayonida texnik va texnologik yangilanishlar amalga oshirildi. Raqamli tasvirga olish, zamonaviy montaj texnologiyalari, ovoz yozish va qayta ishlash tizimlarining rivojlanishi telefilmlar sifatining oshishiga xizmat qildi. Ijodiy jamoalarning kasbiy mahorati oshib, yangi avlod rejissyor va ssenariynavislar shakllandi.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpoq telefilmlari mustaqillik yillarida mazmunan boyib, janr jihatdan kengayib va badiiy darajasi yuksalib bordi. Ayniqsa,

“Aktyor saxnada piker júrgiziwi ushın barlıq bulshıq etlerin, muskulların bos uslawı kerek. G.Tovstongov “Мыслящий актёр ценится” dep aytadı. Denelerin, muskulların qattı uslaġan aktyor saxnada pikir júrgize almaydı”.[2-71b] Akrobatikalıq shınıġıwlar bolsa usı fizikalıq tayarlıqtıń eń nátiyjeli qurallarınıń biri bolıp esaplanadı. Olar aktyordıń dene múmkinshiliklerin keńeytip qalmay, bálkim onıń saxnadagi ekspressivligin, ritm seziwin hám dinamizimin de rawajlandıradı. Ásirese, urıs saxnaları, plastik spektakllar hám eksperimental teatr túrlerinde akrobatikalıq elementlerdiń roli ayırıqsha seziledi.

“Hár dayım yadıńızda saqlań – dep atap ótedi K.Stanislavskiy – oynaġan rolińizdiń 95 protsentine muskullardıń qısılıwı aqıbetinde majıġıw illeti bar. Usı orında muskullardı bosatıw shınıġıwları áhimiyetli ról oynaydı”. [3-157b] Sonıń ushın, akrobatika tek texnikalıq sheberlik emes, bálkim aktyordıń psixofizikalıq jaġdayın birlestiriwshi faktor retinde de qaraladı. Dene hám sezim uyġunlıġı saxnalıq isenimliliktiń tiykarı bolıp tabıladı.

Hár bir aktyor ushın tek ġana akrobatikalıq shınıġıwlar ġana kerek bolıp qalmastan eń dáslep koordinaciyalıq shınıġıwlar menen shuġıllanıp baslaw kerek. Koordinaciya shınıġıwları aktyordıń denesin sanalı basqarıw qábiletin rawajlandıradı. Bul bolsa saxnadagi háreketlerdiń mazmunlı, kórkem hám estetikalıq boliwin támiyinleydi. [4- 178 b]

Usı maqala saxna háreketi hám gúresi sistemasında akrobatikalıq shınıġıwlardıń teoriyalıq negizlerin hám ámeliy áhmiyetin tereńirek ashıp beriwge qaratılġan.

Izertlew procesinde tómendegi ilimiy metodlardan paydalanıldı:

Analitikalıq metod - saxna háreketi hám akrobatikaġa tiyisli ilimiy ádebiyatlar úyrenildi.

Salıstırıw metodi - túrli teatr mekteplerindegi fizikalıq tayarlıq sistemaları salıstırıldı.

Baqlaw usılı - saxna shınıġıwları hám ámeliy shıġıwlar tallandı.

Ámeliy metod - akrobatikalıq shınıǵıwlardıń aktyorlar tayarlıǵına tásiri úyrenildi.
Nátiyjeler: Izertlew nátiyjeleri akrobatikalıq shınıǵıwlardıń aktyor tayarlıǵına kompleks tásir etetinligin kórsetti. Olardıń tiykarǵı nátiyjeleri tómendegishe tolıqtırıldı:

1. ***Fizikalıq qabiletlerdi kompleksli rawajlandırıw***

Akrobatika kúsh, shıdamlılıq, tezlik hám epshillikti bir waqıtta rawajlandıradı. Bul komponentler saxnalıq háreketlerdi stabil hám isenimli orınlawdı támiyinleydi. Akrobatikalıq shınıǵıwlar dene bólimleriniń uyǵunlı háreketin qáliplestirip, aktyordıń keńislikti sezew qabiletin arttıradı. Bul bolsa quramalı mizanscenalardı saxnalastırǵanda júdá áhmiyetli esaplanadı.

2. ***Plastikalıq ekspressivlikti rawajlandırıw***

Dene plastikasınıń jetiliswi yaǵnıy rawajlanıwı aktyorǵa sózden tısqarı kórsetpe yaǵnıy túsindiriw quralların paydalanıw imkaniyatın beredi. Nátiyjede saxnalıq obraz tereń ashıp beriledi.

3. ***Psixologiyalıq isenimlilik hám erkinlik***

Qıyın elementlerdi úyreniw hám orınlaw aktyorda óz kúshine isenimdi oǵada arttıradı. Bul bolsa saxnadaǵı qorqınısh hám qısılıwdı azaytadı.

4. ***Saxna gúresi ushın bazalıq tayarlıq***

Akrobatika qáwipsiz qulaw, sekiriw, teńsalmaqlılıqtı saqlaw sıyaqlı elementler arqalı saxna sawashlarınıń texnikalıq negizin jaratadı.

5. ***Jaralanıw qáwpin azaytıw***

Jaralanıw qural menen anıq shanshıw yamasa soqqı beriw arqalı jetkizilgen fizikalıq "zıyan" aqıbeti. [5-79 b] Turaqlı shınıǵıwlar yaǵnıy koordinatciyalıq hám akrobatikalıq shınıǵıwlar menen shuǵıllanıw muskullar men baylamlardı bekkemlep, mine usınday saxnalıq jaraqatlanıw itimalın tómenletedi.
Ámeliy nátiyjeler: tómendegi akrobatikalıq shınıǵıwlar nátiyjeli dep tabıldı: aldıǵa hám artqa aylanıw (gimnastikalıq oramlar), qol ústinde turıw shınıǵıwları, sekiriw hám teńsalmaqlılıq shınıǵıwları, jup bolıp orınlanatuǵın elementler.
Talqılaw: Alınǵan nátiyjeler teatr pedagogikası teoriyası menen ámeliyatında akrobatikalıq tayarlıqtıń universallıǵın tastıyıqlaydı. Dúnya teatr mekteplerinde (Stanislavskiy, Meyerhold, Grotowski sistemasında) fizikalıq tayarlıqqa beriletuǵın úlken áhmiyet bul baǵıttıń ilmiy negizge iye ekenligin kórsetedi.

Ásirese, Meyerholdtıń biomexanika teoriyası hám Grotoskiydiń "fizikalıq teatr" kontseptsiyası dene arqalı túsindiriwdıń tiykarı retinde akrobatikalıq elementlerdi qollanıwdı kúshli qollap-quwatlaydı. Bul jaǵday akrobatikanı tek qosımsha shınıǵıw emes, bálkim aktyorlıq texnikasınıń ajıralmas bóligi retinde qaraw kerek ekenligin kórsetedi.

Sonıń menen birge, zamanagóy teatrda multimediya hám plastikalıq teatr túrleriniń keńeyiwine baylanıslı, aktyordan talap etiletuǵın fizikalıq qabilyetler de artıp barmaqta. Bul bolsa akrobatikalıq tayarlıqtı oqıw protsessine sistemalı túrde engiziwdi talap etedi. Ámeliy baqlawlar sonı kórsetedi, eger shınıǵıwlar metodikalıq dúzilis penen alıp barılsa, olar tek fizikalıq emes, bálkim psixologiyalıq stabillikti de qáliplestiredi.

Juwmaqlap aytqanda, akrobatikalıq shınıǵıwlar saxna háreketi hám gúresi sistemasınıń tiykarǵı komponentleriniń biri bolıp tabıladı. Olar aktyordıń fizikalıq

tayarlıǵın kompleksli túrde rawajlandırıp qalmay, bálkim onıń saxnalıq ekspressivligi hám obraz jaratıw múmkinshiliklerin de keńeytedi.
Izertlew nátiyjeleri sonı tastıyıqlaydı: akrobatikalıq shınıǵıwlar koordinaciya, plastika, teńsalmaqlılıq hám psixofizikalıq uyǵunlıqtı rawajlandırıw arqalı aktyorlıq sheberlikti joqarı basqıshqa kóteredi. Sonday-aq, olar saxna gúresi elementlerin qáwipsiz hám isenimli orınlaw úshın zárúr tiykar jaratadı. Bul bolsa teatr praktikasında úlken áhmiyetke iye.

Paydalanilǵan ádebiyatlar:

1. Stanislavskiy K.S. — “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” 2011-yil, 54 b.
2. N.Ansatbaev “Teatr hám aktyor” Toshkent-2020, 71 b.
3. Румянсев. “Станиславский ва опера”. Искусство, М.,1969,157 б.
4. BAXIEVA, BIYBINAZ. "STAGE MOVEMENT AND COORDINATION: ANALYSIS OF THE TRAINING OF FUTURE ACTORS." GLOBAL SCIENTIFIC CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. Vol. 1. No. 3. 2026.
5. R.Dusanov “Sahna harakati va jangi”. Toshkent-2025, 79 b.
6. Aktyorlik mahorati va sahna harakatiga oid o‘quv qo‘llanmalar

KINO KRITIKASI ARQALI SOCIALLIQ MASHQALALARDI SÁWLELENDIRIW

Xabipnazarova Gulistan Xojabaevna
Kórkem óner tanıwshılıǵı (kino kórkem óneri sın hám talqılawı) qánigeliginiń 2-kurs studenti

Kino kórkem óneri búgingi kúnde jámiyet turmısınıń ajıralmas bólegine aylanǵan. Ol tek ǵana kewil ashar qural emes, al jámietlik sananı qáliplestiriwshi áhmiyetli faktor bolıp esaplanadı. Kino arqalı jámiyettegi túrli mashqalalar, insanıy qatnasıqlar hám qádiriyatlar keń jámiyetshilikke jetkeriledi. Kino sını bolsa bul processte ayrıqsha orın iyeleydi. Sınshı filmdi tek ǵana bahalap qoymastan, al onda sáwlelengen sociallıq ideyalardı analizleydi, tamashagóydi pikirlewge iytermeleydi. Sonlıqtan kino sını jámiyettegi mashqalalardı ashıp beriwshi nátiyjeli qural sıpatında kórinedi.Kino hám jámiyet arasındaǵı baylanıs júdá kúshli hám eki tárepleme tásirge iye. Yaǵnıy, kino jámiyetti sáwlelendiredi, sonıń menen birge jámiyetke de tásir kórsetedi.Filmler kóbinese jámiyettegi mashqalalar, qádiriyatlar hám turmıs tárizin kórsetedi. Máselen, uris, teńsizlik, muhabbat, korrupciya sıyaqlı temalar kinoda sáwlelenedi.Usı tárepten kino real turmıstaǵı waqıyalardı kórkem formada kórsetedi. Kino adamlardıń dúnyaǵa kózqarasın qáliplestiriwi múmkin. Ayırım filmler belgili bir ideyalardı alǵa súredi yamasa sociallıq máselelerge itibar qaratadı. Máselen, "Sociallıq tarmaq" filmi zamanagóy texnologiyalar hám sociallıq tarmaqlardıń jámiyettegi ornın kórsetedi. Kino arqalı milliy mádeniyat, úrp-ádet hám dástúrler keń auditoriyaǵa jetkeriledi. Sol sebepli kino mádeniy almasıw quralı esaplanadı. Kóplegen filmler jaslar ushın tárbiyalıq áhmietke iye. Olar arqalı jaqsılıq hám jamanlıq, durıs hám nadurıs túsinikleri qáliplesedi. Ayırım filmler sociallıq mashqalalardı ashıp berip, dodalawlarǵa sebep boladı hám hátteki

ózgerislerge alıp keledi. Kino bárqulla jámiyettiń jańǵırıǵı bolıp kelgen. Onda bar sociallıq mashqalalar - kámbaǵallıq, jumıssızlıq, gender teńsizlik, ruwxıy krizis sıyaqlı máseleler kórkem obrazlar arqalı sáwlelendiriledi. Usı jaǵınan kino jámiyetti sáwlelendiriwshi ayna wazıypasın atqaradı.Bunnan tısqarı, kino tamashagóylerdiń dúnyaǵa kózqarasına tásir etedi. Ol adamlardı mashqalalar haqqında oylawǵa, olardı sheshiw jolların izlewge shaqıradı.

"Kino sınası - sociallıq tallaw quralı" degen ideya sonı ańlatadı, filmlerdi tallaw arqalı jámiyettegi mashqalalar, kózqaraslar hám ózgerislerdi tereńirek ańlaw múmkin. Kino kritikası ápiwayı bahalaw (jaqtı/jaqpaǵan) emes, al keńirek sociallıq, mádeniy hám siyasiy kontekstti úyreniw bolıp tabıladı. Kino sınshısı filmdi tek syujet yamasa aktyorlıq jaqtan emes, al onıń artında turǵan ideyalardı tallaydı: Qaysı sociallıq mashqala kóterilgen?Qaharmanlar qanday sociallıq qatlamdı sáwlelendiredi?Film qanday qádiriyatlardı úgit-násiyatlaydı? Mısalı, Joker filmi arqalı jámiettegi teńsizlik, ruwxıy salamatlıq hám itibarsızlıq mashqalaları tallanadı.

Kino kritikası jámiyetti "oqıw" imkaniyatın beredi: Sociallıq teńsizlik - kámbaǵallıq hám baylıq arasındaǵı ayırmashılıq, Gender máseleleri - hayal hám erkek rolleriniń súwreti, Siyasiy ortalıq - hákimiyat hám xalıq arasındaǵı qatnasıqlar. Máselen, "Parazit" filmi klasslıq ayırmashılıqtı júdá keskin hám simvolikalıq túrde ashıp beredi. Kino kritikası tamashagóyge filmdi tereńirek túsiniwge járdem beredi. Adamlar kritika arqalı: filmniń jasırın mánilerin ańlaydı, óz pikirin qáliplestiredi, jámiyetke kritikalıq kózqarastı úyrenedi. Hár bir film óz dáwiriniń jemisi. Kritikler filmdi sol dáwir menen baylanıstırıp analizleydi. Bul bolsa tariyxıy hám mádeniy processlerdi túsiniwge járdem beredi.Kino sın kózqarası film mazmunın tereń tallaw arqalı ondaǵı jasırın ideya hám mánilerdi ashıp beredi. Sınshı sociallıq mashqalalardı anıqlap, olardı tiykarlı túrde túsindiredi. Máselen, filmde sáwlelengen qaharmanlardıń ómiri arqalı jámiettegi teńsizlik yamasa ádalacızlıq mashqalaları ashıp beriliwi múmkin.Kinotanıwshı bolsa bul táreplerdi ayrıqsha sáwlelendirip, tamashagóyge keńirek túsinik beredi.Sonday-aq, kino kritikası aǵartıwshılıq áhmietke iye bolıp, tamashagóylerde sın pikirlewdi rawajlandıradı. Kóplegen filmlerde sociallıq mashqalalar oraylıq orındı ieleydi. Máselen, shańaraqlıq kelispewshilikler, jaslar tárbiyası yamasa jámiyettegi ádalatsızlıq sıyaqlı temalar keńnen sáwlelendiriledi.Bunday filmler kinotanıwshılar tárepinen tallanǵanda, olardıń tiykarǵı mazmunı jáne de tereńirek ashıladı. Kinotanıwshı filmniń tek kórkemlik tárepin emes, al onıń sociallıq áhmiyetin de bahalaydı.Búgingi kúnde kino kritikası tek professional sınshılar menen sheklenip qalmay atır. Internet hám sociallıq tarmaqlar arqalı ápiwayı tamashagóyler de óz pikirlerin bildiriw imkaniyatına iye. Sonıń menen birge, sapalı hám tiykarlı sınǵa talap ta artıp barmaqta. Sebebi hár qanday pikir tereń tallawǵa tiykarlanbaǵan bolıwı múmkin.Qısqasha aytqanda, kino sını sociallıq mashqalalardı sáwlelendiriwde áhmietli qural bolıp esaplanadı. Ol film arqalı berilgen ideyalardı ashıp berip, jámiyettegi áhmietli máselelerge itibar qaratadı.Kino sın tek ǵana filmdi bahalaw emes, al jámiyetlik sananı qáliplestiriw, adamlardı pikirlewge iytermelew sıyaqlı wazıypalardı da atqaradı. Sol sebepli, onıń jámiyet turmısındaǵı áhmiyeti sheksiz.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:
1. Bordwell, D., Thompson, K. (2013). Film Art: An Introduction. New York: McGraw-Hill Education.
2. Hayitov, Sh. (2018). O‘zbek kinosi tarixi va rivoji. Toshkent: San’at nashriyoti.
3. Rasulov, A. (2020). “Kino san’ati va jamiyat”. San’atshunoslik jurnali, №3, 45–52-betlar.
4. Qodirov, B. (2019). “Kino tanqidi va uning zamonaviy talqini”. Madaniyat va san’at, №2, 30–36-betlar.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA YOSHLARNING TANQIDIY VA KREATIV QARASHLARINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY IMKON

Boshbekov Inomjon Juman o’g’li
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, O'zbekiston davlat va san'at madaniyat instituti Nukus filiali Davlat muasasalarini boshqarish va boshqarishni tashkil etish, Madaniyatshunoslik guruh talabasi
Abatova Gulnoza Maxsetbayevna
O'zbekiston davlat va san'at madaniyat instituti Nukus filiali Madaniyat faoliyati kafedrasi assistent o’qituvchisi

XXI asr axborot jamiyatida yoshlarning madaniy-estetik tarbiyasi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish milliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlariga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va Yoshlar ittifoqi faoliyatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni hamda "Yoshlar siyosati konsepsiyasi"da yoshlarni jamiyat hayotiga faol jalb etish, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish vazifasi qo'yilgan. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, madaniyat va san'at sohasida yoshlarning tanqidiy qarashlarini shakllantirish borasida tizimli yondashuv hali to'liq shakllanmagan.

So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlari orasida madaniy iste'mol tezkor o'sishini kuzatmoqdamiz: ijtimoiy tarmoqlar, oqimli video platformalar, raqamli san'at mahsulotlari yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ammo bu jarayon ko'pincha passiv qabul qilish shaklida kechmoqda – yoshlar madaniy mahsulotlarni tanqidiy baholash, ularning qiymatli va salbiy jihatlarini ajrata olish, o'z pozitsiyasini shakllantirish ko'nikmalariga yetarlicha ega emaslar. Mana shu nuqtada tanqidiy va kreativ qarashlarni rivojlantirishning zaruriyati paydo bo'ladi.

Tanqidiy fikrlash (critical thinking) tushunchasi pedagogika va psixologiyada keng o'rganilgan. J. Dyueyning ta'rifiga ko'ra, tanqidiy fikrlash – bu dalillar asosida ma'lumotlarni baholash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Madaniyat va san'at kontekstida esa bu tushuncha yanada murakkab ma'no kasb etadi: bu nafaqat mantiqiy tahlil, balki estetik his, emotsional intellekt va madaniy kontekstni tushunish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Kreativ qarashlar deganda esa biz yangi, nostandart yechimlar topish, mavjud shakllarni qayta o'ylab ko'rish, ijodiy

eksperimentlar o'tkazish qobiliyatini tushunamiz. P. Bourdieuning madaniy kapital nazariyasi shuni ko'rsatadiki, yoshlarning kreativ potensiali ularning madaniy muhitga qanchalik chuqur kirib borishi va turli madaniy kodlarni o'zlashtirishi bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, keng va boy madaniy tajriba kreativlikning asosiy manbaidir.

Muhimi shuki, tanqidiy va kreativ fikrlash bir-birini to'ldiradi. Tanqidiy qarash mavjudni tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beradi; kreativ yondashuv esa ushbu tahlil asosida yangi, takomillashtirilgan variant yaratish yo'lini ochadi. Mana shu sintez zamonaviy yoshlarning madaniy kompetensiyasining asosini tashkil etishi kerak.

O'zbekiston yoshlarining madaniy hayoti bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir tomondan, ommaviy madaniyat mahsulotlari, ayniqsa, xorijiy serial va kontent, yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Ikkinchi tomondan, milliy madaniy an'analar, folklor, klassik musiqa va adabiyotga qiziqish nisbatan past darajada. Bu vaziyat yoshlarning madaniy identifikatsiyasi va tanqidiy qarashlarini shakllantirishda muammolar tug'dirmoqda. Shaxsiy kuzatishlarimga ko'ra, yoshlar ko'pincha madaniy mahsulotlarni "yoqadi/yoqmaydi" mezonida baholashadi, biroq nima uchun yoqishi yoki yoqmasligini asoslash, badiiy qiymatini tahlil qilish, muallif niyatini tushunish kabi chuqurroq savollarga javob berishda qiyinalishadilar. Bu holat nafaqat madaniy ta'limning etishmasligidan, balki raqamli muhitda kontentni tez iste'mol qilish madaniyati natijasida ham yuzaga kelmoqda. Biroq, imkoniyatlar ham mavjud. O'zbekiston madaniy institutlarining – teatrlar, muzeylar, san'at maktablari, madaniy markazlarning – tarmog'i kengaymoqda. "Yosh ijodkor" festivallari, tanlovlar, onlayn platformalar yoshlarga o'z ijodiy g'oyalarini namoyish etish imkoniyatini bermoqda. "Yoshlar daftari" dasturi, yoshlar ma'naviy-ma'rifiy markazlari kabi tashabbuslar madaniy faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda kontent yaratuvchilar (content creators), blogerlar, raqamli rassom va dizaynerlar faoliyat yuritishmoqda. Bu – kreativlikning yangi shakli. Biroq bu jarayonni tanqidiy qarashlar bilan to'ldirilmasa, u yuzaki va kommertsial xarakterga ega bo'lib qolishi xavfi mavjud.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni yechish va imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif qilamiz: Madaniy-estetik ta'limni tizimlashtirish. Oliy ta'lim muassasalarida va maktablarda "Media savodxonligi", "Madaniy tadqiqotlar", "Tanqidiy fikrlash asoslari" kabi kurslar joriy etish zarur. Ushbu kurslar yoshlarga madaniy mahsulotlarni tahlil qilish metodikasini o'rgatishi, ularning narrativ tuzilmasi, ideologik xabarlari, estetik qiymatlarini ajratib ko'rsatishga yordam berishi kerak.

Amaliy ijodiy loyihalar va ustaxonalar (workshops) tashkil etish. Nazariy bilim amaliy tajriba bilan to'ldirilganda samara beradi. Yoshlar filmlar, teatr qo'yilmalari, san'at asarlari yaratish jarayonida ishtirok etganda, ular kreativlikning qiyinchiliklarini va imkoniyatlarini bevosita his qilishadi. Shu bilan birga, boshqa ishtirokchilarning ishlarini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasi ham rivojlanadi.

Dialogli muhit yaratish. Madaniy markazlar, kutubxonalar va universitetlarda muntazam munozaralar, kino-klublar, adabiy uchrashuv va diskussiya platformalari

tashkil etish muhimdir. Bu yerda yoshlar o'z fikrlarini erkin ifodalashi, turli qarashlarni eshitishi, argumentlar qurishi va himoya qilishi mumkin. J.Habermasning ommaviy sfera (public sphere) konsepsiyasi shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda erkin munozaralar muhiti insonlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Raqamli madaniyatni tanqidiy o'rganish. Zamonaviy yoshlar raqamli muhitda o'sib kelmoqda. Shuning uchun ularga raqamli kontent – ijtimoiy tarmoq postlari, virusli videolar, reklamalar, influencer marketingni tanqidiy baholash ko'nikmalarini berish zarur. Bu nafaqat manipulyatsiyadan himoya qiladi, balki ongli raqamli fuqarolar tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Milliy va jahon madaniyatini integratsiyalash. Yoshlarga ham o'zbek klassik va zamonaviy san'atini, ham jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini taqdim etish muhimdir. Bu qiyosiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi va madaniy ufqni kengaytiradi. Masalan, o'zbek mumtoz musiqasi va Yevropa klassik musiqasini qiyoslash, Cho'lponning she'riyati va frantsuz simvolizmini taqqoslash yoshlarga ikki madaniyatni ham chuqurroq tushunishga yordam beradi.Mentorlik va professional yo'llanma. Yoshlar ijodiy sohalarda faoliyat yuritishda tajribali san'atkorlar, mutaxassislar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Mentorlik dasturlari, masterklasslar, rezidensiya dasturlari kreativ salohiyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Madaniyat va san'at sohasida yoshlarning tanqidiy va kreativ qarashlarini rivojlantirish – bu nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-siyosiy vazifadir. Zamonaviy axborot jamiyatida ongli, tanqidiy fikrlovchi, o'z madaniy identifikatsiyasiga ega bo'lgan yoshlar yetishib chiqishi milliy rivojlanishning asosiy omilidir.

O'zbekistonda bu jarayon hozir shakllanish bosqichida. Bizda boy madaniy meros, rivojlanayotgan zamonaviy san'at, texnologik imkoniyatlar mavjud. Bularni to'g'ri yo'naltirilgan ta'lim tizimi, ijodiy muhit va yoshlar siyosati bilan birlashtirsak, yangi avlodning madaniy kompetentsiyasini sezilarli darajada oshirishimiz mumkin.

Bu maqolada taklif etilgan yo'nalishlar – tizimli madaniy ta'lim, amaliy ijodiy loyihalar, dialogli muhit, raqamli savodxonlik, milliy-jahon madaniyati sintezi va mentorlik – yoshlarning tanqidiy va kreativ salohiyatini ro'yobga chiqarishning amaliy mexanizmlarini belgilab beradi. Ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish uchun davlat, ta'lim muassasalari, madaniy institutlar va fuqarolik jamiyati birgalikda harakat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va Yoshlar ittifoqi faoliyatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. – 2019-yil 30-sentabr.
2. Dyui J. Biz qanday fikrlaymiz: reflektiv fikrlashning ta’lim jarayonidagi o‘rni. – Boston: D.C. Heath nashriyoti, 1933. – 224 b.
3. Burdye P. Farq: did (ta’m) hukmiga asoslangan ijtimoiy tanqid. – Kembrij: Garvard universiteti nashriyoti, 1984. – 640 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlar daftari” davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi 386-son qarori. – 2021-yil 15-iyun.
5. Habermas Yu. Ommaviy sohaning strukturaviy transformatsiyasi: burjua jamiyati kategoriyasiga oid tadqiqot. – Kembrij: MIT Press, 1989. – 301 b.

6. Abdullayeva Sh.N. Yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shartlari Pedagogika va psixologiya masalalari. – 2020. – B. 45–52.
7. Karimov I.N. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tizimini takomillashtirish muammolari Falsafa va huquq. – 2021. – №1. – B. 18–25.
8. Kastels M. Tarmoq jamiyatining yuksalishi: axborot asri – iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat. – Oksford: Blackwell nashriyoti, 1996. – 556 b.
9. Yusupova N.M. Raqamli madaniyat sharoitida yoshlarning estetik tarbiyasi // Madaniyat va san’at muammolari. – 2022. 67–74.
10. Adorno T., Xorkxaymer M. Ma’rifat dialektikasi: falsafiy fragmentlar. – Stenford: Stenford universiteti nashriyoti, 2002. – 304 b.

KUTUBXONA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamutova Saltanat Paraxatovna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali Kutubxona axborot faoliyati 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: ***Aytimova Dilbar Aymuratovna***
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali “Kutubxona faoliyati” kafedrasi dotsenti

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida yoshlar masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning intellektual salohiyati, ma’naviy yetukligi va ijtimoiy faolligi mamlakat rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etishda turli ijtimoiy institutlar qatorida kutubxona-axborot muassasalarining o‘rni beqiyosdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kutubxona tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalash va yoshlar ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada kutubxonalar an’anaviy kitob saqlash maskanidan zamonaviy axborot va ma’naviyat markaziga aylanmoqda. [To‘xtayev S, 15-bet]

Mazkur maqolaning maqsadi — kutubxona faoliyatini rivojlantirish orqali yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Kutubxona faoliyati bugungi kunda nafaqat axborot yetkazib berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida kutubxonalarning o‘rni ularning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni oshirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan belgilanadi. Yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatishda kitobxonlik madaniyatining o‘rni beqiyosdir. Kitob mutolaasi orqali inson tafakkuri kengayadi, nutqi boyiydi va hayotiy qarorlar qabul qilishda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Shu sababli kutubxonalar tomonidan tashkil etilayotgan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, kitob taqdimotlari, ijodiy uchrashuvlar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. [Karimov I, 48-bet]

Shuningdek, zamonaviy kutubxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Elektron kutubxonalar, onlayn ma’lumotlar bazalari, mobil ilovalar orqali yoshlar uchun axborot olish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa yoshlarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. [Axmedov A, 33-bet]

Kutubxona faoliyatining yana bir muhim jihati uning ta’lim tizimi bilan integratsiyasidir. Maktab va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda olib borilayotgan loyihalar yoshlarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Masalan, “Yosh kitobxon” tanlovlari, ilmiy seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlari orqali yoshlarning kutubxonaga bo‘lgan qiziqishi ortmoqda. [Xasanov B, 52-bet]

Bundan tashqari, kutubxonalar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular yoshlarni turli zararli odatlardan himoya qilish, ularni ijtimoiy faol va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kutubxona faoliyatini rivojlantirish yoshlar tarbiyasining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarning kutubxonalarga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada ortmoqda. [Abdullayev Q, 27-bet]

Biroq mavjud tizimda ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim hududlarda kutubxona infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanmaganligi hamda yoshlar orasida kitobxonlikka qiziqishning pasayishi kabi holatlar mavjud.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- kutubxonalarni to‘liq raqamlashtirish va yagona axborot tizimini yaratish
- yoshlar uchun maxsus interaktiv platformalar ishlab chiqish
- kutubxona xodimlarining malakasini oshirish
- kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi innovatsion loyihalarni kengaytirish

Natijada kutubxona faoliyati yanada samarali tashkil etilib, yoshlar tarbiyasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kutubxona faoliyatini rivojlantirish yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Zamonaviy kutubxonalar yoshlarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kelgusida kutubxona tizimini yanada rivojlantirish orqali yoshlarning:

- bilim darajasini oshirish
- mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish
- ma’naviy yetukligini ta’minlash mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xtayev S. Madaniyatshunoslik. – Toshkent, 2017. – 15-bet
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008. – 48-bet
3. Axmedov A. Axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2019. – 33-bet
4. Xasanov B. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2018. – 52-bet
5. Abdullayev Q. Yoshlar va ma’naviyat. – Toshkent, 2022. – 27-bet

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2020. – 22-bet
7. Yo‘ldoshev J. Kutubxona ishi asoslari. – Toshkent, 2015. – 61-bet
8. Rasulov R. Raqamli kutubxonalar. – Toshkent, 2021. – 40-bet
9. Aytimova. D. A. (2023). Effective Use of Pedagogical Technologies in Teaching Library Studies. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, *2*(5), 40–43. Retrieved from https://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1422
Aytimova , D. From the history of the formation and develorment of the first libraries in Karakalpakstan. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(5), https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28 iss5/a49-53

INSAN TUWILIWINIŃ MUQADDES FILOSOFIYASI HÁM QARAQALPAQ XALQINIŃ QIRQINAN SHIĠARIW MÁRESIMINIŃ ETNOMÁDENIY FENOMENI

Seytmuratova Aygúl
Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filialı Folklor hám etnografiya tálim baġdarı 2-kurs studenti

Qaraqalpaq xalıqnıń turmıs-saltında bala tárbiyası hám onıń salamatlıǵına baylanıslı dástúrler júdá kóp. Solar ishinde eń birinshi hám eń áhmiyetlisi — balanı qırqınan shıǵarıw. Bul dástúr náreste dúnyaǵa kelgennen keyin 40 kún ótkende ótkeriledi. Qaraqalpaq xalıq perzentli bolıwdı «úyge baxttıń kirip keliwi» dep biledi. Náreste dúnyaǵa kelgen kúni baslanǵan quwanıshlı kúnlerdiń eń shıńı — qırqınan shıǵarıw máresimi. Bul dástúr tek qana kishkene balanı juwındırıw emes, bálki babalarımızdan kiyatırǵan úlken tárbiyalıq, medicina-gigiyenalıq hám sociallıq áhmiyetke iye bolǵan tártipleri esaplanadı [1. 76–134].

Insannıń ómiriniń dáslepki basqıshları hár bir xalıqtıń mádeniy yadında bólek simvollıq mazmun kásip etedi. Ásirese, jańa tuwǵan náreste menen baylanıslı dástúrler xalıqtıń dúnyaǵa kóz qarası, kosmosogonik túsinikler hám ruwxıy qádiriyatların ózinde jámlegen quramalı etnomádeniy sistema esaplanadı. Qaraqalpaq xalıqnıń náresteni “qırqınan shıǵarıw” máresimi áne sonday áyyemgi dástúrlerden biri bolıp, ol tekǵana gigienalıq yamasa shańaraqqa tiyisli ilaj, bálki insannıń biologiyalıq janzattan social hám ruwxıy barlıq nársege aylanıw procesin simvollıq tárepten ańlatıwshı zárúrli dástúr bolıp tabıladı. Bul dástúr arqalı náreste jańa turmıs basqıshına ótedi.

Qaraqalpaq xalıqnıń jańa tuwǵan náresteni qırqınan shıǵarıw máresim xalıqtıń ásirler dawamında qáliplesken etnomádeniy tájiriybesi, turmıs filosofiyası hám insan bar ekenligine bolǵan tereń húrmetiniń jaqtı ańlatpası. Bul dástúr ápiwayı xojalıq ádet emes, bálki insannıń ómiriniń eń názik, eń zárúrli hám eń juwapkerli basqıshın simvollıq tárepten bekkemlewshi quramalı social-ruwxıy hádiyse esaplanadı. Qaraqalpaq xalqınıń dástúriy dúnyaǵa kóz qarasında jańa tuwǵan náreste tek biologiyalıq janzat emes, bálki tábiyat hám jámiyet penen ajıralmas baylanısqan múqaddes janzat retinde qaralǵan. Usınıń sebepinen onıń turmıstıń dáslepki qırıq kúni bólek ıqtıyatlılıq, miyir hám qorǵaw menen ótken.

Qaraqalpaq xalıqnıń áyyemgi kóz aldına kóre, insannıń ómiriniń dáslepki qırıq kúni eń názik, eń qorǵawǵa mútáj dáwir esaplanǵan. Bul dáwir biologiyalıq tárepten de, metafizik tárepten de ótiw dáwiri esaplanadı. Usınıń sebepinen “qırqınan shıǵarıw” máresim tek ǵana waqıt ótiwin belgilew emes, bálki nárestenıń turmıslıq turaqlılıqqa eriskenin, onıń fizikalıq hám psixik tárepten bekkemlengenin simvollıq tárzde tán alıw máresim esaplanadı [2. 112–156.].

Xalıqmızda «Balanıń qırqı shıqqansha — janı hám táni qáliplesedi» degen túsinik bar. Medicinalıq kóz-qarasınan da bul dáwir — nárestenıń hám ananıń sırtqı ortalıqqa iykemlesiw dáwiri (shille dáwiri) esaplanadı. Shilleli balanı kózden-tilden, hár túrli keselliklerden saqlaw ushın «qırıq kún» ayrıqsha kútim etiledi.

Eń qızıqlı process — balanı shomıldıratuǵın suwdı tayarlaw. Suw quyılǵan ıdısqa altın (júzik, sırǵa) yamasa gúmis buyımlar taslanadı. Bul balanıń keleshegi jarqın, bay hám pák bolsın degen niyet. Idısqa qırıq márte qasıq penen suw quyıladı. Bunda kóbinese kóp jasqa shıqqan, úlgili, kóp perzentli analar qatnasadı. Hár bir qasıq suw quyılǵanda «Ómir jasıń uzaq bolsın», «Túbiń bir, shaqań mıń bolsın», «Xalıqqa xızmet etetuǵın azamat bol» degen jaqsı tilekler aytıladı.

Hár bir qasıq quyılǵanda mınanday niyetler qosıla ketiwi tiyis:

1-qasıq: «Bismillah» dep basladıq.

10-qasıq: On barmaǵınan óner tamsın.

20-qasıq: Jigirma jasında jurt tanıǵan azamat bol.

30-qasıq: Otız tisiń saw bolsın, sóziń emli bolsın.

40-qasıq: Qırıq jıllıq qıyınshılıqtı kórme, baxtıń taspasın! [3. 88–143.].

Qırqınan shıqqan balanıń «shille shashı» hám «shille tırnaǵı» alınadı. Bul — balanıń pákleniwiniń belgisi. Alınǵan shashtı yamasa tırnaqtı ayaq astına taslamay, taza jerge kómip qoyıw yamasa saqlaw dástúri de bar.

Náreste tuwılǵan kúnnen baslap «shille» dep atalıwshı qırq kúnlik dáwir baslanadı. Filosofiyalıq kóz-qaras penen qaraǵanda, bul dáwir — jan hám tánniń jer betindegi ortalıqqa iykemlesiw, jaratılıstıń jańa bir belgisi retinde pákleniw basqıshıdır. Shille —náreste ushın tek kiyimniń tazalıǵı emes, bálki ruwxıylıqtıń dáslepki basqıshı esaplanadı. Jaqtı dúnyanıń hár túrli zıyan, nájáslerin dáslepki kúnlerde nárestenıń pákligine jaqınlatpaw, onı «iyt kóylek» ishinde jasırıp asıraw — xalqımızdıń túp-tamırı tereń gigiyenalıq filosofiyasınan derek beredi.

Qırqınan shıǵarıwdan aldın úydiń ishin hám balanıń besigin adıraspan menen alaslaw — bul dástúrdiń ajıralmas bólegi. Adıraspan tútini tek qana «jin-perilerdi» qashırıp qoymay, bálki hawanı mikroblardan tazalaytuǵın tábiyiy dezinfeksiya esaplanadı. Shilleli úyge kirgen adam dáslep otqa qolın jılıtıp, soń balaǵa jaqınlasıwı kerek. Bul sırtqı «suwıq» energiyanı hám kesellikti neytralizaciyalaw usılı [4. 52–101.].

Qırq — qaraqalpaq san-estetikası hám mifologiyasında kámillik belgisi. «Qırq kún» — qáliplesiw, «Qırıq qız» — qaharmanlıq tımsalı. Suw quyılǵan ıdıstıń tubinde jıltıraǵan altın-gúmisler hám oǵan sanap quyılǵan qırq qasıq suw — bul tek dene tazalıǵı emes, bálki nárestenıń táǵdirin jaqsı niyetler menen «juwıp-tazalaw», keleshek jolına jarqın nur tógıw bolıp tabıladı. Bundaǵı metall elementleriniń gúmis ionlarınıń suwdı páklewshi fizikalıq xarakteri menen,

analardıń «Tilegiń kelsin» degen sóziniń metafizikalıq kúshi óz-ara uyqaslıqta (sintezde) júzege shıǵadı.

Qırqınan shıǵarıw — bul sociologiyalıq tilde aytqanda, dáslepki «inicizatsiya» bir basqıshtan ekinshisine ótiw. Bala birinshi ret úy bosaǵasınan sırtqa shıǵadı dúnya menen jámiyet penen tanısa baslaydı. Bul máresim arqalı shańaraq nárestениń «Men de bul dúnyanıń bir bólegimen» degen deklaraciyasın elge bildiredi.

Qaraqalpaq xalqınıń dástúriy kóz qarasında qırıq sanı múqaddes hám simvollıq san retinde qaralǵan. Bul san kóplegen máresimde, atap aytqanda, insannıń ómiriniń ótiw basqıshlarında zárúrli waqıt kriteriya retinde qollanılǵan. Qırq kún — bul nárestениń jańa ortalıqqa beyimlesiw, onıń organizmi sırtqı ortalıq sharayatına iykemlesip baratuǵın dáwir retinde túsinilgen. Bul dáwir dawamında ana hám bala bólek itibar hám qorǵaw astında bolǵan. Ana organizmde tuwıwdan keyingi tikleniw basqıshında bolǵanlıǵı sebepli, oǵan fizikalıq hám psixik kútim támiyinlengen. Usınıń menen birge, nárestениń immun sisteması ele tolıq qáliplespegenligi sebepli, onı artıqsha sırtqı tásirinlerden qorǵaw zárúrli dep esaplanǵan.

Ázel-ázelden qaraqalpaq hayalları nárestesi artıqsha shawqım, biygana názer hám qolaysız ortalıqtan saqlawǵa bólek itibar qaratqan. Nárestesi qırqınan shıǵarıw máresim ádetde shańaraqtıń jası ullı, tájiriybeli hám húrmetke iye hayalı tárepinen ámelge asırılǵan. Máresimniń tiykarı — nárestesi arnawlı tayarlanǵan suw menen shomıldırıw esaplanadı. Bul suw ápiwayı suw emes, bálki simvollıq mániske iye bolǵan suw esaplanadı.

Qırqınan shıǵarıw máresiminiń zárúrli elementlerinen biri — nárestениń shashı hám tırnaǵın birinshi ret alıw esaplanadı. Bul process da tereń mániske iye. Shash hám tırnaq insan organizmniń bir bólegi bolıp, olar arqalı insannıń biologiyalıq bar ekenligin ańlatıladı. Olardı alıw nárestениń jańa turmıs basqıshına ótkenin, onıń organizm bekkemlengenin ańlatadı. Alınǵan shash hám tırnaqlar ıqtıyatlılıq penen saqlanǵan yamasa jerge kómilgen. Bul arqalı nárestениń ómiri jer, tábiyat penen birigiw sezimi menen baylanısqan dep qaralǵan. Bul dástúr insan hám tábiyat arasındaǵı uyqaslıqtı ańlatiwshı áyyemgi túsiniklerdiń kórinisi esaplanadı.

Bul máresim tek biologiyalıq yamasa gigienalıq process emes, bálki social dástúr de esaplanadı. Bul dástúr arqalı náreste jámiyet aǵzası retinde tán alınadı. Aǵáyinler, qońsılar hám jaqınlar jıynalıp, nárestege iygilikli tilekler bildiredi. Bul process jámiyettiń jańa aǵzasın qabıllaw máresim retinde sáwlelenedi. Sol arqalı jámiyettiń úzliksizligi, áwladlar dawam etiw waqti hám mádeniy miyrastıń dawam etiw waqtı támiyinlenedi. Psixologiyalıq tárepten de bul dástúr zárúrli áhmiyetke iye. Ol ata-ana ushın ruwxıy jeńillik, quwanısh hám keleshekke isenimi esaplanadı. Dástúr arqalı ata-ana óz perzentiniń turmısı bekkem basqıshqa ótkenin sezinedi.

Qaraqalpaq xalıqnıń qırqınan shıǵarıw máresim insannıń ómiriniń múqaddesligi haqqındaǵı filosofiyalıq kózqaraslardı sáwlelendiredi. Bul dástúr insannıń ómiri ápiwayı biologiyalıq hádiyse emes, bálki kosmoslıq hám ruwxıy process retinde qaralǵanın kórsetedi.Bul dástúr arqalı insannıń tábiyat, jámiyet

hám ruwxıy dúnya menen tıǵız baylanıslılıǵı ańlatıladı. Qırqınan shıǵarıw máresim — bul insannıń turmısqa kirisiw máresim, onıń ámelde barlıq tárepke qoyǵan dáslepki adımınıń tán alıwı bolıp tabıladı.Bul kúni náreste ushın «qırq nan» gúrtik yamasa kishkene shelpekler pisiriledi. Bul nanlardı kóbinese, balalarǵa úlestirip beredi. Bul nárestenıń nesiybesi mol bolsın degen máni bildiredi [2. 112–156.].

Qırqınan shıǵarıw — bul tek bir dástúr emes, bul nárestenıń úlken álemge, jámiyetke qosılıwınıń dáslepki qádemi. Bul kúni ananıń da kóńil-kúyi kóterilip, ózin ana retinde tolıq sezine baslaydı. Xalıqmızda náreste tuwılǵannan keyingi dáslepki qırq kún «shille dáwiri» dep ataladı. Bul dáwirde balanıń hám ananıń den-sawlıǵı júdá názik bolatuǵınlıǵı sebepli, olar sırtqı tásirlerden maksimal dárejede qorǵaladı. Ullı shille dáslepki 40 kún. Kishkene shille 20 kúnlik dáwirlerge bólinip te qaraladı. Ayırım jaǵdaylarda, bala júdá tez jetilisip, shaqqan bolsa, onı «jigirma kúnliginde» (kishi shille) shıǵarıp jiberetuǵın bolǵan. Bul «balanıń jolı tez ashılsın» degen niyet.

Qırq kún ishinde kiyilgen birinshi kóylekti «iyt kóylek» dep ataydı. Qırqınan shıqqan kúni bul kóylekti sheship, onıń ishine qant-sheker túyip, iyttiń moynına baylap jiberedi. Balalar iytti quwıp jetip, moynındaǵı mazalılardı aladı. Bul — «balanıń awırıwı, denesinde zıyanı bar bolsa iyt penen ketsin, ózi bolsa shiyrin-sheker ómir keshirsin» degen mánini bildiredi.

Qırqınan shıǵarıw — tek gigiyenalıq ilaj emes, bálki úlken tárbiyalıq mektep. Bul máresim arqalı náreste óziniń tuwısqanları, qońsıları hám jámiyet penen dáslepki ruwhıy baylanısın ornatadı. Jası úlkenlerdiń pátiyası, jaqsı niyetler hám xalıqmızdıń máni-mazmunǵa bay salt-dástúrleri balanıń keleshekte kámil insan bolıwına tiykar boladı. Dástúr boyınsha, qırq kún ishinde balaǵa biytanıs adamlar kiritilmeydi, náreste kóz-tilden qorǵaladı.

Búgingi kúnde de bul dástúr qaraqalpaq xalıqnıń milliy ózligin, tariyxıy esteligin hám ruwxıy qádiriyatların saqlap kiyatırǵan zárúrli mádeniy hádiyse esaplanadı. Zamanagóy turmıs sharayatında kóplegen dástúrler ózgerip atırǵan bolsa da, «Qırqınan shıǵarıw» máresim óziniń tiykarǵı mazmunın saqlap qalǵan. Bul bolsa bul máresimniń qanshelli tereń tamırlarǵa iye ekenin jáne onıń xalıq ómirindegi ornı kútá úlken ekenin kórsetedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Esbergenov X. E. Qaraqalpaq etnografiyası. — Nókis: Qaraqalpaqstan, 1995.
2. Баскаков Н.А. Каракалпаки: история, этнография и культура. — Москва: Наука, 1968.
3. Xojaniyazov T. K. Qaraqalpaq xalqınıń etnomádeniy tarıyxı. — Nókis: Bilim, 2014.
4. Jumanazarov A. J. Qaraqalpaq xalqınıń turmıs dástúrleri. — Tashkent: Fan, 2008.

MADANIYAT VA SAN’AT TA’LIMIDA YOSHLARNING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Toxirov Avazbek Otabek o’g'li
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri,O’zDSMI Nukus filiali Kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Tilepov Quatbay Nukusbaevich
O‘zDSMI Nukus filiali“Texnogen san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning madaniyat va san’atga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot oqimining keskin ortishi ularning nafaqat bilim olishiga, balki mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, yoshlar ongida tanqidiy ko‘z qarashni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash — bu ma’lumotni tahlil qilish, solishtirish, baholash va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Madaniyat va san’at sohasida bu ko‘nikma yoshlarning asar mazmunini chuqur anglashiga, yashirin g‘oyalarni kashf etishiga hamda mustaqil estetik qarashlarni shakllantirishiga xizmat qiladi. Yoshlarning estetik didini shakllantirish — bu ularning go‘zallikni anglash, baholash va undan zavq olish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Estetik did insonning ichki dunyosi, madaniy saviyasi va umumiy tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Estetik did, avvalo, go‘zallikni ko‘ra bilishdan boshlanadi. Bu nafaqat san’at asarlarida, balki kundalik hayotda — tabiatda, inson xulq-atvorida, kiyinish madaniyatida ham namoyon bo‘ladi. Yoshlar estetik did orqali atrof-muhitga ongli munosabat bildirishni, yaxshi va yomonni ajrata olishni o‘rganadilar. Yoshlarning estetik didini shakllantirishda bir necha muhim omillar mavjud. Eng avvalo, oila muhitining ta’siri katta. Ota-onaning madaniy saviyasi, san’atga munosabati, uyda yaratilgan estetik muhit bolaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, kitob o‘qish odati, musiqa tinglash yoki san’at asarlarini muhokama qilish yoshda didni shakllantiradi.Ta’lim muassasalari ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Maktab va oliy ta’limda adabiyot, musiqa, tasviriy san’at kabi fanlar orqali yoshlar go‘zallikni anglashga o‘rgatiladi. Dars jarayonida nafaqat nazariy bilim, balki amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy topshiriqlar va muhokamalar estetik tafakkurni rivojlantiradi.

San’at va madaniy muassasalar — teatrlar, muzeylar, ko‘rgazmalar ham yoshlarning didini boyitadi. Bunday joylarga tashrif buyurish yoshlarni turli san’at yo‘nalishlari bilan tanishtirib, ularning tasavvurini kengaytiradi. Bu esa mustaqil estetik baho berish ko‘nikmasini shakllantiradi. Zamonaviy texnologiyalar ham estetik didga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli madaniyatlar bilan tanishmoqda. Biroq bu jarayonda sifatli va foydali kontentni tanlay olish juda muhim. Aks holda, yuzaki va past saviyali axborot estetik didning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, yoshlarning o‘zlari ham faol bo‘lishi kerak. Rasm chizish, musiqa bilan shug‘ullanish, yozish yoki boshqa ijodiy faoliyatlar orqali ular nafaqat san’atni tushunadi, balki o‘z estetik qarashlarini ham rivojlantiradi. Umuman

olganda, estetik didni shakllantirish — bu uzluksiz jarayon. U oila, ta’lim, jamiyat va shaxsning o‘z harakati orqali rivojlanadi. Estetik didi shakllangan yoshlar esa hayotga ongli, did bilan yondashadigan, go‘zallikni qadrlaydigan va uni yaratishga intiladigan shaxs bo‘lib yetishadi. Ta’lim tizimi yoshlarning estetik didini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki aynan ta’lim jarayonida yoshlar nafaqat bilim oladi, balki dunyoqarashi, fikrlash uslubi va go‘zallikka bo‘lgan munosabati ham shakllanadi. Avvalo, ta’lim tizimi orqali yoshlar san’at va madaniyatning turli yo‘nalishlari bilan tanishadi. Adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, teatr kabi fanlar ularning estetik ongini rivojlantiradi. Bu fanlar yordamida o‘quvchilar go‘zallikni anglashni, asar mazmunini tushunishni va uni baholashni o‘rganadi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar ham katta ahamiyatga ega. Agar darslar faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolsa, estetik did yetarlicha rivojlanmaydi. Shu sababli interfaol usullar, ijodiy topshiriqlar, bahs-munozaralar va tahliliy mashg‘ulotlar muhimdir.

Masalan, badiiy asarni tahlil qilish, rasm yoki musiqa asari haqida fikr bildirish yoshlarning mustaqil estetik qarashlarini shakllantiradi.Shuningdek, ta’lim tizimi yoshlarni madaniy muhitga olib kiradi. Maktab va oliy ta’lim muassasalari tomonidan teatr, muzey, ko‘rgazma va konsertlarga tashriflar tashkil etilishi yoshlarning estetik tajribasini boyitadi. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirishga yordam beradi.O‘qituvchilarning o‘rni ham juda muhim. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki estetik tarbiya beruvchi shaxs sifatida namuna bo‘lishi kerak. O‘qituvchining nutqi, muomala madaniyati, san’atga bo‘lgan qiziqishi bevosita o‘quvchilarga ta’sir qiladi.Bundan tashqari, ta’lim tizimi yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. Bu esa ularning san’at asarlarini chuqurroq anglashiga, yuzaki emas, balki mazmunli baho berishiga imkon yaratadi. Natijada yoshlar har qanday madaniy mahsulotga ongli va tanqidiy yondasha boshlaydi. Bugungi kunda yoshlarning estetik didini shakllantirishda kuchli va ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida yoshlar dunyoning turli madaniyatlari, san’at yo‘nalishlari va ijod namunalari bilan tez va oson tanishish imkoniga ega bo‘ldilar.Avvalo, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning estetik dunyoqarashini kengaytiradi. Turli mamlakatlarning san’ati, dizayni, musiqasi va madaniyati bilan tanishish ularning didini boyitadi. Masalan, yoshlar onlayn galereyalar, virtual muzeylar, videoplatformalar orqali mashhur san’at asarlarini ko‘rishlari va tahlil qilishlari mumkin. Bu esa ularning tasavvurini kengaytirib, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar ijod qilish imkoniyatlarini ham oshirdi. Grafik dizayn dasturlari, musiqa yaratish ilovalari, video montaj vositalari orqali yoshlar o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishlari mumkin. Bu esa nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki uni amaliyotda qo‘llashga ham yordam beradi.

Biroq texnologiyalarning salbiy ta’sirini ham inkor etib bo‘lmaydi. Internetda sifatsiz, mazmunsiz yoki past saviyali kontentning ko‘pligi yoshlarning estetik qarashlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Agar yoshlar bunday axborotni tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilsalar, ularning didi yuzaki shakllanib qolishi ehtimoli bor.Shuning uchun zamonaviy sharoitda media savodxonlik juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar axborotni tanlash, uni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga

ega bo‘lishlari zarur. Bu ularga sifatli va mazmunli kontentni ajrata olishda yordam beradi.Yana bir muhim jihat — vaqtni to‘g‘ri taqsimlash. Texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish real hayotdagi san’at va madaniyatdan uzoqlashishga olib kelishi mumkin. Shu bois virtual va real madaniy tajribani muvozanatda olib borish muhimdir.

Yoshlarning estetik didini shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u oila, ta’lim tizimi, madaniy muhit hamda zamonaviy texnologiyalar ta’siri ostida rivojlanadi. Estetik did nafaqat go‘zallikni anglash va baholash qobiliyatini, balki shaxsning umumiy madaniy saviyasi, tafakkuri va ijtimoiy faolligini ham belgilaydi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimi ushbu jarayonda markaziy o‘rin egallab, yoshlarning estetik ongini shakllantirish, ularni san’at va madaniyatga ongli munosabatda bo‘lishga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ma’lum xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Bu esa yoshlarning media savodxonligini oshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.Shu nuqtai nazardan, yoshlarning estetik didini rivojlantirishda tizimli, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv talab etiladi. Bunda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajriba, ijodiy faoliyat va mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Natijada, estetik didi yuksak, madaniy jihatdan yetuk va ijodkor yosh avlodni shakllantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*
2. Toffler A. *Uchinchi to‘lqin*
3. Dewey J. *Democracy and Education*
4. O‘zbekiston Respublikasi ta’limga oid qonunlari va qarorlari

SAN’AT VA MADANIYAT TA’LIMIDA TANQIDIY FIKRLASHNING O’RNI: METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Toxirov Avazbek Otabek o’g'li
